

**I. R. Toymuhamedov**

# **B a n k   i s h i**

Ўzbekiston Respublikasi Oliy va Ўrta maxsus ta'lim vazirligi  
tomonidan Ўquv qўllanma sifatida tavsiya etilgan

**TOSHKENT - 2010**

I. R. Toymuhamedov "Bank ishi". Toshkent, TDIU nashriyoti, 2010 yil, 207-b.

Mazkur ўquv qўllanmada bank mohiyati, bank tizimlari, ularning bajaradigan vazifalari, zamonaviy bank operatsiyalari hamda ularni boshqarish yўllari aks ettirilgan.

Ushbu ўquv qўllanma iqtisodiy ta'lim yўnalishidagi oliy ўquv yurtlari, kasb-hunar kollejlari talabalari va bank-moliya hodimlari uchun mўljallangan.

Taqrizchilar:

i.f.d. prof. O.Yu. Rashidov

i.f.n. prof. F. Sh. Shamsuddinov

И. Р. Тоймухамедов. Банковское дело. Учебное пособие.- Ташкент, изд. ТГЭУ, 2010. – 207с.

В этой учебной пособии рассмотрены сущность банков и банковских систем, выполняемые ими функции, современные банковские операции, а также управления ими.

Учебное пособие предназначено для студентов экономических ВУЗов, профессионально-технических колледжей и для специалистов банковской системы.

Рецензенты:

д.э.н., проф. О. Ю.Рашидов

к.э.н., проф. Ф. Ш. Шамсуддинов

I. R. Toymuhamedov. Banking. Education guidance. - Tashkent, pub. TSEU, 2010.- 207 p.

This book examines bank and their activities, banking systems, functions of banks, modern bank operations and methods of their management.

The text-book provides good guidance to students of economic universities, colleges and specialists in the sphere of banking systems.

Reviewers:

O. Y. Rashidov, doctor of economics, professor

F. Sh. Shamsuddinov doctor of economics, professor

©- Ташкентский государственный  
экономический университет, 2010

## MUNDARIJA

KIRISH.....	9
1-BOB. BOZOR IQTISODIYOTI TASHKIL TOPISHI VA RIVOJLANTIRILISHI SHAROITIDA KORXONALARNING OBOROT KAPITALLARI VA BUNDA BANK KREDITINIG AHAMIYATI.....	12
1.1. Turli mulk shaklidagi korxonalar joriy mablag`larining aylanish jarayoni.....	12
1.2. Oborot kapital istiqbolini belgilash.....	13
1.3. Tijorat banklari iqtisodiyot bilan aloqasi muammolari.....	20
1.4. Iqtisodiyotni rivojlanishida nobank moliya-kredit tizimlarining o`rni.....	28
II-BOB. BANK TIZIMI VA BANK TURLARI.....	30
2.1. Bank sistemasi. Bank turlari ularning funktsional yo`nalishi bo`yicha klassifikatsiyasi.....	30
2.2. Davlatni pul-kredit siyosati va banklarni uni amalga oshirishdagi roli.....	32
2.3. Markaziy bankning tijorat banklari faoliyatini tartibga solishdagi o`rni.....	35
2.4. Bank xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish muammolari.....	38
III-BOB. O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANKLARIDA RAQAMLARNI (HISOB VARAGLARINI) OCHISH, YOPISH VA QAYTA XUJJATLASHTIRISH TARTIBI.....	44
3.1. Bank raqami tushunchasi, ularning turlari.....	44
3.2. Bank raqamlarini ochish tartibi.....	45
3.3. Tijorat banklarini mijozlar bilan shartnoma munosabatlarini rivojlantirish.....	47
3.4. Hisob-kitoblarning asosiy va iqtisodiy mazmuni.....	48
3.5. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning taxlili.....	49
3.6. Tijorat banklari hisob-kitob operatsiyalari va ularning rivojlanish istiqbollari.....	62
IV-BOB. BANK RESURLARINI TASHKIL QILISH, BANKLARNING PASSIV OPERATSIYALARI, BANKLARNING KREDIT POTENTIALI.....	72
4.1. Bank resurslarini shakllantirish va foydalanish tartibi.....	72
4.2. Bank kredit potentsiali manbalarining tuzilishi va ularning tavsifi.....	74
4.3. Tijorat bankining o`z kapitali va uni baholash usullari.....	76
4.4. O`zbekiston Respublikasining tijorat banklarining mablag` ta`minoti.....	77
4.5. Banklarning depozit operatsiyalari.....	80
4.6. Banklarning nodepozit mablag`lari manbalari.....	83
4.7. Depozit sertifikatlari bozori va uni O`zbekistonda rivojlanish istiqbollari.....	86
V-BOB. TIJORAT BANKLARNI KREDIT OPERATSIYALARI, KREDIT PORTFELI, UNI BOSHQARISH VA BOXOLASH.....	90
5.1. Zamonaviy kreditlashtirish tizimining asosiy tartibi va kredit turlari.....	90
5.2. Bank kredit siyosati va uni baholash.....	94
5.3. Kreditlashtirishni hujjatlashtirish va rasmiylashtirish, kredit shartnomasi shartlarini ko`rib chikish va tuzish.....	96

5.4. O`zbekiston tijorat banklarida qisqa va uzoq muddatli moliyalashtirish instrumentlarini taxlili .....	102
5.5. Banklarni kredit portfeli diversifikatsiyasi muammolari.....	105
<b>VI-BOB. MAVSUMIY XARAKTERGA EGA BO`LGAN TURLI MULKKA ASOSSLANGAN TARMOQLARNI KREDITLASH.....</b>	<b>110</b>
6.1. Mavsumiy xarakterga ega ishlab chiqarish tarmoqlari kapitalining aylanish xususiyatlar.....	110
6.2. Qishlok xo`jaligiga kredit berish tartibi.....	112
6.3. O`zbekistonda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari va bunda banklarning o`rni.....	118
6.4. Kreditni ta'minlash va qaytarish turlari.....	119
<b>VII-BOB. MOLIYAVIY BOZOR, BANKLARINING QIMMATBAHO QOG`OZLAR BO`YICHA OPERATSIYALARI.....</b>	<b>122</b>
7.1. Moliyaviy bozortushunchasi, uning tashkiliy tuzilishi va vazifalari.....	122
7.2. Banklarni investitsion faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirish....	124
7.3. Banklarni investitsion faoliyati va ularni moliyalashtirish manbalari.....	128
7.4. Bankning qimmatbaho qog`ozlar bilan passiv operatsiyasi.....	130
7.5. Bankning qimmatbaho qog`ozlar bilan aktiv operatsiyasi.....	132
7.6. Banklarning investitsion siyosatini takomillashtirish yo`ralishlari.....	134
<b>VIII-BOB. TIJORAT BANKLARINING HALQARO-VALYUTA VA HISOB-KREDIT OPERATSIYALARI.....</b>	<b>140</b>
8.1. Valyuta munosabatlari tizimida banklarning o`rni.....	140
8.2. O`zbekiston Respublikasida valyuta bozori faoliyati va tartibga solish...	141
8.3. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari.....	142
8.4. Halqaro kreditlash tizimi.....	145
8.5. Halqaro hisob-kitoblar va ularni asosiy shakllari.....	149
8.6. Halqaro moliya bozorida banklar raqobatligini oshirish muammolari.....	155
<b>IX-BOB. BALANS DAN TASHQARI VA ISHONCHLI OPERATSIYALARI.....</b>	<b>159</b>
9.1. Trast operatsiyalari mohiyati va maqsadi.....	159
9.2. Trast operatsiyalari turlari va olib borish yo`llari .....	159
9.3. O`zbekiston Respublikasi moliya bozorida fyuchers shartnomalarini takomillashtirish.....	161
9.4. O`zbekiston Respublikasining hozirgi sharoitida tijorat banklari ishonchligini baholash va taxlili.....	163
9.5. Tijorat banklarini lizing operatsiyalari.....	166
<b>X- BOB.BANK TAVAKKALCHILIGI VA UNI BOSHQARISH .....</b>	<b>170</b>
10.1. Bank tavakkalchiligi klassifikatsiyasi va tavsifi.....	170
10.2. Kredit riski va unga ta'sir qiluvchi omillar.....	172
10.3. Bank balansi taxlili va uni bank risklarini pasaytirishga ta'siri.....	179
10.4. O`zbekiston Respublikasi tijorat banklarida risklarni boshqarish muammolari va istiqbollari.....	181

10.5. Valyuta risklari va ularni xedjingsh.....	183
XI-BOB. BANK LIKVIDLIGI VA UNI TA'MINLASH OMILLARI.....	185
11.1. Bank balansi likvidligi va to`lov qobiliyati tushunchalari.....	185
11.2. Tijorat banki likvidligini boshqarish taxlili.....	186
11.3. Chet el mamlakatlari tijorat banklari to`lov qobiliyati va likvidligini tartibga solish tajribasi.....	190
11.4. O`zbekiston Respublikasi tijorat banklarida bank to`lov qobiliyatini tartibga solish muammolari.....	194
11.5. O`zbekiston Respublikasining hozirgi sharoitida tieorat banklari ishonchliligini baholash va taxlili.....	196
XII-BOB. BANK FOYDASI, BANK RENTABELLIGI.....	200
12.1. Bank foydasi va manbalari.....	200
12.2. Tijorat banklari xarajatlari taxlili.....	201
12.3. Bank foydasini boshqarish xususiyatlari.....	201
ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	204
IZOHLI LUG`AT.....	207

## CONTENTS

INTRODUCTION.....	9
CHAPTER 1. CURRENT CAPITAL FORMATION IN ENTERPRISES DURING TRANSITION TO MARKET ECONOMY AND THE ROLE OF BANK FINANCING. ....	12
1.1 Current capital turnover of different ownership enterprises. ....	12
1.2 Current capital forecasting.....	13
1.3 Relationship problems between banks and the economy. ....	20
1.4 The role of non-bank financial systems .....	28
CHAPTER 2. BANKING SYSTEM AND BANK CLASSIFICATION.....	30
2.1. Banking system. Types of banks, their functional classification.....	30
2.2. Government monetary policy and the role of banks in its enforcement.....	32
2.3. The role of the Central bank in organizing commercial banks' activity.....	35
2.4. Issues of developing competition in bank services market.....	38
CHAPTER 3. OPENING, CLOSING AND RE-OPENING OF CURRENT ACCOUNTS IN THE BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. COMMERCIAL BANKS' SETTLEMENT OPERATIONS.....	44
3.1. Bank account and its types.....	44
3.2. Procedure for opening bank accounts.....	45
3.3. Development of bank-customer contract relations.....	47
3.4. The main economical meaning of bank settlements.. ....	48
3.5. Analysis of bank transfers. ....	49
3.6. Settlement operations of banks and ways of their development.....	62
CHAPTER 4. ORGANIZING BANK RESOURCES, BANKS' LIABILITY OPERATIONS, BANKS' LOAN POTENTIAL.....	72
4.1. Resource funding and utilizing in banks.....	72
4.2. Sources of establishing bank loan potential, their characteristics.....	74
4.3. Bank's own capital and the ways of its assessment.....	76
4.4. Funding bank resources in Uzbekistan. ....	77
4.5. Deposit operations of banks. ....	80
4.6. Sources of non-deposit resources... ..	83
4.7. Bond and obligations market in Uzbekistan and the ways of its development. ....	86
CHAPTER 5. CREDIT OPERATIONS OF COMMERCIAL BANKS. LOAN PORTFOLIO, ITS MANAGEMENT AND ASSESSMENT.....	90
5.1. The structure of modern loan system. Types of loan.....	90
5.2. Bank's loan policy and its assessment.....	94
5.3. Loan documentation and processing. Drawing and reviewing loan agreement terms and conditions. ....	96
5.4. Analysis of short and long term financial instruments in Uzbekistan.....	102
5.5. Issues of bank loan portfolio diversification.....	105

CHAPTER 6. FINANCING SECTORS BASED ON DIFFERENT OWNERSHIP STRUCTURES WITH SEASONAL ACTIVITY. ....	110
6.1. Features of capital turnover in seasonal production sectors.....	110
6.2. Loan procedure in agricultural sector. ....	112
6.3. Small entrepreneurship development issues in Uzbekistan and the role of banks in it.....	118
6.4. Loan repayment types. ....	119
CHAPTER 7. FINANCIAL MARKET, ITS STRUCTURE AND FUNCTIONS. ....	122
7.1. Financial market, its structure and functions.....	122
7.2. Government regulation of banks' investment activity.....	124
7.3. Investment activity of banks and their ways of funding.....	128
7.4. Banks' passive operations with stocks and shares.....	130
7.5. Banks' active operations with stocks and shares.....	132
7.6. Ways of improving banks' investment policy.....	134
CHAPTER 8. COMMERCIAL BANKS' INTERNATIONAL CURRENCY, SETTLEMENT AND LOAN OPERATIONS. ....	140
8.1. The role of banks in currency operations.....	140
8.2. Currency market in Uzbekistan and its regulation.....	141
8.3. Currency operations of commercial banks.....	142
8.4. International loan system.....	145
8.5. International settlement operations, their main types .....	149
8.6. Issues of increasing bank competitiveness in international financial market.....	155
CHAPTER 9. BANKS' OUT-OF-BALANCE AND TRUST OPERATIONS. ....	159
9.1. Trust operations, definition and aim.....	159
9.2. Types and ways of trust operations.....	159
9.3. Development of futures market in Uzbekistan.....	161
9.4. Analysis and assessment of today's banking system reliability in Uzbekistan.....	163
9.5. Leasing operations of commercial banks.....	166
CHAPTER 10. BANK RISK AND ITS MANAGEMENT. ....	170
10.1. Bank risk classification and characteristics .....	170
10.2. Loan risk and factors influencing it. ....	172
10.3. Balance statement analysis and its influence on decreasing bank risks..	179
10.4. Risk management issues in commercial banks of the Republic of Uzbekistan.....	181
10.5. Currency risks and their hedging.....	183
CHAPTER 11. BANK LIQUIDITY AND ITS ENSURING FACTORS.....	185
11.1. Definition of bank liquidity and credibility.....	185
11.2. Analysis of commercial bank liquidity management.....	186

11.3. Commercial bank liquidity regulation in foreign countries.....	190
11.4. Issues of commercial bank liquidity regulation in Uzbekistan.....	194
11.5. Bank reliability analysis in today's commercial banks in Uzbekistan....	196
CHAPTER 12. BANK PROFIT AND EFFICIENCY. ....	200
12.1. Bank profit and its sources.....	200
12.2. Analysis of commercial bank expenses.....	201
12.3. Features of profit management in banks.....	201
LIST OF BIBLIOGRAPHY.....	204
GLOSSARY.....	207



## KIRISH

Bozor munosabatlariga o'tish iqtisodiyotda emas, balki bank faoliyati sohasida ham jiddiy o'zgarishlarni talab qiladi. Endilikda banklar mutlak boshqacha printsiplar asosida to'zilib, ish olib bormokdalar. Mulkchilik shaklidan kat'iy nazar korxonalar yoki boshqa biror xo'jalik sub'ekti endilikda asoslangan investitsiya va xo'jalik yuritish rejalarisiz, biznes rejasiz kredit unga tenglashtirilgan resurslarni ilgariidek ololmaydilar. Bundan tashqari kredit ma'lumki kaytib berish sharti bilan emas, balki tegishli foiz stavkalari hisobga olingan holda beriladi, bu esa mablag' oluvchilar zimmasiga avvalo o'z niyatlari bankka bu kreditlarni qaytarish muddatlariga rioya kilaolishlari hakida jiddiy uylashlari kerak.

Xorijiy mamlakatlarda ko'p yillardan beri nihoyatta katta ahamiyat berib kelinayotgan bu jarayon bizning Respublikamizda xam rivojlanib bormokda. Bu sohada tezrok muvaffakiyat kozonish uchun esa shu davrga kadar to'plangan hozirgi paytda boshkaruvga doir mujassamlashgan bilimlardan foydalanish zarur. Bularni takomillashtirish, amaliyotga kiritish, foydalanish bugungi kunning dolzarb mavzularidan hisoblanadi. ?unki juda ko'p xollarda bank xodimlari bu mexanizmni tugri.

Ammo davlatimiz takror-takror aytganidek, barcha muammolarni, ayniksa pul va moddiy resurslarni safarbar etish bilan bogliq muammolarni faqat farmonlar va qarorlar bilangina xal etish kiyin. Bunda banklar va ayniksa Markaziy bank muhim rol uynaydi, Markaziy bank esa davlat madadidan foydalanib, to'lov tizimini bozor katnashchilari bilan hisob-kitob qilish uchun zarur bo'lgan juda katta ta'minlash imkoniyatiga ega.

Bank tizimida yuzaga kelayotgan xolatlar, bugungi kunda bank ishini yanada rivojlantirishni talab kilmokda. Banklar sonini kupayishi bu rakobatning kuchayishidir. Bu esa bank boshkaruvida yangi yangi vazifalar degani, shuning uchun ilmiy ishning maksadi bank tizimidagi menejmentni rivojlantirish yullarini ishlab chikishdan iboratdir.

Bank ishi o'z ichiga boshkaruv jarayonini amalga oshirib, moliyaviy, moddiy, tashkiliy, hukukiy, ma'naviy psixologik shart-sharoitlarni yaratish, boshkaruv vazifalarini bevosita ijro etilishi, bilan ilmiy tadkikot ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

Dunyoning barcha mamlakatlarida aholining ko'pchilik qismi, davlat va davlat tashkilotlari, korporativ mijozlar Tijorat banklari xizmatlaridan foydalanadilar. Iqtisodiy tamoyil va normativ qonunchilikka amal qilib, faoliyat ko'rsatayotgan bank sistemasi iqtisodiyotni rivojlantirishga va milliy valyutani barqarorlashuviga olib keladi.

Bank tushunchasi va uni nazariy tomonlarini o'rganish bo'yicha bir necha asrlardan beri iqtisodchi olimlar faoliyat olib boradilar. Masalan, Rossiya Moliya Akademiyasi professori O.I.Lavrushinning fikriga ko'ra banklar-iqtisodiyotning o'ziga xos "kon tomiri" bo'lib, ularsiz zamonaviy xo'jalik

mexanizmini tasavvur qilish mumkin emas. Bu tizimni turli xo'jalik sub'ektlari, davlat korxonalarini, chet el investorlari, pul resurslari muomalada bo'ladi.<sup>1</sup>

Devid Polfremen va Filip Fordlar o'zlarining «Osnovo` bankovskogo dela» o'quv darsligida: «Bank- bu alohida olingan guruhlardan ular tomonidan talab qilib qadar yoki bildirishnoma bergunlariga qadar bo'sh pul olib boshqa guruhodamlarga ma'lum bir muddatga berish bilan shugullanuvchi moliyaviy vositachilardir» deb ta'kidlaydilar.<sup>2</sup> Bank sohasi bilan shugullanuvchi O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Sh.Z.Abdullaeva o'zining «Pul, kredit va banklar» kitobida «Bank deb pul mablag'larini yig'uvchi, salab beruvchi, kredit-hisob va boshqa har xil vositachilik operatsiyalarini bajaruvchi muassasalarga aytiladi» deb ta'kidlaydi.

O'zbekistonda bank tizimini mustaqil davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Bank tizimini institutsional etishda «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki» hamda «Banklar va bank faoliyati turisida» gi qonunining kilinishi xal qiluvchi rol o'ynadi<sup>3</sup>. Ikki darajali bank tizimining yaratilish iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarga erishish va iqtisodiy islohatini mustaqil, o'ziga xos modelini xayotga tatbik etish uchun moliyaviy negizni barpo etdi.

Albatta, bank boshqaruvi samaradorligi va iqtisodiy tamoyillarga amal qilish qancha yuqori bo'lsa, u shunchalik ko'p foyda ko'radi va natijada barqaror moliyaviy institutga aylanadi. Shuning uchun boshqaruv samaradorligini oshirish har qanday ijtimoiy rivojlanish darajasida har bir davlatda muxim vazifa hisoblanadi. Moliyaviy institut sifatida bank faoliyati likvidlilik holatini saqlab, risklarni kamaytirib qo'yilma egalari va aksionerlarning huquqlarini saqlagan holda yuqori daromad olishga bog'liq. Har bir davlat o'z xududidagi banklar barqarorligiga alohida e'tibor qaratadi. Bank tizimini rivojlantirish muammolari ko'tarilib uni xal etish, rivojlantirish masalalarini o'rganish, taxlil kilish, uning harakat mexanizmidagi kamchiliklarini anilash va uning bartaraf etish yo'llari taklif kilish, konkrent holda bank sohasidagi yangiliklarini ifodalash mumkin:

- bank boshkaruvida iqtisodiy bank operatsiyasini turlari buyicha.
- bank menejmenti va marketingini yaxshi yo'lga ko'yib yangi hizmat turlarini joriy etish, bazida o'zbek halkining tarixiy an'alarini o'isobga olish.
- omonatlarni yangi turlarini yaratish (haj safari, o'kitish uchun, keyinchalik konfertatsiya kilinadigan).

Amalga oshirilgan ishlar natijasida vujudga kelgan xulosalar va tavsiyalar y'qyv q'yllanmasida barcha mavzular bo'yicha qisqacha holda keltirilgan.

---

<sup>1</sup>Lavrushin O.I. Bankovskoe delo. M.: F i S. 2003g. str.7

<sup>2</sup>Osnovi bankovskogo delo. D.Polfremen., F.Ford. M.,Infra-M. 1996, s.100

<sup>3</sup>O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish me'yoriy xujjatlari to'plami.T.: 2003.

# 1-BOB. BOZOR IQTISODIYOTI TASHKIL TOPISHI VA RIVOJLANTIRILISHI SHAROITIDA KORXONALARNING OBOROT KAPITALLARI VA BUNDA BANK KREDITINIG AHAMIYATI.

## 1.1. Turli mulk shaklidagi korxonalar joriy mablag`larining aylanish jarayoni

Ko`p ukladli iqtisodiyot sharoitida xo`jalik korxonalari moliyaviy mablag`larining manbalarini shakllantirish, unda bank kreditlarining o`rni, mexanizmi va samaradorligini bilish muhim ahamiyatga ega.

Aylanma mablag`lar o`zida ishlab chiqarish jarayonidagi mehnat predmetlari va moddiy boyliklarning puldagi ko`rinishini ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, aylanma mablag`lar bu ishlab chiqarish aylanma fondlari va muomala fondlariga yo`naltirilgan pul mablag`laridir. Ular korxonalarining joriy faoliyati uzluksizligini ta'minlovchi muhim resurs hisoblanadi.<sup>4</sup> Moddiy xususiyatiga qarab, u o`z tarkibiga xom-ashyo, yoqilg`i, korxonada omboridagi tayyor mahsulotlar, pul mablag`lari va boshqalarni o`z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish aylanma fondlari ikki qismga bo`linadi. Birinchisiga hali ishlab chiqarish jarayonida qatnashmagan va omborda yotgan mahsulotlar kiradi. Bular em-xashak, urug`lik va o`tqazish materiallari, ehtiyot qismlar, mineral o`g`itlar, zaxarli ximikatlar, yoqilg`i-moylash materiallari va shu kabilar. Ikkinchi qism aylanma mablag`lari ishlab chiqarish jarayonida qatnashadi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish o`simchilikda kelasi yil hosili uchun amalga oshirilgan xarajatlar hisobiga olinib, aylanma mablag`lar hisobiga kiritilsa chorvachilikda ushbu xarajatlar keyingi davrga ham o`tkaziladi (masalan: inkubatsiya xarajatlari).

Kelgusi davr xarajatlari- bu yangi texnikani o`zlashtirish xarajatlari, yangi ishlab chiqarishni o`zlashtirish bo`yicha tayyorgarlik ishlari, erni tubdan yaxshilash xarajatlari bo`lib, u hozirda amalga oshirilib keyingi davrlarda tannarxga qo`shiladi.

Pul mablag`lari va qimmatli qog`ozlar - aylanma mablag`larning eng likvid shaklidir. Korxonaning pul mablag`lariga kassadagi, joriy hisob raqamidagi, valyuta hisob raqamidagi pul mablag`lari kiradi.

Debitorlik qarzlari – korxonada aylanma mablag`larining muhim qismi hisoblanadi. Debitorlik qarzlarni boshqarishning muhim vazifalaridan biri bo`lib, sotib oluvchining to`lovga qobillik riskini baholay bilishdir.

Muomala fondlari tayyor mahsulotni realizatsiya qilish va shu asosda daromad olishdir.

Aylanma mablag`larning tarkibi va tuzilmasi turli omillar ta'sirida vujudga keladi. Ular xo`jalikning ishlab chiqarish yo`nalishi, ixtisoslashuvi,

---

<sup>4</sup> Urazkulov I.A. Iqtisod magistri darajasini olish uchun dissertatsiya. BMA. T.:2004 y.18 bet

sharoitlari, iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, ishlab chiqarish hajmi, etishtirgan mahsuloti va ko`rsatilgan xizmatlarini realizatsiya qilish jarayonlari hamda shu kabi faoliyat natijalariga bog`liq bo`ladi.

Shuning uchun, aylanma mablag`lardan ratsional darajada foydalanish muammosiga ko`proq e'tibor qaratish lozim. Bu muammoni echish bozor iqtisodiyotiga xos quyidagi tamoyillarga amal qilish bilan bog`liq:

- ishlab chiqarish talabi darajasidagi aylanma mablag`larning optimal hajmini ta'minlash. Agarda biz aylanma mablag`lardan naqd pul mablag`larini ayirsak, tovar-moddiy zaxira ko`rinishdagi aylanma mablag`larni hosil qilamiz. Ushbu qismning ortishi pul mablag`larining chetlashishini bildiradi. Bu esa korxonada faoliyatida moliyaviy qiyinchiliklarga olib keladi. Tovarmoddiy boyliklar summasining kamayishi esa o`z navbatida pul mablag`larining kelib tushishini bildiradi;

- tovar-moddiy boyliklardan samarali va tejamkorlik bilan foydalanish;
- ishlab chiqarish zaxiralarini tashkil qilishdagi xarajatlarni minimallashtirish;
- ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini nazorat qilgan holda, aylanma mablag`larning ishlab chiqarish zaxiralarida minimal darajada ushlab turishni ta'minlash;
- aylanma mablag`larga bo`lgan talabni imkon darajasida o`zi moliyalashtirish.

Aylanma mablag`lari doiraviy aylanishning uchta bosqichini bosib o`tadi: sotib olish (ta'minot), ishlab chiqarish va realizatsiya qilish.

Mazkur hamma bosqichlarda aylanma mablag`lar shunday darajada joylashgan bo`lishi kerakki, ya'ni ular xo`jalik faoliyatining uzluksiz hamda muvofaqiyatli kechishini ta'minlashi lozim. Xo`jalik ishlab chiqaruvchilari tomonidan pul mablag`lari zaruriy xom-ashyo, yonilg`i, ehtiyot qismlar, mineral o`g`itlar va boshqa moddiy resurslar uchun sarflanadi. Ishlab chiqarish asosiy fondlar va ishchi kuchi yordamida amalga oshiriladi. Buning natijasida yangi mahsulot yaratiladi. Yaratilgan mahsulot sotishga yo`naltiriladi.

## 1.2. Oborot kapital istiqbolini belgilash

Ilmiy asoslangan qoidalarga muvofiq xo`jalik korxonalarining o`z aylanma mablag`lari minimal darajada bo`ladi.

Qarz mablag`lari asosan mavsumiy zaxira va xarajatlarni tashkil qilishga yo`naltiriladi. Ular aylanma fondlar etarlicha mavjud bo`lmaganligi sababli aylanma mablag`larning harakatini susayishi yoki to`xtab qolishi xavfining oldini oladi. Bunday sharoitda kredit kuchli iqtisodiy richag va xo`jalik kapitalini shakllantirishning muhim manbai hisoblanadi. Kredit korxonaning o`z resurslari bilan mahsulot ishlab chiqarish jarayonida doiraviy aylanishni amalga oshiradi.

1-jadval

Xo`jaligi korxonalari aylanma mablag`larining shakllanish manbaalari<sup>5</sup>

O`z manbaalari	Qarz mablag`lari	Qo`shimcha jalb qilingan
Ustav kapitali	Banklarning uzoq muddatli kreditlari	Kreditorlik qarzlari: pudratchi
Qo`shimcha kapital	Uzoq muddatli qarzlari	vata'minotchilar; ish haqini to`lash; sug`urta va boshqa kreditorlar bo`yicha.
Zaxira kapitali	Banklarning qisqa muddatli kreditlari	Iste'mol fondi.
Taqsimlanmagan foyda	Tijorat kreditlari	Kutilayotgan xarajat va to`lovlar bo`yicha zaxira.
Buyudjet malag`larining maqsadli mablag`lari	Soliq kreditlari	Shubhali qarzlari bo`yicha zaxira va boshqalar.

Shuning uchun, bozor munosabatlariga o`tish jarayonida qisqa muddatli kreditlashning usuli va shakllari ishlab chiqarish vositalarining doiraviy aylanishdagi xususiyatlari maksimal darajada hisobga olishnishi kerak: ishlab chiqarish davrida aylanishning syokinlashuvi; ichki aylanishning hissasi kattaligi ma'lum pul mablag`lari sarflanishini talab qiladigan katta hajmdagi mavsumiy ishlab chiqarish zaxiralarini tashkil qilish muhimligi; xarajatlarning syokin-asta va notyokis ravishda o`sib borishi, hamda ularning ishlab chiqarish sikli tugash vaqtida, ya'ni ishlab chiqargan mahsulot realizatsiya qilinib pul ko`rinishida qaytib kelishi; qishloq xo`jaligi mahsulotining tabiiy ofatlar va noqulay ob-havo sharoitlari ta'sirida kerakli darajada yig`ib olinmasligi va zarar keltirishi sug`urta fondlarini tashkil qilishni talab qiladi.

Korxonaning aylanma mablag`ga bo`lgan ehtiyoji o`zgarmas miqdordan iborat emas. Uning o`zgarish sabablari quyidagilardan iborat bo`lishi mumkin:

- faoliyat ko`lamining kengayishi, bunda asosiy kapitalga qo`yilmalar aylanma kapitalga qo`shimcha qo`yilmalar mos kelishi lozim; aylanma kapitalga qo`shimcha ehtiyojlarni moliyalashtirish manbalari investitsiya loyahasini moliyalashtirish rejasiga kiritiladi;

<sup>5</sup> Urazkulov I.A. Iqtisod magistri darajasini olish uchun dissertatsiya. BMA. T.:2004 y.18 bet

- sotish hajmlari ko`paygan yoki kamayganda korxonaga shunga nisbatan o`z munosabatini bildirishi lozim va bu aylanma mablag` miqdorining mos ravishda o`zgarishini talab qiladi;

- bir qator tarmoqlar uchun xos bo`lgan, aylanma kapitalga ehtiyojning mavsumiy tebranib turishi. Aylanma mablag`larga doimiy bo`lmagan ehtiyoj asosan tabiiy omillar, mavsumlar almashishi bilan bog`liq, ishlab chiqarish va tijorat faoliyatining bir qator turlari uchun xosdir. Mavsumiylik elementi tabiat bilan bilvosita bog`liq bo`lmagan ishlab chiqarishlarda ham, hatto tikuvchilik sanoatida ham kuzatiladi;

- ta`minot shartlarining mahsulot ishlab chiqarish va tarqatish omillari bilan o`zgarishi; masalan, aylanma mablag` ortishiga ehtiyoj etkazib berish (ortib jo`natish) chastotasi, ta`minotchilar (xaridorlar) tarkibi hamda soni, tovarlar, ishlar, xizmatlar yuzasidan hisob-kitoblar shakllarining o`zgarishi natijasida o`zgartirilishi mumkin;

- masalan, korxonaga uchun eng qulay paytda tovar zaxiralarining to`planishini ko`zda tutadigan, korxonaning bozor strategiyasi;

- debitorlik qarzlarning haddan tashqari chetlashishi;

- inflyatsiya oqibatida "yoyilib" ketayotgan aylanma mablag`larni to`ldirish.

Korxonani qo`shimcha aylanma mablag`larga ehtiyojini o`z manbalari hisobidan moliyalashtirilishi mumkin, biroq joriy moliyalashtirishning eng qulay va tez moslasha olishi qisqa muddatli kreditdan foydalanish hisobiga ta`minlanishi ham mumkin. Joriy moliyalashtirish manbalariga ehtiyojni aniqlash uchun aylanma mablag`lar ikki qismga bo`linadi:

- doimiy aylanma mablag`lar (aylanma aktivlarning muntazam qismi), unga ehtiyoj butun operatsion davr mobaynida nisbatan o`zgarmasdir;

- o`zgaruvchan aylanma kapital (joriy aktivlarning o`zgarib turuvchi qismi), unga ehtiyoj, u to`liq yo`q bo`lishiga qadar sezilarli bo`lmagan darajada o`zgaradi.

Bu bo`linish joriy aktivlarni moliyalashtirishning to`rtta taniqli modellari asoslariga qurilgan bo`lib, ular korxonaning joriy moliyalashtirishda qisqa muddatli majburiyatlarning roli nuqtai nazaridan o`zaro farq qiladi. Shuni ta`kidlash joizki, qisqa muddatli majburiyatlarning roli va korxonaga faoliyatining moliyalashtirish manbalari tarkibida ularning ulushi "konservativ => kompromiss => agressiv => barkamol modelu" yo`nalishida ortib boradi, bunda korxonaga likvidligining buzilish xarakteri teskari yo`nalishda o`zgaradi.

Bunda hatto aylanma mablag`larni boshqarishning konservativ modeli o`zgarib turuvchi aktivlar qismini qoplash uchun kreditdan majburiy foydalanishni ko`zda tutadi.

Kreditorlarning xarakteri, qisqa muddatli kreditlash turi va shaklidan qat`iy nazar, qisqa muddatli kreditning aylanma mablag`lar harakati bilan aloqasini ko`rish lozim.

Korxonalar aylanma kapitalini boshqarishda kreditning roli<sup>6</sup>.

Aylanma mablag`ni boshqarish modellari nomi	Qisqa muddatli kredit va kreditorlik qarzining roli	Likvidlik nuqtai nazaridan tavakkalchilik
Barkamol	Qisqa muddatli majburiyatlar hisobiga barcha joriy aktivlar, ya'ni ularning o`zgaruvchan qismi ham to`liq moliyalashtiriladi.	Agar bir paytning o`zida kreditorlar oldidagi barcha majburiyatlar so`ndirilishi lozim bo`lsa, eng katta tavakkalchilik ehtimoli mavjud.
Agressiv	Qisqa muddatli majburiyatlar hisobiga aylanma aktivlarning o`zgarib turuvchi qismi to`liq qoplanadi.	O`ta xatarli, chunki real aktivlar minimumi bilan shakllanish imkoni yo`q.
Kompramissli	Aylanma mablag`larning o`zgaruvchi qismi 50 foizga qisqa muddatli majburiyatlar hisobiga qoplanadi.	Eng kam xatar, biroq ortiqcha joriy mablag`lar mavjudligi va shuning hisobiga foydaning pasayishi ehtimoli mavjud.
Konservativ	O`zgaruvchi qismi uzoq muddatli passivlar hisobiga qisman qoplanadi.	Likvidlikni yo`qotish xatari yo`q, chunki qisqa muddatli kreditorlik qarzlari mavjud emas.

Turli tashqi moliyalashtirish manbalarini jalb etish va so`ndirish imkoniyatlari ishlab chiqarish-tijorat davrining davomiyligi, faoliyatning mavsumiyliigi hamda boshqa sharoitlar bilan bog`liq bo`lib, ular ushbu korxonalar aylanma mablag`larining aylanish xususiyatlariga bog`liqdir.

Shubhasiz, tijorat krediti tashkilotning joriy faoliyatini moliyalashtirish uchun juda muhim hisoblanadi, u bir tomondan ta'minotchilar va pudratchilar, ikkinchi tomondan xaridorlar hamda buyurtmachilar tomonidan taqdim etilishi mumkin. Tijorat krediti jarayonida aylanma mablag`lar bank tizimini chetlab qo`ygan holda bir korxonalar aylanmasidan boshqa korxonalar aylanmasiga qayta taqsimlanadi. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini boshqara borib, korxonalar bir-birini o`zaro kredit bilan ta'minlaydilar, hamda kreditning boshqa turlaridan

<sup>6</sup> Urazkulov I.A. Iqtisod magistri darajasini olish uchun dissertatsiya. BMA. T.:2004 y.18 bet

butunlay voz kechishlari mumkin.

Tijorat krediti korxonalarni o`zaro o`z-o`zidan yuzaga keladigan moliyalashtirishni tashkil etadi, u uyg`un holda kapital aylanish jarayoniga kiritilgan, tovar muomalasiga bo`ysundirilgan: tovarlarning muqobil harakati va ularning pul to`lovi vaqt bo`yicha to`xtovsiz amalga oshirilib, tijorat kreditini tashkil qiladi. Tijorat savdo kreditining shartlari korxonalar marketing strategiyasining bir qismi sanaladi, tijorat krediti o`zicha pul bozorining emas, balki tovar bozorining ko`rinishidir, shuning uchun uning bahosiga pul bozorining foiz stavkalari bevosita ta'sir ko`rsatadi. Kreditor korxonalar o`z aylanmasidan tovar yoki pul shakllarida mablag`larni safarbar etadi va shuning uchun muddati uzaytirilishi yoki bo`lib-bo`lib to`lanishi yuzasidan tovar narxiga ustamalar belgilash yo`li orqali o`z yo`qotishlarini qoplaydi. Tijorat krediti oldi-sotdi shartnomasi bilan ko`zda tutilgan qo`shimcha xizmat sifatida taqdim etiladi, u bank kreditga nisbatan afzaldir.

Tijorat kreditlash muddatlari hisob-kitob to`lov intizomi doirasida belgilangan bo`lib, amaldagi mavjud qonunchilikka muvofiq tovar, ishlar, xizmatlar uchun to`lovlarning eng oxirgi muddati uch oyni tashkil etadi. Debitor tomonidan to`lov muddati kechiktirilganda majburiy kreditlash birgina O`zbekiston davlati muammosi emas. Jumladan, Buyuk Britaniyada 80-yillar o`rtalarida tijorat kreditining rivojlanishi yuzasidan o`tkazilgan tadqiqot shuni ko`rsatadiki, 75 foiz qism qarzdorlar o`z qarzlarni 30 kun mobaynida so`ndirilishi shart bo`lsada, bu talabni bor-yo`g`i ularning o`ndan bir qismi bajargan.

Xo`jalik aylanmasida vekselning tijorat krediti instrumenti va hisob-kitob to`lov vositasi sifatida qo`llanilishi veksel shaklida tijorat kreditining bir qator xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Veksel qarzining xususiyati shundan iboratki, u erkin muomalada bo`lishi mumkin, shuning uchun qarz oluvchi tomonidan qarzni so`ndirish va foizlarni to`lash avvaldan noma'lum shaxs foydasiga amalga oshiriladi.

Qarz berish shartnomalari asosida qarz pullar va mablag`lar jalb etiladigan moliyaviy veksel pul, kredit bozorining mustaqil segmentini o`zida ifodalaydi. Ayni paytda xo`jalik kreditlashning o`ziga xos xususiyati mavjud bo`lib, u korxonalar professional kreditor emasligi bilan bog`liq. Bu bo`sh pul mablag`lari taklif etiladigan ochiq bozor emas. Bu erda pul resurslariga talab va taklif aksariyat holda kreditor hamda qarz oluvchi o`rtasida yuzaga kelgan o`zaro xo`jalik munosabatlari bilan bog`liq. Odatda iqtisodiy jihatdan o`zaro ta'minot, texnologik zanjir bilan o`zaro bog`liq bo`lgan korxonalar kreditlar bilan ta'minlanadi. Bunda aynan xo`jalik vazifalari, masalan ta'minot yoki sotishning kafolatlanganligi hal etiladi, shuning uchun kredit yuzasidan to`lov turli kredit bitimlarida sezilarli darajada o`zgartirilishi mumkin, shunga qaramay pul bozorida umumiy vaziyat, qayta moliyalash stavka darajasi ham hisobga olinadi. Xo`jalik kreditining o`ziga xos turi qarz berish shartnomasi asosida



jismoniy shaxslarning mablag`larini jalb etishdan iborat. Banklar professional kredit beruvchi sifatida mijozlarga joriy faoliyatni moliyalashtirish uchun g`oyat turli-tuman kreditlarni taklif etadilar, ularning ichida eng qulaylari overdraft va kredit liniyalaridir.

Overdraft taqdim etish vositasida hisob varaqni kreditlash - bu "talab yuzaga kelishi bo`yicha" kredit berishdan iborat. Shubhasiz, overdraft bilan kredit liniyasi o`rtasida o`xshashlik mavjud: ular kreditdan foydalanish muddati, kreditlash limiti, kredit yuzasidan foiz stavkalari va limit ochilganligi uchun alohida to`lov belgilanganligini ko`zda tutadilar. Biroq, kredit liniyasi bo`yicha odatda kreditni tanlash jadvali tuziladi va uning buzilganligi uchun tomonlarning moddiy javobgarligi nazarda tutilishi mumkin. Overdraft esa o`z mohiyatiga ko`ra bankning o`z mijoziga "tez yordam"ni ifodalaydi va tabiiyki, avvaldan u qaysi paytda kerak bo`lishini ko`zda tutish mumkin emas. Overdraft kreditlashning eng tez moslashuvchan mexanizmidir va uni so`ndirish mijoz qarz oluvchining hisob raqamiga kelib tushayotgan mablag`lar hisobiga avtomatik tarzda amalga oshiriladi.

Masalan, faktoring va hisob-kitob vekselu kreditlari (ko`rsatuvchiga beriladigan va vekselu beruvchi) ko`rinishidagi qarz majburiyatlarini safarbar etish orqali kreditlash ham Rossiyada an'anaviy bank xizmatlariga aylanib bormoqda. Aynan shu kredit turlari tashkilotlarga debitorlik qarzlarini moslashuvchan boshqarish, qarzni tezkorlik bilan ishlovchi kapitalga aylantirish imkonini beradi. REPO bitimlari shakliga ko`ra oldi-sotdi bo`yicha ikki qarama-qarshi bitimlarning kombinatsiyasini ifodalagan holda kreditorni kredit tavakkalchiligidan yuqori darajada himoyalashini ta'minlovchi kredit mexanizmi hisoblanadi.

Aylanma mablag`lar umuman, shuningdek ularning alohida qismlari, masalan ishlab chiqarish zahiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot va boshqalar bankning kreditlash ob'ektlari bo`lishi mumkin. Kreditlash mexanizmini tanlash muayyan kredit bitimi holatlari va qarz oluvchining ehtiyojlari, unda ta'minot yoki likvid talablarning mavjudligi, uning bank bilan o`zaro munosabatlari xarakteri va davomliligi bilan bog`liq.

Tashkilot joriy faoliyatini moliyalashtirish uchun qisqa muddatli byudjet yordamidan ham foydalanishi mumkin, u turli darajadagi byudjetlar tomonidan quyidagi shakllarda taqdim etiladi:

- pul mablag`larining qarz oluvchiga haqiqatda berilishi;
- kreditlashning imtiyozli shartlarini ta'minlash uchun bank kreditlari bo`yicha foiz stavkalaridagi farqni qoplanishi;
- bank kreditlari yuzasidan byudjet kafolatlarining taqdim etilishi;
- byudjet oldidagi majburiyatlarni vaqtincha kamaytirish vositasida kreditlash.

Byudjet krediti faqat qaytarilishi asosida avval taqdim etilgan byudjet mablag`lari yuzasidan muddati o`tgan qarzlari mavjud bo`lmagan yuridik

shaxslarga berilishi mumkin. Vakolatli organlar kreditning amal qilish paytida har qanday vaqtda byudjet krediti oluvchisini tekshirish huquqiga egadirlar, shuningdek byudjet kreditidan maqsadli foydalanilishini tekshiradilar. Yuridik shaxslarga taqdim etilgan byudjet mablag`larining qaytarilishi, shuningdek ulardan foydalanganlik yuzasidan to`lov byudjet to`loviga tenglashtiriladi.

Korxonaga aylanma mablag`ni saqlab turilishi uchun soliqlarni to`lash bo`yicha muddatini uzaytirish, bo`lib-bo`lib to`lash va soliq kreditlaridan foydalanishi mumkin.

Ushbu kreditlash shakllarida umumiy jihat shundan iboratki, ular byudjetga soliqlar va yig`imlar to`lash muddatlarining o`zgartirilishi bilan bog`liq.

Soliqlarni to`lash bo`yicha muddatlarni uzaytirish yoki bo`lib-bo`lib to`lash muddati olti oygacha bo`lgan muddatni tashkil etadi, mos ravishda bu davrda soliq to`lovchi tomonidan qarz summasi bir vaqtning o`zida yoki bosqichma-bosqich to`lanishi joiz. Muddati uzaytirilishi (bo`lib-bo`lib to`lanishi) yuzasidan to`lov tabaqalashtirilgan holda, uni taqdim etilish asoslaridan kelib chiqqan holda belgilanadi, soliq bo`yicha to`lov muddatini uzaytirish yoki bo`lib-bo`lib, to`lash summasi ham uni olish asoslariga bog`liq.

Soliq krediti bir yoki bir necha soliqlar bo`yicha uch oydan bir yilgacha muddat bilan taqdim etilishi mumkin. Agar soliq krediti manfaatdor shaxsga tabiiy ofatlar, texnik halokatlardan zararlar va boshqa engib bo`lmas kuch holatlari yuzasidan taqdim etilayotgan, shuningdek agar uning tegishli byudjetdan kamroq moliyalashtirish holati mavjud bo`lsa to`lov undirilmaydi. Agar soliq krediti bir vaqtning o`zida soliq to`lanishi holatida ushbu shaxsga bankrotlik tahdid qilishi munosabati bilan taqdim etilsa, foizlar soliq krediti to`g`risida shartnoma davrida bo`lgan, Markaziy Bankning qayta moliyalash stavkasi miqdorida belgilanadi. Soliq krediti summalari to`lovning har bir muddati bo`yicha teng ulushlarda yoki bir yo`la foizlarni to`lash bilan mablag`larni tegishli byudjet daromadiga o`tkazish yo`li orqali kamaytirilishi lozim.

Shunday qilib, korxonaning aylanma mablag`larga bo`lgan qo`shimcha ehtiyoji kredit xarakteridagi turli tuman manbalar hisobidan qoplanishi mumkin. Har qanday holatda ham qisqa muddatli kredit va korxonaning aylanma mablag`lari quyidagi ko`rinishlarga ega:

- qisqa muddatli kreditlash muddati aylanma mablag`ning aylanish muddati bilan bog`liq-bir yilga qadar;

- qisqa muddatli kredit korxonaga joriy faoliyatidan tushumlar, tovarlar (ishlar, xizmatlar)dan tushumlar hisobiga so`ndiriladi, aylanma mablag`lar elementlari tannarxning aksariyat qismini tashkil etishi bo`is aylanma kapital davriy aylanishining uzluksizligi qisqa muddatli kreditni so`ndirishning sharti hisoblanadi;

- qisqa muddatli kreditni jalb etish uchun xarajatlar buxgalteriya

(moliya) (tannarx) tarkibiga, soliq hisobida esa o`rnatilgan cheklashlar doirasida kiritiladi.

Joriy faoliyatni kreditlash usullarini tanlash mezonlari manbai jalb etilishining tezkorligi, tashkilotning moliyaviy natijasini shakllantirish va o`zlashtirishning soliq oqibatlari yuzasidan kredit olish uchun xarajatlar nuqtai nazaridan baholanadigan uning qiymatidan iborat. Aylanma mablag`larni moslashuvchan boshqarish qisqa muddatli kreditni aynan jalb etish, shuningdek qarzni ishlovchi kapital (faktoring, hisob-vekselu krediti, qarz majburiyatlarining garovi yuzasidan kreditlash)ga transformatsiya qilishning mavjud usullari bilan ta'minlanadi, ular kreditorlarga debitorlik qarzlariga jalb etilgan aylanma aktivlarni to`ldirish imkonini beradi.

### 1.3. Tijorat banklari iqtisodiyot bilan aloqasi muammolari<sup>7</sup>

Bozor munosabatlariga o`tish bilan iqtisodiyotga ko`p ukladlik shakllanishi tijorat banklarini tashkil etishga to`rtki bo`ldi.

Bozor iqtisodiyotiga o`tish munosabati bilan birinchi navbatda bank ishini tashkil etish mazmuni o`zgartirishga kirishildi. Ko`p tomli instruktsiyalar o`rniga bank ishlarini yuritish metodik ko`rsatmalari tayerlandi, kreditlashni kredit shartnomasi asosida amalga oshirish yo`lga ko`yildi, bir operatsiyalaridan bank nazorati olib tashlandi.

Tijorat banklari xo`jalik tashkiloti kabi korxonaning alohida hisoblanadi. Mustaqil ravishda xo`jalik faoliyati yuritib o`zlarining konkret natijalaridan hamda jihozlarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdan manfaatdordir.

Jamiyatning ijtimoiy bazasini ifoda etib, tijorat banklari iqtisodiyotni boshqarishda tizim sifatida katnashib, Markaziy bankning pul, kredit va foizlar sohasidagi siyosatini tadbik etuvchi sifatida faoliyat ko`rsatadi.

Tijorat banklarini rivojlanishi tor ma'noda bo`lsa ham ijtimoiy maxsulotning jami summasiga bo`ladi.

Yuqorida keltirilgan fikirlarimizni tahlil etadigan bo`lsak, tijorat banklarining mohiyatini ularning milliy iqtisodiyotda bajaradigan roli va funktsiyalari ochib beradi.

Pul, kredit va iqtisodiy kategoriyalar esa mohiyatini oshishida asos bo`lib hizmat qiladi. Bu kategoriyalarining harakatida banklar katnashadi, ya'ni banklar pul muomalasini aniqlaydi, kredit milliy iqtisodiyotni kreditlovchi sifatida, kredit esa foiz siyosatini amalga oshiradi.

Banklar korxonalar sifatida o`z funktsiyasini ko`pchilik qismi ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol bilan.

Bozor munosabatlariga o`tish bilan tijorat banklari o`z manfaatlari doirasida bo`sh pul resurslarini xarakatga keltiruvchi infrato`zilmasining muxim

---

<sup>7</sup> TDIU va MDH mamlakatlari iqtisodiy mutaxassisliklari bo`yicha bakalavriat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining namunaviy mavzulari. T, 2005 y., 72.

tarkibiy qismiga aylanadi.

Banklarning ikki pogonali tizimi paydo bo`lishi pul muomalasi barqarorligini ta'minlash zaruratining okibati bo`ldi, iqtisodiyoning "soglomligi" ko`p jixatdan ana shunga edi. Pul aylanishini umumilliy darajada tartibga solish huquqini olgan banklar keyinchalik yoki to`la davlat banklariga yohud davlat bilan mustaxkam bogliq bo`lgan banklarga aylanadi bu esa ularga davlat pul-kredit siyosatini amalga oshirish imkonini beradi.

Banklarning bajaradigan operatsiyalariga karab emissiya va tijorat banklariga bo`linadi.

Xar qanday mamlakatda emissiya banklari kredit tizimining markazi hisoblanadi, ularga davlat banknotalar chiqarish, emissiya uchun monopoliyalik huquqini beradi. Ular boshqa banklarni kreditlaydi va shu ma'noda banklarning banki sanaladi. Bizning mamlakatimizda kredit tizimining markazi, emissiya banki va banklarning banki O`zbekiston Respublikasining Markaziy banki hisoblanadi.

Tijorat banklari bank tizimining quyi bo`lib, mijozlarga tijorat tomoyillarida kredit, hisob-kitob xizmatlari ko`rsatish yuzasidan bevosita vazifalarini bajaradigan mustaqil bank muassasa tarmoqlaridan tarkib topgan. Tijorat banklari amalda o`z mijozining xo`jalik faoliyati xizmati bilan bogliq kredit, hisob-kitob va moliya operatsiyalarini barcha turlarini bajaradi.

Tijorat banklari sanoat, savdo va boshqa xil korxonalarini asosan omonat tarzida jalb etilgan pul mablag`lari hisobidan kreditlaydi, korxonalar o`rtasida hisob kitoblarini amalga oshiradi, shunindek fond, vositachilik va valyuta operatsiyalari bilan shugulanadi.

O`zbekistonda bozor bank tizimini shakllantirishda vujudga kelayotgan boshqa bir muxim muammo-bu tijorat banklarining vujudga kelishi va rivojlanishida davlatning rolidir.

Odatda ishlab chiqarishning pasayishi va pulning kadsizlanishiga olib keladigan, butun xo`jalik tizimi qayta ko`riladigan bozor munosabatlariga o`tish chogida bozor infrato`zilmasining tarkib topishida davlat tomonidan ko`mak berilishi zarur hisoblanadi. Davlatning roli ishlab chiqarishdagi jamgarishni jadallashtirishdan, moliyaviy resurslarni jalb etish hamda iqtisodiyoeni rivojlantirish uchun ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida iqtisodiy va moliyaviy muxitni yaratishan iboratdir. O`zbekistonda davlat ishtirokida ixtisoslashtirilgan moliya muassasalari tashkil etilmokda, ularning maqsadi uzoq davr mobaynida iqtisodiyoening sarmoyasiga bo`lgan ehtiyojini ta'minlashdan iborat bo`ladi. Ularning faoliyati asosan xususiy sektorning dastavval kichik va o`rta tadbirkorlikning mavkeyini rivojlantirish va mustaxkamlashga karatilgan.

Ixtisoslashish va kredit, investitsiya operatsiyalari vazifalarini halq ho`jaligi sektorlari bo`yicha taqsimlash respublikamizdagi bank muassasalarini o`ziga xos xususiyati hisoblanadi. Ularning faoliyati asosan ustun tarmoqlar:

Paxtachilik va uning maxsulotini qayta ishlash bilan bogliq ishlab chiqarishlarni, avtomobilsozlikni, uy-joy ko`rilishini, savdoni va xokazolarni rivojlantirishga karatiladi. Birok bu banklarni buyrukbozlik iqtisodiyoti sharoitidagi maxsus banklar bilan tenglashtirmaslik kerak. Hozirgi banklar ulardan dastavval shu bilan tubdan farq qiladiki, ular aktsiyadorlik-tijorat banklari hisoblanadi va bozor iqtisodiyoei sharoitlarida ishlashga moslashtirilgan. Ular ixtisoslashishni faqat milliy moliya bozorida emas, shu bilan birga mintakaviy va jahon moliya bozorida ham xilma-xil xizmat ko`rsatish imkoni bilan kushib olib boradilar. Ayrim banklarning ixtisoslashishi mamlakat uchun hayotiy muxim bo`lgan halq ho`jaligi tarmoqlarining davlat tomonidan qo`llab-kuvvatlanishi iqtisodiy jixatdan zarurligi bilan bogliqdir. Bunday tarmoqlarni moliyalash davlat bilan birgalikda ancha imtiyozli shartlar asosida amalga oshiriladi. Shu bilan bir vaqtda ixtisoslashtirilgan aktsiyadorlik-tijorat banklari boshqa tarmoqlaridagi mijozlar bilan kredit va moliyaviy bitimlarni amalga oshirish huquqiga ega. Ular bu huquqdan unumli foydalanmokdalar ham. Bu esa ularning bozor iqtisodiyoeiga barqaror kirib borishini ta'minlaydi.

Markaziy bank tijorat banklarining faoliyati ustidan samarali nazorat qilish, omonatchilar va aktsiyadorlarning manfaatlarini ximoyalash maqsadida bank nazorati tizimini mustaxkamlash yuzasidan muntazam ish olib bormokda.

Bugungi kunda bank ishi barqarorligini asosi bo`lgan Markaziy bank nochor banklarni o`z vaqtida aniqlash va ularga iqtisodiy madad berish, ularning sinishiga yo`l qo`ymaslik chora-tadbirlarini ko`rmokda, bankrotlik xolatlarini kamaytirish va tizimli tavakalning oldini olishini ta'minlanmokda.

Tijorat banklari ko`payib bormokda. Markaziy bank tijorat banklari o`rtasidagi raqobatni rivojlantirish, ular faoliyatini diversifikatsiyalash va universallashtirish maqsadida bunday ko`payishga ko`maklashmokda. Birok bu borada xali ko`p ish qilish lozim.

Tijorat banki mohiyatini uning maqsad va vazifalarini yaxshi tushunmaslik tijorat banklari faoliyatida eng ko`p tashvish uygatmokda.

Bu xolat aniq shakllantirilgan va puxta belgilangan rivojlanish strategiyasi yo`qligida o`z aksini topayapti. Bu banklar faqat shu kungi foydani uylamokda. Bu esa qanday bo`lmasin tez foyda olish, kerak bo`lsa, xatto o`z mijozlari hisobiga boyish maqsadi

Tijorat banklari faoliyatining asosiy maqsadini umumiy ko`rinishda moliya xizmatlari taklif etish va ko`rsatish sifatida ifodalash mumkin.

Yangi banklarning muassislariga quyiladigan talablar Jahon banki. Halqaro valyuta fondi va boshqa nufo`zli tashkilotlarning tavsiyanomalarini hisobga olib ishlab chikilgan hamda mamlakatlarida qabul qilingan eheyotlorlik andozalariga mos keladi. O`zbekistonda bank ochish etarli ega bo`lgan va ish borasida o`ziga dog tushirmagan omilkor shaxslar uchun imtiyoz hisoblanadi. Sarmoyaning eng past darajasiga quyiladigan talablar asta-syokin oshirib borilmokda. Bunday yondashuv O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga

tijorat banklarining faoliyatini samarali nazorat qilib turishga, banklarda vujudga keladigan muammolarni oldindan ko`ra bilishga va ularni bartaraf qilish uchun o`z vaqtida chora-tadbirlar ko`rishga imkon beradi.

Ko`pchilik banklar aktsiyadorlik jamiyatlariga aylantirilgan yoki shu shaklda ochilgan. Bu xolat qonunlashtirib qo`yilgan. Respublikaning yirik banklari aktsiyadorlashtirilgan va davlat mulkchiligidan chiqarilgan.

Banklar faoliyatini tartibga soladigan asosiy me'yoriy hujjatlardan biri-bank nazorati bo`yicha Bazel qo`mitasi olib ishlab chiqilgan «Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish qoidalarini» hozirgi paytda qayta ishlagan va takomillashtirilgan; bunda yangi hisob rejasi talablari va tijorat banklari aktivlarini tasniflashning yuqoridagi aytilgan tartibi hisobga olindi. Unda bank sarmoyasiga kattirok talablar belgilanadi, yangi prudentsial me'yorlar, shu jumladan, banklarning qimmatli qogozlar va investitsiyalar bilan o`tkazadigan operatsiyalari bo`yicha, bir omonatchiga to`g`ri keladigan eng yuqori tavakkalchilik bo`yicha me'yorlar kiritildi.

Bank tizimini bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiq isloh qilish iqtisodiyotni umuman islox qilish bilan o`zviy boglanib ketadi. Respublikada o`tkaziladigan keng qo`lamdagi xususiyashtirish dasturi iqtisodiy faollikning va, demak, bankkreditlari va xizmatlariga talabning oshishini ta'minlash lozim.

O`zbekiston bank tizimining o`ziga xosligi shunda ham ko`rinadi, rasman muayyan ixtisosdagi (investitsiya, ipoteka, birja va boshqa) bank sifatida ro`yhatga olingan ko`pgina tijorat banklari vujudga kelgan xolatga ko`ra universal bank sifatida faoliyat yuritishga majbur bo`lmoqda, ko`pincha esa oddiy bank-kredit bitimlarini amalga oshirish bilan kifoyalanmokda. Shu bilan birga qarz mablag`larini byudjetga jalb qilish maqsadida davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (DKMO) bilan borgan sari faolroq operatsiyalar o`tkazishga o`tkazishini tortmokda.

Hozirgi ko`p iqtisodiyoda banklar an'anaviy tarzda faoliyatning bank sohasi deb tushiniladigan tor doiradagi xizmatlar segmentida emas, balki moliyaviy xizmatlarining ko`p tarmoqli sohasida ish olib berishida o`z ifodasini topgan yangi voqelik hisobga olinishi zarur. Moliyaviy xizmatlar sohasidagi o`zgarishlar bugungi kunda texnologiya, foiz xatari, mijoz uchun raqobat, sarmoya adekvatligi kabi asosiy tushunchalar bilan bogliq.

Tijorat banklari bozorlarida qarz mablag`larini shakllantiruvchi, tartibga soluvchi va boshqaruvchi eng muxim elementlaridan biridir. Shu munosabat bilan ular zimmasiga sarmoyalar saklanishi va ko`paytirilishini, pullar samarali ishga solinishini, demak zarur daromadlar olinishini ta'minlash vazifasi yuklatiladi.

Tijorat banklari o`z mijozlarining asosiy agenti ishonch bildirgan shaxsi, topshiriqlarni bajaruvchisi, ular mablag`larining bosh tasarrufchisi, aktsiyalar hamda bankdagi hisob varaqlar egalari aksariyat ko`pchiligi uchun eng yaqin maslaxatchi va ekspert hisoblanadi. Bizning uchun ular asosiy iqtisodiy,

moliyaviy masalalar hamda shu bilan bogliq yuridik muammolarni chuqur va juda yaxshi bilishi, rivojlangan axborot-taxlil bazasiga ega bo'lishi va ayni paytda o'z vazifalariga taallukli xar qanday so'rov bo'yicha konkret yordam bera olishi lozim.

Juda katta o'z sarmoyasiga ega bo'lgan tijorat banklari yirik investor sifatida chikishlari, ya'ni umuman halq ho'jaligi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatishlari extimol tutilgan tarkibiy qayta ko'rish ishlariga aralashishlari va xatto iqtisodiyot shu'balarining istiqbollarini belgilashlari mumkin.

Mulknı boshqarish va sarmoya xosil qilishning ancha xatto mikyoslardagi aktsiyadorlik-huquqiy shakli makomini tijorat banklari olar ekan, moliya bozorlariga jiddiy ta'sir ko'rsatishi ko'plab xoldinglar shu'ba firmalar va korxonalar tashkil etish, shuningdek katnashuvchining turli shakllarini rivojlantirish asosida o'z faoliyatini ancha diversifikatsiyalashi mumkin bo'ladi.

Banklar faoliyatida tijorat ma'lum qoidalarga asoslanadi.

Ular orasida eng muximi - xo'jalik yuritishdan foyda olish qoidasi, iloji boricha katta foyda ko'rish. Birok tijorat bankida ko'p foyda olish cheklangan. Birinchidan katta ketidan mijozlardan maxrum bo'lib qolishiga olib kelishi mumkin, chunki ular xaddan tashqari katta qo'yilgan stavkali kreditdan voz kechishlari mumkin, ikkinchidan banklararo raqobat sharoitida boshqa tijorat banklari orasidan bir kadar samaraliroq ishlar uchun ancha arzon kreditlar taklif etilishi mumkin. Daromadlilik (foйда ko'rish) qoidasi sifatida shuni anglatadiki busiz bank mavjud bo'la olmaydi. Bank tijoratining bu qoidasi asosan "Arzonrok sotib olish, qimmatrokka sotish" formulasi orqali amalga oshadi. Birok bu qoidaga madaniy yondashmok lozim. U qonunchilikka tayanish, unga aslo zid kelmasligi, binobarin, bunda shunday shart-sharoit yaratilishi kerakki xar bir bank o'zining tijorat ishlarini amalga oshirayotganda bank xizmati bozori haqida bab-baravar axborot olish imkoniyatlariga ega bo'lsin.

Tijorat nuktai nazaridan karaganda bekor yotgan resurslar bo'lmasligi kerak. Boshqacha aytganda bankning hamma pullari, barcha resurslari imkon kadar ishlashlari lozim. Birok haqiqiy axvol shundan iborat bo'ladiki, mablag'larni bir qismi zaxiraga qo'yiladi, u muomalada kamroq katnashadi yoki umuman ishtirok etmaydi, yana bir qismi esa iqtisodiyotni kreditlash uchun mo'ljallanadi. O'z-o'zidan ravshanki bank biznesi nuktai nazaridan qaraganda, bu gayritabiiy, shuning uchun ham birlamchi va ikkilamchi zaxiralarga nisbatan kreditlar salmogi qanchalik katta bo'lsa, foyda ham shunchalik ko'p kelishini bilib qo'ygan ma'qol.

Shuningdek, bank faoliyatining muxim qoidalaridan yana biri shuki, bank iqtisodiy korxonada sifatida o'z mablag'i, o'z foydasi ustidan tavakkal ish to'tishi mumkin, ammo zinxor mijoz mablag'i yuzasidan emas. Muvaffakiyatsiz bank tijoratidan bankning o'zi jabr tortishi mumkin. Lekin mijoz xech kachon jabrlanmasligi kerak, chunki kredit muassasi uning uchun yaratilgan.

Bank tijorati "Hamma narsa mijoz uchun hamma narsa uning foydali

faoliyatini ta'minlash uchun" qoidasi asosida xarakat qilishi lozim. Bankning amaliy faoliyatida eng muximi mijozning foyda ko`rishi, undan keyingina bankning foydasi, chunki pirovard natijada mijoz foyda olib faoliyat ko`rsatgandagina bank ham foyda olgan bo`ladi, sababi-kreditlar bo`yicha foizlar faqat mijoz olgan foyda hisobidan to`lanadi. Bank mijozning foyda olishi uchun shart-sharoit yaratar ekan, demak o`zining manfaatini ham amalga oshirgan bo`ladi.

Tijorat bankning mijozlarga nisbatan sheriklik munosabati o`zaro manfaatdorlik qoidasiga asoslanishi lozim. Bank uchun ham mijoz uchun ham hamkorlik tufayli kozonilgan ishonch ular o`rtasidagi sheriklik munosabatlarini mustaxkamlaydigan jiddiy omilga aylanadi. Yaxshi sherik bo`lishni istagan bank o`z mijozlarini xizmatlar "majmuasi" bilan ta'minlashi zarur. Tijorat banklari xizmatining an'anaviy turlari qatorida, jumladan, xar-xil kreditlar berish barobarida valyuta, trast operatsiyalarini ham bajaradilar, ayni paytda o`z mijozlarining iqtisodiyotini to`g`ridan-to`g`ri investitsiyalashi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti va jahon ho`jaligi rivojlanishi bilan bank tizimi ham rivojlana bordi. Hozirgi sharoitda banklar tobora ko`proq faqat sof bank operatsiyalarini bajaradigan emas, shu bilan birga moliyaviy xizmatlar ko`rsatadigan moliyaviy muassasalarga aylanmokda, bu bank balansida aks ettirilmaydi, lekin juda katta daromad keltiradi. Masalan: banklar valyuta operatsiyalarini bajarganda sarroflar-brokerlar sifatida maydonga chiqadilar va katta miqdorda vositachilik haqi oladilar. Lekin bu operatsiyalar bank balansida aks ettirilmaydi. Hozirgi paytda yirik tijorat banklari kariyb 350 turdagi moliyaviy xizmat ko`rsatmoqda. Kayd etish joizki, bank tizimi ikki bosqichlidir. Birinchi bosqichda dunyo bank amaliyotida bo`lganidayok Markaziy bank turadi, u banklar banki, davlat banki, emissiya banki va oltin-valyuta zaxiralarini boshqaruvchi bankdir.

Tijorat banki o`z faoliyatini Markaziy bankda ro`yhatdan o`tib litsenziya olganidan so`ng amalga oshiradi.

Tijorat banki qo`ydagi operatsiyalarni amalga oshiradi<sup>8</sup>:

Mijozlarning hisob varaqalarini olib boradi.

Mijozlarga kassa xizmati ko`rsatadi.

Mijozning topshirigiga binoan naqd pulsiz hisob-kitoblarni bajaradi.

qisqa yoki uzok muddatli kreditlar beradi.

Shartnoma yoki pullik asosida buyurtmachining topshirigiga binoan kapital quyilmalarni mablag` bilan ta'minlaydi.

Bo`sh pul mablag`lari-depozitlarini muomilaga jalb qiladi.

Aholidan omonatlarni qabul qiladi.

Investitsiya operatsiyalarini.

Lizing operatsiyalarini.

---

<sup>8</sup> O`zbekiston Respublikasi «Bank va banklar faoliyati to`g`risida» qonuni.T.:1997. 25 aprel.



Tijorat banki davlatning hamda boshqalarning qimmatbaho qogozlarini xarid qiladi va sotadi.

Xorijiy valyuta va qimmatbaho metallarni xarid qiladi va sotadi.

O'z mijozlari uchun kafolat va majburiyatlar beradi.

Byudjetning kassa ijrosini.

Bank operatsiyalari bo'yicha maslahatlar beradi.

Banklarning operatsiyalari ularning bevosita faoliyati orqali (vazifasi) amalga oshiriladi. Bunday vazifalarni o'zaro bogliq ikki turga bo'linadi.

Passiv (bank resurslarini shakkilantirish bo'yicha operatsiyalar).

Aktiv (bunday resurslarni joylashtirish hamda foydalanish bilan bogliq operatsiyalar).

Bank resurslari o'ziga tegishli va jalb etilgan mablag'lardan vujudga keladi. O'ziga tegishli mablag'lar odatda banklar tasarrufidagi barcha resurslarning faqat unga katta bo'lmagan qismlarini tashkil etadi. Ularning asosiy qismi depozitlar yoki banklarning mijozlariga karashli omonatlardan iborat.

Bankning aktiv operatsiyalariga avvalo beriladigan, foizli, ssudalar yoki (kreditlar) kiradi.

Ular orasida eng ko'p tarqalgani veksellarni hisobga olish usulidir. Qimmatli qogoz garovga olinib, beriladigan ssudalar, shuningdek mana shunday qogozlarni xarid qilish bo'yicha operatsiyalar fond operatsiyalari deb yuritiladi.

Tovar egasiga beriladigan ssudalar omborlar yo'ldagi va savdo aylanmasidagi bo'lgan tovarlarni garovga olib taqdim etildi. ssudalar o'z muddati o'lanmagan hamma xollarda garovga quyilgan qimmatli qogozlar va tovar moddiy boyliklari bank ixtiyoriga mulk bo'lib o'tadi. To'lov qobiliyatiga shubxa yo'q yirik mijozlarga bank xech qanday ta'minotsiz ssudalar yoki bank kreditlari deb ataladigan qarzlarga beradi.

Tovarlarni sotish bilan bogliq kreditlarni ko'rinishlaridan biri ist'emol krediti yoki tovarlarni bevosita ist'emolchilarga to'lov muddatini o'zaytirgan holda sotish hisoblanadi.

Davlat tomonidan zayom obligatsiyalarini chiqarish yo'li bilan olinadigan kreditlar davlat kreditlari deb yuritiladi. Bunday toifadagi qarzlarga davlat odatda davlat byudjetidagi kamomadni qoplash uchun majbur bo'ladi. Ana shunday xolatlarda ko'pincha banklar va sug'urta kompaniyalari kreditorlar sanaladi. Davlat zayomlarining obligatsiyalari banklar vositaligida tarkatiladi, buning uchun vositalik haqi olinadi.

Yuqorida sanab utilgan bank operatsiyalari qatorida investitsiya operatsiyasi ham muxim rol uynaydi.

Banklarning kredit bera olish qobiliyati nafaqat aholi qo'lidagi bo'sh mablag'lar yigilishiga hamda korxonalar va tashkilotlarning o'z pul mablag'larini ko'paytirish uchun qobiliyatiga bogliq. Bugungi kunda esa aholining bankga bo'lgan ishonchiga hamda inflyatsiya darajasiga ham bogliq bo'lib bormokda.

Banklarning kreditlash funksiyasi bozor iqtisodiyoeiga o'tish sharoitida o'ziga xos rol uynamokda. Agar biz bankning korxonalarining kreditlash jarayoniga etibor beradigan bo'lsak, bank o'z navbatida mavjud korxonalarining moliyaviy xolatlariga ham xolisona baho berish kabi muxim ishni amalga oshirmokda. Tijorat banklari o'z faoliyati bilan bozor iqtisodiyoei talablariga mos ravishda ishlay oladigan tashkilotlarni o'z vaqtida mablag' bilan qo'llash va bunday tashkilotlarni aniqlash kabi muxim bir vazifani amalga oshirmokda. Tijorat banklari kreditlash jarayonlari orqali mamlakat iqtisodiyotning rivojlanishiga ham juda katta xissa ko'shmokda.

Bu banklarning kuyayotgan kredit quyilmalari turli tarmoqlarga differentsiyalashtirilgan.

Tijorat banklarining yana bir muxim funksiyasidan biri bu hisob to'lovlarini amalga oshirish funksiyasidir. Bugungi kunda korxonalar va xo'jaliklarni o'rtasidagi hisob-kitoblarning asosiy qismi pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilmokda. Bu jarayonlarda tijorat banki vositachi sifatida to'lovlar o'tkazish jarayonini bajarmokda. To'lov xujjatlarining o'z vaqtida o'tishi hamda hisob-kitob jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash zaruriyati bugungi kunda banklardan hisob-kitoblarni tashkil qilish va nazorat qilishning mukammal metodlarini ishlab chikishni talab etmokda.

Hisob-kitoblarni tezlashtirish, jarayonlarni ishonchligini ta'minlash hamda bu jarayonlar bilan bogliq xarajatlarni kamaytirish maqsadida tijorat banklari bugungi kunda kompyuter texnikasi bilan jihozlanmokda. Bundan tashqari mamlakat bo'yicha joylashtirilgan filiallar yordamida to'lovlar jarayoni yanada tezlashtirishga erishilmokda. Bankning bo'limlari tarmogi barpo etilishi kamida uchta asosiy vazifani ko'zlaydi:

Umuman mamlakat iqtisodiyoti manfaatlari:

Bank o'z infrastrukturasi rivojlantirish:

Bankning eng katta mijozlari manfaatlarini nazarda to'tish.

Tijorat banklarining to'lovlarini amalga oshirish funksiyasi orqali bugungi kunda yuridik shaxslarning davlat byudjetiga bo'lgan majburiyatlari nazorat kilinmokda.

#### 1.4. Iqtisodiyotni rivojlanishida nobank moliya-kredit tizimlarining o'rni<sup>9</sup>

Hozirgi paytda qishloqda ssuda jamgarma shirkatlari tusidagi kredit kooperatsiyalarini va shaxarlarda o'zaro kreditlar jamiyatlarini tashkil etish muxim vazifa hisoblanadi. Bu hozirgi paytda uydagi "paypokka" yashirib saklaetgan pul mablag'larini jalb etish va ularni kreditlar shaklida kredit kooperatsiyasi a'zolari o'rtasida joylashtirish imkonini beradi. Tuman markazlaridagi kredit uyushmalari kredit kooperatsiyalariga moliyaviy erdam

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi «Bank va banklar faoliyati to'g'risida» qonuni.T.:1997. 25 aprel.

ko`rsatishi, shuningdek ularning a'zolariga texnika, ugitlar sotib olish va maxsulotni sotishda ko`maklashishi kerak. Jahon tajribasining dalolat berishicha ishlab chiqarish kooperatsiyalari ham iqtisodiyoeni barqaror rivojlantirishning g`oyat muxim sharti hisoblanadi.

Qimmatbaho qogozlar bozorida banklar bir vaqtning o`zida ham investor ham emitent sifatida qatnashmoqda. Banklarning boshqa xo`jalik sub'ektlariga nisbatan stabil moliyaviy xolatga egaligi qimmatbaho qogozlar bozorida operatsiyalarda qatnashishga imkon bermoqda. Respublikada tijorat banklarning qimmatbaho qogozlar bozorida aktiv ishtirok etishini sabablaridan yana biri banklarning nizom kapitalini oshirish sohasida o`z aktsiyalarini sotishga bo`lgan intilishdir.

Bugungi kunga kelib tijorat banklari qimmatbaho qogozlar bozorida aktsiyalardan tashqari depozit va jamgarma sertifikatlar bilan ishlashni ham yo`lga qo`ymokdilar.

Bundan tashqari banklar o`z mijozlariga moliyaviy broker sifatida ham xizmat ko`rsatmoqda. Banklarning bunday funktsiyalarni bajarishlari korxonalar tashkilotlarning qimmatli qogozlar bozori operatsiyalarida qatnashishlari uchun qo`lay sharoit yaratmoqda.

Respublika iqtisodiyotiga kirib kelayotgan «Lizing» jarayonlari bugungi kunda ishlab chiqarishni texnika va texnologiya ta'minlash hamda qayta mijozlashda muximligini ko`rsatmoqda. Agar biz lizing xizmatlariga to`lanadigan foiz bilan bank krediti bo`yicha to`lanadigan foiz o`rtasidagi bogliqlikga e'tibor beradigan bo`lsak, u holda lizing xizmatlarini bugungi kunda tijorat banklari tomonidan amalga oshirilishini yo`lga qo`yish qo`lay hamda muximdir. Chunki tijorat banklari lizing xizmatlari uchun boshqa lizing tashkilotiga kredit berishidan ko`ra bank krediti foizi darajasida mijozlarga xizmat ko`rsatishi va shu bilan lizing xizmatlari bahosini kamaytirish mumkin.

Tijorat banklari tomonidan olib borilayotgan bank faoliyatiga bugungi kunda «Trast» xizmatlari ham kirib kelmokda. Trast xizmatlari respublika banklari uchun yangi hisoblansada uni o`zlashtirish sohasida ko`plab ishlar olib borilmoqda.

Chet el bank tajribasida bizga ma'lumki firmalar buyurtmaga ega bo`lishliklari o`z navbatida bank ta'minot xatlari deb ataluvchi firmaning moliyaviy qobiliyatini kafolatlovchi xizmatlarga bogliq bo`lmoqda.

#### Qisqacha hulosalar

Aylanma mablag`lar o`zida ishlab chiqarish jarayonidagi mehnat predmetlari va moddiy boyliklarning puldagi ko`rinishini ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, aylanma mablag`lar bu ishlab chiqarish aylanma fondlari va muomala fondlariga yo`naltirilgan pul mablag`laridir.

Aylanma mablag`larning tarkibi va tuzilmasi xo`jalikning ishlab chiqarish yo`nalishi, ixtisoslashuvi, sharoitlari, iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, ishlab

chiqarish hajmi, etishtirgan mahsuloti va ko`rsatilgan xizmatlarini realizatsiya qilish jarayonlari hamda shu kabi faoliyat natijalariga bog`liq bo`ladi.

#### Tayanch iboralar:

Korxonalar, oborot mablag`i, operatsiyalar, kredit, mulk, bank, islohatlar, samaradorlik ko`rsatgichlari, trast, vositachilik, vazifalari, manbalari, kreditor, debitorlar va barqaror passivlar.

#### Nazorat savollari:

1. Turli mulk shaklidagi korxonalar joriy mablaglarining aylanish jarayoni.
2. Oborot (joriy) kapital istiqbolini belgilash.
3. Tijorat banklari iqtisodiyot real tarmogi bilan aloqasi muammolari<sup>10</sup>.
4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining oborot kapitali
5. Korxonalar aylanma va ularning tuzilishi
6. Korxonalar oborotlaridan samarali foydalanish ko`rsatgichlari va ularni hisoblash yo`llari
7. Tijorat banklarini moliyaviy aktivlari samaradorligini baholash<sup>11</sup>
8. Aylanma fondlar, asosiy fondlar, muomala fondlari uchun sarflanadigan pul mablag`lari
9. Venchur moliyalashtirish mexanizmlarini barpo qilish
10. Zamonaviy kredit tizimi faoliyat ko`rsatishning xususiyatlari<sup>12</sup>

#### Asosiy adabiyotlar.

1. O`zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to`g`risida» qonuni. 1996 y.25 aprel.
2. O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me`yoriy hujjatlari to`plami.T.: 2003.
3. O`zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish yillarida. 4-qism. Moliya va bank tizimidagi islohotlar samarasi. A. Bekmuradov, R. Tojiev, X.Qurbonov, M. Alimardonov. T.: TDIU - 2005y., 62 b.
4. Abdullaev Yo, Abdullaeva Sh. «Bank ishi», Toshkent 2003y.
5. Efimova M.R. Finansovo-ekonomicheskie rascheti. Posobie dlya menedjerov: Ucheb. Pos.-M.: INFRA-M, 2004.-185s.
6. Lavrushin O.I. i dr. «Bankovskoe delo» M. F i S 2003g.
7. <http://www.bankofengland.co.uk/market/money/index.htm>
8. <http://www.bankofengland.co.uk/coreprocesses.htm>
9. [www.Referat.ru](http://www.Referat.ru)

---

<sup>10</sup> 5-ishoraga qaralsin.

<sup>11</sup> O`sha yerga qaralsin.

<sup>12</sup> O`sha yerga qaralsin.

## II-BOB. BANK TIZIMI VA BANK TURLARI

### 2.1. Bank sistemasi. Bank turlari ularning funksional yo`nalishi bo`yicha klassifikatsiyasi

Bank tizimi - tashkiliy tuzilma sifatida yirik tizim bo`lib – mamlakatning iqtisodiy tizimiga kiradi. Bu shuni bildiradiki, banklarning faoliyati va rivojlanishini moddiy va nomoddiy nematlarni ishlab chiqarish, muomala va istemol qilish bilan bog`liq holda ko`rib chiqish zarurdir. O`zining amaliy faoliyatida banklar xujvalik hayotini tartibga solish mexanizmi bilan o`zviy ravishda bog`liq.

Shu bilan birga banklar soliq tizimi, baho tizimi, baho va daromad siyosati, tashqi faoliyat iqtisodiy faoliyat shartlari bilan o`zviy aloqada bo`lishlari shartdir.

Bank tizimi- bu mamlakat hududida tarixan shakllangan va konkn bilan mustahkamlangan kredit tashkilotlarining faoliyat ko`rsatish shaklidir. Xuddi pul va moliya tizimi kabi bank tizimi o`ziga hos milliy belgilariga egadir. Shu belgilar shu hududning, gyeografik shartlari ob-xavo aholi milliy tuzilishi, ularni nima bilan mashgulligi, kushnilar bilan munosabati, savdo yo`llari va omillar asosida shakllanadi.

Bank tizimi - yagona manoga ega emas. Uni turli tamoyillarni kurish, turli holatlariga qarab guruhlash mumkin. Masalan, ularni tashkiliy tuzilishiga ko`ra intitutsional chizma ko`rinishida ko`rib chiqish mumkin. Bundan tashqari bank tizimini bajaradigan funksiyalari, o`zaro aloqadorligi, mavkei, maxsus yo`nalishi, bajaradigan operatsiyalarga va ularni tanbex etilishiga qarab ham guruhlash mumkin.

Tijorat banklarini belgilariga qarab quyidagi turlarga bo`lish mumkin. Mulkchilik shakliga qarab banklar: davlat bankiga, akciyador banklarga, kooperativ, xususiy, mintakaviy, aralash mulkchilikka asoslangan bankka bulinadi. Akciyador banklar akciyador jamiyat kabi ochiq turdagi yoki yopiq turdagi akciyador banklar bo`lishi mumkin. Aktsiyadorlar safiga kirish akciyalarni sotib olish yuli bilan amalga oshiriladi. Xuquqiy va jismoniy shaxslar banklarning akciyalarini sotib olishi va akciyadorlar bo`lishi mumkin.

Aktsiyador tijorat banklarining yuqori organi - akciyadorlarning umumiy yig`ilishi hisoblanadi. Xar yili akciyadorlarning yig`ilishi ustavdagi va ustav kapitalidagi uzgarishlarni, yillik faoliyat va uning natijalarini, bank daromadlarini tasdiqlash, Bank Kengashi tarkibini saylash bankning shu`ba muassasalarini tashkil qilish va bekor qilish kabi masalalarni ko`rib chiqishi mumkin.

Ba`zi tijorat banklari paylar (badallar) hisobidan tashkil kilinishi mumkin. Bu turdagi banklarning qatnashchilari ham xuquqiy va jismoniy shaxslar bo`lishi mumkin.

Xususiyy banklar - jismoniy shaxsning pul mablag`lari hisobidan tashkil qilingan banklar hisoblanadi.

Joylashish belgisiga karab tijorat banklar: xalkaro, respublika, mintakaviy, viloyat banklariga bulinishi mumkin.

Bajaradigan operatsiyalariga karab tijorat banklar - universal va maxsus banklarga bulinadi.

Universal banklar xilma-xil operatsiyalar bajarish, xar xil xizmatlar amalga oshirish xususiyatiga ega buladi. Maxsus banklar ma'lum yunalishlarga xizmat kursatib, uz faoliyatini shu yunalishlarda yutuklarga, samaradorlikka erishishga bagishlaydi. Bunday banklarga tarmoqlarga xizmat kursatuvchi banklar, eksport-import operatsiyalarini olib boruvchi banklar, investiciya banklari, ipoteka-zamin banklari kirishi mumkin.

Banklarni intuitsional tuzilishi bilan bo'yicha guruhleri bir qancha unsurlarni majmuini bevosita va bilvosita bank faoliyati bilan shug`ullanuvchilarni, ularni tuzilishini, vazifalari, funksiyalari, muhitdagi operatsiyalarini o`zaro aloqadarlikda o`z ichiga oladi (tashkilot va korxonalar).

Tashkiliy tuzilish bo'yicha guruhlash ushbu davlatda faoliyat olib boradigan kredit turlari va shakllarini, bunda ishtirok etadigan banklarning turlarini o`z ichiga oladi. To`zilma kredit shakllari va bank ishtiroki belgilariga qarab tuziladi.

## 2.2. Davlatni pul-kredit siyosati va banklarni uni amalga oshirishdagi roli<sup>13</sup>

Bugungi kunda banklarni va boshqa moliya-kredit tashkilotlari orasidagi farqini yo`qotishni mamlakatdagi kapital harakatini markazlashuvuni va jamg`arlishi bilan bevosita bog`liqdir.

Bunday harakat natijasida o`zaro yakin va uxshash bo`lmagan kredit tashkilotlarini yo`qolib ketishi yoki kushilishi jarayoni amalga oshirilishi mumkin.

Shu bilan birga banklarning universallasuvi makroiqtisodiy omillariga bog`liqdir. Ammo bu faoliyat uzoq muddatni o`z ichiga oladi. Hozirgi kunda farqlarning yo`qolishi va banklar tomonidan funksional va yuridik xususiyatlarni bekor bo`lishi asosan yirik tijorat banklarida sezilarli amalga oshmokda. Shu qayd qilish lozimki yirik banklarning universallasuvi va global yo`nalishlarining olib borilishi kichik banklarning, maxsus kredit tashkilotlariga yani malum turdagi operatsiyalarga moslashgan tashkilotlarga aylanishiga sabab bo`lmoqda. Bu esa ko`pgina mamlakatlarda faoliyot ko`rsatayotgan ko`p bosqichli bank tizimiga hos xususiyatdir.

---

<sup>13</sup> TDIU va MDH mamlakatlari iqtisodiy mutaxassisliklari bo'yicha bakalavriat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining namunaviy mavzulari. T, 2005 y., 72.

Bozor iqtisodiyeti va jahon xo`jaligi rivojlanishi bilan bank tizimi ham rivojlana bordi. Hozirgi sharoitda banklar tobora ko`prok faqat sof bank operatsiyalarini bajaradigan emas.

Tijorat banklari qo`yidagi operatsiyalarni bajaradi:

- passiv operatsiyalar;
- aktiv ssuda operatsiyalari;
- bank xizmatlari va vositachilik operatsiyalari;
- bankning uz mablag`lari hisobidan amalga oshiradigan operatsiyalar va boshqalar.

Shu bilan birga banklar moliyaviy xizmatlar ko`rsatadigan moliyaviy muassasalarga aylanmokda, bu bank balansida aks ettirilmaydi, lekin juda katta daromad keltiradi.

Pul-kredit siyosati usullari umumiy bo`lishi mumkin, yani mamlakatdan kredit munosabatlar holatiga umumiy tasir ko`rsatuvchi, yoki selektiv, yani alohida olingan kredit turlariga tasir ko`rsatish uchun yo`naltirilgan hamda alohida korxonalar, jumladan tarmoqlarni kreditlash uchun yo`naltirilgan bo`lishi mumkin.

Pul-kredit siyosatining umumiy usullariga:

- Markaziy bankning hisobga olish siyosati yoki foiz stavkalarini tartibga solish siyosati;
- ochiq bozordagi operatsiyalar, yoki davlat qimmatbaho-qog`ozlarini sotib olish va sotish;
- majburiy zahira normalarini o`zgartirishlar kiradi.

Hisobga olish siyosati Markaziy bankning tijorat banklari uchun oxirgi navbatdagi zahirasi sifatida kreditoriga ayalanishi bilan bog`liq.

Majburiy zahira normalarini tartibga solish bu hukumat talabi asosida tijorat banklarining belgilangan miqdoridagi pul mablag`larini Markaziy bankdagi foizsiz hisob varag`iga o`tkazilishidir.

Ochiq bozordagi operatsiyalar-bu markaziy bankning tijorat va gazna obligatsiyalari va boshqa qimmatbaho qog`ozlarni bozor kursi yoki oldindan elon qilingan kurs bo`yicha sotib olish va sotish, hamda qayta kelishuvlaridir.

Markaziy bankning pul-kredit siyosati selektiv usullariga:

- limitlar, kvotalar urnatish orqali kredit miqdorini yoki veksellarini hisobga olishni to`g`ridan-to`g`ri qisqartirishdir;
- kredit operatsiyalarini o`sish darajasini pasaytirish;
- alohida olingan turdagi kreditlar ustidan nazoratni urnatish, ismol krediti ustidan;
- alohida olingan jamg`armalarga yuqori foizlarni o`rnatish yoki umuman foiz stavkalarini tartibga solish va boshqalardir.

Banklar va uning krediti yordamida mavjud kapital tarmoqlar o`rtasida, ishlab chiqarish va muomala soxasida taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi.

Sanoat, transport, qishloq xujaligi soxasida kushimcha investiciyaga

bulgan talablarni moliyalashtirib, banklar xalk xujaligida progressiv yutuklarga erishishni ta'minlashi mumkin. Oxirgi yillarda tijorat banklarining soni, ular bajaradigan operatsiyalar, ularning ustav fondi va kuyilmalar salmogi oshib bormokda.

Tijorat banklari o`z faoliyati bilan bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda ishlay oladigan tashkilotlarni o`z vaqtida mablag` bilan qo`llash va bunday tashkilotlarni aniqlash kabi muhim bir vazifani amalga oshirmokda. Tijorat banklari kreditlash jarayonlari orqali mamlakat iqtisodiyotning rivojlanishiga ham juda katta xissa qo`shmokda.

Tijorat banklarining yana bir muhim funksiyasidan biri bu hisob to`lovlarini amalga oshirish funksiyasidir. Bugungi kunda korxonalar va xo`jaliklarni o`rtasidagi hisob-kitoblarning asosiy qismi pul o`tkazish yo`li bilan amalga oshirilmokda. Bu jarayonlarda tijorat banki vositachi sifatida to`lovlar o`tkazish jarayonini bajarmokda. To`lov xujjatlarining o`z vaqtida o`tishi hamda hisob-kitob jarayonlarining uzluksizligini taminlash zaruriyati bugungi kunda banklardan hisob-kitoblarni tashkil qilish va nazorat qilishning mukammal metodlarini ishlab chiqishni talab etmokda.

Hisob-kitoblarni tezlashtirish, jarayonlarni ishonchligini taminlash hamda bu jarayonlar bilan bog`liq harajatlarni kamaytirish maqsadida tijorat banklari bugungi kunda kompyuter texnikasi bilan jixozlanmokda.

Tijorat banklarining to`lovlarini amalga oshirish funksiyasi orqali bugungi kunda yuridik shaxslarning davlat budjetiga bo`lgan majburiyatlari nazorat qilinmokda.

Bugungi kunda tijorat banklari yetarli darajada texnik jixozlanganligi hamda kerakli axborot bazalariga va malakali kadrlarga egaligi banklari o`z navbatida qimmatli qog`ozlar bozorining asosiy ishtirokchilaridan biri qilib kuymokda. Qimmatbaho qog`ozlar bozorida banklar bir vaqtning o`zida ham investor ham emitent sifatida qatnashmoqda. Banklarning boshqa xo`jalik subektlariga nisbatan stabil moliyaviy holatga egaligi qimmatbaho qog`ozlar bozorida operatsiyalarda qatnashishga imkon bermoqda. Respublikada tijorat banklarning qimmatbaho qog`ozlar bozorida aktiv ishtirok etishini sabablaridan yana biri banklarning nizom kapitalini oshirish sohasida o`z aksiyalarini sotishga bo`lgan intilishdir.

Bugungi kunga kelib tijorat banklari qimmatbaho qog`ozlar bozorida aksiyalardan tashqari depozit va jamg`arma sertifikatlar bilan ishlashni ham yo`lga kuymokdilar. Bundan tashqari banklar o`z mijozlariga moliyaviy broker sifatida ham xizmat ko`rsatmokda. Banklarning bunday funksiyalarni bajarishlari korxonalar tashkilotlarning qimmatli qog`ozlar bozori operatsiyalarida qatnashishlari uchun qulay sharoit yaratmokda.

Bugungi kunda, Respublika davlat mulkini xususiy lashtirish bilan bog`liq jarayonlar keng o`rin olganligi sababli, korxonalariga tegishli, qimmatli qog`ozlar bozoriga nisbatan, davlat qimmatli qog`ozlar bozori aktiv harakat



qilmoqda. Bu bozorda asosiy qatnashchilar sifatida tijorat banklari maydonga chiqmoqda. Bu bozorda tijorat banklari o`zlarining brokerlik funksiyalarini amalga oshirish bilan bir qatorda mavjud mablag`larini hych qanday tavakalchilikka bormagan holda qisqa muddatlarga joylashtirish imkoniyatiga ega bo`lmokdalar.

### 2.3. Markaziy bankning tijorat banklari faoliyatini tartibga solishdagi o`rni<sup>14</sup>

O`zbekiston Respublikasi Tijorat banklari Markaziy bankdan litsyenziani olgandan so`ngina davlat qimmatbaho-qog`ozlari bilan operatsiyalarni amalga oshirilishi mumkin. Ularga qimmatbaho qog`ozlar bilan operatsiyalar qilish uchun, to`lov harajatlari funksiyasini bajaruvchi qog`ozlar uchun (veksel-chek) yoki pul mablag`larini jamg`armalarga va bank raqamlariga jalb qilishlarini tasdiqlovchi kog`ozlar (depozit va jamg`arma sertifikatlari) uchun maxsus litsyenzia olishlari shart emas.

Bugungi kunda banklarning ko`p pog`onali bo`lishi ularning tashkiliy tuzilishiga bog`liq.

Ammo, rivojlangan mamlakatlarga bir yoki ikki pog`onali bank tizimi xosdir

Bir pogonali bank tizimi varianti mamlakatda yagona markaziy bank xali mavjud bo`lmasa yoki bitta markaziy bankdan iborat bo`lsagina rsal (haqiqatda) mavjud bo`lishi mumkin.

Ammo tsivilizatsiya darajasidagi bozor iqtisodiyoti sharoitiga ikki pog`onali bank tizimi hos. Bunda birinchi pogona banklari-bu Markaziy bank, ikkinchi kuyi pog`ona esa-tijorat banklari va kredit tashkilotlaridir.

Markaziy bank-bank tizimi mavjud bo`lgan barcha davlatlar pul-kredit tizimining asosini tashkil qiladi. Markaziy bankning moliya bozoridagi o`rni mamlakatda bozor munosabatlarining rivojlanish darajasiga va xususiyatiga bog`liq.

Bu esa o`z navbatida ikki pogonali bank tizimini shakllanishiga asosiy omil bo`lib hisoblanadi. Chunki buning tepasida Markaziy bank bo`ladi.

Ikki pogonali bank tizimining zarurli bozor munosabatlarining qarama-qarshiliklaridan kelib chiqadi. Bir tomondan, bu xususiy moliya mablag`laridan erkin foydalanish huquqini talab qiladi. Bu kuyi pogona banklar-tijorat banklari orqali amalga oshiriladi. Ikkinchi tomondan, bu munosabatlarni malum miqdorda tartibga solish nazorat qilish maqsadli yo`naltirish zarur. Bunday maxsus institut sifatida Markaziy bank yuzaga chiqadi.

Yuqorida ko`rib o`tganimizdek bank faoliyatini maxsus litsyenzia asosida amalga oshiriladigan faoliyatdir. Biz aytganimizdagi O`zbekiston Respublikasi Tijorat banklari Markaziy bank tomonidan beriladigan litsyenzia

---

<sup>14</sup> O`sha yerga qaralsin.

asosida faoliyat olib boradilar. Ularga qo`shimcha retyenziya zarur emas (faqat valyuta operatsiyalaridan tashqari).

Shuni takidlash lozimki Respublika Tijorat banklarining moliyaviy holati bugungi kunda barqaror emas. Shu sababli Respublikada bir qancha banklarning litsyenziyasi chakirib olindi, bu esa ularni haqiqatda bankrotlikga uchraganligidan darak beradi.

Bank retyenziyasi chakirib olinish jarayonidan likviditsion komissiya to`ziladi. Ular qiyin va uzoq muddatli murakkab faoliyat olib boradilar.

Kredit moliya-tizimining barqarorligining taminlash, uning alohida bo`g`inlarining birinchi navbatda tijorat banklari faoliyatini barqarorligini taminlash mamlakat markaziy bankning asosiy vazifasi hisoblanadi. Markaziy bankning yana bir asosiy vazifalaridan kredit organlarini (tizimini) faoliyatini tartibga solish va umumlashtirishdan iboratdir.

Uzoq yillar mobaynida tijorat banklari va emission banklarining bajaradigan funksiyalari qushilib ketdi. Bular qatoriga banknotlarni emissiya qilishning markazlashuvi bir qo`lda yoki bir necha banklarning qo`lida yani davlatning maxsus qonuniy dalolatnomalari bilan qo`llab-kuvvatlanadigan banklar qo`lida ushlab turishi, keyinchalik esa ular orasidan yiriklarini ajratib so`ng emissiya chiqarish huquqini berilishini, yoki alohida markaziy emission banklar deb nomlanuvchi banklarning paydo bo`lish jarayonlarini misol qilib keltirish mumkin.

Turli mamlakatlarda Markaziy banklarga turli funksiyalarni belgilab berilishi mumkin. Lekin Markaziy bank doimo Davlat va bank belgilarini o`zida mujassamlashtirilgan o`zida Davlatning tartibga soluvchi organi bo`lib qoladi.

Mamlakatning Markaziy Banki - shu davlat bank tizimining asosiy qismi bo`lib hisoblanadi. Markaziy bank- birinchi urinda davlat va iqtisodiyot o`rtasida vositachi bo`lib xizmat qiladi. Ammo Markaziy bank o`z oldiga foyda olishni maqsad qilib kuymaydi.

Markaziy bank funksiyalari uzoq yillar mobaynida deyarli o`zgarmay aniq modifikatsiyalangan ko`rinishga egadir.

Turli iqtisodiy adabiyotlarda va ukuv darsliklarida Markaziy bank funksiyalari turlicha talkin qilinadi.

Masalan V.M. Usoskinining fikriga ko`ra Markaziy bank funksiyalariga:

- kredit pullari (banknotlar) emissiyasi;
- banklar uchun va boshqa kredit tashkilotlari uchun turli xizmatlarni amalga oshirish;
- hukumatning moliyaviy agyenti funksiyasi;
- markazlashgan oltin-valyuta zahiralarini saqlash;
- pul-kredit siyosati tadbirlarini o`tkazish kabilar kiradi.

“Moliya, pul muomalasi, kredit” kitobining mualliflari fikricha Markaziy bankning asosiy funksiyasi: - “muomalaga kredit pullari - banknotalarni chiqarish va pul muomalasini tartibga solishdan iboratdir”.

Shunday qilib, Markaziy banklar - “banklar banki”ga aylantirib yuborildi, yani ularning mijozlari bo`lib tijorat banklari hisoblanadilar. Markaziy banklar o`zlarining joriy (depozit) raqamlarida tijorat banklarining pul mablag`larini aks ettiradilar, ularning naqd pullarini tuldurishga bog`liq operatsiyalarni amalga oshiradilar, tijorat banklariga kreditlar beradilar. Markaziy banklar ko`p hollarda Davlatning bankirlari hisoblanadilar. Shu bilan barcha emission banklarning yana bir asosiy funksiyalariga ochiq bozordagi operatsiyalar va deviz operatsiyalari kiradi. Ular davlatning qimmatbaho qog`ozlarini sotish va olish, xorijiy valyutalarni hamda milliy valyuta kurslarini ushlab turish maqsadida sotadi va sotib oladi.

Lekin, umuman olganda Markaziy banklar tomonidan bajariladigan operatsiyalar quyidagi turt guruhga (turga) bo`linadi:

1. Banknotlarning monopol emissiyasini amalga oshirish;
2. Markaziy bank- banklar banki hisoblanadi;
3. Markaziy bank- hukumat bankiri hisoblanadi;
4. Markaziy bank pul- kreditni tartibga soladi va bank nazoratini amalga oshiradi.

Markaziy banklarga davlat vaqili sifatida qonuniy tarzda banknotlarni monopol ravishda emissiya qilish birlashtirilgan, yani umummilliy kredit pullarini bosib chiqarish yuklatilgan. Takidlash kerakki, sanoati rivojlangan mamlakatlarda banknotalar pul massasining sezilarsiz qismini tashkil etadi, shuning uchun Markaziy bankning monopol emissiya funksiyasi birmuncha pasaytirilgan. Biroq banknotalarni chiqarish funksiyasi mamlakatdagi pul zahiralarini tashkil qiluvchi, chakana pul muomalasini naqd banknotalar bilan taminlash va kredit tizimini likvidliligini taminlash vositasi hisoblanadi. Bu funksiyalar naqd pul muomalasi ulushi sezilarli bo`lgan mamlakatlarda katta ahamiyatga egadir.

Markaziy bank bevosita tadbirkorlar va aholi bilan hech qanday faoliyat olib bormaydi. Uning asosiy mijozlari bo`lib tijorat banklari hisoblanadi. Tijorat banklari Iqtisodiyot va Markaziy bank orasida (o`rtasida) vositachi sifatida faoliyat ko`rsatadilar. Markaziy banklar banki sifatida tijorat banklarining zahiralarini saqlaydi, jumladan, majburiy zahira talablari shaklidagi pul mablag`larini saqlaydi, ularning kreditorlari sifatida ishtirok etadi, tijorat banklarining Markaziy bankda ochadigan hisob varaqlari orqali (O`zbekiston Respublikasi- hisob-kassa markazi) mamlakat miqyosida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshiradilar; banklar va boshqa kredit institutlari ustidan nazoratni olib boradilar.

Yuqorida aytib o`tilganlardan, umuman olganda, Markaziy bankning barcha funksiyalari o`zaro bog`liqdir. Davlatga kredit berish orqali, Markaziy bank kredit muomala vositalarini yaratadi. Hukumatning majburiyatlarini chiqarish va qoplash orqali, u ssuda foiziga tasir ko`rsatadi. Sanab o`tilgan

funksiyalari orqali Markaziy bank o`zining asosiy mamlakat pul-kredit tizimini tartibga solish funksiyasiga asos yaratadi va iqtisodiyotni tartibga soladi.

Markaziy bankning pul-kredit siyosati umumiy iqtisodiy infratuzilmalarni tartibga solishning, bozor konyukturasini yuqori darajada ushlab turish, bandlikka tasir o`tkazish, inqirozli tushumlarni oldini olishning ajralmas qismi sifatida namoyon bo`ladi.

Shunday qilib pul-kredit siyosati muomaladagi pul mablag`lari miqdorini, bank kreditlari hajmini, foiz stavkalarini, valyuta kurslarini, to`lov balansini va o`z navbatida bevosita mamlakat iqtisodiyoti holatini o`zgartirish uchun yo`naltirilgan tadbirlar majmuasidir.

#### 2.4. Bank xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish muammolari<sup>15</sup>

Jahon banklari ish faoliyatida axborotlarni sotish va moliyaviy maslahatlar kabi xizmatlar ham keng o`rin olgan. Bizning oldimizda turgan masalalardan biri ham bu sohani o`rganishdir.

Yangi iqtisodiy sharoit o`z navbatida tijorat banklarining rivojlanishini ular ko`rsatayotgan xizmatlarga va bu xizmatlarning kay darajada tashkil qilinganligi bo`ladi. Chunki ishlab chiqarishdagi kabi bank sohasida ham raqobat ertami-kechmi o`z ishini bajaradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida barqaror va samarali ishlovchi bank tizimini yaratish mustaqillikning birinchi kunlaridan O`zbekistonda yuritilayotgan iqtisodiy siyosatning eng muhim yo`nalishlaridan biri bo`ldi.

“O`zbekistonning moliyaga doir yordamchi tarmoqlarini, mamlakatning bank tizimini takomillashtirish biz uchun birinchi navbatdagi vazifadir”,<sup>16</sup> - deb etirof etilgan edi, chunki Mustaqillik elon qilingunicha mamlakatda mustaqil bank tizimi mavjud emas va mavjud bank muassasalari sobiq Ittifok bank tizimining tarkibiy qismi hisoblanardi.

Bugungi kunda respublika Hukumati va Markaziy banki mamlakatning mustaqil bank sohasini shakllantirishdek murakkab vazifani muvaffakiyat bilan bajarganligini mamnuniyat kayd etishimiz mumkin.

Bank tizimida yuzaga kelayotgan xolatlar, bugungi kunda bank menejmenti va marketingini yanada rivojlantirishni talab qilmokda. Banklar sonini ko`payishi bu raqobatning kuchayishidir.

Bozor munosabatlari sharoitida xo`jalik yuritishning yuksak daromadlariga erishilishini ta'minlovchi samarali yo`sinlari va uslublarini izlash alohida ahamiyat kasb etmokda. Bu maqsadga erishuvda ishlab chiqarishni boshqarish uslublari hamda vositalarni takomillashtira borishga alohida rol ajratiladi.

---

<sup>15</sup> O`sha yerga qaralsin

<sup>16</sup> I.A. Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom. -T.: “O`zbekiston”, 1996. 44-45-b.

Ma'lumki, rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida iqtisodiyotni boshqarish borasida boy tajriba to'plangan. Shu tajriba asosida boshqaruv sohasi rahbarlari va mutaxassislarining yangi avlodini tarbiyalash respublikamizda ham tobora keng yoyilmokda.

Jahon bank tizimida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, MDX mamlakatlari bank tizimiga ham tobora ko'proq ta'sir ko'rsatayotir. Xo'sh, gap qaysi o'zgarishlar to'g'risida bormoqda?

Birinchidan, bu o'zgarishlar to'lovlarning yangi integratsiya vositalarini yuqori sur'atlar bilan shakllantiradigan bank operatsiyalarini kompyuterlashtirishning texnologik inqilobi bilan bogliq. Bu jarayonlar talaygina moliyaviy xarajatlar talab qiladi, bank ishi qimmatlashadi, biroq uning samaradorligi va uning tezkorligi oshadi, bu esa xarajatlar o'sishini qoplaydi.

Ikkinchidan, bank ishida o'sib borayotgan raqobat banklarning ko'shilib ketishiga olib keladi, bu esa sarmoyalar bozorida va iqtisodning investitsiyalar sohasida yangi sharoitlarni vujudga keltiradi. O'zbekistonning bank tizimi unga kam quvvatli talay banklar kirganligi sababli, yaqin vaqt ichida bu ta'moyilning ta'sirini boshdan kechiradi. Bu xodisaga respublika bank xizmati bozorida anchagina raqobatbardosh va samarali bo'lgan chet el banklarining paydo bo'lishi ham yordam beradi.

Uchinchidan, bu an'anaviy bank xizmatlari bozoriga tobora shaxdam odimlar bilan kirib kelayotgan bankdan tashqari tuzilmalar bilan raqobatning kuchayishi. Jumladan, aholiga kredit kartochkalari bilan xizmat ko'rsatish sohasida turli xildagi tijorat to'zilmalari faoliyat ko'rsata boshlaydilar.

To'rtinchidan, bank ishlariga bu xizmatlarning ko'p sonli iste'molchilari ta'siri ortadi. Iste'molchi operatsiyalarining tezligi va sifati, hisob-kitoblarning qo'layligi, mijozlarning ehtiyojlariga o'tkazish-e'tibor qaratilishiga nisbatan banklarga tobora qattiq talablar boshlaydi. Bank tizimi hozir xal qilinishi qiyin bo'lgan dilemmaning keskinlashuvi sharoitida turibdi. qo'yilmalarni jalb qilishda banklar ekspansiyasi va omonatchilarni zararlardan kafolatlash o'rtasida asosiy muvozanatsizlik mavjud. Kafolatlar moliya insti-tutlariga qo'shimcha qo'yilmalarni jalb qilish imkonini beradi. qo'yilmalar faoliyatining omonatchilar tomonidan boshqarilmasligi esa, banklarga bu qo'yilmalardan foydalanishda keng imkon yaratib beradi. Bu ikki omilning o'zaro uygunligi kreditlash xajmlarining usishi uchun sharoit yaratadi. Biroq bu boshqarilmaslik kuchayishi bilan xavf-xatar va kompensatsiya o'rtasidagi muvozanatsizlik ortadi. Shuning uchun ham bank tizimini rivojlantirish va boshqarishga nisbatan samarali siyosat olib borish zarur.

Bu vazifalarning barchasi bank menejmenti bilan bogliqdir.

Menejment - tashkil etish va boshqarishning tizimini to'g'riroq olib borishi haqidagi ilmiy bilimdir. Menejment tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati turlicha tushuniladi. qisqa ma'noda menejment so'zi - jamoani tashkil

qilish va boshqarish bilan bogliq bo'lsa, keng ma'noda menejment - bank faoliyatini va uning ishchilarini shakllantirishni boshqarish tushuniladi.

Menejment asosini-inson omili, o'z ishini biluvchi, shaxsiy hamda jamoa mehnat faoliyatini tashkil eta oluvchi hamda samarali boshqaruvchi-shaxs tashkil etadi. Bu borada boshqaruvchi - kasbiy bilimga va shaxsiy sifatlarga: yuqori bilimli, uylash qobiliyati chuqur va zexnli, xavfni boshqara oladigan hamda rejalashtirgan ishlarni qo'rkmasdan amalga oshira oladigan shu bilan birga jamoasi orasida etakchilik qila oladigan shaxs bo'lishi shartdir.

Menejmentning asosiy maqsadi-boshqarishning ratsional usuli orqali foyda olishdir. Lekin respublikamizning hozirgi iqtisodiy sharoitida bank menejmentining asosiy maqsadi faqatgina foyda olish emas, balki jamiyatning ijtimoiy iste'mol talablarini qondirishdan ham iboratdir. Oxirgi yillarda bank menejmentining maqsadlariga - jamoaning ijtimoiy muammolarini ham xal qilishdan iborat bo'lgan masalalar turibdi. Busiz inson o'z potentsialini namoyish eta olmaydi va mehnat kila olmaydi.

Bularning barchasi bank menejmentiga ham bevosita bogliq va taaluqlidir. Lekin bank menejmentining ikki tomoni mavjuddir. Chunki bank iqtisodchi korxonalar menejmenti xolatiga bank mijozlariga hamda bank menejmentiga ham e'tibor berishlari zarur.

Shu bilan bank menejmentining yana bir xususiyati bank biznes xususiyatiga bevosita bogliqdir. Bank biznesi boshqa tarmoqlarga karaganda uning farqi maxsus «tovar» «pul» bilan faoliyat ko'rsatishidir. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda bank menejmentining o'ziga xos xususiyatlarni va maqsadlarini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir. Bu xususiyatlarga:

- pul bozori sharoitida xo'jalik sub'ekti sifatida bank ishini rentabelligini ta'minlash;

- kreditor va jamgarmachilar kizikishini ta'minlash maqsadida, bankni ishonchli sherik sifatida uning balansi likviditligini ta'minlash;

- bank mijozlariga ko'rsatilayotgan xizmatlarini xajmi, turi, sifatini yaxshilagan holda ular orasidagi aloqalarni doimiyligini ta'minlash uchun mijozlar talablarini maksimal qondirish;

- jamoaning ishlab chiqarish, tijorat hamda ijtimoiy muammolarni birgalikda hisobga olgan holda xal qilish;

- mutaxassislarning potentsialidan to'larok foyda olish maqsadida ularni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularni joylariga qo'yish.

Bu maqsadlarga erishish uchun bank menejmenti miqdoriy va sifat hamda ijtimoiy ko'rsatkichlarga tayanadi.

Miqdoriy ko'rsatkichlar bank menejmentining barcha sohalariga tegishlidir. Miqdoriy ko'rsatkichlarga: bank mijozlari va raqamlari soni; depozit xajmi, kredit qo'yilmalri, operatsiya va xizmatlar xajmi va boshqalar misol bo'la oladi.

Sifat ko`rsatkichlariga esa bankning daromad va xarajat ko`rsatkichlari mablag`larning aylanish tezligi, operatsiyalarni amalga oshirish xarajatlari va mehnat xajmi, xujjatlarni qayta ishlash kabilar kiradi. Hozirgi kunda bu masalalar kundan-kunga xal qilib borilmokda. Axborot tizimi, elektron to`lov tizimi bunga yaqqol misol bo`la oladi. Bank menejmentining ijtimoiy ko`rsatkichlarini uch guruhga ajratib ko`rish mumkin. Bular:

- jamo'a a'zolarining kasbiy tayyorgarligi;
- ularning mehnatga munosabati;
- ijtimoiy muammolarni farq qilish darajasi.

Bank menejmentining asosiy xususiyatlaridan yana biri, bu ma'sul masalarni xal qilishda jamoa usulining mavjudligidir. Hozirgi davrda bank menejmentining aniq yo`nalishi qanday? Ularni ikkita yirik yo`ralishga ajratish mumkin. Birinchi guruh savollariga, bankni ixtiyorida bo`lgan iqtisodiy muammolarni boshqarishni tashkil etish, ikkinchi guruh savollariga esa bank jamoasini boshqarishni tashkil etishdan iboratdir.

Bularning xar biri alohida yo`ralishlardan iborat. Lekin biz ularning xar birini alohida-alohida ko`rib chiqa olmaymiz. Ammo ba'zi birlari bilan tanishib o`tishga xarakat qilamiz.

Yo`ralishlarning barchasi bank siyosatiga bevosita bogliqdir. Bank siyosatining taxlili natijasini aniqroq chiqarish va uni olib borish bank marketingiga chambarchas bogliqdir. Bu masala ayniksa bozor iqtisodiyoti sharoitida o`zining birlamchi ko`rsatkichlaridan ekanligini namoyon qiladi. Bank marketingi - bu bozorda bo`layotgan jarayonlarni to`la hisobga olgan holda kompaniya va firma faoliyatini bajarish va tashkil etish tizimidir. Bank marketingi esa shu ma'lum bir regionda va regiondan tashqarida bank xizmatlariga bo`lgan talab va taklifni o`rganish, bank xizmatlariga bo`lgan talabni boshqarish va qondirish, turli banklar tomonidan amalga oshirilayotgan bir turdagi operatsiyalar xarajatini taqqoslash, reklamani amalga oshirish tizimidir.

Bank marketingi birinchi navbatda bankning potentsial mijozlarini qidirib topishini bildiradi. Bank mijozni hamda o`zining iqtisodiy potentsialini birgalikda kushib o`rganadi. Bank xizmatini yangi turlariga bo`lgan talabni o`rganish hozirgi zamon banklarining eng dolzarb masalasidir. Oxirgi yillarda bank muamolasiga kiritilgan; Faktoring, lizing, ishonch (trast), vositachilik xizmatlari va ularga bo`lgan talabni o`rganib chikish shular jumlasiga kiradi. Tijorat banklarining maslaxat xizmati, qimmatbaho qogozlar bilan operatsiyalari ham bundan mustasno emasdir.

Bankning o`z marketing xizmatini olib borishi bir necha usullariga ega. Bularning eng birinchisi hamda oddiysi - mijozlar bilan olib boriladigan bevosita olib boradigan muloqatidir. Mijozni ham bank ishchisini moddiy tomonidan ragbatlantirilishi bu vazifani xal qilishning asosiy mezonlaridan

biridir. Mijozlar bilan muloqot qilish uslubiga ko`ra bank marketingi ikki turga, aktiv va passivga bo`linadi<sup>17</sup>.

Aktiv marketing o`z ichiga:

-to`g`ri marketing, telefon, pochta va televideniyaning o`z ichiga olgan marketingni;

-telemarketing, ya'ni yangi bo`limdan ko`ra iqtisodiy samaradorligi yuqori bo`lgan marketingni;

-konferentsiyalar o`tkazish orqali bank xizmatlarini reklama qiluvchi marketingni;

-aholining keng ommasini so`roqqa to`tish orqali o`rganiladigan gap marketingni;

-bankda tashkil topadigan fokus-guruhlarining tashkiliy diskussiya bahslashuv guruhlari marketingi;

-mijoz bilan bevosita muloqotda bo`lgan marketingni oladi.

O`z navbatida passiv marketing esa matbuotda bosib chiqarish yo`li bilan bank xizmatlarini reklama qilish usuliga bo`linadi. Bank marketingining tashkiliy qismlari bo`lib:

Axborotni to`plash (bozorni o`rganish uchun);

Tovarni o`rganish va bahosini aniqlash (tovar-baho);

Xizmatlarni jo`natishni (sotishni) tashkil etish kabilar hisoblanadi.

#### Qisqacha hulosalari

Bank tizimi - tashkiliy tuzilma sifatida yirik tizim bo`lib – mamlakatning iqtisodiy tizimiga kiradi. Menejment - tashkil etish va boshqarishning tizimini to`g`riroq olib borishi haqidagi ilmiy bilimdir. Menejment so`zi - jamoani tashkil qilish va boshqarish bilan bogliq bo`lsa, keng ma'noda menejment - bank faoliyatini va uning ishchilarini shakllantirishni boshqarish tushuniladi.

#### Tayanch iboralar:

Bank mohiyati, bank tizimi, tijorat banki, Markaziy bank, funktsiya, litsenziya, aktiv operatsiyalar, passiv operatsiyalar, resurslar, valyuta operatsiyalari, korrespondent munosabatlar, marketing va menejment.

#### Nazorat savollari:

1. «Bank» tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati
2. Banklar - xo`jalik yurituvchi korxonalar sifatida
3. Bozor iqtisodiyotida kreditning ijtimoiy funktsiyalari xususiyatlari<sup>18</sup>
4. Bank aksioner tashkiloti sifatida
5. O`zbekiston tijorat banklarida menejmentni rivojlantirish<sup>19</sup>

<sup>17</sup> Bankovskoe delo. Pod.red. O.I.Lavrushina. M.: Fi S, 18 str., 2003 g.

<sup>18</sup> TDIU va MDH mamlakatlari iqtisodiy mutaxassisliklari bo`yicha bakalavriat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining namunaviy mavzulari. T, 2005 y., 75

<sup>19</sup> O`sha yerga qaralsin



6. O`zbekiston Respublikasi bank tizimi xolati va rivojlanish istiqbollari<sup>20</sup>
7. Banklarning operatsiyalari va ularning tuzilishi
8. Aholi pul daromadlari va xarajatlarini muozanatlashtirish muammolari<sup>21</sup>

#### Asosiy adabiyotlar.

1. O`zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish yillarida. 4-qism. Moliya va bank tizimidagi isloxotlar samarasi. A. Bekmuradov, R. Tojiev, X.Qurbonov, M. Alimardonov. T.: TDIU - 2005y., 62 b.
2. Abdullaev Yo, Abdullaeva Sh. «Bank ishi», Toshkent 2003y.
3. Jarkovskiy S. «Bankovskoe delo» kirs lektsiy. M.: «F i S». 2004 g.
4. Lavrushin O.I. i dr. «Bankovskoe delo» M. F i S 2003g.
5. Tojiev R., Jumaev N. Markaziy banking monetar siyosati. T.: TDIU nashriyoti. 2002.-107 b.
6. [www.thebanker.com](http://www.thebanker.com)
7. <http://www.bankofengland.co.uk/market/money/index.htm>
8. <http://www.bankofengland.co.uk/coreuproses.htm>

---

<sup>20</sup> O`sha yerga qaralsin

<sup>21</sup> O`sha yerga qaralsin

### III-BOB. O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANKLARIDA RAQAMLARNI (HISOB VARAGLARINI) OCHISH, YOPISH VA QAYTA XUJJATLASHTIRISH TARTIBI

#### 3.1. Bank raqami tushunchasi, ularning turlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida halq ho`jaligini rivojlantirishning eng muxim omillaridan biri - pul aylanishini to`g`ri va aniq tashkil qilishdan iborat, chunki bozor iqtisodiyoti tovar-pul munosabatlarining xolati va taraqqiyoti bilan chambarchas bogliqdir. Korxonalar va tashkilotlar o`zlarining xo`jalik faoliyatlari jarayonida doimo bir-birlari bilan aloqada bo`ladilar. Ular o`rtasida tovar ayriboshlash jarayoni pul va pulli hisob kitoblar yordamida amalga oshiriladi. Tovar ayriboshlashning o`zi esa pul aylanishining moddiy asosi bo`lib hisoblanadi, uning asosida boshqa pulli munosabatlar vujudga keladi. (Soliq organlari. Pensiya fondi, bank muassalari va boshqalar).

Banklar korxonalar va tashkilotlar o`rtasida doimiy ravishda bo`ladigan aloqalarni boshqarish hamda amalga oshirish maqsadida ularga hisob varag`lari ochadilar. Bu hisob varag`lari O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan chiqarilgan yo`riqnomaga asosan olib boriladi. Bu yo`riqnomada - mijozlar-yuridik yoki jismoniy shaxslar, shuningdek ularning hisobvaraqlar ochish va yuritish, hisob-kitob, kredit hamda kassa operatsiyalarini bajarish va omonatlar qo`yish borasidagi bank xizmatlaridan foydalanadigan qonuniy vakillari sifatida berilgan.

Rezidentlar - O`zbekiston Respublikasida doimiy turar joyiga ega bo`lgan, shu jumladan vaqtincha O`zbekiston Respublikasidan tashqarida yashayotgan jismoniy shaxslar, shuningdek O`zbekiston Respublikasida joylashgan bo`lib, O`zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq tuzilgan va ro`yhatdan o`tgan yuridik shaxslar, shu jumladan, chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar hamda O`zbekiston Respublikasining immunitetiga va diplomatik imtiyozlariga ega bo`lgan xorijdagi diplomatik savdo va boshqa rasmiy vakolatxonalar, shuningdek O`zbekiston Respublikasi korxonalar va tashkilotlarining chet eldagi xo`jalik va boshqa tijorat faoliyati bilan shugullanmaydigan o`zga vakolatxonalar kiradi.<sup>22</sup>

Nerezidentlar — xorijda muqim turar joyi bo`lgan, shu jumladan, vaqtincha O`zbekiston Respublikasida yashayotgan jismoniy shaxslar, shuningdek O`zbekiston Respublikasida joylashgan bo`lib, immunitet va diplomatik imtiyozlardan foydalanadigan chet el diplomatik savdo hamda boshqa rasmiy vakolatxonalar, halqaro tashkilotlar va ularning filiallari, shuningdek xo`jalik yoki boshqa tijorat faoliyati bilan o`zga tashkilot va firmalarning vakolatxonalaridir.<sup>23</sup>

---

<sup>22</sup> O`zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi ga doir me`yoriy hujjatlar to`plami. T.; O`zbekiston. 2003 y.28 bet.

<sup>23</sup> O`zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi ga doir me`yoriy hujjatlar to`plami. T.;

Bank hisobvarag`i - bank hisobvarag`i shartnomasini tuzish orqali bank mijoz (hisobvaraqa egasi) hisob-varag`iga kelib tushgan pul mablag`larini qabul qilish va kiritib mijozning hisobvarag`idagi tegishli mablag`larni o`tkazish va berish hamda hisobvaraqa bo`yicha boshqa operakiyalarni amalga oshirish to`g`risidagi farmoyishlarni bajarish vazifasini o`z zimmasiga olishi natijasida bank bilan mijoz o`rtasida vujudga keladigan munosabatlardir.<sup>24</sup>

Bank hisobvaraqlari quyidagi turlarga bo`linadi:

- a) talab qilib olinguncha (asosiy va ikkilamchi) depozit hisobvaraqlar;
- b) jamg`arma depozit hisobvaraqlar;
- v) muddatli depozit hisobvaraqlar;
- g) depozit hisobvaraqlarning boshqa turlari (akkreditivlar bo`yicha muddatsiz foizsiz depozitlar va shu kabilar);
- d) ssuda hisobvaraqlari.

### 3.2. Bank raqamlarini ochish tartibi

Yuridik va jismoniy shaxslar o`zlariga hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko`rsatish uchun banklarni mustaqil ravishda tanlaydilar hamda bir yoki bir necha banklarda milliy va xorijiy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlar hamda depozit hisobvaraqlarning boshqa turlarini ochish huquqiga egadir.

Xo`jalik yurituvchi sub'ektning birinchi marta milliy valyutada ochgan talab qilib olinguncha depozit hisob-varag`i uning asosiy hisobvarari hisoblanadi.

Mijozlar qonunchilik asosida bir yoki bir necha banklarda ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ochishlari mumkin.

Tadbirkorlik sub'ektlari (yuridik shaxsni tashkil etgan holda va tashkil etmagan holda faoliyat ko`rsatadigan) tomonidan milliy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlar ochish uchun bankka quyidagi xujjatlar taqdim kilinadi:

- a) hisobvaraqa ochish to`g`risida ariza;
- b) davlat ro`yhatidan o`tganligi to`g`risidagi guvoxnomaning nusxasi;
- v) imzolar namunalari va muxr qo`yilgan varaqcha.

Tadbirkorlik sub'ekti bo`lmagan rezident yuridik shaxslar, jumladan, byudjet tashkilotlari tomonidan milliy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisob-varaqlar ochish uchun bankka quyidagi xujjatlar taqdim kilinadi:

- a) hisobvaraqa ochish to`g`risida ariza;
- b) soliq organlari tomonidan soliq to`lovchining identifikatsiya raqami berilganligi to`g`risidagi guvoxnomaning nusxasi;

---

O`zbekiston. 2003 y.28 bet.

<sup>24</sup> O`zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi ga doir me'yoriy hujjatlar to`plami. T.;

O`zbekiston. 2003 y.28 bet.

v) imzolar namunalari va muxr izi qo`yilgan varaqcha.

Nerezident shaxslarga (jismoniy shaxslar bundan mustasno) milliy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlar ochish, bankka quyidagi xujjatlar taqdim kilinishi bilan amalga oshirildi:

a) hisobvaraqlar ochish to`g`risida ariza;

b) agar qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo`lmasa, soliq organlari tomonidan soliq to`lovchining identifikatsiya raqami berilganligi to`g`risidagi guvohnomaning nusxasi;

v) imzolar namunalari va muxr izi quyilgan varaqcha.

Kredit shartnomasi kuchga kirgandan so`ng, keyingi ish kunidan kechiktirmasdan bank raxbari yoki raxbar tomonidan vakolat berilgan kredit bo`limining xodimi kreditning muddati va foiz stavkasini ko`rsatgan holda, mijoz uchun ssuda ochish to`g`risida buxgalteriyaga farmoyish beradi.

Farmoyishga asosan keyingi ish kunidan kechiktirmasdan mijozga ssuda hisobvaraqlar ochiladi.

Banklarning vakillik hisobvaraqlaridagi quyidagilarga bo`linadi:

a) rezident banklardagi vakillik hisobvaraqlari;

b) nerezident banklardagi vakillik hisobvaraqlari;

v) O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi majburiy zaxira hisobvaraqlari;

g) banklarning boshqa depozit hisobvaraqlari.

Yangi tashkil etilayotgan bank ta`sis badallarini yig`ish uchun istalgan bankda vaqtinchalik talab kilinguncha (mablag` yigish uchun) depozit hisobvaraqlar ochishi mumkin.

Tijorat bank milliy valyutada vakillik hisobvaraqlar ochish uchun quyidagilarni taqdim qiladi:

a) hisobvaraqlar ochish to`g`risida ariza;

b) soliq to`lovchining identifikatsiya raqami berilganligi to`g`risida guvohnoma nusxasi;

v) bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan berilgan litsenziyaning nusxasi;

g) statistika organlari tomonidan berilgan korxonalar va tashkilotning yagona davlat ro`yhatiga kiritilganligi to`g`risida guvohnoma nusxasi;

d) imzolar namunalari va muxr izi qo`yilgan varaqcha.

Nerezident banklar tomonidan O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankida va O`zbekiston Respublikasining vakolatli banklarida vakillik hisobvaraqlarini ochish uchun quyidagilar taqdim qilinadi:

a) ixtiyoriy shaklda hisobvaraqlar ochish to`g`risida ariza;

b) imzolar va muxr izi namunalari.

### 3.3. Tijorat banklarini mijozlar bilan shartnoma munosabatlarini rivojlantirish<sup>25</sup>

Nomi o`zgarganda, mijoz bankka ro`yhatdan o`tkazuvchi organ tomonidan berilgan nomi o`zgarganligini tasdiklovchi xujjatning nusxasini taqdim qiladi.

Yuridik shaxs tugatilayotganda, uning bank hisobvaraqlari tugatish komissiyasining tasarrufiga o`tadi. Bunday holda, bankka tugatish komissiyasining amal qilish muddati ko`rsatilgan korxonani tugatish to`g`risidagi qarori hamda tugatish komissiyasining imzolar namunalari qo`yilib, tasdiklangan varaqcha taqdim qilinadi.

Mijozning asosiy hisobvarag`ini boshqa bankka o`tkazish uning arizasiga asosan hisobvaraqning qoldig`i tasdiqlanishi va chek daftarchalari qaytarilishi bilan amalga oshiriladi. Bunda ushbu mijozning ikkilamchi hisobvaraqlari yopilmaydi.

Hisobvaraq bo`yicha operatsiyalar faqat hisobvaraq egasining farmoyishiga ko`ra yoki hisobvaraqdagi pul mablag`lari surishtiruvchi, tergovchi qarori bo`yicha yoxud sud ajrimiga ko`ra xatlanganda, shuningdek qonunda ko`zda tutilgan boshqa xollarda, to`xtatib qo`yilishi mumkin.

Xo`jalik yurituvchi sub'ektning asosiy hisobvaragi yopilayotganda, oldindan u bidan bo`lgan barcha hisobvaraqlar yopiladi.

Bank hisobvarari shartnomasi hisobvaraq egasining arizasiga yoki bankning talabiga ko`ra bekor kilinadi.

Bankning talabiga ko`ra bank hisobvarag`i shartnomasi sud orqali quyidagi xollarda bekor kilinishi mumkin:

1) mijozning hisobvararida saqlanayotgan pul mablag`lari summasi bank kridalarida yoki shartnomada ko`zda tutilgan eng kam miqdordan oz bo`lsa, agar bundam summa bank tomonidan bu haqda mijozni ogohlantirgan kundan boshlab bir oyda tiklanmasa;

2) bank hisobvarari shartnomasida boshqa muddatda nazarda tutilgan bo`lmasa, ushbu hisobvaraq bo`yicha bir yil davomida operakiyalar amalga oshirilmagan bo`lsa.

Hisobvaraqdagi pul mablag`larining qoldig`i mijozning tegishli yozma arizasi olingandan keyin, kechi bilan etti kun ichida, mijozga beriladi yoki uning ko`rsatmasiga muvofiq, boshqa hisobvaraqqa o`tkaziladi.

Korxonalar olti oy mobaynida (savdo va savdo-vosigachilik uch oy mobaynida) bank hisobvaraqlari bo`yicha pul operatsiyalarini o`tkazish bilan moliya-xo`jalik faoliyatini amalga oshirmagan xollarda, dexkon va fermer xo`jaliklari bundan mustasno, banklar korxonalarining hisobvaraqlarini

---

<sup>25</sup> TDIU va MDH mamlakatlari iqtisodiy mutaxassisliklari bo`yicha bakalavriat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining namunaviy mavzulari. T, 2005 y., 75

yopishlari va hisobvaraqlar yopilgan sanadan boshlab, um ish kuni mobaynida, u hisobga qo`yilgan joydagi soliq xizmati organiga axborot berishlari lozim.

### 3.4. Hisob-kitoblarning asosiy va iqtisodiy mazmuni

Pulli munosabatlarda pul shakllaridan foydalanish xususiyatlari va to`lov usullariga ko`ra pul aylanishi naqd pulli va naqd pulsiz aylanishga bo`linadi.

Chakana savdo aholiga pullik xizmat ko`rsatish asosan naqd pulda amalga oshiriladi. Bundan tashqari naqd pulli aylanishlarga kommunal. Xizmatlar uchun to`lovlar, ishchi va xizmatchilarga ish haqi va unga tenglashtirilgan to`lovlarni to`lash, sug`urta tashkilotlariga badallar to`lash uy-joy ko`rilishi va boshqa maqsadlar uchun aholi tomonidan olingan kredilarni qaytarish va boshqa to`lovlar kiradi. Naqd pul aylanishi umumiy pul oborotining taxminan 10 foizini tashkil etadi.

Halq ho`jaligida bo`ladigan pul aylanishining 80-90 foizi naqd pul ishlatmasdan, naqd pulsiz hisob-kitob shakllari asosida olib boriladi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar deganda, korxonalar va tashkilotlarning tovar ayriboshlash, xizmat ko`rsatish va tovarsiz operatsiyalar bo`yicha bir-biriga bo`lgan talab va majburiyatlarni naqd pul ishlatmasdan pul mablag`larini hisobvaraquadan ikkinchi hisobvaraqa o`tkazish orqali amalga oshirilish tushuniladi. Naqd pulsiz pul aylanishi yalpi ijtimoiy maxsulotni ishlab chiqarish jarayonida sodir bo`ladigan munosabatlarini o`zida aks ettirishga ko`ra ikki qismga bo`linadi:

1. Tovar operatsiyalari bo`yicha pul aylanishi.
2. Moliyaviy majburiyatlar bo`yicha pul aylanishi.

Birinci guruhga tovarlarni sotish, xizmatlar ko`rsatish va kapital ko`rilish jarayonidagi hisob-kitoblarni aks ettiruvchi pul aylanishi kiradi ikkinchi, ya'ni moliyaviy majburiyat guruhiga esa byudjetga to`lovlar, ya'ni foydadan to`lanadigan soliq, ko`shilgan qiymat soligi va boshqa majburiy to`lovlar hamda byudjetdan tashqari fondlar, bank ssudalarini qaytarilishi, kredit uchun foizlarning to`lanishi, sug`urta kompaniyalari bilan hisob-kitoblar kiradi.

Naqd pulsiz pul aylanishi pulli munosabatlar ishtirokchilarining joylashuviga karab bir shaxar ichidagi va shaxarlararo pul aylanishiga bo`linadi. Bir shaxar ichidagi pul aylanishi bir hisob markaziga karaxli banklar o`rtasidagi hisob-kitoblar majmuini bildiradi. Shaxarlararo pul aylanishi esa turli hisob markazlariga karashli banklar o`rtasida amalga oshiriladigan hisob-kitoblar yigindisidir. Lekin respublikamizda bank tizimining rivojlanishi, «elektron to`lovlar» tizimiga o`tish natijasida hisob-kitoblarda ishtirok etuvchi sub'ektlarning joylashuviga qarab ikkiga bo`lish maqsadga muvofiq bo`lmay qoldi. Chunki hisob-kitoblarda qatnashuvchi sub'ektlar qaysi xududda joylashganidan qat'iy nazar, to`lovlar bir necha soatda, hattoki bir necha daqiqada o`tkaziladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil etishda bir qator tamoyillarga asoslaniladi<sup>26</sup>. Bu tamoyillar quyidagilar:

1. Xar bir xo`jalik sub'ekti o`z pul banklarda ochilgan depozit hisobvaraqlarda saqlashlari lozim. Korxonalar va tashkilotlar o`zaro xisob-kitoblarni bevosita bankdagi hisobvaraqlar orqali amalga shart. qaysi bankda hisobvaraqlar ochishni mshjozlarni o`zlari tanlaydilar.

2. Hisob-kitoblar to`lovchining roziligi bilan uning topshirigiga asosan depozit hisobvaraqdagi mablag`i evaziga amalga oshiradi. Korxonalar bank kreditidan foydalanish huquqiga ega bo`lsa, to`lovlar bank krediti hisobidan amalga oshiriliish mumkin.

3. To`lovlar belgilangan to`lovlar ketma-ketligi asosida bajariladi.

4. Xo`jalik yurituvchi sub'ektlar hisob-kitob shakllarini mustaqil tanlagilari va uni shartnoma orqali mustaxkamlab ko`rishlari mumki.

5. Tovar etkazib beruvchi korxonalar hisobvaragida pul mablag`lari mazkur mablag`larning mol sotib oluvchi korxonalar hisobvaragidai o`chirilgandan so`ng o`tkazib beriladi.

6. To`lovni kafolatlash maqsadpda etkazib berilishi lozim bo`lgan tovar yoki ko`rsatilishi lozim bo`lgan xizmat qiymatining 15%i oldindai to`langanidai so`nggina tovarlar jo`natiladi yoki xizmatlar ko`rsatiladi.

### 3.5. Naqt pulsiz hisob-kitoblarning taxlili.

Hisob-kitoblarni amalga oshirishda yuqorida sanab o`tilgan tamoyillarga amal kilinmas ekan, bu xolat hisob-kitob munosabatlarida qatnashuvchi tomonlarning moliyaviy xolatiga salbiy ta'sir ko`rsatadi.

Hozirgi kunda O`zbekiston Respublikasi xududida naqd pulsiz hisob-kitoblar «O`zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish to`g`risida» 1998 yil 27 iyunda O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida olib boriladi. «O`zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish to`g`risida»gi Nizom Fuqarolik kodeksi, «Markaziy bank to`g`risida»gi, «Banklar va bank faoliyati to`g`risida»gi, «O`zbekiston Respublikasi korxonalar to`g`risida»gi qonunlari va Markaziy bankning O`zbekiston xududida naqd pulsiz hisob kitoblarni tartibga soluvchi boshqa meyoriy xujjatlarga muvofiq ishlab chikilgan. Mulkchilik shakllarining xilma-xilligi sharoitida xo`jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyati tovar-pul munosabatlari rivojlanishi sharoitlarida naqd pulsiz hisob-kitob qoidalari xo`jalik organlari tomonidan hisob-kitob shakllarini erkin tanlash printsiplaridan kelib chiqadi va ular shartnomalarda mustaxkamlanadi. Xo`jalik organlarining shartnomaviy munosabatlariga bank aralashmaydi.

---

<sup>26</sup> O`zbekiston Respublikasida naqt pulsiz hisob-kitoblar to`g`risida nizom. T.: O`zbekiston. 2003.y. 35bet.

Nizomga asosan naqd pulsiz hisob-kitoblar qonunda ko`zda tutilgan va O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qabul qilingan quyidagi shakllar orqali amalga oshiradilar:

- To`lov topshiriqnomalari;
- To`lov talabnomalari;
- Akkredetivlar;
- Inkasso topshiriqlari;
- Tijorat banklarining hisob-kitob cheklari;
- elektron hisob tizimi.

To`lovchi va mablag` oluvchi orasidagi hisob-kitoblar shartnoma asosida belgilanadi. Hisob-kitob shakllari deyilganda, xuqukiy m`yorlarda ko`zda tutilgan, hisob-kitob xujjatining turi, xujjatlar aylanish tartibi, mablag`larni mol sotuvchi korxonaga hisobvaragiga o`tkazish va yozish usuli bilan bir-biridan farq qiluvchi hisob-kitob turlari tushuniladi. Hisob-kitoblarning alohida shakllarining mazmuni, ularni bo`yicha xujjatlar aylanishini va operatsiyalar hisobi hamda rasmiylashtirilishini alohida paragraflarda ko`rib chiqamiz.

To`lov topshiriqnomasi bu to`lovchi korxonaning uning bankdagi depozit hisobvaragidan pul mablag`larining ma`lum bir summasi boshqa mijozning hisobvaragiga o`tkazish haqida o`ziga xizmat ko`rsatuvchi bankka bergan yozma topshirigidir. To`lov topshiriqnomalari orqali quyidagi to`lovlar amalga oshiriladi:

- tovarlar to`lovlar uchun hisob-kitoblar;
- notovar operatsiyalar bo`yicha hisob-kitoblar;
- Markaziy bankning me`yoriy xujjatlarida ko`zda tutilgan bo`lsa, bank ssudalari va unga ko`shilgan foizlarni qoplash uchun mablag` o`tkazish;
- Xukumat qarorlari va bank qoidalarida belgilangan xollardagi bank to`lovlari.

Ilgari to`lov topshiriqnomalari rasmiylashtirilgan kundan boshlab 10 kun ichida bankka topshirilishi mumkin bo`lib, shu davr ichida haqiqiy bo`lib hisoblanar edi. «Naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish to`g`risida»gi yangi Nizomga asosan to`lov topshiriqnomasi rasmiylashtirilgan kun bankka taqdim etilishi lozim ya`ni topshiriqnomaning sanasi uni bankka taqdim etilgan kun bilan topshiriqnomasi ijro uchun qabul kilinmaydi. Lekin byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarni bo`yicha to`lovlar bundan mustasno.

To`lov topshiriqnomalarining bankka topshiradigan nusxalar soni to`lovchi va mablag` oluvchilarning qaysi bankda joylashganligiga bogliq. To`lovchi va mablag` oluvchi korxonalar bir bank bo`limi xizmatidan foydalansalar, topshiriqnomalarining nusxalarining xar biri quyidagicha ishlatiladi:

- birinchi nusxa to`lovlar amalga oshirilgandan keyin bank ma`sul ijrochisi tomonidan imzo, to`lov amalga oshirilgan sana, bankning to`rtburchak muxrining izi tushirilgan va qabul qilish sana si ko`rsatilgan holda ko`plik xujjatlar yigmasiga tiqiladi;



- ikkinchi nusxasi to'lovni oluvchining hisobvaragiga ilova sifatida mas'ul ijrochi tomonidan imzo, to'lov amalga oshirilgan sana, bankning to'rtburchak muxr izi tushirilgan holda to'lovni oluvchi korxonaga vakiliga beriladi; uchinchi nusxa operatsiya bajarilgandan so'ng, bank bo'limining to'rtburchak shtampi izi tushirilgan, mas'ul ijrochi tomonidan imzo, to'lovni amalga oshirish va topshiriqnomani qabul qilish sanasi ko'rsatilgan holda, to'lovchi korxonaga vakiliga ularning depozit hisobvaragidan kuchirma bilan birgalikda beriladi. Lekin xar doim ham bir biri bilan munosabatda bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bir bank xizmatidan fodalanmaydilar, chunki, hisob-kitoblar bir xudud tashqarisiga chikishi mumkin. Agar to'lovchi va mablag' oluvchi korxonalariga bir xudud ichidagi yoki boshqa xududda joylashgan turli bank bo'limlari tomonidan xizmat ko'rsatilsa, to'lov topshiriqnomalari bankka ikki nusxada taqdim etiladi:

- birinchi nusxasi to'lovlar amalga oshirilgandan keyin bank mas'ul ijrochisi tomonidan imzo, to'lov amalga oshirilgan sana, bankning muxr izi tushirilgan va qabul qilish sanasi ko'rsatilgan holda kunlik xujjatlar yigmasiga tiqiladi.

- ikkinchi nusxasi bank bo'limining muxr izi tushirilgan, bank mas'ul ijrochisining imzosi, to'lov amalga oshirilgan sana va topshiriqnomani qabul qilish sanasi ko'rsatilgan holda to'lovchi korxonaga vakiliga beriladi.

To'lov topshirigida quyidagi rekvizitlar ko'rsatilishi lozim:

1. to'lov topshirigining nomi va nomeri.
2. to'lov topshirigi tuldirilgan sana, ya'ni kun, oy va yil.
3. to'lovchining nomi, to'lovchi bankining nomi va kodi.
4. to'lovchining hisobvaraqa nomeri va identifikatsion kodi.
5. mablag'larini oluvchi korxonaga nomi, u iga xizmat ko'rsatuvchi bank nomi va kodi.
6. mablag' oluvchining hisobvaraqa nomeri.
7. to'lovlarning summasi raqam va yozuvlarda ko'rsatiladi.
8. to'lovning maqsadi.

To'lov topshirigining barcha rekvizitlari tuldirilgandan so'ng, topshiriqnomaning alohida ajratilgan pastki qismiga to'lovchi korxonaga raxbari va bosh, buxgalterining imzosi hamda muxr izi quyiladi. Ushbu muxr va imzolar to'lov topshirigining faqat birinchi - asl nusxasiga quyiladi.

Korxonalaridan xujjatlar qabul qilish, shartnomada boshqa narsa ko'zda tutilmagan bo'lsa, butun kun davomida bankning mijoz bilan ishlash vaqtidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bunda operatsion kun davomida bank tomonidan korxonalaridan qabul qilingan xujjatlar shu kunning o'zidayok ijro qilinadi. Ma'sul ijrochi mijozlardan to'lov topshirigini olgandan so'ng to'lov topshirigidagi bank rekvizitlarning to'liq va to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshiradi. Bundan tashqari, to'lovchi korxonaning depozit bo'yicha ochilgan hisobvaragida xujjatda ko'rsatilgan summami to'lashga etarli pul mablag'lari

borligini aniqlaydi. Agar to'lov topshirigi va to'g'ri rasmiylashtirilib, uni to'lashga etarli pul mablag'lari bo'lsa, mas'ul ijrochi topshiriqnomadagi barcha ma'lumotlarni dasturiy yo'l bilan kompyuter orqali bankning elektron to'lovlarni amalga oshiruvchi hisoblash markaziga o'tkazadi. Ertasi kun ertalabdan kechikmagan muddatda bank balansi chiqarilgandan keyin xujjatning birinchi nusxasi bankning kundalik yigma jildiga tiqiladi. Belgilangan tartibda avval joriy arxivda, bir yil o'tgandan so'ng umumiy bank arxiviga topshiriladi. To'lov topshiriqnomasining ikkinchi nusxasi esa mijozning hisobvaragidan kuchirma bilan birgalikda operatsiyalar o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat sifatida mijozga qaytarib beriladi.

Shunday qilib, tijorat bankining hisoblash markazidan dasturiy yo'l orqali modem usuli bilan elektron to'lov o'tkaziladi, ya'ni «Elektron pochta» deb nomlangan tizim orqali elektron to'lov topshirigi Markaziy bank qoshidagi Hisob Markaziga o'tkaziladi. Markaziy bank qoshida ochilgan Hisob Markazi to'lovchi korxonaga xizmat qiluvchi tijorat bankidan olingan ma'lumotlar asosida elektron to'lov topshirigini modem orqali mablag' oluvchi korxonaga xizmat ko'rsatuvchi tijorat bankiga o'tkazadi.

Elektron to'lovlar tizimi orqali olingan elektron to'lov topshiriqnomalari mablag'larni oluvchi bankda ikki nusxada qogozga chiqariladi. Topshiriqnomaning birinchi nusxasi bank mas'ul ijrochisining imzosi va bank muxr izi qo'yilib, kunlik xujjatlar yigma jildiga tiqiladi. Ikkinchi nusxasi esa bank mas'ul ijrochisining imzosi va bank muxri izi quyilgan holda mijoz hisobvragiga ilova sifatida mijozga beriladi.

Ta'minotchilar tomonidan maxsulot etkazib berish va xizmatlar ko'rsatish transport xizmati bilan birgalikda bir tekisda amalga oshirilsa, o'zaro hisob-kitoblar doimiy to'lovlar tartibida o'tkazilishi mumkin. Bunday hisob-kitoblar xar biri alohida savdo bitimi ya'ni maxsulot ortish, jo'natish yoki xizmat ko'rsatish bo'yicha emas, balki, tomonlar oldindan kelishib olgan muddatlar va xajmlarda to'lov topshiriqnomalaridan foydalangan holda mablag'larni davriy ravishda ko'chirish yo'li bilan bajariladi. Tomonlar davriy ravishda, lekin xar oyda kamida bir marta maxsulotning amalda jo'natilishi yoki xizmatlar ko'rsatilishi asosida o'tgan davr uchun kiyoslash bajarish va shartnomada belgilangan tartibda qayta hisob-kitob qilishlari lozim. Aniqlangan fariklar alohida topshiriqnoma bilan o'tkazilishi yoki navbatdagi to'lovda hisobga olinishi mumkin. O'zaro qarzarlar eng kam miqdorda bo'lishi uchun xisbb-kitoblarga oyning oxirida aniqlik kiritish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda respublikamizda banklar orqali o'tkazilayotgan barcha to'lovlarning 65-75 foizi to'lov topshiriqnomalari yordamida amalga oshirilmokda, bu uning avzalligi bilan bogliqdir.

Bu afzalliklar quyidagilardan iboratdir:

- birinchidan, xujjatlar aylanishining oddiyligi va tezligi, ya'ni hisob-kitoblarni amalga oshirishning texnik jihatdan qo'layligi. Bu esa o'z navbatida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va bank xodimlarining mehnat sarfini kamaytiradi;

- ikkinchidan, pul mablag'lari xarakatining tezligi, ya'ni to'lov talabnomasiga nisbatan to'lov topshiriqnomasi bo'yicha hisob-kitoblarda xujjatlarning aylanishi xarakati qisqaligi, so'zsiz xo'jalik oborot mablag'larining aylanish tezligini oshiradi,

- uchinchidan, tovar sotib oluvchining qabul qilingan tovarlar yoki xizmatlar sifatipi oldindan aniqlab olinishi. Hisob-kitoblarning bu shaklida to'lov talabnomasi orqali hisob-kitoblarda bo'lgani kabi bankka raddiya arizasi topshirmaydi, chunki to'lovchining o'zi to'lovni to'lashga rozi bo'lsa, topshiriqnomani bankka topshiradi, to'rtinchidan, to'lov topshiriqnomasining barcha tovarsiz operatsiyalarida qo'llanishi, bu esa ushbu shakl bo'yicha hisob-kitoblarning ahamiyatini yanada yaqqol aks ettiradi.

To'lov topshiriqnomasi bo'yicha hisob-kitoblar afzalliklar bilan bir qatorda kamchiliklarga ham ega. Kamchiliklar shundan iboratki, mol jo'natuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi korxonalar uchun to'lovning o'z vaqtida o'tkazilishini to'la kafolatlanmagan. Chunki to'lovning o'z vaqtida o'tkazilishi to'lovchi korxonaning depozit hisobvaragidagi mablag'lar miqdoriga bogliq. To'lovning to'liq o'tkazilishiga etarli pul mablag'larining bo'lmasligi pul aylanishini sekinlashtiradi va maxsulot jo'natuvchi xizmat ko'rsatuvchi korxonaning moliyaviy xolatini yomonlashtiriladi.

Yuqorida ko'rsatilgan muammolarning oldini olish maqsadida xukumatomiz tomonidan bir katar mexanizmlar ishlab chiqiladi, qaror va farmoyishlar qabul kilinda. Dastlab 1995 yil 5 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Korxonalar va tashkilotlar raxbarlarining halq ho'jaligidagi hisob-kitoblarni o'z vaqtida o'tkazishni ta'minlash bo'yicha javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 154-sonli farmoni chiqarildi. Farmonga muvofiq, mulk shaklidan qat'iy nazar har bir xo'jalik sub'ekti agar mol oluvchi korxonalar bo'lsa, u albatta o'sha mol qiymatining foizini kamida 15% sumaasini oldindan to'lashi talab etiladi. Tabiiyki, bu to'lov topshiriqnomasi asosi amalga oshiriladi.

Oldindan to'lov o'tkazish ilgari yokilgi - moylash maxsulotlari va boshqa ba'zi xollarda Davlat bankining ruxsati bilan amalga oshirilardi. Lekin hozirgi paytda xo'jaliklar o'zlari o'zaro xo'jalik shartnomalari orqali 100% li yoki undan kam miqdorda bo'lgan oldidan to'lovlar o'tkazishni kelishib oladilar. Yuqorida ko'rsatilgan mexanizm esa tomonlar o'rtasida shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarilishi ustidan nazorat o'rnatishga yordam beradi. 15% dan kam bo'lmagan avanslangan to'lovlarning o'tkazilishining majburiyligi, bank bunday to'lovlar ustidan doimo nazorat olib borish haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yana bir «Hisob-kitoblar tizimi hamda to'lov nizomini mustaxkamlash chora-tadbirlari to'g'risidagi»gi 1996 yil 24 yanvardagi farmoni chiqarildi. Farmonda korxonalar va tashkilotlar tomonidan

bankka topshiriladigan to'lov topshiriqnomasida kat'iy ravishda shartnoma nomeri, to'lov tartibi, 15% dan kam bo'lmagan avans to'lovi miqdori ko'rsatilishi shart qilib belgilanadi. Demak, naqd pulsiz hisob-kitoblarning qaysi shaklidan foydalanishdan kat'iy nazar, xo'jaliklar avvalo to'lov summasining 15% dan kam bo'lmagan miqdorini to'lov oluvchi korxonalar hisobvaragiga aynan to'lov topshirigi yordamida o'tkazadilar. Bu esa to'lov topshirigining iqtisodiyotning hamma sohalarini qamrab olayotganligidan dalolat beradi. Umuman, halq ho'jaligida xususiy sektorning o'rnini kengayib borgan sari kichik va boshqa xususiy korxonalar sonining oshishi to'lov topshiriqnomalari bo'yicha hisob-kitoblar xajmining kengayishiga yo'l ochib beradi.

Naqd pulsiz hisob-kitob shakllaridan biri to'lov talabnomasi bo'yicha hisob-kitoblar bo'lib, ular 1992 yil 1 avgustigacha respublika naqd pulsiz aylanishining qariyb 60-65% ini tashkil etar edi. Markaziy bankning 1992 yil 6 iyundagi 75-sonli qaroriga muvofiq O'zbekistonhalq ho'jaligida hisob-kitoblarni tartibga solish, ularning xolatini yaxshilash, hamda bozor talablariga moslashtirish maqsadida, 1992 yil iyulidan boshlab mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha korxonalar va tashkilotlar uchun to'lov talabnomalarining o'rniga yangi tartibdagi to'lov-talabnoma topshiriqnomasi bo'yicha hisob-kitoblar amaliyotga kiritildi. Shu bilan birgalikda, 1992 yil 1 avgustgacha to'lov talabnomalarini oborotda bo'lishiga ruxsat etildi. Lekin korxonalar va tashkilotlar to'lov talabnomasi orqali amalga oshiriladigan hisob-kitoblarga bir necha o'n yillab, o'rganib qolganliklari sababli, markaziy bankka to'lov talabnomasini amaliyotga qaytadan tadbiiq etish bo'yicha ko'plab talab va takliflarni kelib tushayotganligini hisobga olgan holda bu masala qayta ko'rib chiqilib, 1996 yil 29 fevraldagi Markaziy bankning Xatiga asosan qaytadan muomalaga kiritildi.

To'lov talabnomasi - bu maxsulot etkazib beruvchi va mablag' oluvchilarning belgilangan summani to'lovchi bank orqali to'lash to'g'risidagi talabnomani o'z - ichiga olgan hisob-kitob xujjatidir. To'lov talabnomasi bo'yicha hisob-kitoblar Aktsept» shaklidagi hisob-kitoblar ham deb yuritiladi.

«Aktsept» so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, rozilik ma'nosini anglatadi, ya'ni bu to'lovchining to'lovni amalga oshirish uchun bankka bergan roziligidir. Aktsept shakli asosiy inkassaviy hisob-kitob shakli bo'lib hisoblanadi. «Inkasso» italyancha so'zdan olingan bo'lib, bank o'z mijozi taqdim eigan xujjatga asosan etkazib berilgan maxsulot uchun unda ko'rsatilgan summani to'lovchidan uning banki orqali aktsept ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. To'lovchi korxonanyng roziligi ham, noroziligi ham yozma ravishda bildirilishi ijobiy aktsept hisoblanadi. Bunday holda to'lov to'lovchidan yozma ravishdagi rozilik xati kelgandagina amalga oshiriladi. Agar 15 kun ichida to'lovchidan rozilik xati kelmasa to'lov talabnomasi to'lovni oluvchiga to'lanmasdan qaytariladi. Salbiy aktsept esa sukut saqlash orqali bildiriladi, to'lovga norozilik

yozma ravishda bildiriladi. Agar to'lovga karshi norozilik xati yozma ravishda kelib tushmasa bank tomonidan to'lov amalga oshiriladi.

Salbiy aktseptning o'zi to'lovni amalga oshirish muddatiga ko'ra oldindan aktsept va so'nggi aktseptga bo'linadi. Talabnomani oldindan aktseptlash usulida hisob-kitoblar o'tkazilganda talabnomaning puli aktseptlash muddati tugagandan so'ng, ya'ni ertasi kuni to'lanadi. To'lovchi korxonaga o'ziga xizmat ko'rsatuvchi bank muassasasiga talabnoma kelib tushgandan keyin 3 kun ichida to'lashdan bosh tortganini ma'lum qilishi huquqiga ega. Tovar etkazib beruvchi tovar-moddiy boyliklar etkazib berish, xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma, shuningdek, tegishli qonun xujjatlari shartlarini buzgan xollarda to'lovchi aktseptlashdan bosh tortishi mumkin. Bunday xollarda to'lovchi tomonidan bankka yozma ravishda raddiya arizasi topshirilib, unda to'lovdan bosh tortish sabablari ko'rsatiladi.

Aktseptlashning so'nggi aktsept turida to'lov talabnomasi bankka kelib tushgan kunda to'lanadi, lekin to'lov o'tkazilgandan keyingi 3 kun ichida to'lovdan bosh tortish huquqi saqlanib koladi. Belgilangan muddat o'tgandan so'ng to'lovchi tomonidan raddiya arizasi kelib tushmasa, to'lov to'langanligicha qoladi.

Hisob-kitoblarning aktsept, ya'ni to'lov talabnomalari orqali o'tkaziladigan shaklda ishlatiladigan asosiy xujjat bu - to'lov talabnomasidir. To'lov talabnomalari quyidagi xollarda ishlatilishi mumkin:

- a) yuklab jo'natilgan tovarlar uchun;
- b) bajarilgan ishlar uchun;
- s) ko'rsatilgai xizmatlar uchun;
- d) amaldagi qonunchilikda, me'yoriy xujjatlar yoki shartnomalar ko'zda tutilgai boshqa to'lovlar uchun.

To'lov talabnomasida maxsulot etkazib beruvchi tomonidan talabnoma nomeri, uni to'ldirilgan sana, shu korxonaga nomi, uning hisobvarag nomeri, xizmat ko'rsatuvchi bank nomi, bankning kodi, to'lovchi korxonaning nomi, uning bankdagi hisobvarag nomeri, to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bank nomi va kodi, to'lov summasi va to'lovmaqsadi ko'rsatiladi. Xujjatlarda ko'rsatilishi lozim bo'lgan umumiy rekvizitlardan tashqari to'lov talabnomasida quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

- a) shartnoma sanasi va nomeri;
- b) maxsulotlarni yuklab jo'natish sanasi va tovar-transport yoki qabul qilish - topshirish xujjatlari va transport turi, tovarlar pochta va telekommunikatsiya agentligi orqali jo'natilganda esa - pochta kvitantsyalarining nomeri.

Agar maxsulot uni sotib oluvchining transport vositasi bilan olib ketilsa, talabnomaning aloxida ajratilgan joyda yuk uni sotib oluvchining o'z transporti bilan olib chikib ketilgani hamda ishonchnomaning nomeri ko'rsatiladi. Shunday xollar ham bo'ladiki, maxsulot. kontraktsiya shartnomalari asosida

realizatsiya kilinadi. Kontraktsiya shartnomalari bo`yicha maxsulot etkazib berishda to`lov talabnomasining yuqori qismida ya'ni talabnoma deb yozilgan so`z yoniga «Kontraktsiya shartnomasi» deb ko`rsatilishi lozim. To`lov talabnomasining pastki, alohida ajratilgan qismida maxsulot jo`natuvchi korxonalar raxbari va bosh buxgalterning imzolari va korxonaning muxr izi quyiladi.

To`lov talabnomasi maxsulot yuklab jo`natilgandan keyin shartnomada belgilangan muddatdan kechiktirilmasdan bankka inkassoga topshiriladi. Maxsulot etkazib beruvchi bitta operatsiya bo`yicha talabnomalarni inkasso uchun qayta taqdim qilish huquqiga ega emas. Umuman, to`lov talabnomalari bo`yicha hisob-kitoblarni rasmiylashtirishi va hisobga olish ishlarini 3 bosqichga bo`lib ko`rib chiqamiz:

1- bosqich. Maxsulot etkazib beruvchi bankida to`lov talabnomasini inkassoga qabul kilinishi.

2- bosqich. Maxsulot oluvchi bankida to`lov talabnomalarini to`lash bo`yicha operatsiyalari.

3- bosqich. Maxsulot etkazib beruvchi bankida to`lovni qabul qilish bo`yicha operatsiyalar.

To`lov talabnomalari 2 yoki 3 nusxada to`ldiriladi. Agar maxsulot etkazib beruvchi va to`lovchi tomonlarga bitta bank bo`limi xizmat ko`rsatsa talabnoma 3 nusxada taqdim etiladi. Bu holda to`lov talabnomalarning har bir nusxalari quyidagicha ishlatiladi:

-birinchi nusxa to`lovlar amalga oshirilgandan keyin bank mas'ul ijrochisi tomonidan imzo, to`lovi amalga oshirilgan sana, bankning to`rtburchak muxr izi tushirilgan va qabul qilish sanasi ko`rsatilgan holda kunlik xujjatlar yigmasiga tiqiladi

-ikkinchi nusxasi to`lovni oluvchining hisobvaragiga ilova sifatida mas'ul ijrochi tomonidan imzo, to`lov amalga oshirilgan sana, bankning to`rtburchak muxr izi quyilgan va qabul qilingan sana ko`rsatilgan holda beriladi;

-uchinchi nusxa qabul qilish sanasi, to`lovni amalga oshirish sanasi, mas'ul ijrochining imzosi va bank to`rtburchak muxr izi qo`yilgan holda to`lovchiga uning hisobvaragidan ko`chirma bilan birgalikda beriladi.

Agar to`lovchi va maxsulot etkazib beruvchi bir xudud ichidagi yoki turli xududlarda joylashgan turli bank bo`limlari xizmatidan foydalansalar, bu holda to`lov talabnomalari 2 nusxada bankka taqdim etiladi. Ularning xar ikkala nusxalari pochta aloqasi yoki ko`rreklar orqali to`lovchi bankiga jo`natiladi.

To`lov talabnomalari tomonlar o`rtasida tuzilgan shartnomaga asosan aktseptlash tartibida yoki aktseptlamasdan to`lanishi mumkin. Bank tomonidan talabnomalarni aktseptlash uchun 3 kun muxlat beriladi. Lekin korxonaning iltimosiga ko`ra bank bu muddatni 10 kungacha cho`zishi mumkin. Aktseptlash tartibida to`lanadigan talabnomalarning birinchi nusxasi to`lov uchun aktseptlashni kutayotgan hisob-kitob xujjatlari kartotekasiga joylashtiriladi. Bu kartoteka bankda 1-kartoteka deb yuritiladi. Talabnomaning ikkinchi nusxasi

tovar-transport xujjatlari bilan birga keyingi ish kunidan kechiktirilmasdan xujjatni aktseptlash uchun qabul qilingan sana ko`rsatilgan holda va to`lov to`g`risida ma'lumot sifatida to`lovchiga beriladi. Agar bankda 1-kartotekaning hisobini yuritish dasturiy yo`l bilan olib borilmasa, bunday talabnomalar qabul qilingan kuni «To`lov uchun aktseptlanishi kutayotgan hisob-kitob xujjatlari»ni hisobga olib borish daftarida ikki nusxada quyidagi rekvizitlarni ko`rsatgan holda bank tomonidan kayd etiladi.

To`lovchi belgilangan muddatda tovar moddiy qiymatliklarni jo`natishda, xizmatlar ko`rsatishda amaldagi qonuniy talablariga hamda shartnoma shartlariga amal kilinmagan xollarda talabnomani qisman yoki to`liq to`lashdan bosh tortishi mumkin. Buning uchun bankka yozma ravishda raddiya arizasi topshirilishi lozim. Agar belgilangan muddatda bankka raddiya arizasi topshirilmasa, ya'ni yozma ravishda aktseptlashni rad etmasa talabnoma aktseptlangan bo`lib hisoblanadi. Aktseptlashni rad etish huquqiga ega bo`lgan mansabdor shaxslar doirasini bank bo`limi boshqaruvchisi belgilaydi. Banklar aktseptlashni rad qilish mohiyati" bo`yicha qolib chiqqan baxs va nizolarga aralashmaydilar.

To`lov talabnomasini to`lashdan bosh tortib yozilgan raddiya arizasi to`lovchi tomonidan bankka topshirilganda talabnomalar shu kunning o`zidayok 1- kartotekadan olinadi hamda tovar-transport xujjatlari va boshqa ilovalar bilan birga maxsulot etkazib beruvchi korxonaga bankiga ijrosiz qaytarib yuboriladi. To`lovchi talabnomani aktseptlashdan qisman bosh tortganda, to`lovchi tomonidan aktseptlangan summa bo`yicha to`lovlar o`tkaziladi. To`lovchi hisobvaragida talabnomaning aktseptlangan qismini to`lashga etarli pul mablag`lari bo`lmaganda talabnoma «Muddatda to`lanmagan hisob-kitob xujjatlari» kartotekasiga joylashtiriladi. Bu kartoteka 2-kartoteka deb yuritiladi. Bunda talabnomaning dastlabki summasi uchiriladi va yonida to`lovchi aktseptlagan summa yozib qo`yiladi. Kartotekaga kirim qilingan summa to`lovchi korxonaga hisobvaragiga pul mablag`lari kelib tushgandan so`ng to`lanadi.

Agar 1- kartotekaga joylashtirilgan to`lov talabnomasi bo`yicha to`lovchi tomonidan raddiya arizasi kelib tushmasa, to`lov talabnomasi aktseptlash uchun berilagn 3 kun muxlat o`tgandan so`ng to`lanadi. To`lov talabnomasini to`lashdan avval to`lovchi korxonaning depozit hisobvaragini yurituvchi mas'ul ijrochi talabnomani to`lash uchun etarli pul mablag`larining to`lovchi hisobvaragida mavjudligini tekshiradi. Agar depozit hisobvaragida etarli pul mablag`lari bo`lsa, talabanoma to`lanadi. To`lov talabnomasini to`lash quyidagi buxgalteriya yozuvi orqali amalga oshiriladi:

Bank 2-kartoteka dagi muddati o`tkazib yuborilagn hisob-kitob hujjatlari bo`yicha to`lovlarni amalga oshirishda to`lovchilardan penya undirish va oluvchilar foydasiga o`tkazish huquqiga ega, agar bu bank va mijoz o`rtasida tuzilgan shartnomada kelishilgan bo`lsa. Bank to`lovchilardan mablag`larni

oluvchilar foydasiga muddati o`tkazib yuborilgan to`lovlar bo`yicha muddati o`tkazib yuborilgan xar bir kun uchun qonunda belgilangan miqdorda penya undiradi. Muddati o`tkazib yuborilgan kunlarni belgilashda kalendar kunlar hisobga olinadi. Undirilgan penya muddati o`tkazib yuborilgan to`lovning asosiy summasi bilan to`lovchining hisobvaragidan hisobdan chiqaziladi va maxsulot etkazib beruvchining bankiga. Elektron to`lovlar tizimi orqali o`tkaziladi.

Ba'zi vaqtlarda to`lov talabnomasini to`lash uchun to`lovchi korxonaning roziligi, ya'ni aktseptlashi talab etilmaydi. To`lovchilarning hisobvaraqlaridan mablag`larni aktseptlamasdan hisobdan chiqarish tomonlar o`rtasida tuzilgan shartnomaga asosan kommunal xizmat, telefon, kanalizatsiya, pochta-telegraf xarajatlari hamda tashilgan musor uchun amalga oshiriladi. Kommunal xizmatlar uchun to`lovlar va ulchov asboblari gaz, suv, issiklik va elektr-energiyasi uchun hisoblanadi. Bunday aktseptsiz to`lovlarni amalga oshirish uchun bankka taqdim qilingan to`lov talabnomaning yuqori qismiga «aktseptsiz» hamda "hisoblash asboblari asosida" degan so`zlari ko`rsatib utilgan bo`lishi lozim. Ushbu yozuvlar bo`lmagan takdirda talabnomalar umumiy asosda aktseptlanadi va to`lanadi. Talabnomada ma'lum to`lovlarni aktseptlamasdan hisobdan chiqarish huquqiga ega bo`lgan qonuniy hujjat yoki shartnomaning sanasi, nomeri va to`lovning maqsadi ko`rsatilishi shart. Bunda bank ilova qilingan xujjatlarning talabnomada ko`rsatilgan ularning rekvezitlariga mosligini tekshirib ko`radi.

Markaziy bank tijorat banklari bilan hamkorlikda elektron plastik kartochkalaridan foydalanish orqali naqd pulsiz hisob-kitob qilish milliy tizimi loyxasini joriy etmokda. Ko`pgina tijorat banklarida shu yilning o`zidayok mkroprotessor kartalari asosida naqdinasiz hisob-kitoblar tizimi joriy etildi. Shu bilan birga VISA. Master cardG`Euro Pay kabi jahoning asosiy to`lov tizimlariga qo`shilish uchun aralash turdagi kartochkalardan foydalanish imkoniyati ko`rib chikilmokda<sup>27</sup>.

Foizi bo`yicha keltiruvchi depozit va qimmatli qogozlarga sarmoya sarflash tavakkalchiligining darajasini baholashga oid bank va xo`jalik yurituvchi sub'ektlarning amaliy extiyojlari buxgalterlik hisobi va hisobotning yangi tizimini yaratish zaruriyatini vujudga keltirdi, bu esa bank ishlarning texnologik asosini qayta ko`rishda yana bir muxim vazifa bo`ldi.

Fukarolarning yozma topshiriqlari bo`yicha tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishlari bilan bogliq bo`lmagan pul mablag`larini naqd pulsiz o`tkazishni amalga oshirish uchun banklar memorial orderlardan foydalanishlari mumkin.

Inkasso topshiriqnomasi mablag`lar oluvchining to`lovchining hisobvaragidan so`zsiz tartibda mablag`larni hisobdan chiqarish to`g`risidagi bankka topshiririni anglatadi.

---

<sup>27</sup> [www.thebanker.com](http://www.thebanker.com)



Inkasso topshiriqnomalarini quyidagilar taqdim qilishi mumkin:

a) soliq organlari soliqlar va davlat byudjetiga boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari Pensiya jamgarmasiga majburiy to'lovlarga oid to'lovlar va bokimondalarni undirib olishda;

b) "O'zavtodor" kontserni organlari Respublika yo'l fondiga muddati o'tib ketgan to'lovlar bo'yicha mablag'lar undirishda;

v) bojxona organlari o'z muddatida to'lanmagan bojxona to'lovlari va jarimalarni undirishda;

g) sud ijrochilari va undiruvchilar ijro xujjatlari bo'yicha pul mablag'larini undirishda;

d) qonunchilikka muvofiq boshqa organlar.

quyidagilar ijro xujjatlari hisoblanadi:

a) sudlar tomonidan berilgan ijro varaqlari; sud buyruqlari;

v) alimentlar to'lash notarial tarzda tasdiklangan kelishuvlar;

g) notariuslarning ijro xatlari;

d) mehnat nizolari komissiyalari o'z qarorlari asosida beradigan guvoxonmalar;

e) ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chikish vakolatiga ega organlar (mansabdor shaxslar) chiqargan qarorlar;

j) sud ijrochilarining qarorlari;

z) qonunchilikda ko'zda tutilgan xollarda, boshqa organlarning xujjatlari.

To'lovchining hisobvaragida mablag'lar bo'lmaganda, inkasso topshiriqnomasi 2-kartotekada to'lovni kutayotgan xujjatlar qatoriga joylashtiriladi va qonunchilikda o'rnatilgan tartib navbatida to'lanadi.

Hisob-kitoblarning akkreditiv shaklida mijozning (to'lovchining) topshirigi bilan va uning ko'rsatmalariga muvofiq akkreditiv ochgan bank (bank-emitent) uning kontragenti mablag'larni oluvchi foydasiga to'lovni amalga oshirish yoki boshqa bankka bu turdagi to'lovlarni bajarish uchun vakolat berish majburiyatini mablag'lar oluvchi tomonidan xujjatlarni taqdim etgan va akkreditivda nazarda tutilgan boshqa shartlarni bajargan takdirda, oladi.

Akkreditivlar qoplangan (deponentlangan va qoplanmagan turlarda ochilishi mumkin).

qoplangan (deponentlangan) akkreditiv ochilgan takdirda, bank-emitent uni ochgan vaqtida mijozning o'z mablag'larini yoki unga berilgan kreditni bank-emitentning majburiyatlari amal qilib turadigan butun muddatga ijrochi bank ixtiyoriga o'tkazishi shart.

qoplanmagan akkreditiv ochilgan takdirda, bank-emitent ijrochi bankka akkreditivning butun summasini bank-emitentning ijrochi bankida yuritilayotgan hisob-varagidan uchirish huquqini beradi.

qoplangan va qoplanmagan akkreditivlar chaqirib olinadigan yoki chaqirib olinmaydigan bo'lishi mumkin. Uning matnida ushbu belgi mavjud

bo`lmagan holda, akkreditiv chaqirib olinadigan hisoblanadi.

Chaqirib olinadigan akkreditiv bank-emitent tomonidan mablag`larni oluvchi bilan oldindan xabardor qilmagan holda, o`zgartirilishi yoki bekor kilinishi mumkin. Akkreditivni chaqirib olish bank-emitent zimmasiga mablag`larni oluvchi oldida biron-bir majburiyat yuklamaydi. To`lovchi chaqirib olinadigan akkreditivning shartlarini o`zgartirish yoki bekor ko`linishi barcha ko`rsatmalarni mablag`lar oluvchiga, faqat bank-emitent orqali berishi mumkin.

Agar ijrochi bank operatsiyalarni bajarish paytigacha akkreditivning shartlari o`zgartirilganligi yoki u bekor qilinganligi haqida bildirishnoma olmagan bo`lsa, u chaqirib olinadigan akkreditiv bo`yicha to`lovni yoki boshqa operatsiyalarni amalga oshirishi shart.

Tasdikdangan akkreditiv bo`lganda ijrochi bank bank-emitentning akkreditiv shartlariga muvofiq, to`lovni amalga oshirish majburiyatlari bo`yicha o`z zimmasiga qo`shimcha ravishda majburiyatlar oladi.

Tasdiqlangan akkreditiv ijrochi bankning roziligisiz o`zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas.

Akkreditiv bo`yicha depozit hisobvaragidan naqd pul berilishiga hamda akkreditivni boshqa shaxslar nomiga qayta rasmiylashtirishga yo`l quyilmaydi.

Tijorat banki hisob-kitob yoki (keyingi matn bo`yicha chek) bu mijozning xizmat ko`rsatuvchi bankka, chek beruvchining hisobvaragidan, chek qabul qiluvchining hisobvaragiga ma'lum miqdordagi mablag`larni o`tkazib berish topshirigidir.

Cheklar faqat tovarlar, ish va xizmatlar uchun jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar yakka tartibdagi tadbirkorlar o`rtasidagi naqt pulsiz hisob-kitoblar qilishda qo`llaniladi.

Chekning maksimal summasini O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki o`rnatadi, minimal summasini esa tijorat banklari mustaqil ravishda belgilashadi.

Chek omonat ko`yuvchi jismoniy shaxsning depozit hisobvarag`ida saqlanayotgan mablag`lar hisobiga yoki topshirilgan naqd pul summasiga beriladi.

Chekning amal qilish muddati tijorat banklari tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

Plastik kartochka tegishli bankda kartochka egasining hisobvaragi mavjudligini tasdiqlovchi va naqd pulsiz tovarlar, ishlar yoki xizmatlarni sotib olish huquqini beruvchi, shaxsi belgilangan, bank tomonidan chiqarilgan to`lov vositasini o`zida ifoda etadi.

Plastik kartochkalar jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar, bir tomondan, hamda maxsulotni sotuvchi, ish bajaruvchi yoki xizmat ko`rsatuvchi yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar (keyingi matnda savdo yoki xizmat ko`rsatish korxonalari), ikkinchi tomondan, o`rtasidagi bo`ladigan naqd pulsiz hisob-kitoblarda, shuningdek naqd pul berish

punktlari (NPBP) va bankomatlardan naqd pul olishda qo'llaniladi.

Vakolatli banklar halqaro plastik kartochkalar chiqarishi va ular bo'yicha xizmat ko'rsatishi mumkin, bunda ular halqaro to'lov tizimlari bilan tuzilgan shartnomalarga va mazkur Nizomga muvofiq, bajariladigan operatsiyalar qoidalariga amal qilishlari shart.

Aloqadorligi bo'yicha plastik kartochkalar shaxsiy, oilaviy va korporativ turlarga bo'linadi.

a) shaxsiy kartochka - bu jismoniy shaxsga berilgan plastik kartochkadir;

b) oilaviy kartochka-bu shaxsiy kartochka egasining ishonchnomasi asosida foydalanuvchiga berilgan plastik kartochkadir;

v) korporativ kartochka - bu yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan plastik kartochkadir. Korporativ kartochkalardan ish haqi va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa to'lovlarni, shuningdek naqd pul mablag'larini to'lashda foydalanish ta'qiqdanadi.

Plastik kartochkalar bajaradigan vazifalari bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi:

a) debet-kartochkasidan foydalanish uning egasiga, emitent bilan mijoz o'rtasida tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq o'zining kartochkasidagi pul mablag'laridan tovarlar, ishlar, xizmatlar haqini to'lash va yoki naqd pul mablag'larini olishda (korporativ kartochkalardan tashqari) foydalanish imkonini beradi;

b) kredit-kartochkasidan foydalanish uning egasiga, emitent bilan tuzilgan, shartnoma shartlariga muvofiq, emitent tomonidan tovarlar, ishlar, xizmatlar haqini to'lash va yoki naqd pul mablag'larini olish uchun (korporativ kartochkalardan tashqari) berilgan kredit liniyasi miqdorida operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi;

v) elektron hamyon-jismoniy shaxslarning kartochkasi bo'lib, undan foydalanish uning egasiga plastik kartochkadagi koldik mablag'lar doirasida tovarlar, ishlar, xizmatlarga xak to'lash va yoki naqd pul mablag'larini olishga imkon beradi.

Elektron xujjatlar bank-ekvayer (savdo yoki xizmat ko'rsatish korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi bank)ga, bank-emitentga yoki kliring markaziga, shartnomada kelishilgan davriylikda jo'natiladi.

Banklar hisob-kitoblarni amalga oshirishda xatolikka yo'l quyishsa, "Tijorat banklari tomonidan hisobvaraqlarni ochish, mijozlarning hisobvaraqlaridan mablag'larni chiqarish va tushirish, ish haqi va qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa ehtiyojlar uchun naqd pul berishda belgilangan talablarni buzganligi uchun jarimalar qo'llash tartibi to'g'risida"gi Nizomga (30.06.2001 1044-son bilan ro'yhatga olingan) muvofiq, javobgarlikka tortiladilar.

Tijorat banklarining vakillik hisobvaraqlari orqali o'tadigan to'lovlar bo'yicha barcha operatsiyalar, agarda overdraft (qisqa muddatli kredit taqdim etilish) ko'zda tutilmagan bo'lsa, qat'iy ravishda vakillik hisobvaragida mavjud

bo`lgan mablag`lar doirasida bajariladi.

### 3.6. Tijorat banklari hisob-kitob operatsiyalari va ularning rivojlanish istiqbollari<sup>28</sup>

Xalqaro bank amaliyotida uch yuzdan ortiq bank operatsiyalar mavjud. Chunki ishlab chiqarishning tinimsiz rivojlanib borishi, jamiyatning yanada bank xizmatlariga bo`lgan talabni doimiy ravishda ortib borishi tijorat banklaridan bank xizmati sohasida yanada yangi xizmat turlarini ishlab chiqishni va amaliyotga tadbiiq etishni taqozo etadi. Agarda bu sohada raqobat olamida boshqa tijorat banklaridan orqada qolib ketsa, u holda bu bank yoki «sinadi» yoki bank xizmati olamida mijoz talabiga mos xizmatlarini o`z vaqtida taklif etayotgan bank tomonidan «yutib» yuboriladi. Yangi bank xizmat turlaridan biri bo`lib faktoring hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlab o`tish lozimki faktoring bank uchun no'anaviy xizmat turi hisoblanadi, chunki faktoring operatsiya bilan maxsus faktoring kompaniyalari ham shugullanadilar. Xorij tajribasi shuni ko`rsatmoqdaki, faktoring operatsiyalarini olib boruvchi faktoring kompaniyalari yoki bironta yirik bank bilan kamin baglangan, yoki bironta bankning shu'ba shaxobchasi va ba'zi xollarda banklarining o`zi bo`lib hisoblanadi.

Faktoring inglizcha “factor“, ya'ni “agent” yoki “vositachi” ma'nosini anglatadi<sup>29</sup>. Bu savdo-vosita operatsiyalarining bir turi bo`lib u mijozning (bankning yoki faktoring kompaniyasining mijoz) aylanma kapitalini kreditlash bilan o`zviy bog`liqdir. Faktoringning asosiy tamoyili shundaki, faktoring operatsiyasini amalga oshirayotgan bank (faktoring-firma) o`z mijozlaridan ularning etkazib berilgan tovarlar, ko`rsatilgan xizmatlar, amalga oshirilgan ishlar uchun boshqa korxonalariga bo`lgan talablarini sotib oladi va shu orqali bu talablar uchun to`lovlarini olishi huquqini oladi. Faktoring operatsiyasi mijozning debitorlik qarzdorligini inkasso qilish, kreditlash va kredit hamda valyuta xatarlarini kafolatlanishni o`z ichiga oladi.

Faktoring operatsiyasining asosiy maqsadi mijozlarining qarzdorligini o`z vaqtida inkasso qilish, to`lovlarini o`z muddatida olib borish, shubxali qarzdorliklarini paydo bo`lishini oldini olish, mijozlarining likvidligini oshirish va ularning moliyaviy xatarini pasaytirishdan iboratdir.

Faktoring asosida bank (faktoring-firma) tomonidan mijozning jo`natilgan tovarlar, ko`rsatilgan xizmatlar bo`yicha hisob-varaqlarini (talabnomalarini) assosiy qismini (70 foizdan-90 foizgacha) “kesh” usulida (ya'ni tezda 2-3 kun ichida) sotib olish va qolgan qismini (kredit uchun foizini chegirib tashlangan holda) debitorlardan tushum kelib tushmasligidan qat'iy nazar belgilangan muddatdan to`lab beradi. Shuni uchun halqaro bank

---

<sup>28</sup> O`sha yerga qaralsin

<sup>29</sup> V.Xoyer. Kak delat biznes v Evrope. M.: Progress. 1990 g. 108 str.

amaliyotida ta'minot sotuvchi kreditlash deb ham ataladi. Bizning ilmiy ishimizning 4- chizmada faktoring operatsiyasini tartibini ko`rishimiz mumkin.

Faktoring uchun to`lov va komission xizmatlar uchun to`lov mahsulot etkazib beruvchi va faktoring firmasi (bank) o`rtasidagi tuziladigan shartnomada ko`zda tutiladi.

Xalqaro amaliyotda faktoring shartnomasida chegara summasini aniqlashda odatda uch metoddan foydalaniladi. Ular quyidagilardan iborat;

Faktoring uchun to`lov va komission xizmatlar uchun to`lov mahsulot etkazib beruvchi va faktoring firmasi (bank) o`rtasidagi tuziladigan shartnomada ko`zda tutiladi.

Xalqaro amaliyotda faktoring shartnomasida chegara summasini aniqlashda odatda uch metoddan foydalaniladi. Ular quyidagilardan iborat;

Umumiy limitni aniqlab olish metodi. Ushbu metoddan foydalanishda haqiqatdagi to`lov talabnomasi asosida mahsulot etkazib beruvchiga avtomat ravishda to`lab beradi hamda limitni doimiy ravishda yangilab turadi. Agarda o`rnatilgan limitdan ortiqcha qarzdorlik (debitor) yuzaga kelsa, u holda faktoring firmasi sotib oluvchidan mahsulot etkazib beruvchiga to`lab bergan summani to`liq oladi va qolgan summasini mahsulot etkazib beruvchiga to`lab beradi.

Ma'lum to`lovchiga biron aniq davr moboynda tovar – mahsulot jo`natishning aniq summasini belgilab olish metodi. Ushbu metodning avzallik tomoni shundan iboratki, agarda mahsulot etkazib beruvchi belgilangan summa chegarasida tovar jo`natib tursa u turli debitor qarzdorlik yuzaga kelishini oldini oladi, ya'ni sug`urtalangan bo`ladi.

Ishlab chiqarish xususiyatini hisobga olgan holda mahsulot etkazib beruvchi va sotuvchi o`rtasidagi shartnomasini barcha summasiga emas, balki shartnomasida ko`zda tutilgan ma'lum bitimlar summasi bo`yicha aniqlash metodi. Bunda ma'lum muddatda shartnomaning ma'lum bitimida ko`zda tutilgan zakaz summasi to`lab beriladi.

Faktoring kompaniyasi xizmatidan foydalanigan korxonaning asosiy maqsadi shuki, ular faktoring shartnomasiga asosan sotib oluvchi tomonidan aktseptlangan to`lov talabnomalarining (70 foizdan-90 foizgacha) qismini to`xtovsiz ravishda oladi. Korxonaga uchun faktoringning afzalligi shundaki, bu operatsiya orqali korxonaning likvidligi oshadi. Shuni alohida ta'kidlab o`tish lozimki faktoring kompaniyasining vositachilik mukofat summasi ikki elementdan tashkil topadi:

1.Faktoring xizmati olib borgani uchun to`lov:

2.Kredit berganligi uchun foiz to`lovi:

Albatta, faktoring xizmati arzon emas. Lekin u mahsulot etkazib beruvchi korxonani shartnomasida ko`zda tutilgan kontragentni (sotib oluvchini) to`lovga qobiliyatligini aniqlash, o`z talabnomalari buyicha buxgalteriya hisobatini yuritish kabi xizmatlardan ozod etadi va o`z muddatdan shartnomadagi summani (70-90%) oladi.

Amaliyotda halqaro faktoring to'g'risidagi konventsiyaga asosan faktoring operatsiyasi quyidagi to'rtta tomonlardan biriga javob bergan taqdirdagina u faktoring operatsiyasi hisoblanadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Qarz talabnomani oldindan to'lash shaklidagi kreditlashning mavjudligi:

2. Mahsulot etkazib beruvchining, eng avvalo uning realizatsiya hisobatini yuritishlik:

3. Mahsulot etkazib beruvchining debitorlik qarzdorligini inkasso qilishlik:

Mahsulot etkazib beruvchini kredit xataridan sug'urtalash:

Faktoring to'g'risidagi xalqaro konventsiyada quyidagi korxonalariga faktoring xizmati ko'rsatilmaydi. Ular quyidagilar:

kichik summada qarzdorligi mavjud, Lekin debitorlar soni ko'p korxonalariga:

nostandart va tor ixtisoslashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalariga:

subpodryadchiqlar bilan ish olib boruvchi qurilish yoki boshqa korxonalariga:

o'z mahsulotini sotishdan so'ng xizmat ko'rsatish shartnomasi asosida ish yurituvchi korxonalariga:

o'z mijozlari bilan uzoq muddatli shartnoma asosida ish yurituvchi va shartnomaga asosan bajarilgan ma'lum ish xajmi uchun to'lov oluvchi korxonalariga.

Faktoring operatsiyalari korxonalarining filiallari, bo'limlari va jismoniy shaxslarining qarz majburiyatlari bo'yicha olib borilmaydi.

Xalqaro amaliyotda faktoring klassik shaklida quyidagi ishtirokchilaridan tashkil topadi:

1. Faktoring firmasi (bank):

2. Mahsulot etkazib beruvchi:

3. Sotib oluvchi:

Bu faktoring operatsiyasida tijorat kreditining tovar formasi amalga oshiriladi, ya'ni sotuvchi va sotib oluvchiga sotilgan tovarlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovni muddatini o'zaytirish maqsadida kredit beriladi.

Xalqaro bank amaliyotida faktoring operatsiyalarining quyidagi shakllaridan foydalaniladi:

1. Ichki, bunda faktoring shartnomasidagi barcha ishtirokchilar bitta davlatda joylashgan va xalqaro faktoring:

2. «Ochiq» faktoring. Ochiq faktoring operatsiyasida sotuvchi (mahsulot etkazib beruvchi) talabni bankka sotilganligi to'g'risidagi ma'lumotni sotib oluvchiga (haridor) etkazishga majbur. Bu tizimda faktoring firma (bank) mijozni to'lov summasini to'liq olishga kafolat beradi. Bunda ham to'lov summasining 80 foizini to'lab beradi.

Agar sotuvchi ma'lum sabablarga ko'ra yuborilgan mahsulot uchun tushumni ololmagan taqdirda ham faktoring firma (bank) ma'lum muddat o'tish bilan sotuvchiga to'lov summasini to'liq to'lab beradi. Lekin bunday xolatda sotuvchi uchun komission to'lov stavkasi biroz kutariladi. Hozirgi vaqtda xalqaro faktoring amaliyotida faktoring uchun xak o'rtacha 0,7-1,5 foizni tashkil etmokda.

3.«Yopik» (konfedentsial) faktoring. Faktoringning ushbu shaklida korxonada faktoring firmasi (bank) bilan faktoring shartnomasini tuzadi va u faktoring firmasini (bank) tuzilgan bitimlar bo'yicha doimiy ravishda xabardor qilib boradi, Lekin shuni ta'kidlash lozimki, korxonada o'z hamkorini (sotib oluvchini) tuzilgan faktor shartnomasidan xabardor qilmaydi. Faktoring firma (bank) o'z mijoziga faktoring shartnomasidagi to'lov summasining 80 foizini darhol to'lab beradi. Sotuvchi (mahsulot etkazib beruvchi) o'z hamkoridan to'lov summasini ololmay qolgan taqdirda sotuvchi haridor talabidan faktoring-firma (bank) zimmasiga o'tadi.

Hozirgi vaqtda halqaro faktoring amaliyotida «yopiq» (konfedentsial) faktoringni qiymati shartnomasidagi to'lov summasining o'rtacha 0,5-1,0 foizini tashkil etmokda.

4.Regress huquqi bilan, ya'ni sotuvchidan (mahsulot etkazib beruvchi) to'langan summani qaytarib olish huquqi bilan yoki regress huquqsiz faktoring. Bu xolatlar, sotib oluvchining faktoring shartnomasidagi majburiyatlarni bajarishdan bosh tortish bilan bog'liq, ya'ni kredit riskini oldini olish natijasida yuzaga chiqadi. Regress huquqi asosida tuzilgan faktoring shartnomasiga asosan sotuvchi (mahsulot etkazib beruvchi) faktoring – firmaga (bankga) sotilgan qarz talabnomalari bo'yicha ma'lum kredit xatariga ega bo'ladi. Bu xolatda faktoring firma (bank) sotuv oluvchining to'loviga qobiliyatsizligi yoki to'lovdan voz kechish natijasida u qarz talabnomalarini mahsulot etkazib beruvchiga qaytarib sotadi. Regress huquqi asosidagi faktoring shartnomasi sotuvchi tomonidan (mahsulot etkazib beruvchi) tomonidan sotib oluvchining to'lovga qobiliyatligini chuqur taxlil etishligi, o'z mijozini o'ziga xos xususiyatlarini to'la baholash asosida tuziladi Regress huquqsiz asosidagi faktoring shartnomasida sotuvchi (mahsulot etkazib beruvchi) o'rniga shartnomani sotib olgan faktoring firma (bank) mijozning to'lovga qobiliyatligi, moliyaviy xolati, uning tarmoq xususiyatlari, debitorlik-kreditorlik qarzdorligi to'g'risidagi va shunga o'xshash xo'jalik-moliyaviy xolatini chuqur taxlil etadi va monitoring olib boradi. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, regress huquqsiz faktoring shartnomasida sotuvchi (mahsulot etkazib beruvchi) va sotuvchi o'rtasida bironta qarz talabnomasi haqqoniy deb topilsa, faktoring firmasi (bank) bu qarz talabnomasiga nisbatan regress huquqiga ega bo'ladi.

5.Faktoring firma (bank) tomonidan sotuvchini (mahsulot etkazib beruvchini) oldindan to'lov shaklidagi kreditlash (sotilayotgan qarz majburiyatlari summasini 80 foizigacha) yoki to'lov talabnomalarini aniq

muddatda to'lab berish. Bu faktoring operatsiyasining asosiy tamoili shundaki bunda shartnomadagi qarz talabnomalarini summasining qat'iy belgilangan foizi belgilanadi. Bunga asosan sotuvchi (mahsulot etkazib beruvchi) avtomat ravishda o'z moliyaviy resurslarini xajmini oshirishga erishadi. Agarda faktoring shartnomasida oldindan to'lov shaklidagi kreditlash emas, balki to'lov talabnomalarini aniq muddatda to'lab berish sharti ko'zda tutilgan bo'lsa, bu holda faktoring firma (bank) tomonidan sotuvchiga (mahsulot etkazib beruvchiga) ma'lum aniq muddatda yoki aniq ma'lum muddat o'tgandan so'ng to'lov o'tkazib beriladi.

Hozirgi vaqtda xalqaro amaliyotda mijozlarga moliyaviy xizmat ko'rsatishining universal tizimi bo'lib «ochiq» shakldagi faktoring operatsiyasi hisoblanadi. Biz Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, faktoring operatsiyasining bu shaklida mijozga faqatgina ishlab chiqarish va mahsulotlarini o'z muddatida etkazib berish vazifasi qoladi. qolgan barcha moliyaviy ishlarni faktoring firmasi (bank) o'z zimmasiga oladi. Bu omil esa mijozning faktor-firma (bank) bajarayotgan vazifalarni qayta bajaruvchi (dubl, dublirovani) shaxsiy shtatni qisqartirishga, balki umuman voz kechishga imkon yaratadi Bu imkoniyatdan keladigan iqtisodiy samara faktoring operatsiyasi harajatlarini ma'lum qismini qoplashi mumkin.

Rivojlangan xorijiy davlatlardagi faktoring operatsiyalarining taxlili shuni ko'rsatmoqdaki, faktoring operatsiyalaridan o'zlarini ishlab chiqarishini rivojlantirish, olinadigan foyda xajmini oshirishlari uchun ularga ishlab chiqarish jarayonida sababli vaqtinchalik pul mablag'lariga katta ehtiyoj sezayotgan kichik va o'rta korxonalar keng hamda samarali foydalanmokdalar.

O'zbekiston Respublikasida faktoring operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining 2000 yil 3 avgustdagi 953 sonli «O'zbekiston Respublikasi xududida tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalari olib borish tartibi to'g'risidagi Nizom» ga (yangi redaksiya) olib boriladi.

Xalqaro faktoring amaliyoti hamda respublikamizdagi faktoring operatsiyasi to'g'risidagi nizomni taxlili shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi davrda mamalakatimizdagi tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalarini rivojlantirishda quyidagi muammolar mavjud. Bizning fikrimizga ular quyidagilardan iborat:

Mamlakatimiz iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan xo'jalik sub'ektlarida juda katta xajmdagi debitorlik – kreditorlik qarzdorligini mavjudligi. Bu salbiy xolat esa ko'p xollarda to'lov intizomini asossiz ravishda buzganlik uchun yuzaga kelgan.

O'zbekiston Respublikasi xududida faoliyat ko'rsatayotgan ko'plab xo'jalik sub'ektlarida xaddan tashqari ko'p tovar zaxiralari va tayer mahsulotni to'planib qolganligi:

Faktoring operatsiyasi faktoring firma (bank) tomonidan mijoz to'g'risida, ya'ni uni to'lovga qobiliyatligi, balansisini likvidligi, ishlab chiqargan



mahsulotlarini sotib oluvchi haridorlarining moliyaviy xolati, debitor qarzdorligi va shunga o`xshash moliyaviy ma'lumotlarni to`liq, xaqqoniy va o`z muddatida olishlikni talab etadi. Lekin, shuni qayd etish lozimki hozirda respublikamizda faoliyat ko`rsatietgan juda ko`plab xo`jalik sub'ektlari tomonidan xo`jalik-moliyaviy xolati to`g`risida xaqqoniy va oshkora ma'lumot berish tajribasi yo`lga qo`yilmagan.

Yuqorida qayd etib o`tgan salbiy omillar respublikamiz tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyasini amaliyotga kirish hamda rivojlantirishga to`skinlik qilmokda. Bizning fikrimizcha ushbu salbiy xolatni bartaraf etish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan mamlakatimizda xo`jalik yurituvchi korxonalarda debitorlik kreditorlik qarzdorligini inventarizatsiya qilish va aniqlangan o`zaro qarzdorlikni o`zaro singdirish hamda da'vo muddati o`tganlarini (O`zbekiston Respublikasi Fukorolik kodeksining 157 moddasiga asosan respublikamizda debitor-kreditor qarzdorlikning da'vo muddati 3 yil deb belgilab quyilgan) majburiy ravishda korxonaning foydasiga (kreditorlik qarzi) yoki zarariga (debitorlik qarz) olish to`g`risida maxsus qaror ishlab chiqish lozim. Ushbu qarorni ishlab chiqarilishi va amaliyotga kiritilishi respublikamizdagi juda ko`plab korxonalaridagi o`zaro qarzdorlikni keskin ravishda qisqartirishga olib keladi. Bu xolat esa tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyasini olib borishdagi o`ziga xos salbiy to`siqni olib tashlaydi deb hisoblaymiz.

O`zbekiston Respublikamizda faoliyat ko`rsatayotgan xo`jalik sub'ektlari tomonidan ular o`zlari to`g`risida xo`jalik-moliyaviy xolatis to`liq, xaqqoniy ma'lumot oshkoraligini amaldagi qonunchilik asosida tartibga solish lozim. Bu xolat esa tijorat banklarida faktoring shartnomasida ishtirok etayotgan mijozlar to`g`risidagi xaqqoniy, to`liq ma'lumotni olish imkoniyatini beradi va bu bilan faktoring operatsiyasidagi pasayadi. Shuni ta'kidlash lozimki, faktoring shartnomasida ishtirok etayotgan sub'ektning biri bankning mijoz bo`lmasligi mumkin. Shuni uchun, bizning fikrimizcha, respublikamiz bank tizimida faoliyat ko`rsatayotgan (mulkchilik shaklidagi qat'iy nazar) tijorat banklarida mijozlar to`g`risida tuliq ma'lumot bazasini yaratish va lozim vaqtda bu ma'lumotlardan (faktoring shartnomasi tuzilayotgan vaqtda) rasmiy ravishda o`zaro foydalanishlikni amaliyotga kiritish lozim. Bu xolat faktoring shartnomasini imzolayotgan tijorat bankiga har ikkala (o`z mijoz hamda ishtirok etayotgan begona mijoz) mijoz to`g`risida tezkor va xaqqoniy ma'lumot olish imkoniyatini yaratadi hamda bank uchun kredit xatarini kamaytiradi.

Xorijiy davlatlarda faktoring operatsiyasiga o`xshash forfeiting operatsiyasi hisoblanadi. Lekin faktoring operatsiyasidan farqli forfeiting operatsiyasi bir martalik operatsiya hisoblanib, u tovarlar va xizmatlar uchun sotib oltngan huquqni qayta sotish orqali pul mablag`larini jalb qilish bilan o`zviy bog`liq.

Forfeyting soʻzi frantsuzcha «forfait» yaʼni huquqdan voz kechish maʼnosini anglatadi. Forfeyting operatsiyasining mazmuni shundaki, bunda ishlab chiqaruvchi (kreditor) bankga haridor (qarzdor, toʻlovchi) aktseptlangan. Lekin toʻlov muddati kelmagan hamda regress huquqsiz oʻz tijorat vekselini sotadi. Tijorat vekseli bankga (forfeytorga) beriladi. Tijorat vekselining egasi (ishlab chiqaruvchi), bankdan forfeting hisob stavkasi summasi chiqarib tashlangan qolgan barcha summani darxol oladi. Shuni taʼkidlash lozimki, forfeting hisob stavkasi barcha boshqa kreditlash stavkalaridan Yuqori yuradi. Forfeyting hisob stavkasi quyidagi omillardan iborat:

qarzdorning toifasiga (yoki obrusiga)  
beriladigan kreditning muddatiga:

Veksel yoziladigan valyutaga (albatta erkin almashtiriladigan valyutada yozilgan veksel ishonchli hisoblanadi)

Vekselning toʻlov muddati kelganda, bank-forfeytor uni toʻloviga toʻlash uchun taqdim etadi. Bu erda shuni taʼkidlash lozimki, vekselni emitenti (ishlab chiqaruvchi) toʻlovga noqobil boʻlib qolishdan qatʼiy nazar bank –feytor vekselni aktseptlangan toʻlovchidan barcha qarz summasini undiri boladi va bu bankiga sezilarli daromad keltiradi.

Tashki tomondan forfeyting operatsiyasi bank tomonidan veksellarni hisobga olish operatsiyasiga oʻxshab ketadi. Lekin bu operatsiya forfeytor va vekselni sotib oluvchining huquq va majburiyatlarining xajmi bilan katta farq qiladi. Bu erda forfeytor veksel sotuviga nisbatan regress huquqini qoʻllay olmaydi va oʻz vaqtida ushbu vekselning egasi vekselda koʻzda tutilgan barcha toʻlovchidan kerakli toʻlovni toʻlashni talab etish huquqiga egadir. Xorijiy bank amaliyotida forfeyting operatsiyasi asosan tashki savdoni olib borishda qoʻllaniladi. Bu operatsiyada bank-forfeytor yirik summadagi veksellarni turli muddatlarga (odatda 6 oydan 5 yilgacha) sotib oladi. Forfeyting alohida veksel oldi-sotdisi bilan bogʻliq bir martalik operatsiya hisoblanadi.

Forfeyting operatsiyalari oʻtgan asrning 50 yillari oxiri va 60 yillari boshlarida xalqaro iqtisodiyot tarkibini oʻzgarishi va xalqaro savdo konyuktura va tarkibidagi jiddiy oʻzgarishlar natijasida paydo boʻldi. Buning natijasida ishlab chiqarish tovarlari sotuvchilari bozorda asta-syokin shu mahsulotlarni haridorlari bozoriga aylandi. Xalqaro savdoda importerlar (ishlab chiqaruvchilar) tomonidan oʻz tijorat veksellari muddatlarini odatdagi 90-180 kundan uzoq muddatga oʻzaytirish tendentsiyasi kuchayishi koʻzga tashlandi. Bu xolat ikkinchi jahon urushidan soʻngi depressiyani yuzaga kelishi, bojxona karama-karshiligini pasayishi bilan bogʻliqdir. Garbiy va Sharkiy Evropa davlatlari oʻrtasidagi savdo munosabatlarini tiklanishi va rivojlanishi, Osiyo, Afrika va Lotin Amerika davlatlari bilan savdo munosabatlarini tez rivojlanishi natijasida sanoati rivojlangan garbiy evropa davlatlari (eksporterlar) oʻz mahsulotlarini sotishda maʼlum qiyinchilikka toʻgʻri keldilar. Buning sababi shuki, bu tovarlarning istʼemolchilari (importerlar) vaqtinchalik moliyaviy tang axvolda

edilar. Amaldagi kredit siyosati eksporter tomonidan, na importer tomonni talabini kondira olmay qolgan edi. Forfeyting esa xuddi shu muammoni xal eta oladigan vosita sifatida bank xizmatlari olamiga kirib keldi. Forfeyting operatsiyasining boshlab bergan bank Shveysariyaning “Kredit Suiz”banki hisoblanadi va o`z vaqtida Shveysariya forfeyting operatsiyalarini olib boruvchi yirik banklar markazi hisoblanadi.

Forfeyting operatsiyasida haridorlarning kreditga olgan tovarlarning asosiy qismi aksariyat xollarda veksel bilan rasmiylashtiriladi shu sababli forfeyting operatsiyalarida oddiy (solo) va o`tkazma (tratta) tijorat veksellardan keng foydalaniladi. Shuni ta'kidlash lozimki, forfeytorlar kredit operatsiyalarida valyuta xatarini olish maqsadida birga hisob –kitoblarni faqatgina ba'zi valyutalarda.ya'ni ushbu valyutalarga talabning Yuqoriligi va ularni tezda hamda xech qanday tusiqlarsiz qaytamoliyalashtiriladigan valyutalarda olib boradilar. Hozirgi davrda xalqaro forfeyting amaliyotida hisob –kitoblar asosan AKSh dollari,Evro va Shveysariya frankida olib borilmokda.

Forfeyting operatsiyasini olib borishda forfeytor xalqaro savdo va kredit bitimlariga bilvosita va bevosita ta'sir etuvchi ko`plab huquqiy, iqtisodiy va siesiy omillari ham hisobga oladi, taxlil etadi va ijobiy natijaga erishish kelajagi bo`lsa, forfeyting operatsiyasini boshlaydi.

Forfeyting operatsiyasida agar birinchi darajali qarzdor degan Yuqori mavze-obrugaga ega bo`lmasa, bu xolatda u bilan barcha forfeyting operatsiyasi boshqa bank kafolati (avol shaklida) bilan ta'minlanishi lozim. Forfeyting operatsiyasida ushbu shartni bajarilishi juda katta ahamiyatiga ega. Buning sababi shundaki, qarzdor tomonidan qarzni to`lamagan xolatda forfeytor faqatgina bank kafolatiga tayanadi, aks holda u yirik miqdorda zarar ko`rib qolishi mumkin. Masalan, Rossiya Federatsiyasida 1994 yilning ikkinchi yarimidan boshlab forfeytingning ta'minlanganlik shaklidan foydalanib kelinmokda. Buning ma'nosi shuki, Rossiya Federatsiyasida joylashgan importerlar tomonidan aktseptlangan vekselar bo`yicha to`lov kafolatini (aval shaklidagi) faqatgina Rossiyaning yirik, moliyaviy mustaxkam tijorat banklari beradi.Bu vekselar (aktseptlangan) shundan keyingina xorijiy tijorat banklar tomonidan regress huquqisiz qabo`l qilinadi.

Forfeyting operatsiyalarini olib borishda bank-forfeytor tijort vekselni kreditning butun muddati uchun avans tariqasida hamda foizlarni (diskontni) chegirib tashlagan holda sotib oladi. Buning natijasida eksporter pul manbalarini darxol olish imkoniyatiga ega bo`ladi. Bunday xolatda eksporter faqatgina tovarlarni o`z vaqtida va tuliq etkazib berish yuzasidangina majburiyatlarni o`z zimmasiga oladi. qolgan barcha xatarlar (iqtisodiy, huquqiy va siesiy) avtomatik ravishda forfeytor-bankiga o`tadi. Shuni alohida ta'kidlab o`tish lozimki, veksel bo`yicha hisob stavkalarining qat'iy belgilanligi eksporter uchun forfeyting operatsiyasini yanada qulayroq va balans munosabatlarini sodda hisob- kitob shakliga aylantiradi.

## Qisqacha hulosalar

Bank hisobvarag`i - bank hisobvarag`i shartnomasini tuzish orqali bank mijoz (hisobvaraqq egasi) hisob-varag`iga kelib tushgan pul mablag`larini qabul qilish va kiritib mijozning hisobvarag`idagi tegishli mablag`larni o`tkazish va berish hamda hisobvaraqq bo`yicha boshqa operakiyalarni amalga oshirish to`g`risidagi farmoyishlarni bajarish vazifasini o`z zimmasiga olishi natijasida bank bilan mijoz o`rtasidd vujudga keladigan munosabatlardir.<sup>30</sup> Faktoring inglizcha “factor“, ya'ni “agent” yoki “vositachi” ma'nosini anglatadi<sup>31</sup>.

### Tayanch iboralar:

Bank raqami, mijoz, rezident, to`lov, depozit raqami, ssuda raqami, huquq, naqt pulsiz hisob-kitoblar, to`lov topshiriqnomasi, inkasso, akkreditivga ariza, plastik kartochka, elektron to`lov tizimi, korrespondent munosabatlar.

### Nazorat savollari:

1. Bank raqami va mijozni tushunchalari, bank raqamlarini ochish tartibi
2. Naqt pulsiz hisob-kitob operatsiyalari tamoyillari
3. O`zbekistontijorat banklarida naqt pul muomalasini tashkil qilishni taxlili<sup>32</sup>
4. Bank raqamlarini ochish tartibi.
5. To`lov topshiriqnomasi
6. To`lov talabnomasi
7. Cheklar bilan hisob-kitoblar va ularning asosiy mazmuni
8. Akkreditiv hisob-kitob tizimi va uni o`tkazish tartibi
9. Bank amaliyotida yangi hisob-kitoblarini tadbik qilish muammolari.
10. Pul oqimini boshqarish usullaridan foydalanish xususiyatlari<sup>33</sup>
11. Tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan elektron to`lov tizimi
12. Tijorat banklari va plastik kartochkalar

### Asosiy adabiyotlar.

1. Abdullaev Yo, Abdullaeva Sh. «Bank ishi», Toshkent 2003y.
2. V.Xoyer. Kak delat biznes v Evrope.M.: Progress.1990 g.
3. Efimova M.R. Finansovo-ekonomicheskie rascheti. Posobie dlya menedjrov: Ucheb. Pos.-M.: INFRA-M, 2004.-185s.

<sup>30</sup> O`zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi ga doir me'yoriy hujjatlar to`plami. T.; O`zbekiston. 2003 y.28 bet.

<sup>31</sup> V.Xoyer. Kak delat biznes v Evrope.M.: Progress.1990 g. 108 str.

<sup>32</sup> TDIU va MDH mamlakatlari iqtisodiy mutaxassisliklari bo`yicha bakalavriat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining namunaviy mavzulari. T, 2005 y., 74

<sup>33</sup> O`sha yerga qaralsin

4. Ivasenko A.G. Faktoring. Novosibirsk NGAZ i U. Moskva. Vizovskaya kniga. 1997.
5. Lavrushin O.I. i dr. «Bankovskoe delo» M. F i S 2003g.
6. Finansi. Pod red. G.B. Polyaka. -M.: YuNITI-DANA, 2004.-607s.
7. [www.thebanker.com](http://www.thebanker.com)
8. [www.bankinfo.uz](http://www.bankinfo.uz)
9. [www.Google.ru](http://www.Google.ru)
10. <http://www.bankofendland.co.uk/coreuproses.htm>

## IV-BOB. BANK RESURSLARINI TASHKIL QILISH, BANKLARNING PASSIV OPERATSIYALARI, BANKLARNING KREDIT POTENTIALI.

### 4.1. Bank resurslarini shakllantirish va foydalanish tartibi

Bank tizimi faoliyati davlatning iqtisodiy holati bilan uzviy holda bog`lik va unga o`ziga yarasha ta'sir ko`rsatadi, ayniqsa xozirgi bozor iqtisodiga o`tish sharoitida, mamlakatdagi moliya – kredit tizimining tashqil etilganligi, iqtisodiy sikllarning barqarorligini bank faoliyati ko`rsatkichlari orqali qisman bo`lsa ham ko`rish mumkin. Banklarning iqtisodiy faoliyatidan kelib chiqadigan bo`lsak bank faoliyatida ham o`ziga yarasha extiyojlar va talablar mavjud. Ushbu bobda bank faoliyati yuritish uchun zarur bo`lgan «resurslar» tushunchasi va ularning tarkibi hamda moxiyati bilan tanishamiz. Banklar faoliyati ham boshqa xo`jalik yurituvchi sub'ektlar singari o`z faoliyatini olib borishi uchun etarli darajada pul va moliyaviy resurslari bilan ta'minlagan bo`lishi kerak, chunki ularning asosiy taklif etadigan va ko`rsatadigan xizmatlari ham pul mablag`lari yoki moliyaviy resurslarda tashqil topadi.

Hozirgi kunda tijorat banklarining to`qnashishi mumkin bo`lgan muommolardan biri bu bank resurslarning shakllantirish va ularni saklab qolish bo`lib qolmoqda.

Tijorat banklari resurslari makroiqtisodiy ko`rsatkichlar katoriga kiradi va bankning likvidligiga va daromadligigiga to`g`ridan to`g`ri ta'sir ko`rsatadi. Tijorat bankning faoliyati ko`rsatish qamrovini oladigan bo`lsak ular oladigan foydalar bank resurslarini qanday shakllantirganligi va qanday shartlar va turlari bo`yicha jalb qilganligiga juda ham bog`liqligini juda yaxshi bilamiz. Shuning uchun banklar o`rtasida ham mablag`larni jalb qilishda ham katta raqobat muhiti yuzaga kelganiligini ko`rishimiz mumkin.

Bank resurclarini shakllantirish jarayoni bu faqatgina yangi mijozlarni bankga jalb qilishning o`zi emas balki bank mablag`lari tuzilishining doimiy ravishda o`zgarib turishi va tarkibidagi passivlarning holatiga qarab o`z aktivlarini boshqarishi ham tushuniladi. Buning uchun esa samarali passivlarni boshkarish tizimi yoki samarali depozit siyosatini yuritilishini talab etiladi. Mijozlar oldidagi talabni doimiy qondirish hamda barqaror holatni saqlab qolish uchun banklar kerakli darajada likvidlik talablarni bajarishi kerak. Bugungi kunda Markaziy bank talablaridan hamda o`zining ichki faoliyatidan kelib chiqib likvidlik normalari belgilangan. Likvidlik normasini ko`rsak, bugungi kunda u barcha talab qilib olguncha depozitlarga nisbatan 30% kam bo`lmagan miqdorida mablag`larni likvid holda ushlab turishi shart.

Resurslarning chegaralanganligi bu banklarning rivojlanayotganligini va bankning mijozlarga bog`lanib qolishini hamda banklar o`rtasida mijozlar uchun kuchli raqobat muhiti yuzaga kelayotganligini ko`rmokdamiz. Shuning uchun

bank resurslarini barqarorligini ta'minlash uchun aniq strategik rejalar bilan asoslangan depozit siyosati yuritishi asosida depozit portfelining diversifikatsiyalanganligi hamda yuritilayotgan depozit siyosatining samaraliligiga erishish lozim.

Chunki bugungi sharoitda resurslar jalb qilish bilan birgalikda ularni optimal tarzda taqsimlash va kerakli bo'lgan maqsadlarga erishish, ya'ni davlat ahamiyatidan ham bank hamda mijoz manfaatini ham ko'zlashi kerak. Chunki banklar o'z to'lov qobiliyatini saqlashi yoki likvidligini saqlab turishi bank uchun ham mijoz uchun ham eng muhim bo'lib, uchinchi tomonidan nazorat qiluvchi muassalarning ham qarashlarini qondiradi. Ikkinchi tarafdin likvidlik hamda daromadlilik bir biriga nisbatan teskari proporsional. Shularni hisobga olgan holda bank jalb qilinayotgan manbaalarning sifatiga shu bilan birgalikda yo'naltirilayotgan sohalar ishonchliligiga kuchli e'tiborni qaratishlari kerak.

Bankning depozit siyosati o'z ichiga hamma ijtimoiy darajadagi shaxslar – nafaqaxo'rlar, yoshlar va yoshi kattalar hamda kam ta'minlanganlar va kam daromadlilarning ham hisobini olishlari kerak.

Har bir mijoz bilan iloji boricha uzoq muddatli aloqalarni yo'lga qo'yishi kerak va buning uchun mijozlarning talablarini oldindan bilishlari hamda ular uchun kerakli xizmat turlarini o'z vaqtida berishlari kerak.

Aholining real pul daromadlarini o'sishi ist'emol talabini ko'payishiga va chakana savdo oborotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga bank tizimiga ishonch ortishi tashqillangan jamg'armalar o'sishini rag'batlantirdi. Bu omillar banklarning depozit operatsiyalarini kengaytirishga va banklarning bu boradagi xizmatlari doirasini yanada rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishlariga majbur etmoqda. Chunki banklarning faqatgina chakana xizmatlari evaziga ularning 20 foizdan ortiq resurslari shakllanadi.

Shu bilan birga bugungi kundagi iqtisodiy holat tijorat banklariga juda katta ma'suliyat va talabni yuklaydi. Chunki iqtisodiyotni rivojlanishi uchun kerakli bo'lgan moliyaviy resurslarni faqatgina banklarning yordami va aktivligi bilan ta'minlash mumkin. Bu esa banklarimizning resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi va barqarorligini juda ahamiyatli ekanligini kasb etadi.

Yuqorida ko'rib o'tilganlar shuni ko'rsatadiki, bank resurlarining shakllanishi va ularni barqarorligini ta'minlashda quyidagilar asosiy bo'lib qolmoqda:

- Bugungi kunda banklarning asosiy mablag'lari o'sishi aktsiyadorlarni jalb qilish va ularning mablag'larini joylashtirish hamda olingan daromadlardan ajratmalar ajratish, zahira fondlar yaratish va maqsadli zahiralarni tuzish orqali amalga oshirilmoqda.

- Bankning passiv operatsiyalarini yuritish orqali, ya'ni depozitlarga jalb qilish, yuridik va jismoniy shaxslarning talab qilib olguncha va jamg'arma, muddatli omonatlariga, vaqtincha yoki talab qilib olguncha shartlari bo'yicha joylashtirish orqali olib borilmokda.

Bankning o'z kapitali bank faoliyatining asosini tashqil etuvchi hamda bank passivlarining muhim manbaalaridan hisoblanadi.

Jalb qilingan va sotib olgan mablag'lar yoki qarzga olingan mablag'lar bank passivlarining katta qismini tashqil etuvchi hamda tijorat bankning vositachi tashqilot ekanligini, ya'ni vaqtincha bo'sh mablag'larni jalb qilib boshqa mijozlarni talablarini qondiruvchi ekanlini tavsiflaydi.

#### 4.2. Bank kredit potentsiali manbalarining tuzilishi va ularning tavsifi

Bank resurslari bizga ma'lumki passiv operatsiyalarni natijasida shakllanadi. Bankning passiv operatsiyalari – bankning o'z va jalb qilingan mablag'larini ustida amalga oshirilgan amaliyotlarda yuzaga keladi. Moliya-kredit lug'atlarda berilishicha, banklarning passiv operatsiyalari bu – «Banklar kredit va boshqa aktiv amaliyotlarni bajarish uchun o'z resurslarini shakllantirish operatsiyalari»□ dir.

Passiv operatsiyalarning xilma-xilligi, ularni boshqarish zaruriyatini yuzaga keltiradi va hozirgi kunda ularni boshqarish bank menejmentini tashqil etuvchi asosiy kismalaridan ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Bank passivlarini boshqarishdagi asosiy e'tibor bankning likvidligini ta'minlash bilan bog'lik bo'lib, bu erda passivlarning xar turi aloxida e'tiborga olinadi. Passivlarni boshqarishda begona pullar bilan ishlash bilan bir katorda (ya'ni jalb qilingan mablag'lar) mijozlarni talabi ham qondiriladi.

Banklar resurslaridan samarali foydalanish uchun o'z passivlarini boshqarishni o'ta extiyotqorlik va kat'iy holatda olib boradi hamda bankning likvidligini va daromadliligini ta'minlaydilar. Bank passivlarini boshqarilishini qo'yidagilarni o'z ichiga oladi va olishi kerak.

Birinchidan, passivlarni boshqarish – bankni barqaror resurslar bilan ta'minlashi.

Ikkinchidan, jalb qilingan va o'z mablag'lari o'rtasida nisbatni optimal tarzda belgilashi.

Uchinchidan, passivlarni boshqarish orqali kapitalning etariligi talablarini nazorati.

To'rtinchidan, depozitlar turlarini salmogini ko'proq bo'lishini ta'minlashi va mulkchilik shakllarini manfaatlarini ifoda etishi.

Beshinchidan, muddatli jamg'armalarga aloxida e'tibor berilishi va likvidlikni ta'minlanishi.

Oltinchidan, jalb qilingan resurslarni muddatlari bo'yicha joylashtirilgan aktivlarning muddatlari va summalarini mos kelishi.

Ettinchidan, passivlarni boshqarilishi shunday tashqil etilishi lozimki, natijaviy holatda bank foyda ko'rishi lozim.

Bank passivlarini boshqarishdan maqsad bankni barqaror resurslar bazasi bilan ta'minlash bo'lib, bankning olib borayotgan yokiolib borishi lozim bo'lgan



depozit siyosatiga bog'lik bo'lgan holda ularga ko'yiladigan talablarni keyingi qismlarda ko'rib chiqamiz.

Bank resurslarining iqtisodiy moxiyatini o'rganadigan bo'lsak, bu yuzasidan taniqli iqtisodchi olim Lavrushin O.I., qo'yidagicha ta'rif beradi: «Tijorat banki resurslari yoki «bank resurslari», aktiv amaliyotlarni amalga oshirish uchun o'z ixtig'rga jalb qilingan va o'z mablag'larining jamlamasidir». Maslechenqov Yu.S. ham o'z kitobida «Bank resurslari o'z va jalb qilingan mablag'laridan tashqil topadi» deydi.

Taniqli iqtisodchi olim Usoskin V.M. ham bank passivlarini ikkita katta guruxga bo'lib o'rganadi:

- Bank kapitali va unga tenglashtirilgan moddalar
- Jalb qilingan mablag'lar, depozit va nodepozit

Bizning fikrimizcha ham bank resurslariga, bankning o'z kapitali, qarzga olingan va jalb qilingan mablag'lari kirib, ulardan bankning aktiv amaliyotlarini amalga oshirishda foydalaniladi, ya'ni mablag'larni daromad olish maqsadida soxalarga joylashtirish tushuniladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank resurslarini shakllantirish va barqarorligi ta'minlash asosiy vazifalardan hisoblanib, fakatgina o'z va jalb qilingan mablag'larigina ularni joriy aktiv amaliyotlarini amalga oshirishga sharoit yaratib beradi.

Bank resurslarining asosiy manbai sifatida uning tashqiliy tuzilishi va strategik yo'nalishidan kelib chiqqan holda bugungi kungi amaliyotda ularning salmoqli qismini jalb qilingan mablag'lar tashqil qiladi. Bankning o'z mablag'lari esa ja'mi resurslarning kichikroq ulushini tashqil qilgani holda yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan vazifalarni bajaradi. Yuqorida aytib o'tganimizdek bank resurslarining tarkibida, jalb qilingan mablag'lar ham etarli darajada katta o'rinni egallaydi. Jalb qilingan mablag'lari bank resurslari tarkibida 50% va undan ham ko'proq ulushni tashqil etishi mumkin. Banklarning rivojlanish taraqqiyotida shuning bilan birgalikda an'anaviy va xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda jalb qilingan mablag'larning tarkibida uni tashqil etuvchi manbaalarda bir qator o'zgarishlar yuzaga kelgan, ya'ni bugungi kunda jalb qilingan mablag'lar depozit va nodepozit manbaalar hisobiga shakllanayotganligini ko'ramiz.

Bank resurslarining depozit va nodepozit manbaalar ham o'z o'rnida bozor tizimidagi bank faoliyatining bir necha iqtisodiy unsurlardan tashqil topganligini ko'rishimiz mumkin. Bankning resurslari tarkibini ikki kismga jalb qilingan va o'z mablag'lariga bo'lib o'rganar ekanmiz, ular ham o'z vaqtida bir necha iqtisodiy unsurlarda tashqil topganligini ko'ramiz.

Bulardan, bankning o'z mablag'lari umumiy olganda o'z aktsiyalarini joylashtirish, shuningdek rezervlar shakllantirish, xar hil fondlar tashqil etish, va taqsimlangan foyda hisobiga shakllanadi. Shuningdek banklarda boshqa nomoliyaviy tashqilotlardan farkli o'larok, o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik

ozrok bo`ladi. (Boshqa nomoliyaviy tashqilotlarda 50% dan yuqori, banklarda esa 10% atrofida)

#### 4.3. Tijorat banking o`z kapitali va uni baholash usullari

Bank o`z mablag`lari tarkibi,

- 1) Aktsiyadorlik kapitali (Oddiy, Imtiyozli)
- 2) qo`shimcha kapital,
- 3) zahira kapitali (Zahiralar va maxsus fondlar, devalvatsiya)
- 4) Taqsimlanmagan foyda
- 5) qayta baholash ortiqchasidan iborat.

Yuqorida aytib o`tganimizdek, o`z mablag`lari ustav kapital, rezerv kapital, maxsus fondlar, o`tgan yillardagi taqsimlanmagan foydalar, rezervlar, qayta baholash natijalaridan iborat.

Shundan, bank ustav kapitali ular tomonidan chiqargan aktsiyalarning nominal qiymatiga teng bo`lib, bankning boshlangich ish faoliyatida bank faoliyatini yuritishi uchun kerakli darajada mablag`ga ega bo`lish maqsadida o`zi uchun etarli bo`lgan miqdorda joylashtiriladi. Shuningdek rivojlangan mamlakatlarda Fond bozorlariga joylashtirilgan aktsiyalarning nominalidan yuqori bo`lgan bozor narhlari qo`shimcha ravishda nominalidan ortiqcha qismi qo`shimcha kapitalda hisobga olinadi.

Bankning rezerv kapitali foydadan ajratmalar ajratish hisobiga maksadli tarzda shakllantirilib uning tarkibiga, xar hil yaratilgan maqsadli fondlar va zahiralar, shuningdek ko`zda tutilmagan xarojatlarni, ssudalardan ko`rilishi mumkin bo`lgan zararlarni qoplash uchun yaratilgan zahiralar kiradi. Zahiralarining zarurligi shundan kelib chiqadiki, umidsiz bo`lgan qarzlarni qoplash va hamma kredit uchun noto`lovlarni oldini oladi. Bizning amaliyotda bank zaxiralari xarojatlarni oshirish evaziga amalga oshiriladi. Shuningdek kapitalga faqatgina ja'mi xatarga tortilgan aktivlarga nisbatan 1,25% gina qo`shiladi.

Kapitalning navbatdagi elementi bo`lib, taqsimlanmagan foyda kiradi. Bu bank egalarining ixtig`rida qoladigan mablag` hisoblanib, yil yakuni bo`yicha zahiralariga ajratish, soliqlarga to`lovlar va dividendlar uchun o`tkaziladi.

Bank kapitali yoki o`z mablag`larining ja'mi bank resurslari tarkibida ulushi kamroq bo`lishiga qaramay, bir qator funktsiyalarni bajaradi.

Ular bugungi kunda keng tarzda e'tirof etilayotgan uchta asosiy funktsiyalarga: ximoya, tezqorlik va nazorat ga bo`linadi. Bank aktivlarning sezilarli qismi jamg`armachilar tomonidan moliyalashtiriladi, shuning uchun o`z mablag`lari jamg`armachilar manfaatini ta'minlovchi ximoya vazifasini

Bank kapitali, o`z o`rnida bank uchun «yostiqcha» vazifasini bajaradi yoki bank faoliyatini ko`zda tutilmagan xarojatlar va zararlardan saklanish uchun ishonch vazifasini o`taydi.

Kapitalning tezqorlik funksiyasidan o`z o`rnida, bankning boshlangich faoliyatida kerakli bo`lgan bino va asosiy vositalarga manbaa sifatida foydalaniladi.

Kapitalning nazorat funksiyasi ommaning qiziqishi va e'tiborida bo`lib bankning samarali ishlash faoliyati nazoratini ta'minlaydi. Kapitalning nazorat funksiyasi orqali davlat organlari bank faoliyatiga baho beradi va u orqali bank faoliyatiga ta'sirini o`tkazadi. Odatda kapitalga qo`yiladigan minimal miqdor va ularga belgilanadigan cheklovlarni hamda ularga nisbatan bankning boshqa ko`rsatkichlarini nazorat qilish yokiunga nisbatan shakllantirish foydalaniladi. Markaziy bankning tijorat banklari uchun belgilagan ayrim iqtisodiy normativlari ham bank kapitaliga nisbatan belgilanadi va ular kredit va investitsiyalarni hamda qimmatli qog`ozlar bilan operatsiyalar olib borishning maksimal miqdorini belgilaydi.

Bugungi kunda bank kapitaliga nisbatan nazorat va uni o`rganish ikki asosiy guruxlash asosida olib boriladi va ular quyidagi turlarga bo`linadi, shundan:

I darajali kapitalga:

- Muomaladagi aktsiyalar
- qo`shimcha kapital
- Zahiralar
- Taqsimlanmagan foyda

II darajasi kapital

- Joriy yil sof foydasi
- Subordinar qarzlari

Bu erda I darajali kapital ja'mi kapitalning 50% dan ko`p bo`lishi talab qo`yilgan.

Yuqoridagi ko`rsatib o`tilgan hamma funksiyalar bank faoliyatida xatar darajasini kamaytirishga qaratilgan bo`lib, bankni samarali boshqarish sharoitini yuzaga keltiradi.

#### 4.4. O`zbekiston Respublikasining tijorat banklarining mablag` ta'minoti

Bank resurslarini barqarorligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri ularni samarali boshqarishdir va boshqarish quyidagi turlarini ko`rishimiz mumkin.

Birinchisi yuqorida ko`rib o`tganimizdek, bankda yuzaga kelgan likvidlik muammosini qo`shimcha pul mablag`larini kapital bozoridan sotib olgan holda jalb etishning nodepozit usullaridan foydalanib hal etib borish mumkin.

Ikkinchisi – tijorat banki o`z likvidligini Markaziy bankdagi keng miqyosdagi qarzga beriladigan pul mablag`laridan yoki boshqa banklaridan qarzga olinadigan qarzlardan foydalanib ta'minlashi mumkin. Keyingi yillarda

banklar o'z barqarorliklarini ta'minlash uchun keng miqyosda qarz olishdan foydalanmokdalar.

Bank resurslarining muhofazasining ta'minlash maqsadida Markaziy bank tomonidan ham bir qator tadbirlar ishlab chiqilganligini ham inobatga olgan holda, ayrim amaliyotlarga cheklovlarni ham keltirib o'tishimiz mumkin, masalan dahldor shaxslar bilan amaliyotlar hamda bir kredit oluvchiga nisbatan kreditning maksimal miqdorini belgilanishi, hamda kapitalning adekvatligiga qo'yiladilar talablarni ham shu yulda qilingan ishlar qatorida olishimiz mumkin.

Resurslar barqarorligi masalalarini ko'rayotganda omonatlarni kafolatlanishiga ham e'tibor qaratish lozim. Chunki ushbu holatning borligi mijozlarning banklarda mablag' saqlash psihologiyasiga ta'sir etuvchi eng zarur omil hisoblanadi. Shuningdek, hamma rivojlangan davlatlarda o'ziga xos omonatlarni ta'minlash tizimlari bor, masalan Amerika, Germaniya, Frantsiya kabi davlatlarda ham omonatlarning sug'urtalari federal tarzda yoki umummajburiy hamda chegarlangan amaliyotlar uchun sug'urta tizimi mavjud. Ayrim davlatlarda esa nafaqat omonatlar balki butun bank aktivlariga nisbatan sug'urta amaliyotlarini olib borilishi ham kuzda tutilgan. Bu esa bank tizimida iqtisodiy inqirozlarning olinishi, omonatchilarning tijorat banklariga ishonchini saqlab qolishda o'z ahamiyatini ko'rsatmay qolmaydi.

Shuningdek, bizning amaliyotda ham Banklar omonatchilarini ximoya qilish (jismoniy shaxslarni) maqsadida Vazirlar Maxkamasining 2002 yildagi 326 sonli qarori bo'yicha «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi» tashqil etilgan. Fond faoliyatining maqsadi, bankning bank operatsiyalarining amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyasi Markaziy bank tomonidan chiqarib olingan taqdirda, fukarolarning banklardagi omonatlariga ham to'lanishini qonunchilikda nazarda tutilgan shartlarda va miqdorda kafolatlashdan iboratdir.

Shuningdek tijorat banklarining aholi omonatlarining davomiyligini ta'minlagan hollarida ularning foiz xarajatlari uchun to'lanayotgan xarajatlarni daromad soliqlariga imtiyozlar berish yo'li orqali ularning yuqori foizlar to'lanishini kafolatlab va ularning jozibadorligini saqlab turibdi.

Fuqorolar omonatlari sug'urtasi bo'yicha qilinayotgan ishlarni o'z vaqtida qilingan ijobiy ish ekanligini ta'kidlab o'tish e'tiborga loyiqdir. Hukumat tomonidan yaratilgan yuqoridagi imtiyozlar yaratilganligi tijorat banklariga yana bir bor o'z faoliyati aktivlikni oshirishni talab etadi.

Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda, tijorat banklarni likvidligini saqlab qolishning boshqa instrumentlaridan ham kengroq foydalanishni taklif etgan bo'lar edik.

Masalan banklararo moliya bozorini tashqil etilishi ham banklarning resurslarga bo'lgan qisqa muddatli ehtiyojlarini tezroq qondirar va banklar o'rtasida vertikal tarzdagi qorrespondent aloqalarni o'rnatilishi bu masalani osonroq xal qilinishiga olib kelar edi. Vertikal qorrespondent aloqalari bu jalb

qilingan mablag'larning o'zgacha turi bu «Vostro» hisob raqamlarida ochilgan boshqa banklarning qorrespondent hisob raqamlari hisoblanadi. Chunki banklar o'rtasidagi ikki tomonlama qorrespondent aloqalar banklarning resurslari barqarorligiga hamda likvidligiga ijobiy ta'sir ko'rsatar edi.

Shuning bilan birgalikda banklar uchun hozirgi iqtisodiy sharoitdan kelib chiqqan holatda bank resurslarini shakllantirishda qimmatli qog'ozlar faoliyatini yanada rivojlantirishlari maqsadga muvofiqdir, chunki ular banklar likvidligiga ta'sir ko'rsatadi, to'lov tizimida engilliklar olib keladi hamda Markaziy bankdan hisobga olish amaliyotini oshirish orqali pul-kredit siyosati instrumentlaridan foydalanish osonlashtiradi.

Plastik kartalar amaliyoti ham bank resurslarini shakllantirishga juda katta ta'sir ko'rsatadi, chunki ular doimiy jamg'arish vositasi sifatida ko'proq ishlatilishi bir tarafdin bank resurslari mustahkamligini ta'minlasa, ikkinchi tarafdin iqtisodiyotdagi pul – kredit siyosatini olib borishda oz bo'lsada engillik berar edi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan masalalardan ko'rishimiz mumkinki, resurslar bankning majburiyatlari va ularni shakllantirishda banklar har xil unsurlardan foydalanadilar. Bular asosan bankning olib borayotgan depozit siyosatidan kelib chiqqan holda shakllantiradilar. Agar banklar faoliyati asosida ko'radigan bo'lsak, uzoq muddatli investitsiyalar bilan shug'ullanuvchi banklar resurslar bazasining asosini o'z mablag'lari evaziga shakllantirgani ma'kul deb o'ylaymiz, qisqa muddatli kreditlar bilan shug'ullanuvchilar esa aholi jamg'armalari va nodepozit mablag'lari jalb qilingan resurslar hisobiga shakllantirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bank o'z faoliyatida omonatning bir qator turlarini amaliyotga tadbiiq etgan, lekin shuni aytish kerakki, shunday bulsa ham aholi omonatlari bo'yicha olib borilayotgan ishlar talab darajasiga bormay qolmoqda, chunki aholi jamg'armalarining ulushi o'rtacha hisobda 6-7 foizdan oshmay kelmoqda.

Fikrimizcha bank ko'proq sertifikatlar bilan ishlarni amalga oshirishni ko'paytirishi kerak, chunki u bu erda ortiqcha hujjatli ishlarni kamayishi hamda mijoz uchun qulayligi hamda bank uchun esa buning uchun xech kandy majburiy zaxiralarni to'lovi amalga oshirmasligi va uning hisobiga kredit potentsialni oshishiga olib keladi.

Shuningdek, banklar o'zilarining reklama faoliyatiga ham kengroq e'tibor qaratishlari lozim, ya'ni yangi chiqqan bank xizmati yoki omonat turi mijozlarni qiziqishini ortishi uchun ma'lum muddat oldinroq e'lon qilinishi va u mijozlarga tushunarli va aniq ishonchli bo'lishi lozim.

Shuning bilan birga bank o'zing faoliyatini quyidagilar bilan to'ldirishi lozim.

Depozit, kredit va boshka operatsiyalarini bankning barqarorligini ta'minlashi bo'yicha bog'likligini yanada kuchaytirishi.

Risklarni kamaytirish uchun resurslarni diversifikatsiya qilinish lozim.

Depozit portfelni turkumlash (mijozlar bo'yicha);  
Mijozlarni turlari bo'yicha individual yo'nalish olib borish;  
Xizmatlarning raqobatbardosh bo'lishi.

Bu holati bo'yicha banklar o'rtasidagi kredit resurslari bozorini «O'zbekiston Valyuta birjasida emas, balki soddaroq shaklda va o'rta banklar ham kira olishi mumkin bo'lgan sharoitlarda «O'zbekiston Banklari Assositsiyasi qoshida yuritilishi hamda unifikatsiyalashgan shartlar tizimini tashqil etish yokibanklar uchun resurslarning elektron bozorni tashqillashtirish choralarni ko'rsa, bu ko'prok bank resurslariga bulgan talab va taklifni optimal tarzda shakllantirilishiga hamda bank tomonidan ularning diversifikatsiyasiga va foydalanish samaraliligini ortishiga olib kelar edi.

#### 4.5. Banklarning depozit operatsiyalari

Depozit – lotincha so'zdan olingan bo'lib, lug'aviy ma'nosidan kelib chiqqan holda saqlash uchun topshirilgan buyum ma'nosini bildiradi. Iqtisodiyotda esa mijozning o'z mablag'ini vaqtincha foydalanish uchun bankga topshirish natijasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatni tushuniladi.

Respublikamizda banklarning depozit va unga bog'liq amaliyotlari qo'yidagi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi:

-«O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik qodeksi: 759-770, 771-789, 327 Moddalar, 29,08,1996 yil 257-1

-«O'zbekiston Respublikasi «Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi» qonun, 1996 yil 25 aprel

-«Banklarning depozitlari to'g'risida» nizom, «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 28.03.1997 y, № 319

-«Bank depozit sertifikatlarining chiqarish, ro'yxatga olish va muomalasi tartibi» to'g'risida «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 24.12.1994, № 103, «O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi, 09.11.1998, № 522

-«Markaziy bank depozit sertifikatlarini chiqarish to'g'risida» nizom, «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 26.12.1998, № 434, «O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 09.02.1999 № 624

-«Vaqolatli banklariga erkin ayriboshlanuvchi valyutada taqdim etuvchiga depozitlarni mukammallashtirish to'g'risida» nizom, «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 20.02.1999 № 439, «O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 15.03.1999 y № 673

-«Banklarning veksellar bilan operatsiyalar o'tkazish» to'g'risida tartib «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 30.05.1995 y.

Talab qilib olguncha depozitlar yoki tranzaksion hisoblar, bankning nobarqaror resurslar manbasi turkumiga kiritilib, ular hisobidan jamg'armachi va hisob varaq egalari to'lovlarni amalga oshirish yoki undagi qoldiqlar uchun chek olish xuquqini beradi. Bundan tashqari, ushbu depozitlarning egasi o'z


talabiga ko`ra belgilangan tartibda naqd pul ham talab qilib olishi mumkin. Ushbu depozitlarning tarkibiy qismini hamda tashqil qiluvchi asosini davlat, qorxonalar va tashqilotlar hamda firmalar, individual shaxslarning saqlayotgan mablag`lari kiradi. Talab qilib olguncha depozitlar bank jalb qilingan mablag`lari tarkibida ko`proq qismini tashqil qiladi. Shu bilan birgalikda ushbu depozitning o`ziga xos xususiyatlaridan biri ulardagi mablag`lar egalari tomonidan istalgan vaqtda talab qilib olinishi va o`z ehtiyojlari uchun ishlatilishi mumkin. Shuning ushbu depozit turi banklar uchun tashqiliy xuquiy asosiga ko`ra boshqalariga nisbatan ancha arzon resurs turi hisoblanib, bugungi kunda ushbu omonat turi bo`yicha ularning egalari banklarning depozit siyosatlaridan kelib chiqqan holatda turlicha belgilanib ulardagi qoldiklar uchun o`rtacha yillik 10% atrofida foiz to`lanmoqda.

Muddatli depozitlar o`z nomidan kelib chiqqan holda mijozlarning ma`lum muddatlarga saqlash va foiz shaklida daromadlar olish uchun banklarga qo`ygan mablag`larini tushunish mumkin. Uni tashqil etuvchi mablag`lar bank va mijoz o`rtasidagi tuziladigan depozit shartnomasi asosida oldindan belgilangan va kelishib olingan aniq muddatlarga qo`yiladi, shuningdek ularning qabul qilinish va amalda bo`lish shartlari va turlari o`z moxiatidan kelib chiqqan holda turlicha bo`lishi mumkin. Buning boshqa depozit turlaridan ustunlik tomonlari mijozlarga qo`ygan mablag`lari uchun muddatlari va xajmlaridan kelib chiqqan holda bank tomonidan oldindan shartnoma shartlariga asosan ma`lum kat`iy yoki o`zgaruvchan foizlar to`lanadi. Mablag`ni jalb qilish shartlari va ularga bog`liq talablar hamda boshqa ko`zda tutilgan holatlar mijoz bilan bank o`rtasidan tuzilgan depozit shartnomasida oldindan belgilab olinadi. Amaliyotda ushbu depozit turi bo`yicha mijoz bankga qo`ygan mablag`ini muddatidan oldin o`z ehtiyojlari uchun talab qilib olish holatlari ham uchrashi mumkin. Bu esa bank uchun passiv operatsiyaning riski hisoblanadi, chunki banklar ushbu mablag` evaziga va muddatlaridan kelib o`z aktiv amaliyotlarini amalga oshiradi, shuning uchun banklar tomonidan ularga oldidan oqoxlantirilgan va kelishilgan aloxida jarimalar yoki amalga oshirilgan va oshiriladigan to`lovlar bo`yicha maxsus chegirmalar, ushlanmalar belgilanishi mumkin, chunki ushbu holat bank uchun ko`zda tutilmagan zarardan holi emas.

Depozit bazasi mustaxkamligini ta`minlashda banklar tomonidan hamda tashqiliy me`g`riy asoslaridan kelib chiqib ushbu depozit turining qo`yidagi turlarga ajratib olingan bulib, bular qo`yidagicha tavsiflanadi:

- 30 kungacha bo`lgan depozitlar;
- 90 kungacha bo`lgan depozitlar;
- 180 kungacha bo`lgan depozitlar;
- 1 yilgacha va undan yuqori bo`lgan depozitlar;

Chizma 1. Tijorat banklari depozit manbalar



Depozitlarning bunday tabaqalanishi xalqaro amaliyotda hamda «O`zbekiston banklari amaliyotida keng qo`llanib kelinmoqda. Shuningdek 1 yildan yuqori bo`lgan depozitlarga aloxida e`tibor qaratiladi, chunki ushbu depozitlar bank uchun barqaror resurlar tarkibiga kiradi va bank uchun uzoq muddatga mablag` investitsiya qilish uchun o`ziga xos sharoit yaratib beradi. Iqtisodiy holatdan kelib chiqqan holda ayrim davrlarda ushbu depozit turi bo`yicha mijozlar uchun qo`yish u darajada foydali bo`lmasligi mumkin, chunki o`sha davrdagi iqtisodiyotdagi inflyatsiya sur`ati va pulning qadrsizlanishi pulning to`lov qobiliyatini yoki qiymatini tushirib yuborishi mumkin. Lekin ushbu holati buyicha bizdagi muammo to`liq echilgan va omonatchilar o`z mablag`larini banklarga ishonishi mumkin.

Bugungi kunda ja`mi muddatli depozitlarning qoldig`i bank jalb qilgan mablag`larga nisbatan ulushi 10-20% foizni tashkil etgani holda xozirda hamma tijorat banklarida ushbu holatni kuzatishimiz mumkin.

Depozitlarning yana e`tiborli turlaridan jamg`arma depozitlari hisoblanadi, bularga aholining yoki korxonalarining jamg`arish va saqlash maqsadida banklarga qo`ygan mablag`lari kiradi. Buning depozit turining e`tiborli jixati shundaki ularning belgilangan aniq muddatlari bo`lishi yokibo`lmasligi ham mumkin. «O`z nomidan kelib chiqqan holda aniq maqsadlar uchun yoki bank tomonidan taklif etilgan jamg`arma turi mablag` qo`yilishi amalga oshiriladi. Bu erda aholi uchun aloxida e`tiborli tarafi uning hisobi mijozning jamg`arma



kitobchasida yuritilib u asosida pul mablag`larining hisobi olib boriladi va u kitobchada ushbu depozit turi buyicha hamma amaliyotlar yuritiladi.

Jamg`arma depozitlar – Bank uchun resurslari bazasini mustaxkamligini ta'minlovchi hamda resurslar sifatida ishlatilishi engillashtiruvchi asosiy manbaalardan biri hisoblanadi va jamg`armachi uchun o`z jamg`armalarini to`plash va ularni jamg`arish bilan birga salmoqli darajada foiz daromadlarga ega bo`lishini ta'minlaydi.

Ushbu depozit turini bankning depozit siyosatidan kelib chiqqan holda xalqaro va an'anaviy tajribalardan kelib chiqib jalb qilishning turli usullariga taqsimlashimiz mumkin:

Muddatli

Taqdim etuvchiga

Yutuqli

Plastik kartalari bo`yicha

Boshqa maxsus jamg`armalar

Depozitlar bankning asosiy resurs manbaasi sifatida tavsiflanadi, shu bilan birgalikda ular tashqil etish jarag`nida o`ziga xos muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan ularni jalb qilish o`ziga yarasha marketing ishlari va ular bilan bog`liq bo`lgan xarojatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Boshqa tomondan qaraganimizda bank uchun ko`zda tutilgan aktiv operatsiyalardan yuzaga kelishi mumkin bo`lgan yo`qotishlarni oldini olish yoki ma'lum maqsadli investitsiya jarag`nini amalga oshirish istalgan vaqtda kerakli resurslarni yig`ib olish imqonini bermaydi. Shu jumladan pul mablag`larini jamg`armalarga jalb qilish ko`p hollarda bankga emas, balki mijozga bog`lik bo`ladi. Uni kerakli darajada va ko`zlangan miqdorlar jalb qilishga ta'sir etuvchi omillar sifatida raqobatdosh banklarning taklif etayotgan foizlar yoki boshqa sabablarni ko`rsatish mumkin. Bunday hollarda banklar banklararo qarzarlar yoki boshqa nodepozit instrumentlarga murojaat qiladilar va buni ko`rib o`tamiz.

#### 4.6. Banklarning nodepozit mablag`lari manbalari.


Bank resurslari tarkibida yoki banklarning passiv operatsiyalarda tijorat banklarining banklararo depozitlar ham muhim o`rinni egallaydi. Xususiyatiga ko`ra banklararo depozitlar muddatli yoki muddatsiz bo`lishi mumkin, ular yirik miqdordagi aktiv operatsiyalarni amalga oshirish uchun ishlatilib, turli maqsadlar hisobiga shakllantiriladi.

Banklararo depozitlar tarkibiga yuqoridagilarga qo`shimcha ravishda banklar tomonidan o`zaro yuritiladigan qorrespondent hisob kitoblarni ham kiritish mumkin, chunki o`zaro hisob kitoblarni amalga oshirishlari hamda bir birida depozit qoldiqlariga ega bo`lishlari o`zaro hisob kitoblarni yanada soddalashtiradi. Iqtisodiy mazmunini ko`radigan bo`lsak bu holat banklarning bir birida talab qilib olguncha hisob varaqlarini saqlash bilan barobardir.

Yuqoridagilarni ko`rib chiqqan holda, bank resurslari tarkibining ikkilamchi manbaa bilan tanishib o`tamiz. Ularning e'tiborli xususiyati shu erdagi ular asosan ikkilamchi yo`llar bilan jalb etiladi va aniq maqsadlar bank likvidligini saqlab qolish, yirik maqsadli investitsiyalarni tez muddatlarda amalga oshirish uchun qo`llaniladi. Ularning turlari tashkiliy tuzilmasi quyidagi chizma (2) da keltirilgan.

Chizma (2) da ko`rsatilgan instrumentlar bankga resurslarini jalb qilishning ikkilamchi yoki nodepozit usuliga kiradi, ya'ni depozit sertifikatlari chiqarish, obligatsiyalar, bank veksellari va boshqa qimmatli qog`ozlar bilan operatsiyalar olib borish.

Chizma 2. Tijorat banklari nodepozit manbalari



Bular depozit manbalardan farqli o`laroq o`z egasiga ya'ni mablag` joylashtiruvchiga mablag` qo`yganligini tasdiqlovchi egalik xuquqi to`g`risida maxsus hujjatlari asosida ta'minlanishi yoki ko`zda tutilgan shartnomalar asosida sotib olinishi mumkin.

Banklarning pul bozoridagi marketing tadqiqotlarini olib borish bilan birga, resurlar bozoridagi talab va taklif asosida shakllangan pul mablag`larini bank omonatlariga jalb qilishning zamonaviy usullari deb qarashimiz mumkin. Bu usullardan biri qimmatli qog`ozlar toifasiga kiruvchi yoki uning bir ko`rinishi bo`lgan bank depozit sertifikatlaridir.

Mablag` jalb etishning nodepozit usullaridan yana bir turi banklararo kreditlar hisoblanadi. Banklararo kreditlar – Markaziy bank yokivaqil bankdan qarz olish zahiralarning holatini tuzatish va likvidlikni saqlash uchun mablag`larni safarbar etishning «hisob oynasi» deb nomalangan bir usulidir. Zahiralarni barobarlashtirib borishning usuli keng yig`ilmagan bo`lsa-da, bunday qarzlilar Markaziy bank tomonidan nazorat qilinadi.

Mablag` joylashtirishdan naf ko`rishdan tashqari, kreditor banklar bank faoliyatining boshqa masalalari bo`yicha ham amaliy sheriklik munosabatlari o`rnatish imqoniyatlariga ega bo`ladilar. Moliyaviy barqaror banklardan

tashqari, tashqil qilinish va rivojlanish bosqichida turgan banklar bo`sh kredit resurslariga ega bo`ladilar.

Kredit resurslarining o`rnini qoplash muddatlari turlichadir. Xalqaro amaliyotda 1,3 va 6 oy muddatlardagi depozitlar, bir kundan bir necha yilgacha eng yuqori muddatlar ko`proq tarkalgan. BAK (Banklararo kreditlar) bo`yicha stavka odatda, xo`jalik yurituvchilarga berilgan kreditlar bo`yicha belgilanadigan foiz stavkalaridan pastrok bo`ladi va Markaziy bankning rasmiy hisobga olish stavkasiga muvofiq ravishda tuzatiladi. Qarz oluvchi bank boshqa banklardan kredit resurslari jalb etishga uning o`z mijozlarining qarz majburiyatlariga bo`lgan ehtiyojlarini qondirish, ya'ni o`z kredit ko`yilmalarini kengaytirishi hamda bank likvidligini tartibga solib borish zaruriyati sabab bo`ladi. BAK jalb etish ikkita usulda, mustaqil ravishda, to`g`ridan to`g`ri muzokaralar yo`li bilan yokimoliyaviy vositachilar orqali amalga oshiriladi. Banklarning o`zlari BAK to`g`risida kelishgan takdirda ularning munosabatlari maxsus shartnoma bilan rasmiylashtiriladi. Banklararo shartnomalarning aksariyai muddatli shaklda, qolganlari esa muddatsiz shaklda tuziladi. Iqtisodiy barqarorlik bo`lmagan sharoitda kredit bozorida kandy vaziyat yuzaga kelishini va bankning moliyaviy axvoli kandy bo`lishini oldindan bilish qiyin. Kredit resurslar etishmasligi yoki ortiqcha bo`lib qolishi mumkin. Banklararo shartnomaning muddatsiz shakli BAK shartnomada belgilangan eng qisqa muddatga berishni ko`zda tutadi. Bu muddat tugaganidan keyin kredit muddatsiz kreditlar toifasiga o`tadi, ya'ni kredit bank tomonidan ma'lum qilingan holda istalgan paytda talab qilib olinishi mumkin. Kredit resurslarini qarzga olgan bank ularning qaytarish imqoniyatiga ega bo`lmasa, u boshqa banklarning muddatli qarzlardan foydalanadi.

Bush resurslarni jalb etish (joylashtirish) to`g`ridan to`g`ri (sotuvchi-xaridor) emas, balki vositachi ishtirokida kechadi. Banklarning o`zlari, brokerlik idoralari, fond birjalari, moliya uylari, kredit do`qonlari shu yusinda katnashishlari mumkin.

Zahira fondlarni olish – likvidlikni ta'minlash maqsadida kreditlar foydalanishning keng tarqalgan usullaridan biridir. Ushbu fondlar Markaziy bankdagi hisob varog`larda saklanadigan depozit qoldiqlaridir. Kutilmaganda qo`yilmalar oqimi kela boshlagan yokissudalar qisqargan taqdirda tijorat banklarida ortiqcha zahiralalar yuzaga kelishi mumkin. Bu mablag`lar daromad keltirmasligi sababli, banklar ularning qisqa muddatga boshqa banklarga foydalanish uchun berib qo`yadilar. Zahiralalar majburiy xajmni tiklash yoki aktivlar sotib olish uchun mablag`ga muxtoj bo`lgan banklar esa ushbu ortiqcha mablag`larni bajonidil sotib oladi.

Zahira fondlariga oyi bir kunlik operatsiyalar o`z moxiyatiga kura, ssudalar bilan ta'minlanmagan bo`ladi. Ba'zan banklarning biri boshqasiga davlatning qimmatli qog`ozlarini sotadigan bo`lsa, bitim qaytarib sotish to`g`risidagi bitim shaklini kasb etadi. Bunday, bitimlar odatda, bir kunlik

muddatga mo`ljallanadi. Lekin ayrim bitimlar bo`yicha to`lov muddati bir xafta yokixatto, bir necha xaftani tashqil etishi mumkin. Zahira fondlariga oid operatsiyalar mexanizmi oddiyginadir. Ta'minlanmagan tipik bitim tuzilgan taqdirda ikkita bank shart-sharoitlar to`g`risida kelishadi. Sotuvchi bank Markaziy banka belgilangan miqdordagi mablag`ni o`z zahira fondidan xaridor bankning zahira fondi hisob varog`iga o`tkazishni taklif etadi. Keyingi kuni bank ochilishi chog`ida aksincha bitim amalga oshiriladi.

Qaytarib sotib olish to`g`risida bitimlar – Zahira fondlariga oid banklararo operatsiyalarga qo`shimcha ravishda banklar bilan davlat qimmatli qog`ozlari bo`yicha dilerlar hamda boshqa investorlar o`rtasida shularga o`xshash bitimlar amalga oshiradi. Bular oddiy qilib «REPO» deb nomlanadi. Bunday bitimlarda aktivlarni qaytarib sotib olish shartlari asosida belgilangan kunda va oldindan kelishilgan narhda amalga oshiriladi. Bunday bitimlar vaqtincha bo`sh malaglar uchun muxim kanal bo`lib qolgan. Chunki ular ikkala tomonning extiyojlariga moslashtirish oson. Ular bir kundan bir necha oylargacha cho`zilishi mumkin. Chunki bank zahiralarni barobarlashtirishning eng yaxshi vositasi «Repo» bitimlaridir.

#### 4.7. Depozit sertifikatlari bozori va uni O`zbekistonda rivojlanish istiqbollari<sup>34</sup>

Bank depozit sertifikatlari – bank resurslar manbaasiga qo`shimcha pul mablag`larini jalb qilishning bozor mexanizmiga xos bo`lgan usullaridan biri bo`lib, bank tizimining barqaror faoliyat ko`rsatishda va resurs bazasining mustaxkamlanishida o`ziga xos muxim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda depozit sertifikatlar amalda bo`lish qoidalari va bozori shartlarini tashqil etish va ularning muomalasini tartibga solish maqsadida, «O`zbekiston Respublikasi Markaziy bank tomonidan «Banklarning depozit sertifikatlarini chiqarish, ro`yxatga olish va muomalada bo`lish qoidalari» ishlab chiqilgan bo`lib, mazkur tartibga asosan Respublikamizda faoliyat yuritayotgan banklar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga mo`ljallangan o`z depozit sertifikatlarini chiqarib kelinmoqda.

Bank tomonidan chiqarilayotgan sertifikatlar xalqaro amaliyotda va bizning qonunchilikda belgilangan shartlar bo`yicha ikki turda chiqarilishi mumkin:

Yuridik shaxslar uchun mo`ljallangan – depozit sertifikatlari.

Jismoniy shaxslar uchun mo`ljallangan – jamg`arma sertifikatlari

Depozit sertifikatlari – bu qimmatli qog`oz bo`lib, emitent bank pul mablag`larining omonatga qo`yilganligi xaqidagi guvoxnomasidir va u omonatchiga yokiuning xuquqiy vorisining depozit summasini va unga tegishli foizlarni belgilangan muddat tugagandan so`ng yokiko`rsatilgan shartlar bo`yicha oldindan olish xuquqini tasdiqlaydi. Xuquqiy jixatdan g`ndashadigan

---

<sup>34</sup> O`sha yerga qaralsin

bo'lsak depozit sertifikatlar bankning qarz majburiyati hisoblanib, u orqali jalb qilingan mablag'larga ma'lum muddatga egalik qilish hisobiga sertifikat egasiga tegishli foiz to'lovlarini amalga oshiradi.

Depozit sertifikatlaridan sotilgan mollar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisob kitob vositasi yoki to'lov vositasida ishlatish mumkin emas. Muaomalaga chiqarilayotgan depozit sertifikatlar chiqarilish tartibiga ko'ra naqd shakldagi sertifikatlari «O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank litsenziyasiga ega bo'lgan qorxonalarda tayg'rlanishiga e'tibor karatish lozim.

Sertifikat chiqarilish tartibiga ko'ra taqdim etuvchiga tegishli yoki egasiga to'lanadigan bo'lishi mumkin. Boshqa shaxsga berilishi mumkin bo'lgan depozitlar to'g'ridan yoki fond birjalari orqali oldi-sotdi bo'lishi mumkin.

Sertifikatning chiqarilishi va muomalada bo'lish sharoitida dastavval belgilab qo'yilgan stavkalar yoki o'zgaruvchan foizlar bo'yicha to'lov amalga oshiriladi. Sertifikat bo'yicha foiz to'lovlari uning muomalada bo'lish muddati tugagandan keyin yoki sertifikatda ko'rsatilgan shartlar bo'yicha oraliq davrlarda uning egasiga tegishli foizlarni emitent – bank ushbu sertifikat qachon sotib olinganligidan kat'iy nazar to'laydi.

Bugungi kunda depozit sertifikatlarining oldi-sotdi va foiz to'lovlari fakat pul ko'chirish yo'li bilan, milliy valyutamiz so'mda amalga oshirilishi shuningdek kat'iy valyutada chiqarilgan sertifikatlar qonunda belgilangan tartibda xorijiy valyutada to'lanishi mumkin.

Jamg'arma sertifikatlari – banka jismoniy shaxs tomonidan omonatga pul qo'yilganligi to'g'risidagi bankning guvoxnomasidir, jamg'arma sertifikatning egasi jismoniy shaxs bo'lib, bankning unga naqd pul ko'rinishida qo'yilgan jamg'armalari bo'yicha majburiyatlaridir. Jamg'arma sertifikatning o'zgachaligi u faqatgina aholi uchun chiqariladi va uning egasi aholi bo'lishi mumkin. U bo'yicha foiz to'lovlari ham depozit sertifikatlarda ko'rib o'tilgan shartlar asosida amalga oshiriladi.

Depozit sertifikatlari 1 yilgacha (sertifikat chiqarilishi sanasidan toki sertifikat egasi sertifikat bo'yicha omonatni talab qilish xuquqini olgan sanagacha) bo'lgan muddatga chikariladi. Jamg'arma sertifikatlari esa 3 yilgacha muddatga chiqarilishi mumkin. Agar sertifikat bo'yicha depozitni yoki omonatni olish muddati o'tib ketgan bo'lsa, bunday sertifikat talab qilib olinadigan hujjat hisoblanadi va o'tib ketgan darv uchun bank unga foizlar to'lash majburiyatini olmaydi va bank ushbu hujjatda ko'rsatilgan shart bo'yicha egasining birinchi talabi bilan to'lash majburiyatini oladi.

Xalqaro tajribadan kelib chiqadigan bo'lsak depozit sertifikatlari o'z o'rnini allaqachon topgan va amaliyotda omma ichida keng tarzda foydalanib kelinmokda. Sertifikatlar yana shunisi bilan e'tiborliki, ular fakatgina bankdan foizlarni olish va omonatlarini saqlash uchungina emas balki tegishli yozuvlar bilan boshqa shaxslar nomiga o'tkazilishi yokinodepozit usuliga yokiagar

tegishli nazorat organlaridan ruxsat berilgan bo`lsa ayrim to`lovlar vositasida ham ishlatilishi mumkin.

So`nggi vaqtlarda depozit sertifikatlari banklar uchun juda ham o`zgaruvchan resurs sifatida qaralmokda, chunki ularga to`lanadigan foizlar kreditlarga to`lanadigan foiz stavkalari bilan birgalikda o`zgarib turadi. Shuning uchun depozit sertifikatlariga xalqaro amaliyotlarda boshqariladigan passivlar sifatida qaralmokda.

#### Qisqacha hulosalar

Depozit – lotincha so`zdan olingan bo`lib, lug`aviy ma'nosidan kelib chiqqan holda saqlash uchun topshirilgan buyum ma'nosini bildiradi. Iqtisodiyotda esa mijozning o`z mablag`ini vaqtincha foydalanish uchun bankga topshirish natijasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatni tushuniladi. Depozit sertifikatlari – bu qimmatli qog`oz bo`lib, emitent bank pul mablag`larining omonatga qo`yilganligi xaqidagi guvoxnomasidir va u omonatchiga yokiuning xuquqiy vorisining depozit summasini va unga tegishli foizlarni belgilangan muddat tugagandan so`ng yokiko`rsatilgan shartlar bo`yicha oldindan olish xuquqini tasdiqlaydi.

#### Tayanch iboralar:

Passiv, kapital, jalb qilingan mablag`lar, aktsiya, majburiyatlar, depozit, plastik kartochkalar, nodepozit mablag`lar, foizlar, ustav fondi, daromad.

#### Nazorat savollari:

1. Bank mablag`lari tushugchasi va ularning tuzilishi
2. Bankning depozit operatsiyalari
3. Bankning nodepozit mablag`lari
4. Bank kredit potentsiali
5. Tijorat banklari mablag`larini ta'minoti va barqarorligini taxlili<sup>35</sup>
6. Bank kredit mablag`lari, tuzilishi
7. Bank kapitali va unga qo`yilgan talablar
8. Markaziy bank tomonidan tijorat banklari mablag`lariga qo`yiladigan talablar va iqtisodiy normativlar
9. Bank tizimi va aholi jamgarmalari
10. Tijorat banklari passivlarini boshqarish muammolari<sup>36</sup>

#### Asosiy adabiyotlar.

1. O`zbekiston Respublikasi Markzliy bankining me'yoriy hujjatlari to`plami.T.: 2003.
2. Abdullaev Yo, Abdullaeva Sh. «Bank ishi»,Toshkent 2003y.

---

<sup>35</sup> TDIU va MDX mamlakatlari iqtisodiy mutaxassisliklari buyicha bakalavriat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining namunaviy mavzulari. T, 2005 y., 76

<sup>36</sup> O`sha yerga qaralsin

3. «Bozor, pul va kredit jurnali №1-12 2003. №1-10, 2004 yil.
4. Don Patinkin. Dengi, protsent i seni.-M.: Ekonomika, 2004.-375s.
5. Lavrushin O.I. i dr. «Bankovskoe delo» M. F i S 2003g.
6. Sokolov Yu.A., Amasova N.A. Sistema straxovaniya bankovskix riskov. Nauch izd.-M.: OOO izd Elit, 2003. –288s.
7. [www.bankinfo.uz](http://www.bankinfo.uz)
8. [www.cer.uz](http://www.cer.uz)
9. <http://www.bankofendland.co.uk/market/money/index.htm>

## V-BOB. TIJORAT BANKLARNI KREDIT OPERATSIYALARI, KREDIT PORTFELI, UNI BOSHQARISH VA BOXOLASH

### 5.1. Zamonaviy kreditlashtirish tizimining asosiy tartibi va kredit turlari

Tijorat banklari o'zining halq ho'jaligida tutgan o'rnini va o'ziga xos faoliyati bilan bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi sifatida yuzaga keldi. Tijorat banklarining bugungi kundagi faoliyatiga e'tibor beradigan bo'lsak, halq ho'jaligining xech bir sub'ekti yo'qki, u bugun bank xizmatidan foydalanilmayotgan bo'lsin.

Bundan tashqari banklar o'z mijozlariga moliyaviy broker sifatida ham xizmat ko'rsatmoqda. Banklarning bunday funktsiyani bajarishlari korxonalar tashkilotlarning qimmatli qogozlar bozori operatsiyalarida qatnashishlari uchun qo'lay sharoit yaratmoqda.

Aktivlarni boshqarishning asosiy maqsadi tavakkal qilishning eng past darajasi sharoitida daromad foiz tushumlari va xarajatlar orasidagi farqni mumkin kadar oshirish yoki uni juda bo'lmaganda barqaror darajada saqlab turishdan iborat ekanligi malum.

Iqtisodiyot nuqtai nazaridan aktivlarni boshqarish masalalari passivlardan alohida ko'rib chiqiladi, biroq amaliyotda ular o'zaro bogliqdir. Bank balansining passiv qismidagi jalb etilgan mablag'larning manbalarini taxlil qilmasdan aktiv operatsiyalarni amalga oshirish qiyin. Tijorat banki yo'naltiriladigan resurslarni depozitlar muddatligi asosida vaqti-vaqti bilan aniqlash va tartibga solish muammosiga duch keladi.

Ushbu vazifa zamirida foiz stavkalarini oshirish yoki pasaytirish, uzoq muddatli va qisqa muddatli foiz stavkalari o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi kabi funktsiyalar etadi, negaki bankning aksari passivlari qisqa muddatli, aktivlar (ssuda)ning talay qismining qaytarilishi esa muddatlarga ega. Jalb etilgan mablag'lar bo'yicha foiz stavkalari usishi xavfi tugilganda bank foydasini ximoyalash uchun qarshi choralarni ko'rish zarur.

Tijorat banklarining operatsiyalari ichida kredit operatsiyasi asosiy o'rinni egallaydi.

Tijorat banklarining kreditlari bank faoliyatida asosiy o'rin tutgan operatsiyalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi «Bank va bank faoliyati to'g'risidagi qonuni»da bank terminiga tushuntirish berilganda bu tashkilot uchta operatsiyani albatta amalga oshirishi kerakligiga berilgan bulardan biri kredit berish operatsiyasidir. Jahon bank faoliyatida bank terminiga moliyaviy univermag degan tushuncha berilganiga karamay kredit operatsiyalari barcha banklar faoliyatida muxim o'rin egallagan. Bir tomondan bank krediti iqtisodiy sub'ektlar uchun zaruriy xollarda vaqtincha yuzaga kelgan moliyaviy qiyinchiliklarni echishda yordam beruvchi muxim manbaa hisoblanadi. Ikkinchi



tomondan esa banklar olib borayotgan jarayonlari ichida eng ko'p foyda beruvchi jarayondir.

Banklarning kredit jarayonlari o'z navbatida muddat bo'yicha uchga bo'linadi:

- qisqa muddatli 1 yil muddatgacha bo'lgan;
- o'rta muddatli 1-3 yilgacha bo'lgan;
- uzok muddatli 3 yildan ortiq.

Agar biz bu ko'rsatkichni Respublikamiz banklari bo'yicha taxlil qiladigan bo'lsak, u holda o'rtacha 50 foiz atrofidaligini ko'rishimiz mumkin. Kredit operatsiyalarining bank faoliyatida eng riskli jarayonlardan biri hisoblangan bir vaqtda, uning daromadlilik ham yuqoridir. Bugungi bank tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, rivojlangan davlatlar banklari daromadida kredit jarayonlaridan olingan foiz daromadi salmoqli ulushni tashkil etmokda. AKSh banklari bo'yicha bu ko'rsatkich o'rtacha 85,9 foizni tashkil qilgan.<sup>37</sup>

Ba'zi bir mijozlar kredit olish, uni to'ldirish jarayonida oldingi davrdagi kabi kredit ob'ektlari bo'yicha xujjat, ba'zi bir mijozlar esa yangi usul yordamida kredit olish uchun xarakat qiladilar. Bularning barchasi hozirgi davr kredit berish tizimiga o'tish davrini boshidan kechirayotganidan xabar qiladi. O'tish davrining asosiy kamchiliklari bo'lib esa quyidagilar hisoblanadi.

1. Turli tijorat banklari faoliyati xali ham eski kredit berish usullarining saqlanib qolayotganligidir.

2. Tijorat va maxsus banklarning texnik jihatdan to'liq rivojlanmaganligi, texnologiyaning to'la-to'kis bank operatsiyalari joriy qilinmaganligidir.

O'tish davri kredit berish tizimining eng muhim xususiyati shuki, unda tashkilot va aholini unifitsirlashgan usullarning kredit berish saqlanib qolganidir.

Bu xususiyatlar quyidagilardan iboratdir.

1. Kredit berish tizimi bankning korxonasi sifatida o'z resurslariga bevosita asoslanadi. Ma'nosi shuki, banklar oldingi davrga o'xshab yuqoridan kredit resurslari bilan ta'minlanmaydilar balki o'zlari joylarida yaratgan, jalb qilgan mablag'lari evaziga faoliyat ko'rsatadilar.

2. Hosil bo'lgan kredit mexanizmi tijorat xarakteriga egadir. Tijorat banklari hozirgi kunda savdo korxonasi xususiyatlarini olmokda. Ularga arzon olib, qimmat sotish printsipli to'g'ri kelishini ta'kidlash maqsadga muvofiq bo'lmoqda.

3. Bugungi kundagi kredit berish tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, ularning nafaqat o'z kredit mablag'lariga bogliqligi, balki Markaziy bank tomonidan o'rnatiladigan iqtisodiy normativlarga ham bevosita bogliqligidir.

4. Hozirgi davr kredit berish tizimining eng muxim belgilaridan (xususiyatlaridan) yana biri ularning shartnomaga asoslanmaganligidir. Kredit berish uni boshqarish davrida vujudga keladigan barcha muammolar shu mijoz

---

<sup>37</sup> Internet ma'lumotlari.

bilan tuziladigan shartnoma orqali xal kilinadi. Bunda bank va mijozning huquq - majburiyatlari qonun, hamda kelishuv asosida belgilab quyiladi. Mijoz tomonidan ham, bank tomonidan ham qiziqish qolmagan taqdirdagina shartnoma bekor qilinishi mumkin.

5. Kredit berish tizimining yaqqol ajralib, ko`zga tashlanadigan belgisi - bu kredit berish tizimining ob'ektidan sub'ektiga o`rganligidir.

6. Yangi kredit berish tizimi, kreditning eski, ammo printsiptial (maxsus) printsiplariga asoslanadi. Ya'ni kredit berish jarayonida uning maxsus printsiplari - qaytarib berishlik, to`lovlilik, ta'minlanganlik va muddatlilik printsiplariga to`la-to`kis amal kilinadi.

Kredit berish tizimining yangi zamonaviy belgilaridan keyingisi bu banklar tomonidan yuqori darajada kafolatlangan, bank ssudalarini berishni tashkil qilishdir.

Bank – tijorat korxonasi sifatida korxonalarga va boshqa shaxslarga jalb qilgan pul mablag`larini o`z nomidan, o`z risqi asosida daromad olish maqsadida joylashtiradi.<sup>38</sup>

Tijorat banklarining asosiy aktiv operatsiyasi bu kreditlash faoliyatidir. Kredit munosabatlarining sub'ektlar: xo`jalik organlari, aholi davlat va banklarning o`zidir.

Tijorat (tovar) krediti. – Bu bir korxonadan ikkinchi korxonaga olgan (bergan) tovarlari to`lovini kechiktirib to`lash huquqini berishga aytiladi. Tijorat krediti hujjati – vekseldir. Tijorat krediti ob'ekti bo`lib tovar hisoblanadi.

Bank krediti. – Maxsus kredit tashkilotlari tomonidan beriladigan kreditlardir. Bank kredit munosabatlarida qatnashuvchilardan biri bo`lib bank ishtirok etadi. Bank krediti ob'ekti bo`lib naqt yoki naqtsiz pul hisoblanadi.

Iste'mol krediti. – Bu maxsus kredit institutlari yoki boshqa kredit tashkilotlari tomonidan aholini uzoq muddatli istemol tovarlari sotib olishlari uchun beriladigan kreditlariga aytiladi. Bu kredit ob'ekti iste'mol tovarlari hisoblanadi.

Davlat krediti. – Kredit munosabatlarida davlat yoki davlat organlari qarz oluvchi yoki qarz beruvchi bo`lib ishtirok etadi. qarz oluvchi sifatida davlat aholidan pul mablag`larini davlat byudjetidagi tanqislikni yopish uchun oladi (obligatsiya, zayom va boshqalar yordamida).

Xalqaro kredit – deb ssuda kapitalini xalqaro miqyosdagi xarakatiga aytiladi.

Bundan tashqari kreditning quyidagi turlari mavjud:

- Ipoteka krediti,
- Qishloq xo`jalik krediti,
- Blank krediti,
- Veksel krediti,
- Lombard krediti,

---

<sup>38</sup> Jarkovskiy S. «Bankovskoe delo» kurs lektsiy. M.: «F i S». 2004 g. Str265


## Overdraft va boshqalar.

Jadval-1.

### Bank krediti turlari.

Kredit sub'ektlari bo'yicha kreditlar	a) davlat korxonalari b) nodavlat korxonalari c) aholi d) boshqa xo'jaliklar e) davlat organlari f) qo'shma korxonalar g) boshqa banklar va h) boshqa tashkilotlar
Kredit maqsadiga ko'ra kreditlar	a) iste'molga b) sanoatga c) savdoga d) qishloq xo'jaligiga e) investitsion f) byudjet kreditlari
Kreditni joriy qilish muxitiga qarab kreditlar	a) ishlab chiqarishga b) muomalaga
Kredit muddatiga qarab kreditlar	a) qisqa muddatli b) uzoq muddatli c) o'rta holda muddatli d) talab qilib olguncha kredit
Kredit hajmiga ko'ra kreditlar	a) yirik b) o'rta c) mayda (mikro) kreditlar
To'lov turiga ko'ra kreditlar	a) bozozr foizi b) yuqori foizli c) imtiyozli foizli
Kreditlash ob'ektiga ko'ra kreditlar	a) xususiy ob'ektlar b) umumlashgan kreditlashtirish ob'ekti
Kreditlashtirishdagi valyuta turi bo'yicha kreditlar	a) milliy valyutada b) xorijiy valyutadagi kreditlar
Kredit ta'minoti bo'yicha kreditlar	a) ta'minlangan kreditlar b) ta'minlanmagan kreditlar
Qaytarish tartibiga ko'ra kreditlar	a) bir vaqtda qaytariladigan kreditlar b) to'lovni kechiktirish asosidagi kreditlar (oylik, kvartal, yil)
Foiz stavkasini o'rnatilishiga qarab	a) qat'iy belgilangan b) o'zgaruvchan
Kredit munosabatlarida qatnashadigan banklar soniga ko'ra	a) bitta bankdan beriladigan kreditlar b) sinditsirlashgan kreditlar kabilardir
Kreditlash uslubiga ko'ra	a) qoldiq b) oborot (muomala) c) kredit liniyasi orqali

Chizma-1. Bank aktiv operatsiyalari tuzilmasi.



Bularning barchasi mijozlarning kredit olish qobiliyatini taxlil qilish natijasida qaror qabul qilingandan so'ng mijozlarga beriladi.

Bu kredit turlari deyarli barcha sobiq MXDlarida bir xil bo'lib, ular banklar tomonidan va boshqa nobank tashkilotlari tomonidan mijozlarga beriladi. Biroq islom davlatlarida islomga kredit berish usullari ustun turadi.

## 5.2. Bank kredit siyosati va uni baholash

Banklar, alohida kredit tashkiloti sifatida (mustaqil) iqtisodiy, siyosiy shart-sharoitlar, bank qonunchiligining rivojlanish darajasi, banklararo raqobat hamda bank infrato'zilasining rivojlanish darajasini e'tiborga olgan holda o'z kredit siyosatini amalga oshiradi

Banklarning kredit siyosati – banklarning kreditlarni olish va berish borasidagi strategiya va taktikasidir.

Tijorat banklarining kredit siyosati – bu banklarning kredit risklarini kamaytirishva kredit operatsiyalarining daromadlilikini ko'paytirish maqsadida amalga oshiradigan kompleks tadbirlari majmuasidair.

Banklarning kredit siyosati o'z ichiga qo'yidagi elementlarni oladi:

maqsadni aniqlash va natijada bank kredit portfelini shakllantirish (turi, muddati, hajmi va ta'minot sifati);

kreditlarni berish, yuritish va qoplash jarayonlarida bank bo`limlari vakolatlari;

kerakli hujjatlar ro`yxati;

kredit ta'minotini qabul qilish, baholash va sotishning asosiy qoidalari;

kredit operatsiyalari chegaralari (limiti);

kreditlar bo`yicha foiz stavkalarini o`rnatish siyosati;

kredit arizalarini baholash uslublari;

muammoli (qiyin) kreditlarni istiqbolini belgilash (diagnostika) va qiyin holatdan chiqish yo`llarini taxlil qilish.

Bank mablag`larini mavjudligi va ularning tashkiliy tuzilishi bank kredit siyosatini olib borilishini belgilaydi. Kredit siyosati bank likvidligiga bevosita bog`liqdir.

Bank kredit siyosati bank xizmatchilarining kreditlarni rasmiylashtirish, berish va boshqarish borasidagi o`z faoliyatlarida amal qiladigan standartlari, miqdori (parametrlari) va jarayonlarini aniqlab beradi.

Bank kredit siyosati odatda yozma ravishda, qat'iy belgilangan hujjat tarzida rasmiylashtiriladi.

Bank kredit siyosati – bu tijorat bankining kredit berish madaniyatini anglatadi.

Bank kredit siyosatini turli bosqichlarga va omillarga bog`liq tomonlari mavjud.

Jadval -2

Bank kredit siyosatini aniqlovchi (belgilovchi) omillar.

Makroiqtisodiy omillar	Mamlakat iqtisodiyotining umumiy holati. Markaziy bank pul-kredit siyosati. Xukumatning moliyaviy siyosati
Regional (sho`ba) va tarmoq omili	Xudud va tarmoqdagi iqtisodiyot holati (bank bo`limiga tegishli). Mijozlar tuzilmasi, ularning kreditga bo`lgan talabi. Raqobatchi banklarning mavjudligi.
Bank ichidagi omillar	Bank (kapitali) o`z mablag`lari hajmi (miqdori). Passivlar tuzilishi. Bank personal (xizmatchilari) tajribasi va qobiliyati

Banklar va boshqa maxsus kredit institutlarining kredit berish hajmi, ular tomonidan jalb qilingan kredit resurslari miqdoriga bog`liqdir. 1:10

Banklar tomonidan kredit berish tijorat asosiga mo`ljallangan (arzon olib - qimmat sotish va marja).

Kredit berish, olish, qoplash, nazorat qilish kredit oluvchi bankning kelishuviga ya'ni kredit shartnomasiga asoslanadi.

Kreditlashda hozirgi kunda asosiy bo`lib ya'ni birlamchi bo`lib kredit sub'ekti, so`ng esa kredit ob'ekti hisobga olinadi.

Jadval -3

Tijtuliqorat banklari tomonidan tuziladigan kredit siyosati elementlari

Kredit bosqichlari	Tartibga soluvchi parametrlar (ko`rsatkichlar) va jarayonlar
Kreditni berish bo`yicha birlamchi ish (faoliyat)	<ul style="list-style-type: none"> <li>- kelgusi qarz oluvchilar turi (turkumi)</li> <li>- kreditlash turlari</li> <li>- kreditlash jarayoning miqdoriy ko`rsatkichlari (chegaralari)</li> <li>- qarz oluvchini kredit olish qobiliyatini baholash standartlari</li> <li>- kreditlarni baholash standarti</li> <li>- foiz stavkalari</li> <li>- kreditni qaytishini ta'minlash usullari</li> <li>- jarayonlarni borishini nazorat qilish va berishga tayyorlash</li> </ul>
Kreditni rasmiylashtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>- hujjat shakllari</li> <li>- kreditni berishning texnik (texnologik) jarayonlari</li> <li>- kreditni to`g`ri rasmiylashtirish nazorati</li> </ul>
Kreditni boshqarish	<ul style="list-style-type: none"> <li>- kredit portfelini boshqarish tartibi</li> <li>- kredit shartnomasini bajaralishini nazorat qilish</li> <li>- muddati o`tgan kreditlarni kechiktirish yoki yangilash shartlari</li> <li>- qarzlarni (zararni) qoplash tartibi</li> <li>- kreditlarni boshqarish nazorati</li> </ul>

Kreditlash miqdori (hajmi) bank bo`yicha (potentsiali) Markaziy bankning iqtisodiy normativlariga bog`liqdir (N1 – kapital etarligi, bank likvidligi, majburiy zaxira miqdori, qayta moliyalashtirish stavkasi va boshqalar).

Kreditlash tizimi kreditning eski tan olingan tamoyillariga – muddatlik, qaytarib berish, to`lovlilik va ta'minotga asoslanadi.

5.3. Kreditlashtirishni hujjatlashtirish va rasmiylashtirish, kredit shartnomasi shartlarini ko`rib chikish va tuzish

Kreditlash asosan bir necha bosqichdan iborat bo`lib ular quyidagilardan tashkil topgan:

Tayyorlov.

Kredit loyixasini ko`rib chiqish.  
Kredit hujjatlarini rasmiylashtirish.  
Kreditdan foydalanish bosqichi.  
Keyingi nazorat va boshqalar.

Har bir davlat, har bir bankning o`z kredit berish jarayoni va bosqichlari turlichadir.

Kredit to`plamini tashkil qilish va uni taxlil qilish jarayoni quyidagi bosqichlarga bo`linadi:

1. Kredit olish uchun berilgan buyurtmanomani ko`rib chiqish.
2. Kredit oluvchining kredit qobiliyatini va qarz berish bilan bogliq xatarni baholash.
3. Kredit foizini belgilash.
4. Kredit shartnomasini tuzish.

Kredit shartnomasida quyidagilar o`z aksini topadi:

- kredit maqsadi va summasi;
- majburiyatni ta'minlash shakli, foiz stavkasi, to`lov shakli;
- tomonlarning huquqlari;
- guvoxonmalar hisob - kitoblar ro`yhati;
- bankning nazorat o`tkazishi va boshqalar.

Umuman Bankda kredit berish jarayoni qarz oluvchilar sonini ancha ko`paytirishga, mijozlarni moliyaviy axvolini xar tomonlama va chuqur taxlil qilish, ishonchli mijozlarni tanlash asosida, kredit sohasida uchraydigan tavakallarni kamaytirish, kreditdan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish, kredit olishga qaratilgan takliflarni shu taqsimlash va qabul qilish, kreditning qaytarilishini ta'minlaydigan qo`shimcha shakllardan foydalanish tomonga yo`naltirilgan.

O`zbekiston tijorat banklari o`z faoliyatlari davomida qator muammolarga duch keladilar, ularni xal qilish esa iqtisodiyotimizning kelajakdagi taraqqiyoti uchun muxim hayotiy masaladir. Bu muammoni birinchi navbatda, ko`pchilik bank mijozlarining qoniqarsiz moliyaviy ahvoli keltirib chiqaradi. Sir emaski, qachonlardir o`z bank tizimlarini islox kilgan mamlakatlarning qariyb barchasi u yoki bu darajada shu muammoni xal qilish zarurati bilan to`qnashganlar.

Bank mijozlarini kredit olish qobiliyati yoki kreditga mukobilligi- bu korxonaning olgan qarz mablag`larini samarali foydalanishi uchun ishonch bildiruvchi, qarz oluvchining olgan kreditlarini shartnoma asosida qaytarish qobiliyati va tayyorlashni bildiruvchi moliyaviy xo`jalik xolatidir. Boshqacha so`z bilan aytganda

Kreditga qobillik - bu xo`jalik sub'ektlari tomonidan kreditlarni o`z vaqtida va to`lalgicha qaytadan olish qobiliyati hamda moliyaviy axvoliga beriladigan bahodir.

Qarzdorni kredit olish qobiliyatini baholashga uyidagilar sabab bo`lishi mumkin:

- iqtisodiyot buginlari sub'ektlarini davlat ma'sarrufidan chikishi va xususiy lashtirilishi;

- davlat karmogida bo`lmagan turli mulkdagi korxonalarining shakllanishi va rivojlanishi;

-korxonalarining moliyaviy barqarorligini to`liq aks ettirmaydigan iborat mablag`larini ular ixtiyorida to`planib qolishi (korxonada ixtiyorida begona shaxslarning pul mablag`larini to`planib qolishi);

- bank tizimini to`liq xo`jalik hisobiga o`tish va bank barqarorligini tiklash uchun bank risklarini pasaytirish;

Mijozni kreditga qobilligi taxlil qilish jarayonida bank 2 ta masalani xal etishi kerak.

1. Mijozni o`z majburiyatlarini o`z muddatida bajara olish qobiliyati ;

2. Mijozni o`z majburiyatlarini bajarishga tayyorligi (xoxishi).

Birinchi savolga javob mijozni moliyaviy xo`jalik faoliyatini taxlil qilish jarayonida olishsa, ikkinchi savolga javob bank xodimini kredit oluvchi mijoz bilan bo`ladigan ogzaki intervagosi orqarli olinadi.

Mijoz kredit olish qobiliyati uni kelajak davrga bo`lgan to`lov qobiliyatini istiqbolini belgilab beradi.

Xo`jalik sub'ektlarining kreditga qobilligi bir qator ko`rsatgichlar bilan ifodalanadi: bular qoplash koefitsienti, likvidlik koefitsienti va mablag`lari bilan ta'minlanganligi (avtonomlik koefitsienti) shuningdek o`z aylanma mablag`lari mavjudligi dinamikasi, noto`lovlar, foydalilik va aylanma mablag`larning aylanishi ko`rsatkichlaridandir.

Kreditga baholash xo`jalik sub'ektlarini balans va foyda zararlar to`g`risidagi hisobotlashga asosan amalga olishadi. Bundan tashqari, kreditga qobillikni aniqlash davrida zaruriy xollarda statistiq, analitik va boshqa ma'lumotlardan shuningdek istiqbol ma'lumotlaridan ham foydalaniladi.

Moliyaviy koefitsientlar quyidagicha aniqlanadi.

1. Balansning qoplash koefitsienti qisqa muddatli tarzdagi likvid mablag`larni qisqa muddatli majburiyatlarga nisbatan tarzida hisoblanadi. U quyidagi tartibda aniqlanadi.

$$Q_k = LM/Q_{mm}$$

Bunda;  $Q_k$  - qoplash koefitsienti

$LM$  - qisqa muddatli tarzdagi likvid mablag`lar.

$Q_{mm}$  - Qisqa muddat majburiyatlar.

Likvid mavblag`lari:

A) Pul mablag`lari, valyuta mablag`lari, g`aznadagi pul mablag`lari.



B) Yengil sotiladigan (xarid qilinadigan) talablar qisqa muddatli qo'yilmalar.

Debitorlar, bunak to'lovlari, Byudjet bilan hisoblanishlar, hodimlar bilan, shu'ba korxonalari bilan, uyushma korxonalari, ta'sisshilar, boshqa debitorlar bilan hisob-kitoblar.

V) Yengil xal qilinadigan (sotiladigan) zaxiralar.

Ishlab chiqarish zaxiralari, tayer maxsulot (3 oy)

Sotish uchun olingan tovarlar.

Qisqa muddat mablag'lari.

A) Qisqa muddatli qarzarlar, korrektirovka qilinmaydi.

B) Qisqa muddatli kreditorlar, korrektirovka qilinmaydi.

V) Xaridor va byurtmachilardan olinadigan kreditorlar bilan hisob-kitoblar.

Uzoq muddatli qarzarlar-3 oygacha korrektirovka kilinadi.

Uzoq muddatli kreditorlar-3 oygacha korrektirovka kilinadi.

Yuqoridagilar asosida.

Agarda likvidlik aktivlar qisqa muddatli majburiyatlardagi kamida ikki barobaridan qo'p bo'lsa, bunday xo'jalik sub'ektlarini moliyaviy axvoli barkaro hisoblanadi. Bu yuqori kriterial chegaradir. Pastki chegara esa shu bilan belgilanadiki, bunda xo'jalik sub'ektlarini likvidlik aktivlari qisqa muddatli majburiyatlar miqdoriga teng bo'lishi mumkin.

Shu bilan birgalikda, xo'jalik sub'ektlarining ishlab chiqarish xususiyati, aktivlarining tarkibi kabi omillar qoplash ko'rsatkichini ifodalovchi xo'jalik va tashkilotlar balansidagi haqiqiy likvidlik xolatini baholashda bir muncha noaniqliklarni vujudga keltirishi mumkin.

Shu sababdan balans likvidligi ko'rsatkichini aniqlashda xar xil omillari ta'sirini kamaytirish maqsadida xo'jalik sub'ektlarining balans likvidligi ko'rsatkichi pul mablag'lari va engil xal qilinadigan talablarni qisqa muddatli majburiyatlarga nisbatida aniqlanadi, ya'ni bunda tovar moddiy qiymatliklari zaxirasi hisobiga olishmasdan faqatgina real likvidlik aktivlar qayd etiladi.

$$2. Lk = (Pm + Ext) / Qmm$$

Lk- Likvidlik koefitsienti

Pm - Pul mablag'lari.

Ext- Engil xal etiladigan talablar.

Qmm- qisqa muddatli majburiyatlar.

Likvidli koefitsienti- joriy mablag'larining ma'lum xajmi nafaqat naqd mablag'lar hisobidan balki jo'natilgan mahsulot, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlardan tushishi kutilayotgan tushumlar hisobidan ham qoplanishi mumkinligini ko'rsatadi.

3. Xo`jalik sub'ektlarini o`z manbalari bilan ta'minlanganligi (avtonomlik koeffitsienti - AK) korxonani manbalarini balansni passiv qismi jami summasidagi usulini aniqlash bilan baholanadi va korxonani qarz mablag`larini manbalaridan mustaqilligini ko`rsatadi.

O`z manbalari bilan ta'minlanganligi koeffitsienti quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$A_k = O_{mm}/B_p$$

A<sub>k</sub>- avtonomlik koeffitsienti

O<sub>mm</sub> - o`z mablag`lari manbalari.

B<sub>p</sub>- balansning jami passiv qismi.

Korxonaning o`z mablag`lari manbalari bilan taminlanganligi 30 foizdan kam bo`lmasligi lozim. Aylanma mablag`lar aylanishining yuqoriligi va xo`jalik organlari faoliyatining o`ziga xos xususiyatlariga bogliq holda ushbu ko`rsatkichning belgilangan darajasi bir muncha past ham bo`lishi mumkin.

Agar ushbu koeffitsient 0,6dan ya'ni 60 foizdan yuqori bo`lsa kredit xatodagi eng kam darajasiga keltirilgan hisoblanadi.

Qishloq xo`jaligi korxonalari bo`yicha avtonomalik koeffitsienti yillik hisoboti bo`yicha aniqlannada va bu miqdor butun yil davomida hisobga olinadi.

O`z aylanma mablag`larining mavjudligi, foydalilik noto`lovlik va aylanma mablag`larining aylanishi kreditga kobillikning ko`rsatkichlari hisoblanadi.

4. O`z aylanma mablag`larining mavjudligi:

$$U_{amm} = U_{mm} - U_{ma}$$

U<sub>amm</sub> - o`z aylanma mablag`larining mavjudligi.

U<sub>mm</sub>- o`z mablag`lari manbasi.

U<sub>ma</sub>- uzoq muddatli aktivlar.

Agar xo`jalik sub'ektining uzoq muddatli aktivlar (balans aktiv qismining 1 bo`limi.) O`z mablag`lari manbalaridan oshib ketsa bunday holda balans nolikvidligi yuzaga keladi. Ushbu Nizom talabalarga muvofiq balans nolikvidligiga yo`l qo`ygan xo`jalik subektlari bank kreditidan foydalanishi huquqiga ega emaslar.

5. Xo`jalik sub'ektlarining aylanma maglablariga aylanishi 2ta ko`rsatkich bilan aniqlanadi: aylanma mablag`dlarning aylanish koeffitsienti va aylanma mablag`larning aylannishi kun hisobida.

Aylanma mablag`larning aylanish koeffitsienti aylanma mablag`larning aylanish tezligini ifodalaydi va taxlil etilayotgan davr mobaynida maxsulot sotishdan tushgan tushumni aylanma mablag`larini o`rtacha bahosiga bo`lishi bilan aniqlanadi:

$$A_{koe} = S/O`q$$

A<sub>koe</sub> - aylanish koeffitsienti

S - sotilgan maxsulot xajmi

O`q - aylanma mablag`larning o`rtacha xronologik koldigi.

Aylanma mablag`larning aylanishi kun hisobida.

$$A_{\text{kunda}} = O`q * K/S$$

$A_{\text{kunda}}$  - aylanma mablag`larning aylanishi kun hisobida

K- taxlil etilayotgan davrdagi kunlar soni.

S- sotilgan maxsulot xajmi.

Jadval 4.

Xo`jalik sub'ektlari kreditga qobillik hisobi<sup>39</sup>

Ko`rsatkichlar nomi	Davrlar			
	1 chorak	Yarim yillik	9 oylik	yillik
Qoplash koefitsienti				
Likvidlik koefitsienti				
Avtonomlik koefitsienti				
O`z aylanma mablag`lari mavjudligi dinamikasi				
Foydalilik				
Noto`lovlar				
a) bank ssudasi bo`yicha				
B) to`lov ho`jjatlari bo`yicha				
Aylanma mablag`larning aylanishi				
a) aylanish koefitsienti				
b) kun hisobida aylanish				

Jadval 5.

Sinflar bo`yicha kreditga qobillikni asosiy ko`rsatkichlariga talablar

Ko`rsatkichlar nomi	I- sinf	II - sinf	III - sinf
Qoplash koefitsienti	$K \geq 2,0$	$2,0 \geq K \geq 1,0$	$1,0 \geq K \geq 0,5$
Likvidlik koefitsienti	$Lk \geq 1,5$	$1,5 > Lk \geq 1,0$	$1,0 \geq Lk > 0,5$
Avtonomlik koefitsienti	$Ak \geq 60\%$	$60\% > Ak \geq 30\%$	$30\% > Ak > 15\%$

Bank kredit ta'minoti bo`lib asosan quyidagilar hisoblanadi:

1. Garov huquqi<sup>40</sup>;
2. Bank kafolati (kafolat xati);

<sup>39</sup> AT «Paxta bank» kredit siyosati. 2003 yil.

<sup>40</sup> Jarkovskiy S. «Bankovskoe delo» kurs lektsiy. M.: «F i S». 2004 g. Str 280

3. Kafillik (xati);
4. Kredit riski sug`o`rtasi (sug`o`rta polisi);
5. Tsessiya (talabni berish, o`tkazish).

5.4. O`zbekiston tijorat banklarida qisqa va uzoq muddatli moliyalashtirish instrumentlarini taxlili<sup>41</sup>

Banklarning kredit jarayonlari uz navbatida muddat bo`yicha uchga bo`linadi:

- kiska muddatli 1 yil muddatgacha bulgan;
- xususiy muddatli 1-3 yilgacha bulgan;
- uzok muddatli 3 yildan ortik.

Yukoridagi muddatlar bizning bank tizimimiz uchun kabul qilingan. Lekin dunyo mamlakatlarida bu muddatlar xar turlidir. Bankning kredit operatsiyalari uzok yoki kiska muddatli bo`lishligi iktisodiy shart - sharoitga bog`liq bo`ladi. Masalan hozirgi kun respublika tijorat banklarining kredit portfelini muddat bo`yicha taxlil qiladigan bulsak, kiska muddatli kreditlarning salmogi ancha yukori ekanligini kurishimiz mumkin va bu holat nafakat bizda balki barcha MDX davlatlariga xam tegishlidir. Bunga sabab keyingi yillarda yuz bergan inflyatsiyadir.

Kredit jarayonlarining bugungi kunda banklar faoliyati tida tutgan urnini baholash uchun biz kredit operatsiyalarida kullanilayotgan mablaglar ulushini jami bank aktivlaridagi salmogiga qarab taxlil qiladigan bulsak, (jadvalga qaralsin) u holda bu jarayonlar ulushi xususiycha jaxonning rivojlangan banklarida 50-70 foizni tashqil qilmokda. [28]

Mamlakatimiz va xorijdagi tanikli bank mutaxassisleri bu kadamni ijobiy kabul qilishdi.

Ushbu koidalarning uziga xos muxim xususiyatlari kuyidagilardan iborat. Birinchidan, endi ob'ekt emas, balki sub'ekt kredit oladi va, ikkinchidan kredit kaytarilishning ta'minlanganligi ssuda berishning majburiy sharti xisoblanadi. Kredit berishning kuydagi printsiplari: tulash; kaytarish; muddatlilik; maksadli foydalanish anik belgilangan.

Koidalarda kredit berishning kuyidagi yangi shakllari kuzda tutilgan:

"kredit liniyasini ochmasdan" va "kredit liniyasini ochib" aloxida ssuda xisobvaragidan kredit berish;

kontokorent-kredit;

overdraft;

kimmatli kogozi larni garovga kuyib kredit olish (garovxona krediti);

veksel krediti.

"Kredit liniyasini ochmasdan" aloxida ssuda xisobvaragidan kredit olish bir galgi ssudalarni berish yuli bilan amalga oshiriladi, ularni berish tugrisidagi

---

<sup>41</sup> O`sha yerga qaralsin

karorni bank belgilangan hujjatlar majmui asosida xar bir ssuda bo`yicha aloxida akbul qiladi. [27.28]

Maxsus ssuda xisobvaraklari bo`yicha kredit berish xakikiy extiyoj yuzaga kelishiga qarab pul mablaglarini muntazam berishni kuzda tutgan.

Bunda xar bir operatsiya bo`yicha buxgalterlik hujjatlarini takdim etish talab qilinmagan. Xozirgi sharoitda kreditlashning mazkur tartibi bank operatsiyalari ushbu turining zarar kurishiga va umuman ular moliyaviy holatining yomonlashishiga olib kelgan bular edi.

Bank mijozi ko`p miqdordagi sheriklar bilan tijorat munosabatida bo`ladi, ular mijoz uchun mahsulot etkazib beruvchilar xam, uni oluvchilar xam bo`lishi mumkin. Bu hol mazkur mijozda doimiy tarzda pulga oid majburiyatlar va talablar yuzaga kelishiga olib keladi, buning ustiga ularning miqdori uzgarishi mumkin. Bank uz mijozining tulov oborotini engillashtirish maksadida uning joriy talablari va majburiyatlari bo`yichaxisob-kitoblarni oshirishni uz zimmasiga oladi.

Kontokorrent kredit- bank mijozi tomonidan turli xajmda, lekin shartnomada belgilangan eng ko`p summadan oshmaydigan xajmida foydalanishi mumkin bulgan bank kreditidir.

Shu bilan birga kontokorrent kredit beriladigan kreditning boshka turlaridan shunisi bilan fark qiladiki, kreditning ushbu turidan fakat oborot mablaglarini moliyalash uchun, firmaning ishlab chikarish faoiyati va foydani taksimlash bilan boglik tulovlarga eki joriy tulov oborotini kullab-kuvvatlash uchun foydalanish shartdir.

Karz oluvchiga uning xisobvaragida kreditning butun muddati davomida (12 oyga kadar) debetli saldoga ega bo`lishiga ruxsat berilishi kontokorrent kreditning afzal tomonidir.

Jaxon bank amaliyotida mazkur kreditdan foydalanishning bir necha varianti mavjud. Mijoz kreditdan shartnomada ta'kidlangan butun summa xajmida foydalanishi mumkin. Uzok davom etadigan vakt davomida kontokorrent kreditdan umuman foydalanmasligi mumkin, zero joriy talablar xisobvarak soxibining yuzaga keladigan majburiyatlarini doimiy ravishda koplaydi. Odatda mijoz uzining moliyaviy axvoliga boglik holda kontokorrent kreditning turlicha xajmidan foydalanadi.

Shunday vaziyat bo`lishi mumkinki, taklif qilingan kontokorrent kredit mijoz talablari bilan majburiyatlari xususiyasida juda oshib ketgan manfiy saldoni koplash uchun etmaydi. Bunday sharoitda bank maxsus bitim tuzmasdan turib, uzining eng "ishonchli mijozlariga" kontokorrent kreditni kiska muddatga bir oz kengaytirishga ruxsat berildi. Agar mijoz xisobvaragidagi manfiy saldo shartnomadagi summadan muntazam ravishda oshsa, bank tafovutlar sababini aniklaydi xamda zarurat tugilganda karz oluvchi bilan yangi bitim tuzadi.

Overdraft kontokorrentning aloxida shakli bo`lib, bundan mijozning xisob-kitob varagi epilmasligi, lekin uning moxiyati uzgarishi bilan fark qiladi:

xisobvarak ayni vaktida overdraft kreditga xam aylanadi. Overdraft kreditda mijoz oy davomida uzining xisob-kitob varagida debetli saldogaga ega bo'lish xukukini oladi, lekin xar bir oy oxirida koldikning kreditli saldosiaga ega bo'lishi shart.

Agar mijozning xisob-kitob varagida debetli saldo paydo bulsa, overdraft xisobvarakdan oy davomida asosiy faoliyatga taalukli bulgan tovar-moddiy-boyliklar bajarilgan ishlar va kursatilgan xizmatlarga doir pul xisob-kitobi hujjatlari tulanishi va ayni vaktida kelib tushaetgan barcha mablaglar mijozning xisob-kitob (ya'ni overdraft) xisobvaragiga ezilishi kerak.

Bir kator mamlakatlarda, shu jumladan Buyuk Britaniyada overdraft chekli kredit shakllaridan biri sifatida tarkalgan. Kredit xisobavrakdagi mablaglar koldigidan oshadigan summada chek eki tulov topshirigini ezish vositasida takdim etiladi. Bunday oshish odatda "kizil tusga kirish" deb nomlanadi;

Kimmatli kogoslar garovga kuyilgan kredit (garovxona krediti) aloxida ssuda xisobvaragidan kimmatli kogoslar (davlat kimmatli kogoslari, aktsiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshka emitentlarinng depozit sertifikatlari) garovga kuyib olingan kiska muddatli ssudadir. Garovxona kreditida garov nominal kiymatiga qarab emas, balki uning muayyan kismiga qarab baholanadi. Bu hol garovni amalga oshirishda yuzaga keladigan kurs tafovutlari bilan boglik. [30]

Shuning uchun kimmatli kogoslarni garovga kuyib garovxona kreditini takdim etish tugrisida karor kabul qilganda bank kredit ta'minoti uchun kabul qilinadigan kimmatli kogoslar sifati va kurs tavakalchiligi darajasini baholashga aloxida axamiyat ajratadi, bu erda kredit ushbu turining ikkita xususiyatini xiosbga olish zarur: birinchisi-kreditning eng ko`p summasi ular garov kiymatining 80 foizidan oshmasligi kerak va ikkinchisi-kredit garovi sifatida fakat fond birjasida kotirovka qilinadigan kimmatli kogoslarni kabul qilib olish mumkin.

Yuqorida ko`rib chiqqanimizdek mamlakatimizda ham kreditlarning turlari juda hilmaBu kredit turlari deyarli barcha sobiq MXDlarida bir xil bo`lib, ular banklar tomonidan va boshqa nobank tashqilotlari tomonidan mijozlarga beriladi. Biroq islom davlatlarida islomcha kredit berish usullari ustun turadi.

Banklar, alohida kredit tashqiloti sifatida (mustaqil) iqtisodiy, siyosiy shart-sharoitlar, bank qonunchiligining rivojlanish darajasi, banklararo raqobat hamda bank infratuzilmasining rivojlanish darajasini e'tiborga olgan holda o`z kredit siyosatini amalga oshiradi

Bank kredit siyosatini turli bosqichlarga va omillarga bog`liq tomonlari mavjud. (jadval 6)

Bank kredit siyosatini aniqlovchi (belgilovchi) omillar<sup>42</sup>.

Makroiqtisodiy omillar	Mamlakat iqtisodiyotining umumiy holati. Markaziy bank pul-kredit siyosati. Xukumatning moliyaviy siyosati
Regional (sho`ba) va tarmoq omili	Xudud va tarmoqdagi iqtisodiyot holati (bank bo`limiga tegishli). Mijozlar tuzilmasi, ularning kreditga bo`lgan talabi. Raqobatchi banklarning mavjudligi.
Bank ichidagi omillar	Bank (kapitali) o`z mablag`lari hajmi (miqdori). Passivlar tuzilishi. Bank personal (xizmatchilari) tajribasi va qobiliyati

Shuni ta'kidlash lozimki, amaliy kursatganidek, kredit berishning ushbu koidalari kullash bank zaxiralaridan yanada samarali foydalanishga, banklar likvidligini oshirishga, ularni xakikatdan ximoya qilishga, shuningdek iktisodietning ishlab chikarish sektorini rivojlantirishga imkon yaratadi.

5.5. Banklarni kredit portfeli diversifikatsiyasi muammolari<sup>43</sup>

Uzbekiston tijorat banklari uz faoliyatlari davomida kator muammolarga duch keladilar, ularni xal qilish esa, iktisodietimizning kelajakdagi tarakkiyoti uchun muxim xaetiy masaladir. Bu muammoni, birinchi navbatda, ko`pchilik bilan mijozlarning konikarsiz moliyaviy axvoli keltirib chiqaradi. Sir emaski, kachonlardir uz bank tizimlarini islox qilgan mamlakatlarning kariyib barchasi u yoki bu darajada shu muammoni xal qilish zarurati bilan tuknashganlar.

Kreditlash tijorat banklarining asosiy vazifalaridan biri bo`lib xisoblanadi. Muddatlilik, kaytarilish va pullik shartlari asosidagi pul yoki tovar shaklidagi kredit karz beruvchi va karzdor xususiyisida iktisodiy munosabatlarni ifoda etadi. Kredit operatsiyalari bank karz beruvchi, ya'ni kreditor bulganda aktiv va bank yukorida kursatilgan printsiplar asosida mablag jalb qilganda, ya'ni debitor bulganda passiv bo`lishi mumkin.

Respublikamizda 1997 yildi joriy qilingan buxgalterlik xisobining yangi tizimiga muvofik va maksadlariga qarab kreditlar kiska muddatli (1 yilgacha),

<sup>42</sup> Avtor tomonidan tuzildi

<sup>43</sup> TDIU va MDH mamlakatlari iqtisodiy mutaxassisliklari bo`yicha bakalavriat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining namunaviy mavzulari. T, 2005 y., 72

xususiy muddatli (1 yildan 5 yilgacha) va uzoq muddatli (5 yildan ortik) kreditlarga bo`lingan edi. Endilikda esa bank kreditlari qisqa va uzoq muddatli turlarga bo`linmoqda.

Kiska muddatli ancha likvidlikdir. Banklar ularni anik joriy zaruratlar uchun va aylanma mablaglar etishmaganligi sababli kiska muddatli extiyojlari bulgan korxonalariga beradilar. Ular mahsulotning yangi turlari va yangi texnologik jaraenlarni uzlashtirish bilan boglik bulgan, uzini tez koplaydigan va yukori samarali tadbirlarga beriladi. Uzoq muddatli kreditlar, asosan kurilish, inshootlarni texnik kayta jixozlash va kayta tiklash uchun investitsion maksadlarda beriladi. Bugungi kun holatida respublika tijorat banklarining kredit kuyilmalari, ular aktivlarining umumiy summasiga nisbatan o`rtacha 55,56 foizni tashqil qildi. Birok bu ko`rsatgich turli banklarda turlichadir. Milliy bankdan tashkari, fakat Sanoatkurilish banki, Asaka bank va Uyjoyjamgarma bank uzlarining umumiy kredit kuyilmalari xajmiga nisbatan uzoq muddatli kreditlarning 52-57 foizli yukori ulushga egadirlar. Kiska muddatli kreditlar berish ustun bulgan banklarning strategiyasi esa, tabiiyki, davlat va xususiy sektorlarda ishlab chikarishni rivojlantirishga, shuningdek, ichki investitsiyalar dinamikasiga (salbiy) ta'sir kursatadi.

Tijorat banklari kreditlar umumiy xajmining kariyib 11 foizini tashqil qilgan xususiy muddatli kredit kuyilmalari buyicha, ta'kidlab utilganidek, shubxasiz peshkadam Uzuyjoyjamgarma bankidir. Respublika banklari tomonidan berilgan kreditlar umumiy summasida uning ulushi 56 foizni tashqil qildi. Ikkinchi urinda bulgan Paxtabank zimmasiga umumiy kredit kuyilmalar summasining 20 foizi tugri keladi. Keyingi urinlarni Sanoatkurilish banki va Gallabank egallagan ( taxminan 8 foizdan). Asakabank va Uyjoyjamgarmabank xam uzlarining kredit operatsiyalarini ko`paytirmokdala. Ularning zimmasiga kredit kuyilmalari umumiy summasining kariyib 6 foizi tugri keladi.

Kredit kuyilmalarini mintakalar bo`yichataxil qilganda, respublikamiz poytaxti aloxida urin egallaydi. Uning zimmasiga kariyib 64 foiz kiska muddatli, 78 foiz xususiy muddatli va 85 foiz uzoq muddatli kredit kuilmalari tugri keladi. kreditlash anik-ma'lum omillar natijasida tuxtab turibdi. Bunday axvol ko`pchilik viloyat korxonalarida ish unumdorligining oshishiga salbiy ta'sir kursatadi va xalk xujaligida, xususan, kishlok xujaligi soxasida loyixalarni moliyalash uchun katta muammolar keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, kredit kuyilmalarining joriy xajmlarini shaklantirishda bor yugi bir necha yirik banklarga aloxida rol uynaydilar. Ko`pgina banklar fakat kiska muddatli kreditlashga iktisoslashmokdalar, bu esa bozor munosabatlari sharoitida tarmoklanish printsipiga mos kelmaydi. Xususiy va kichik banklarning juda kam xajmdagi kredit kuyilmalari jozibadordir.

Tijorat banklarining kredit operatsiyalaridagi eng "ogrikli nuqtalardan" dan biri bu muddati uzaytirilgan karzlarning kaytarilishi bo`lib xisoblanadi. Bank tizimidagi muddati uzaytirilgan karzlarning umumiy kredit kuyilmalari



xajmidagi ulushi 10 foizni tashqil etadi. Shuni xam xisobga olish kerakki, bu summaning asosiy kismi Uzuyjoyjamgarma banki zimmasiga tugri keladi. Shunga qaramay, bu bankning muddati kechiktirilgan karzlari umumiy kredit kuyilmalari xajmiga nisbatan 12 foizni tashqil etadi. O`zTadbirkorbank va Savdogarbank, muddati kechiktirilgan karzlar bo`yicha 25 foizdan 40 foizgacha bulgan yukori kursatkichlarga egadirlar. Bu tijorat banklarining aktivlari va balanslari tarkibiy tuzilma (struktura) larini soglomlashtirishga aloxida diqqat-e'tibor zarurligini kursatadi.

Jaxon tajribasida ssuda bo`yichamuddati uzaytirilgan karzlarni restrukturizatsiyalash muammolarini xal qilishning xar xil yullari ma'lum.

Bugungi kunda mavjud bulgan korxonalarni sanatsiya qilish bo`yichadavlat organi uz faoliyatida bank kreditlari bo`yicha amalga oshirilmagan tulovlarni bartaraf qilishda paydo bo`ladigan barcha muammolarni kamrab olmaydi. Fikrimizcha, fakatgina kat'iy talablar va keskin choralar erdamida muddati uzaytirilgan karzdorliklarni tugatish mumkin.

Banklapning kpedit faoliyatini tekshipish amalda shuni kupsatadiki, ko`p hollapda bankning ichki instpuktiv matepiallapi va nizomlapi ishlab chiqilmagan. Bulapga kpedit bo`limini nizomi va mansabdop shaxslarni instpuktiv matepiallapi, bupchlapini taksimoti va kpedit bepish tugpisida kupsatma, kpedit kumitasini kapopi shu kabilap tegishlidip. Bulapni bopligi banklapda kpedit ish yupituvchini patsional tashqil qilishga epdam bepadi va xodimlapni uz vazifalapiga bulgan masuliyatni oshipadi. Kpedit bepish uchun shaptnomaga xulosa yasashga va ishlab chikish japaenida, banklap tomonidan tashqiliy xukukiy va iktisodiy belgiga xos bo`lgan turli hildagi xarakterli kamchiliklar mavjuddir. Bu kamchiliklar barcha tijorat banklari faoliyatida kreditlash jarayoniga xos bo`lgan turli turdagi xatoliklar va muammollarni keltirib chiqarmoqda.

Ko`p hollapda bankdan kabul qilinaetgan hujjatlap tulik emasligi eki tula pasmiylashtipilmagani aniklanmokda. Asosan kapzdoni xisobot davpiga bulgan balansi, texnik iktisodiy xulosalapi, kpeditni kaytishi uchun kushimcha kafolatlap va boshka napsalap etishmasligi holati uchpamokda. Kpedit shaptnomalapining bazi biplapi muddatli tulov majbupiyati bilan pasmiylashtipilmaydi. kushimcha kafolatlapga etaplicha diqqat ajpatilmagan.

Natijada shu yul bilan bepilgan kpeditlap bip necha mapotaba ppolangatsiya yani muddati uzaytipiladi.

Xozipgi kunda sugupta kompaniyalapi uz majbupiyatlapi ustidan chika olmay bankpotlik dapajasiga xam bopishmokda. Bu esa bankning kpeditlapni kaytmaslik xatapiga yukopi darajadaligini kursatadi. Sugupta tashqiloti bilan tuzilgan kpeditni, suguptalovchi shaptnomalapni kabul qilish, kattian man qilingan.

O`zbekiston Respublikasi kreditlash tizimini rivojlantirish quyidagilarga bog`liq:<sup>44</sup>

1. Banklar va boshqa maxsus kredit institutlarining kredit berish hajmi, ular tomonidan jalb qilingan kredit resurslari miqdoriga bog`liqdir. (1:10):

2. Banklar tomonidan kredit berish tijorat asosiga mo`ljallangan (arzon olib - qimmat sotish va marja):

3. Kredit berish, olish, qoplash, nazorat qilish kredit oluvchi v bankning kelishuviga ya'ni kredit shartnomasiga asoslanadi:

Kreditlashda xozirgi kunda asosiy bo`lib ya'ni birlamchi bo`lib kredit sub'ekti, so`ng esa kredit ob'ekti hisobga olinadi:

4. Kreditlash miqdori (hajmi) bank bo`yicha (potentsiali) Markaziy bankning iqtisodiy normativlariga bog`liqdir (N1 - kapital etarligi, bank likvidligi, majburiy zaxira miqdori, qayta moliyalashtirish stavkasi va boshqalar).

#### Qisqacha hulosalar

Bank – tijorat korxonasi sifatida korxonalarga va boshqa shaxslarga jalb qilgan pul mablag`larini o`z nomidan, o`z risqi asosida daromad olish maqsadida joylashtiradi.<sup>45</sup> Kreditlash tijorat banklarining asosiy vazifalaridan biri bo`lib xisoblanadi. Muddatlilik, kaytarilish va pullik shartlari asosidagi pul yoki tovar shaklidagi kredit karz beruvchi va karzdor xususiyasida iqtisodiy munosabatlarni ifoda etadi.

#### Tayanch iboralar:

Kredit, qarz, kredit olish qobiliyati, to`lov qobiliyati, likvidlilik, koeffitsientlar, faktoring, mikrocredit, boshlang`ich sarmoya, garov, ta'minot, imtiyoz, to`lov, foiz.

#### Nazorat savollari:

1. Bank aktiv operatsiyalari va ularni tuzilishi
2. Bank kredit operatsiyalari va ularni tuzilishi
3. Iste'mol krediti va uni O`zbekistonda rivojlanish istiqbollari<sup>46</sup>
4. Kredit portfeli va uni bahosi.
5. Kreditlashtirishni hujjatlashtirish va rasmiylashtirish tartibi
6. O`zbekistonda ipoteka kreditlashtirishning rivojlantirish xususiyatlari va istiqbollari<sup>47</sup>
7. Tijorat banklari kredit portfeli va ularni muammolari
8. Tijorat banki kredit portfelini boshqarish taxlili<sup>48</sup>

<sup>44</sup> O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki me'yoriy hujjatlari. T.2003 yil.

<sup>45</sup> Jarkovskiy S. «Bankovskoe delo» kurs lektsiy. M.: «F i S». 2004 g. Str265

<sup>46</sup> TDIU va MDH mamlakatlari iqtisodiy mutaxassisliklari bo`yicha bakalavriat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining namunaviy mavzulari. T, 2005 y., 74

<sup>47</sup> O`sha yerga qaralsin

<sup>48</sup> O`sha yerga qaralsin

Asosiy adabiyotlar.

1. O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy xujjatlari to`plami. T.: 2003.
2. Jarkovskiy S. «Bankovskoe delo» kurs lektsiy. M.: «F i S». 2004 g.
3. Lavrushin O.I. i dr. «Bankovskoe delo» M. F i S 2003g.
4. Sbornik zadach po bankovskomu delu: Ucheb posobie. Pod red. A.I. Valentsovoy. –M.: Finansi i statistika, 2002.-624s.
5. Suxova L.F. Praktikum po analizu finansovogo sostoyaniya i otsenki kreditosposobnosti banka-zayomhika.-M.: Finansi i statistiq, 2003-152s.
6. Finansi. Pod red. G.B. Polyaka. -M.: YUNITI-DANA, 2004.-607s.
7. Shapkin A.S. Ekonomicheskie i finansoviye riski.-Izd. 3-e-M.: Dashkov i K, 2004.-120s.
8. [www.thebanker.com](http://www.thebanker.com)
9. [www.Google.ru](http://www.Google.ru)
10. [www.federalreserve.gov](http://www.federalreserve.gov)

## VI-BOB. MAVSUMIY XARAKTERGA EGA BO`LGAN TURLI MULKKA ASOSLANGAN TARMOQLARNI KREDITLASH

### 6.1. Mavsumiy xarakterga ega ishlab chiqarish tarmoqlari kapitalining aylanish xususiyatlar

Qishloq xo`jalik korxonalarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish zaminida rivojlantirish uchun sarflanayotgan barcha mablag`lar ularning moliyaviy mablag`lari hisoblanadi. Qishloq xo`jalik korxonalaridagi moliyaviy mablag`larning mohiyati va shakllanish manbalarini mantiqan quyidagicha turkumlash mumkin.

Korxonalarining moliyaviy mablag`larga bo`lgan talabi qishloq xo`jalik ishlab chiqarishining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shakllanishi maksadga muvofiqdir. Lyokin o`tish davrining hozirgi boskichida korxonalar o`rtasidagi o`zaro iqtisodiy munosabatlar buzilishi oqibatida ularning moliyaviy mablag`larga bo`lgan yuqori darajadagi talabi o`z va unga tenglashtirilgan hamda kayta taksimlash natijasida shakllantirilayotgan moliyaviy mablag`lar hisobidan to`lik kondirilayotgani yo`q. Shuning uchun aksariyat qishloq xo`jalik korxonalari vaktincha bo`sh bo`lgan mablag`larni chetdan jalb etishiga, ulardan okilona, samarali foydalanishga katta e'tibor bermoqdalar. Hozirgi davrda moliyaviy mablag`lar tarkibida bank kreditlari eng muhim va ahamiyatli o`rin tutadi. Ular faoliyat ko`rsatayotgan xo`jaliklar uchun samarali natijalarga erishish vositasi hisoblanadi. Korxonalarining o`z mablag`lari hamda chetdan jalb etilgan moliyaviy mablag`larning aksariyat kismi ularning aylanma kapitalini to`ldirishga va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni moliyalashtirishga yo`naltirilmoqda.

Aylanma mablag`larning tarkibi va tuzilmasi turli omillar ta'sirida vujudga keladi. Ular xo`jalikning ishlab chiqarish yo`nalishi, ixtisoslashuvi, iqlim sharoitlari, iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, ishlab chiqarish hajmi, etishtirgan mahsuloti va ko`rsatilgan xizmatlarini realizatsiya qilish jarayonlari hamda shu kabi faoliyat natijalariga bog`liq bo`ladi.


Hozirgi kuzatishlardan ko`rishimiz mumkinki qishloq xo`jaligi korxonalarida aylanma mablag`larga bo`lgan talabi yuqori bo`lmokda. Shu munosabat bilan bu korxonalarda qisqa muddatli kreditlarning salmog`i kattadir. Demak korxonalar aylanma mablag`lar va unda kreditning rolini o`rganish muhim ahamiyatga egadir.

Korxonaning qo`shimcha aylanma mablag`larga ehtiyojini o`z manbalari hisobidan moliyalashtirilishi mumkin, birok joriy moliyalashtirishning eng qulay va tez moslasha olishi qisqa muddatli kreditdan foydalanish hisobiga ta'minlashnishi mumkin. Joriy moliyalashtirish manbalariga ehtiyojni aniqlash uchun aylanma mablag`lar ikki kismga bo`linadi:

- doimiy aylanma mablag`lar (aylanma aktivlarning muntazam kismi), unga ehtiyoj butun operatsion davr maboynida nisbatan o`zgarasdir;
- o`zgaruvchan aylanma kapital (joriy aktivlarning o`zgarib turuvchi kismi), unga ehtiyoj u to`liq yo`q bo`lishiga kadar sezilarli bo`lmagan darajada o`zgaradi.

### 1-chizma

#### Qishloq xo`jalik korxonalarining moliyaviy manbalari tuzilmasi.



Bu bo`linish joriy aktivlarni moliyalashtirishning to`rtta tanikli modellari asoslariga qurilgan bo`lib, ular korxonaning joriy moliyalashtirishda qisqa muddatli majburiyatlarning roli nuqtai nazaridan o`zaro farq qiladi.

Qarz berish shartnomalari asosida karz pullar va mablag`lar jalb etiladigan moliyaviy veksellar pul, kreditbozorining mustaqil sementini o`zida ifodalaydi. Ayni paytda xo`jalik kreditlashning o`ziga xos xususiyati mavjud bo`lib, u korxonalar professional kreditor emasligi bilan bog`liq. Bu bo`sh pul mablag`lari taklif etiladigan ochik bozor emas. Bu erda pul resurslariga talab va taklif aksariyat holda kreditor hamda qarz oluvchi o`rtasida yuzaga kelgan xo`jalik o`zaro munosabatlari bilan bog`liq. Odatda iqtisodiy jihatdan o`zaro ta`minot, texnologik zanjir bilan o`zaro bog`lik bo`lgan korxonalar kreditlar bilan ta`minlanadi. Bunda aynan xo`jalik vazifalari, masalan ta`minot yoki


sotishning kafolatlanganligi hal etiladi, shuning uchun kredit yuzasidan to'lov turli kredit bitimlarida sezilarli darajada o'zgartirilishi mumkin, shunga qaramay pul bozorida umumiy vaziyat, kayta moliyalash stavka darajasi ham hisobga olinadi. Xo'jalik kreditining o'ziga xos turi karz berish shartnomasi asosida jismoniy shaxslarning mablag'larini jalb etishdan iborat.

## 6.2. Qishlok xo'jaligiga kredit berish tartibi.

Agrar sektorni isloh qilish yoki tarmoqni rivojlantirish strategiyasini belgilashda dehqon o'zining ijtimoiy va ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan eng asosiy o'rinda turishi lozim. Prezidentimizning 2003 yil 24 martdagi "Qishlok xo'jaligida islohotlarni chukurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida"gi Farmonida dehqonning barcha muammolari bosh mezon kilib olingan. Qishlok xo'jaligi tovar mahsuloti ishlab ishlab chiqaruvchilaraning manfaatlarini to'la ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy va huuqiy shart-sharoit yaratish, xizmat ko'rsatuvchi va mahsulotni sotib oluvchi barcha tashkilotlar faoliyatini ushbu maksadga bo'ysundirish asosiy masala sifatida e'tirof etiladi.

2-chizma

Qishlok xo'jalik infratuzilmasi va uning bo'g'inlari.



Yuqoridagi 1-chizmadan ko'rinib turibdiki, respublikaning etakchi muassalari, idoralari va tashkilotlari agror soha bilan bog'liqdir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning ustivor yo'nalishlaridan biri -bu kichik dehon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirishdir. Aytish lozimki, dehqon va fermer xo'jaliklariga qulayliklar yaratilmokda va

imtiyozlar berilmokda. Xususan yangi tashkil etilgan fermer xo`jaliklari ikki yilgacha barcha turdagi soliqlardan ozod etilganini, ularga boshlang`ich sarmoyani shakllantirish uchun kreditlar ajratilayotgani soha rivojida muhim omil bo`lmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 19 maydagi 195-sonli "Tijorat banklarining kichik va o`rta tadbirkorlikni rivojlantirishda katnashishini rag`batlantirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida"gi 195-sonli karorida banklar foydasining 25 foizigacha miqdorini ajratish hisobiga imtiyozli kredit berish maxsus jamg`armasi tashkil etilishi kayd kilingan. Shu bilan birga, karorda tijorat banklarining mazkur jamg`arma hisobidan kreditlash evaziga olgan daromadlari imtiyozli kreditlash jamg`armasini ko`paytirishga yo`naltirilgan takdirda 5 yilgacha soliqdan ozod qilishdek rag`batlantirish mexanizmi ko`zda tutilgan.

O`zbekiston Respublikasida quyidagi kredit turlari mavjud<sup>49</sup>:

I. Dastlabki (boshlang`ich) kapital (sarmoyani) shakllantirish krediti. (366. 10.09.2001)

Manbasi- 1) Biznes fond mablag`i – 50 %

2) DFX qo`llab-quvvatlash jamg`armasi 50 % gacha

Sharti – davlat ro`yhatidan o`tgandan so`ng 6 oygacha – Mikrofirmalar va dehqon xo`jaliklariga (yuridik shaxs maqomiga ega) – 150 min ish haqi. Kichik korxonalar va fermerlarga – 300 baravar miqdorida.

Muddati – 3 yilgacha.

Foizi – MB qayta moliyalashtirish stavkasining oltidan bir qismi. Foizlarni 12 oyga kechiktirish va asosiy qarzni 18-24 oy o`tgach qaytarish.

II. Tijorat banklari foydasining 25 % mikrofirmalar, kichik va DFX – imtiyozli kreditlash. Ushbu kreditlardan olinadigan daromadlar 5 yilga daromad solig`idan ozod qilinadi va yana maxsus jamg`armaga yo`naltiriladi (2000.04).

Depozit stavkasi ( 50 % MB Qayta Moliyalash stavkasi ( 75 % bo`lishi kerak.

Tijorat banklari tomonidan aholidan, DFX qishloq xo`jalik mahsulotlari xarid qiluvchi tayyorlov tashkilotlarga hisob-kitob uchun mahsulot xajmini 100 % miqdorida naqt pul berishi mumkin.

Agarda tayyorlov tashkilotlarida xarid qilish bo`yicha shartnomalar tuzilgan bo`lsagina banklar pul mablag`larini beradilar.

III. (902. 29.02.2000) Tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs maqomini olmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo`jaliklarini (milliy va chet el va lyutasida mikrokreditlash)

Kredit miqdori – 5000 \$ - bozor ko`rsida.

Muddati – 3 yil. 50 % 1,5 yil ichida.

Berish tartibi – naqt pulsiz va naqt pul.

---

<sup>49</sup> O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki me`yoriy xujjatlari to`plami. T.:2003 y.

Foizi – kelishuv asosida, biroq Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasi miqdoridan oshmasligi kerak.

Ta'minoti – 1) Mulk yoki qimmatli qog'ozlar garovi

2) Bank yoki sug'orta tashkiloti kafolati

3) Uchinchi shaxsning kafilligi

4) Sug'urta kompaniyasining qarz oluvchining kreditni qaytaraolmaslik xatarini sug'urta qilinganligi to'g'risida sug'urta polisi

5) Fuqarolar yig'inlarining mahalla, qishloq, ovul kengashlari kafilligi.

Tijorat banklari tomonidan chet el valyutasidagi mikrokreditlar o'z kredit resurslari va chetdan jalb qilingan kredit mablag'lari, jumladan, xorijiy banklarning kredit liniyalari hisobidan amalga oshiriladi.

IV. (903. 29.02.2000) Tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko'rsatayotgan fermerlik xo'jaliklari va kichik biznesning boshqa sub'ektlarini milliy va chet el valyutasida mikrokreditlash.

Miqdori – 10000 \$ AQSh (bozor ko'rsi bo'yicha) milliy valyutadir.

Muddati – 3 yil.

Berilishi – naqt pulsiz va 18 oyda qaytarish sharti bilan naqt pulda.

Mikrokreditlar – bankning maxsus imtiyozli jamg'armasidan berilsa foizi imtiyozli bo'lishi mumkin.

Hujjatlari: 1) Kredit olish buyurtmasi;

2) pul oqimi taxlili majburiy tarzda ko'rsatilgan biznes reja;

3) oxirgi hisobot Davlat soliq xizmatining maxalliy idorasi tomonidan tasdiqlangan buxgalterlik balansi;

4) debitorlik va kreditorlik qarzi haqidagi ma'lumotnoma, shuningdek 90 kundan ortiq muddatdagi qarzdorlikni solishtirish dalolatnomaldari, moliyaviy natijalari haqida hisobot.

Chet el valyutasidagi mikrokreditlar banklar bilan qarz oluvchilar o'rtasida tuziladigan kredit shartnomalarida belgilanadigan tijorat shartlari asosida naqdsiz shaklda beriladi.

Chet el valyutasida berilgan kreditlar bo'yicha foizlarning to'lovi, to'lov sanasidagi birjadan tashqari valyuta bozori ko'rsi bo'yicha milliy valyutada amalga oshiriladi.

Asosiy qarzni to'lash chet el valyutasida amalga oshiriladi, qarzdorning chet el valyutasidagi hisob raqamida mablag' mavjud bo'lmagan taqdirda – to'lov sanasidagi birjadan tashqari valyuta bozori ko'rsi bo'yicha milliy valyutada to'lanishi mumkin.

V. (907. 07.03.2000) Tijorat banklar tomonidan fermer xo'jaliklari va kichik o'rta biznesni milliy valyutada kreditlash tartibi.

Kredit muddati – 1) KO'B sub'ektlari oborot mablag'larini to'ldirishga – 1 yil.

2) Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tashkil etuvchi fermer xo'jaliklariga (yuridik shaxs maqomiga ega) oborot mablag'larini tuldirishga kamida 2 yilga.



3) investitsion loyixalarni moliyalashtirishga barcha sub'ektlariga 5 yilgacha beriladi.

Berilgan kreditlarni qaytarish 12 oydan oshmasligi kerak. qishloq xo'jaligiga berilgan kreditlar esa 30 oydan oshmasligi kerak.

VI. AT «Tadbirkorbankning» kredit liniyalari hisobidan tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlariga dastlabki (boshlang'ich) sarmoyani shakllantirishga kredit berish hamda lizing kompaniyalari tomonidan lizingni amalga oshirish tartibi.

VII. Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarini yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga olgan holda kreditlash tartibi to'g'risida NIZOM (2004.01)

VIII. Fermer xo'jaliklarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risida NIZOM.

Ushbu qayd etilgan qaror qilingandan buyon 2003 yilning 1 aprel holatiga kadar tijorat banklari sof foydasining 25 foizigacha o'tkazish hisobiga mamlakatda 37.3 mlrd. so'mlik imtiyozli kredit berish jamg'armasi tashkil kilinib, ushbu mablag' kichik va o'rta biznes sub'ektlarini kreditlashga yo'naltirilgan<sup>50</sup>.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 10 sentyabrdagi "Kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklarini mablag' bilan ta'minlash, moddiy-texnik ta'minlash, ularga bojxona imtiyozlari berish, bank xizmatlari va boshqa xizmatlar ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 366-sonli qarori talablaridan kelib chiqqan holda "Tijorat banklari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlar, kichik va o'rta biznes sub'ektlarini byudjetdan tashkari jamg'armalar kredit liniyalari hisobidan kreditlash tartibi to'g'risida" Nizom ishlab chikilib, O'zbyokiston Respublikasi Adliya vaziligidan 2001 yil 3 oktyabrdagi 1074-raqam bilan Davlat ro'yhatidan o'tkazildi.

Mazkur tartib asosida, Biznes-fond hamda Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armalari mablag'lari hisobidan boshlang'ich sarmoyani shakllantirish uchun kreditlar davlat ro'yhatidan o'tganiga 6 oydan ko'p bo'lmagan davrda kredit olish uchun tegishli buyurtmanomalar bergan mikrofirmalar va yuridik shaxs makomiga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklariga eng kam oylik ish hakining 150 barobari miqdorigacha, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklariga eng kam ish hakining 300 barobarigacha aylanma mablag'larni to'ldirishga, investitsiya loyihalarini texnik iqtisodiy asoslashga va asbob-uskunalar sotib olishga Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 1G`6 kismi mikdorida, foizlarni 12 oy muddat o'tgach va asosiy karzni kredit olgandan keyin 18-24 oy o'tgach, kqaytarish shartlari asosida 3 yilgacha bo'lgan muddatga boshlang'ich sarmoya shaklida kredit berish tartibi joriy qilindi.

<sup>50</sup> "Bozor, pul va kredit", №5, 2003 yil, 55-bet.

Bugungi kundagi yana bir dolzarb masalalardan biri bo'lgan "Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta xom ashyosi va g'alla etishtirish bo'yicha fermer xo'jaliklarining xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlashning vaktinchalik Tartibi" ishlab chiqildi.<sup>51</sup>

Bu karor asosida eksperiment tariqasida respublikaning Buxoro, Namangan, Farg'ona va Xorazm kabi to'rtta viloyatida qo'llanildi. Kreditlar davlat ehtiyojlari uchun xarid kilinadigan paxta xom ashyosi va don qiymatining 50 foizigacha miqdordagi limit chegarasida ularni etishtirish bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirish uchun beriladi.

Imtiyozli kreditlarni qaytarmaslik xatarini sug'urtalash yoki garovni sug'urtalash shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlarini to'lash, ish haki to'lovlari, mineral o'g'itlar va o'simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalarini sotib olish, MTPLar xizmatlari to'lovlari, elektr quvvati to'lovlari, paxta ekish uchun polietilen plyonka sotib olish, kollektor-drenajlar tozalash bo'yicha xizmatlar to'lovlari, yagona er solig'ini to'lash kabi maqsadlarga ajratiladi.

Shuni aytib o'tish kerakki, qishlok ho'jaligi mahsulotlari etishtiruvchilarga xizmat ko'rsatuvchi tijorat banklari o'zlarining kredit resurslari hisobidan to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan xo'jaliklarga yokilg'i-moylash materiallari, energiya manbalari, mineral o'g'itlar, qishlok xo'jaligi texnikasi va boshqa moddiy- texnika resurslarini olish uchun maqsadli kreditlar ajratilishi bilan birga, tijorat asosida samaradorlik bilan ishlaydigan xo'jaliklarga hosilning 50-80 foizi qiymati doirasida ishlab chiqarish me'yrlariga rioya qilgan holda "biznes reja" asosida to'g'ridan-to'g'ri kredit mablag'lari berilmokda.

Qarz oluvchining to'lovga kurbi etmasligi tufayli qishlok xo'jaligi ishlab chikarishiga ssudalar berish kiyinlashib bormokda. qishlok xo'jalik korxonalarini iqtisodiy nochorligining mazkur uch tarkibiy kismi qishloq xo'jaligini moliyalashtirish va kreditlash bo'yicha mavjud tizimni yanada takomillashtirishni zarur kilib qo'ymoqda.

Kredit qo'mitasining ijobiy xulosasidan so'ng, bank va karz oluvchi tomonidan tomonidan kredit shartnomasi imzolanadi.

Kredit shartnomasi tuzilganidan so'ng, buxgalteriyaga muddati vak foiz stavkasi ko'rsatilgan holda ssuda hisob-rakamini ochish to'g'risida kredit xodimi farmoish beradi.

Ssuda berilishi to'g'risida qarorni qabul qilinishi bilan karz oluvchiga kredit kartochkasi ochiladi. Bu kartochka asosida kredit ustidan nazorat o'rnatiladi. Bank kreditidan foydalanganlik uchun hak, foiz stavkasida ifodalangan kredit bahosini tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini (jamoat xo'jaliklari, shirkat xo'jaliklari, dehqon va fermer xo'jaliklari) kreditlash alohida "kredit liniyasi ochmasdan" ssuda hisob-raqamidan ishlab chiqarish xarajatlari "Baznes-reja"si asosida

---

<sup>51</sup> Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Hisob-kitoblar mexanizmini va byudjetga to'lovlar intizomini mustahkamlash komissiyasi"ning 2002 yil 17 dekabrda 70-sonli majlisi bayoni

berilayotgan kredit va foizlarni 50 foizni soʻndirmaslik xataridan va kolgan 50 foizi notarial tasdiklangan va Davlat kadastiri yoki BTIning tuman koʻchmas mulk xizmatlarida roʻyxatga olingan yukori likvidli mulk garov shartnomasini sugʻurta qilishga qaratilgan sugʻurta polisi mavjudligi sharoitida amalga oshiriladi.

Alohida olingan qishloq xoʻjaligi korxonasini kreditga talabi bir yilga, choraklarga boʻlingan holda, uning daromadlari va xarajatlarini oʻrganish, "Biznes-rejada" koʻzda tutilgan mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishni hisob hajmidan muomalasidagi shaxsiy manbalar hisobadan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Xisob-kitob asosi sifatida qishloq xoʻjaligi mahsulotini sotishdan bajarilgan ishlar va koʻrsatilgan xizmatlarga hak toʻlash, bank kreditlarini soʻndirish, buyudjet bilan hisob-kitoblar va boshqa pul xarajatlarining rejadagi ma'lumotlari olinadi.

Kredit sotib olinayotgan urugʻlik va oʻtkaziladigan ekinlar, yoqilgʻi-moylash materiallari, mineral oʻgʻitlar, oʻsimliklarni himoyalash vositalari, ehtiyot qismlar, chorva, em hamda mahsulot tannarxiga kiradigan MTP tomonidan bajarilgan ishlar, texnologik kartada koʻzda tutilgan mahsulot ishlab chiqarishga eng katta yoʻl qoʻyiladigan xarajat me'yorlari chegarasida, pul himsob-kitob hujjatlarini toʻlashga beriladi.

Kredit soʻndirilishi bank tomonidan kredit shartnomasida koʻzda tutilgan muddatlarda amalga oshiriladi. Kredit shartnomasida kredit soʻndirilishi quyidagi tartibi koʻzda tutilishi mumkin:

- soʻndirilish muddati etgan majburiyatlar boʻyicha ssuda qarzlarni qarzdorni qaytarib olgunga qadar asosiy depozit hisob-raqamidan undirish orqali;

- muddatidan oldin, qarzdor toʻlov topshiriqnomasi bilan uning qaytarib olguncha depozit hisob-raqamidan ssuda hisob-raqamiga pul mablagʻlarini qoldigʻini oʻtkazish orqali;

- bank tomonidan kafillik boʻyicha olingan majburiyatlarni, sugʻurta polisi boʻyicha sugʻurta qoplamasini, bank va boshqa kredit tashkilotlari kafolatlarini hamda garov huquqini sotishdan olingan mablagʻlarni ishlatilishi orqali.

Xoʻjalik sub'ektlarini "kredit liniyasi ochgan holda " kreditlash alohida ssuda hisob-raqamidan, kreditlash ssumasining kredit shartnomasida oldindan kelishilgan chegaralarda, amalga oshiriladi. Mazkkur kreditlash summasi hisobiga karz oluvchining asosiy faoliyatiga aloqador tovar-material qimmatliklarga, bajarilgan ishlar va koʻrsatilgan xizmatlar uchun pul hisob-kitob hujjatlari pul toʻlanadi.

"Kredit liniyasi ochgan holda" ssuda berish bank kafolat majburiyati bilan rasmiylashtiriladi. Bu bilan bank kredit shartnomasida oʻrnatilgan miqdori, muddati va bank korrespondent hisob-rakamining holatidan qat'iy nazar,

kreditlash limiti chegarasida karz oluvchiga to'siqlarsiz kreditni takdim etilishini kafolatlovchi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

### 6.3. O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari va bunda banklarning o'rni<sup>52</sup>

Banklar professional kredit beruvchi sifatida mijozlarga joriy faoliyatni moliyalashtirish uchun g'oyat turli-tuman kreditlarni taklif etadilar, ularning ichida eng tez moslanuvchanlari overdraf va kredit liniyalaridir.

Tashkilot joriy faoliyatini moliyalashtirish uchu muddatli byudjet yordamidan ham foydalanishi mumkin, u turli darajadagi byudjetlar tomonidan quyidagi shakllarda taqdim etiladi:

- pul mablag'larining qarz oluvchiga hakikatda berilishi;
- kreditlashning imtiyozli shartlarini ta'minlash uchun bank kreditlari bo'yicha foiz stavkalaridagi farqni qoplanishi;
- bank kreditlari yuzasidan byudjet kafolatlarining takdim etilishi;
- byudjet oldidagi majburiyatlarni vaqtincha kamaytirish vositasida kreditlash.

Byudjet krediti fakat kaytarilishi asosida avval taqdim etilgan byudjet mablag'lari yuzasidan muddati o'tgan karzlari mavjud bo'lmagan yuridik shaxslarga berilishi mumkin. Vakolatli organlar kreditning amal qilish paytida har qanday vaktida byudjet krediti oluvchisining tekshirish huquqiga egadirlar, shuningdek byudjet kreditidan maqsadli foydalanilishini tekshiradilar. Yuridik shaxslarga taqdim etilgan byudjet mablag'larning qaytarilishi, shuningdek ulardan foydalanganlik yuzasidan to'lov byudjetga to'lovga tenglashtiriladi.

Korxonalar aylana mablag'ni saklab turilishi uchun soliklarni to'lash bo'yicha muddatini uzaytirish, bo'lib-bo'lib to'lash va solik kreditlaridan foydalanishi mumkin.

Ushbu kreditlash shakllarida umumiy jihat shundan iboratki, ular byudjetga soliqlar va yig'imlar to'lash muddatlarining o'zgartirilishi bilan bog'lik.

Solik krediti bir yoki bir necha soliklar bo'yicha uch oydan bir yilgacha muddat bilan taqdim etilishi mumkin. Agar solik krediti manfaatdor shaxsga tabiiy ofatlar, texnik halokatlardan zararlar va boshqa engib bo'lmas kuch holatlari yuzasidan takdim etilayotgan, shuningdek agar uning tegishli byudjetdan kamroq moliyalashtirish holati mavjud bo'lsa to'lov undirilmaydi. Agar solik krediti bir vaktning o'zida soliq to'lanishi holatida ushbu shaxsga bankrotlik tahdid qilishi munosabati bilan taqdim etilsa, foizlar solik krediti to'g'risida shartnoma davrida bo'lgan, Markaziy Bankning kayta moliyalash stavkasi miqdorida belgilanadi. Solik krediti summalari to'lovning har bir

---

<sup>52</sup> TDIU va MDH mamlakatlari iqtisodiy mutaxassisliklari bo'yicha bakalavriat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining namunaviy mavzulari. T, 2005 y., 72

muddatdagi bo'yicha teng ulushlarda yoki bir yo'la foizlarni to'lash bilan mablag'larni tegishli byudjetga daromadga o'tkazish yo'li orkali kamaytirilishi lozim.

Shunday qilib, korxonaning aylanma mablag'larga bo'lgan qo'shimcha ehtiyoji kredit xarakteridagi turli tuman manbalar hisobidan qoplanishi mumkin. Xar qanday holatda ham qisqa muddatli kredit va korxonaning aylanma mablag'lari quyidagi ko'rinishlarga ega:

- qisqa muddatli kreditlash muddati aylanma mablag'ning aylanish muddatli bilan bog'liq-bir yilga qadar;

- qisqa muddatli kredit korxonada joriy faoliyatidan tushumlar, tovarlar (ishlar, xizmatlar)dan tushumlar hisobiga so'ndiriladi, aylanma mablag'lar elementlari tannarxning aksariyat qismini tashkil etishi bois aylanma kapital davriy aylanishining uzluksizligi qisqa muddatli kreditni so'ndirishning sharti hisoblanadi;

- qisqa muddatli kreditni jalb etish uchun xarajatlar buxgalteriya (moliya) hisobida xarajatlar (tannarx) tarkibiga, solik hisobida esa o'rnatilgan cheklashlar doirasida kiritiladi.

Ushbu tartib Paxta bank tomonidan yuritilayotgan kredit siyosatining ajralmas qismi bo'lib, xo'jalik sub'ektlari va ularga xizmat ko'rsatayotgan bank filiallarini o'zaro kredit munosabatlarini tartibga soladi.

Kreditlar, xo'jalik yurituvchi sub'ektni qaytarib olunguncha asosiy depozit hisob raqami joylashgan joyiga karab beriladi. Boshqa banklar mijozlariga, shuningdek zarar ko'rib ishlayotgan, nolikvid balansga ega xo'jalik sub'ektlari faoliyatini kreditlash man etiladi. Kredit resurslarini uzoq muddatga mo'ljallangan moliyaviy keskin o'zgarishlar, xo'jasizlik va zararlarni koplashga ishlatilishiga yo'l ko'yilmaydi.

#### 6.4. Kreditni ta'minlash va qaytarish turlari<sup>53</sup>

Kreditlar, berilish muddatiga ko'ra, qisqa, o'rta va uzoq muddatli turlarga bo'linib, kredit shartnomasida kayd etilgan muddatda, maksadga muvofiq ishlatilishi va ta'minlanganlik hamda foizlilik tamoyili, qaytarishlik shartlari asosida beriladi.

Qaytarilish muddatlari kechiktirilgan kreditlar - bu, so'ndirilish muddati etib kelgunga qadar qarzdor tomonidan yozma ravishdagi asoslangan iltimosnomasiga ko'ra, bank Kredit ko'mitasi karori asosida qayta rasmiylashtirilgan kredit hisoblanadi. Bunda kreditni so'ndirilish sanasi kechiktiriladi.

Paxta Bank filiallari, Kredit qo'mitasining qaroriga asosan, mijozga qisqa muddatli kreditlar bo'yicha so'ndirilish muddatini, qarz mablag'laridan


---

<sup>53</sup> O'sha yerga qaralsin

foydalanish 12 oydan oshmaslik sharti bilan, kechiktirish imkonini bir marta berish mumkin.<sup>54</sup>

Chizma-3

### Garov turlari va shakllari



Kreditning so'ndirilish muddatini kechiktirish, asosiy shartnomaga qo'shimcha shartnoma tuzish va ilgari kredit ta'minotini qayta rasmiylashtirish sharti bilan rasmiylashtiriladi. Ishonchli kreditlar bo'yicha kredit muddatini uzaytirishga yo'l qo'yilmaydi.

Kredit so'ndirilmaslik xataridan xoli bo'lish maqsadida karz oluvchi ishonch kreditidan farqli o'laroq, tez sotiluvchanlik talabiga javob beradigan ta'minotga ega bo'lishi lozim.

Ta'minotning asosiy shakllari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: mulk garovi, uchinchi shaxs kafilligi, banklar va boshqa kredit tashkilotlari kafolatlari, karz

<sup>54</sup> AT.»Paxta bank» kredit siyosati. 2004 yil.

oluvchi tomonidan kreditni va u bo'yicha karzlarni so'ndirmaslik xatarini sug'urta qilinganligi to'g'risida sug'urta kompaniyalarining sug'urta polisi.

Berilayotgan kredit summasi, sug'urta bahosida, garovga olinayotgan mulk qiymatini 80 foizdan oshmasligi kerak.

#### Qisqacha hulosalar

Qishloq xo'jalik korxonalarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish zaminida rivojlantirish uchun sarflanayotgan barcha mablag'lar ularning moliyaviy mablag'lari hisoblanadi. Qaytarilish muddatlari kechiktirilgan kreditlar - bu, so'ndirilish muddati etib kelgunga qadar qarzdor tomonidan yozma ravishdagi asoslangan iltimosnomasiga ko'ra, bank Kredit ko'mitasi qarori asosida qayta rasmiylashtirilgan kredit hisoblanadi.

#### Tayanch iboralar:

Qishloq xo'jaligi, mavsum, tabiat sharoitlari, davr, er-asosiy vosita, oborot mablag'lari, debitorlar, mikrocredit, boshlang'iya sarmoya, avans to'lovlari, transhlar, davlat zakazi, naqt to'lovlar.

#### Nazorat savollari:

1. Mavsumiy xarakterli tarmoqlar xususiyatlari va ularga tavsif.
2. Turli mulk sub'ektlarini kreditlash tartibi
3. Kichik va xususiy biznesni kreditlash tartibi
4. Kreditni qaytarilishi muammolari<sup>55</sup>.
5. qishloq xo'jaligiga kredit berish va koplash tartibi.
6. qishloq xo'jaligining alohida tarmoqlarining oborot mablag'larini tashkil qilish asoslari va xususiyatlari.
7. Mikrocreditlash xususiyatlari va tartibi
8. O'zbekiston tijorat banklari investitsion kreditlashtirish xususiyatlari<sup>56</sup>

#### Asosiy adabiyotlar

1. Abdullaev Yo, Abdullaeva Sh. «Bank ishi», Toshkent 2003y.
2. Don Patinkin. Dengi, protsent i seno'. -M.: Ekonomika, 2004.-375s.
3. Efimova M.R. Finansovo-ekonomicheskie rascheti. Posobie dlya menedjеров: Ucheb. Pos.-M.: INFRA-M, 2004.-185s.
4. Suxova L.F. Praktikum po analizu finansovogo sostoyaniya i otsenki kreditosposobnosti banka-zayomhika.-M.: Finansi i statistika, 2003-152s.
5. [www.bankinfo.uz](http://www.bankinfo.uz)
6. [www.uzland.uz](http://www.uzland.uz)
7. [www.federalreserve.gov](http://www.federalreserve.gov)

---

<sup>55</sup> TDIU va MDH mamlakatlari iqtisodiy mutaxassisliklari bo'yicha bakalavriat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining namunaviy mavzulari. T, 2005 y., 73

<sup>56</sup> O'sha yerga qaralsin

## VII-BOB. MOLIYAVIY BOZOR, BANKLARINING QIMMATBAHO QOG`OZLAR BO`YICHA OPERATSIYALARI

### 7.1. Moliyaviy bozor tushunchasi, uning tashkiliy tuzilishi va vazifalari

**Moliya bozorlari** - bu, pul oqimlarini mulk egalaridan qarz oluvchilarga qarata yo`naltira oladigan bozor institutlarining yuindisidir.

Moliya bozorlari ko`p turdagi xilma-xil “kanallardan” iborat bo`lib, ushbu kanallar orkali pul mablalari egalaridan qarz oluvchilarga oqib o`tadi. Ushbu kanallar asosan 2 guruxga bo`linadi, ya`ni:

1) to`ridan-to`ri moliyalashtirish kanallari. Ushbu kanallar bo`yicha pul mablalari bevosita pul egalaridan qarz oluvchilarga oqib o`tadi. Mazkur to`ridan-to`ri moliyalashtirishning o`zini 2 (ikki) kichik guruxga bo`lish mumkin, ya`ni:

a) kapitalni moliyalashtirish. Ushbu xar qanday ko`rinishdagi kelishuvdan iborat bo`lib, unga asosan investitsiya qilish niyati bo`lgan pul mablaining egasiga firmaning mulkida ulush ishtirokiga ega bo`lish xuquqi evaziga, uning pul mablaglarini oladi. Bunga yaqqol misol bo`lib, korporatsiya tomonidan oddiy aktsiyalarni sotilishi hisoblanadi.

Oddiy aktsiya - bu, korporatsiya mulkidagi ulushga egalik tugrisidagi sertifikatdir xamda o`z egasiga korporatsiya tomonidan olingan foydaning bir qismiga davogarlik qilish xuqiqini beradi;

b) qarz (zayom) olish orqali moliyalashtirish (debt finance) - ushbu toifaga xar qanday kelishuv kirib, unga asosan firma investitsiyalarni amalga oshirish maksadida pul mablalarini qarzga, ularni kelishilgan foizlari bilan kelgusida so`ndirish buyicha majburiyatni o`z zimmasiga oladi. Ushbu xolatda kreditor shaxs, aktsiyadagiga o`xshash firma mulkidagi ulush ishtiroki xuquqiga ega bo`lmaydi. Bunga, korporatsiyalar tomonidan obligatsiyalar sotilishini misol sifatida keltirish mumkin.

2. Moliyalashtirishning kanallari. Egri kanallar orkali moliyalashtirishda oila xo`jaliklaridan firmalarga oqib o`tayotgan pul mablalari maxsus institutlar orqali oqib o`tadi. Bunday institutlarga banklar, o`zaro fondlar, suurta kompaniyalari kiradi. Ushbu turdagi tashkilotlar - moliyaviy vositachilar deb ataladi.

Moliyaviy bozordagi pul sarmoyalari birinchi bor karashda stixiyali asosda taqsimlanilayotgandek tuyuladi, ammo ushbu tushuncha yuzakidir. Ushbu bozordagi pul sarmoyalarning taqsimoti va qayta taqsimoti, jamiytdagi uzgarishlarga o`ta sezgir va ta`sirchan mexanizm bo`lmish talab va taklif mexanizmi orkali amalga oshadi.

Albatta, pul sarmoyalari birinchi navbatda serunum, kelajagi porloq va serdaromad tarmoqlarga, bozor mexanizmi orkali moliyaviy vositachilar yordamida, oqib utadi. Agarda, mazkur tarmoqda ishlar yurishmay kolsa,



maxsulotni sifati pasayib natijada unga istemolchilar tomonidan talab pasaysa, pul bozori shu xaxoti shu tarmoqqa bo`lgan munosabatini uzgartiradi. Ya`ni, pul sarmoyalari ushbu tarmoqdan boshqa unumlirok va daromadlirok bo`lgan tarmoqqa bozor mexanizmi orkali oqib utadi. Kurinib turibdiki, moliyaviy bozordagi taqsimot va qayta taqsimot jarayonlarini yuqoridan, ma`muriy asosda boshqarishga xech xojat yuk. Bozorning o`zi vaziyatni uzgarishiga qarab xolatni tez va maqsadga muvofik xolda tartibga solib kuyadi.

Yuqorida aytib o`tilgan fikrlardan ko`rinib turibdiki, moliya bozori, bozor iktisodieti sharoitida pul sarmoyalari taqsimoti va kayta taqsimotini amalga oshiruvchi muxim, e`tiborga sazovor bo`lgan buginlaridan biri ekan. Bu erda, xar qanday bozorda bo`lganidek, sotuvchi va sotib oluvchi bor. Lekin, boshqa bozorlardan farqli ularok, moliya bozorida sotuvchi va sotib oluvchi bevosita oldi-sotti munosabatlarida ishtirok etmaydilar. Balki ularning nomlaridan shunday oldi-sotti operatsiyalarini moliyaviy vositachilar amalga oshiradi.

Qimmatli qoozlar bozorida moliyaviy vositachilar sifatiida maydonga odatda brokerlar va dilerlar chiqadi.

**Broker**, qimmatli qoozlar bozorining professional ishtirokchisi bo`lib, brokerlik faoliyati bilan shuullanadi. Ya`ni, ushbu davlatda qimmatli qoozlar muomalasini tartibga soluvchi qonunlarga muvofiq, ishonch bildirilgan shaxs yoki komissioner sifatiida qimmatli qoozlar bilan fuqarolik-xuquqiy shartnomalarini, topshiriq-shartnomasi yoki komissiya xamda ishonch asosida amalga oshirilgan operatsiyalar brokerlik faoliyatiga kiradi. Brokerlar sifatiida bozorda jismoniy va yuridik shaxslar xarakat qilishi mumkin. Fond bozoridagi professional brokerlik faoliyati maxsus tartibda olinadigan litsenziya asosida amalga oshiriladi.

**Diler** - bu, qimmatli qoozlar bozorining professional ishtirokchisi bo`lib (yuridik yoki jismoniy shaxs), u dilerlik faoliyatini amalga oshiradi. Ya`ni, "qimmatli qoozlar bozori xaqida"gi qonunga muvofiq, ommaviy ravishda muayyan qimmatli qoozlarni sotish va sotib olish baholarini e`lon qilgan xolda ularni o`z nomidan va o`z mablai hisobiga sotib olish xamda sotish, shu bilan birgalikda dilerlik faoliyatini amalga oshiruvchi shaxs tomonidan e`lon qilingan baholar asosida qimmatli qoozlarni sotib olish yoki sotish bilan boliq shartnomalarni amalga oshiruvchi shaxs.

Yuqoridagilardan tashqari, qimmatli qoozlar bozorining professional ishtirokchilaridan biri sifatiida, ularni tashkil etishning aniq yuridik shaklidan qat`iy nazar, qimmatli qoozlarni boshqarish faoliyatining davlat litsenziyasiga ega bo`lgan **boshqaruvchi kompaniyalar** bo`lishi mumkin.

Ushbu faoliyat o`z ichiga quyidagilarni oladi:

-egalari tomonidan mazkur boshqaruvchi kompaniyaga berilgan qimmatli qoozlarni boshqarish;

-qimmatli qoozlarga foydali joylashtirish uchun mo`ljallangan mijozlar pul mablalarini boshqarish;

-kompaniyalar tomonidan qimmatli qo'zlar bozoridagi faoliyat borasida olingan qimmatli qo'zlar va pul mablag'larini boshqarish.

Moliyaviy bozorda, moliyaviy tovarlar sotiladi va sotib olinadi. Ularni ishlab chikaruvchi shaxslar esa asosan pul sarmoyalariga muxtoj bo'lgan yoki pul sarmoyalarini sotib olmoqchi bo'lgan shaxslardir.

Moliyaviy tovar boshqa oddiy tovarlardan tubdan farq qiladi. Birinchidan, moliyaviy tovarlar tovar sifatida albatta iste'molchini xamda ishlab chikaruvchi shaxsning ma'lum bir ehtiyojini kondiradi. Masalan, moliyaviy tovarni sotib oluvchi shaxsning vaqtincha bo'sh bo'lgan pul sarmoyalarini muxofazali, samarali va unga zarur bo'lgan muddatga joylashtirish ehtiyojini. Ikkinchidan, moliyaviy tovarning sotuvchisini esa pul sarmoyalariga bo'lgan vaqtincha ehtiyojini, o'ziga xos shartlar va muddatlar asosida. Uchinchidan, boshqa tovarlar ularni ishlab chikaruvchi shaxslarga shu zaxoti iktisodiy samara keltirmaydi. Ushbu samara olingunga qadar ma'lum bir vaqt o'tadi. Mazkur vaqtning katta yoki kichikligi texnologik jarayon, taqsimot va muomala jarayonlaridagi vaqtga bevosita bog'likdir. Bulardan moliyaviy tovarlar tubdan farq qilib, o'z ishlab chikaruvchilariga samarani shu zaxoti keltiradi.

Bozorga moliyaviy tovarlarni chikaraetgan shaxslarni jahon amaliyotida "emitent" deb atashadi. Moliyaviy tovarlarni sotib olaetgan shaxslarni esa "investor" deb atashadi. Moliyaviy tovarning bozordagi oldi-sotdisida bevosita ishtirok etadigan xamda sotuvchi va sotib oluvchining topshirigini bajaradigan shaxslar esa moliyaviy vositachilardir.

Moliyaviy vositachilar, ixtisoslashgan moliyaviy tashkilotlar yoki jismoniy shaxslardir. Jahon amaliyotida moliyaviy bozorda quyidagi moliyaviy vositachilar mavjud: Investitsiya firmalari (banklari), Broker firmalari (kontoralari), Investitsiya fondlari, Sugurta kompaniyalari va Pensiya fondlari. Jismoniy shaxslar esa brokerlar yoki dilerlar sifatida mavjuddirlar.

## 7.2. Banklarni investitsion faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirish<sup>57</sup>

O'ar qanday jamiyatda moliyaviy bozor faoliyati bo'lishligi uchun yana bir muxim shart-sharoit mavjud bo'lishi lozim. Ushbu shart-sharoit, moliya bozori ishtirokchilarini va moliyaviy vositachilarni iktisodiy ma'lumot (axborot) bilan ta'minlanganligini ko'zda tutadi. Bundan tashkari, jamiyatda iqtisodiy axborotlar erkin, ochiq, oydin matbuotda e'lon qilinmogi lozim. Boshqacha qilib aytganda, moliya bozoridagi xar bir ishtirokchi va xar bir moliyaviy vositachi bir xil iktisodiy va axborot muxitiga ega bulmogi kerak. Ushbu bozorda munosabatlarni tartibga solib turuvchi qonun-qoidalar xam barcha ishtirokchilar

---

<sup>57</sup> TDIU va MDH mamlakatlari iqtisodiy mutaxassisliklari bo'yicha bakalavriat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining namunaviy mavzulari. T, 2005 y., 72

uchun bir xil bo'lishi lozim. O'zbekiston Respublikasida "Fond birjasi va qimmatli qo'ozlar" xaqida qonun 1994 yilda qabul qilingan.

Shu qonunga asosan O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda qimmatli qo'ozlar bozori rivojlanib, shakllanib bormoqda. Respublikada qimmatli qo'ozlarni oldi-sottisiga ixtisoslashgan "Toshkent" fond birjasi faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekistondagi yirik emitentlarga Aktsiyadorlik-tijorat banklar, Milliy korporatsiyalar, Aktsiyador-tijorat korxonalar va Moliya Vazirligi kiradi.

Shunday qilib qimmatli qog'ozlar bozorida banklar shu bozorning professional qatnashchilari investitsion instituti sifatida ishtirok etadilar.

O'zbekiston Respublikasi banklari Markaziy bank tomonidan beriladigan umumiy litsenziya asosida qimmatbaho qog'ozlar bank operatsiyalarini amalga oshirishlari mumkin.

Banklar quyidagi shartlar bajarilgan holda qimmatbaho qog'ozlarga qo'yilmalarni amalga oshirishlari mumkin<sup>58</sup>:

a) bankning bir korxonaga ustav kapitaliga, shuningdek ushbu korxonaning boshqa qimmatbaho qog'ozlariga qo'yilmasining miqdori I- darajali bank regulyativ kapitalining 15% oshmasligi kerak.

b) bankning barcha elementlar uchta ustav kapitaliga va boshqa qimmatbaho qog'ozlariga qilgan investitsiyalari miqdori I-darajali bank regulyativ kapitalning 15%idan oshmasligi kerak.

v) oldi-sotdi uchun nodavlat qimmatbaho-qog'ozlariga qilingan bank qo'yilmasi miqdori I-darajali bank regulyativ kapitalining 25%idan olinishi kerak.

Bank iste'mol korxonaga (moliyaviy institutlar miqdori) ustav kapitaliga 20%idan ortig'iga to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita egalik qilishi mumkin emas

Umaman olganda banklarning foyda operatsiyalariga quyidagilar kirishi mumkin:

1. qimmatbaho qog'ozlarga asosan kreditlar (lombard).
2. qimmatbaho qog'ozlarni o'z portfeli uchun sotib olish (investitsiya).
3. yangi chiqarilgan qimmatbaho qog'ozlarni birlamchi taqsimlash (jamlashtirish);
4. Mijozning topshirig'iga ko'ra qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish va saqlash (qimmatbaho qog'ozlar ikkilamchi muomalasiga xizmat ko'rsatish). (Kaznachey vekselarining sotish bahosi).

p 160-D

M- vekselni sotib olish vaqtincha ko'shimcha qolgan kunlar soni.

R - Diskont foizi (%)

D- 100\$ sotib olish mumkin veksel.

R- vekselni sotib olish bahosi.

---

<sup>58</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki me'yoriy hujjatlari toplami. T.: O'zbekiston 2003 y.

M: 147 kundan sung muddati tugaydigan kaznachey vekselini (7,75% diskontli) bauosini aniqlang.

R- 100-3,16-96,84 doll.

qarzdor Sk100 mm, t k3 oy (90 kunga), % -ibning 720% yillik kredit balsa. % stavkasi bo`yicha qaytarilgan summasi:

$$S_1 \frac{S_{txil}}{360 \times 100} = \frac{100000000 \times 90 \times 220}{360 \times 100} 55000000$$

Agar kredit veksel yordamida berilsa y holda mijoz

Sk100 mln.

tk3 oy (90 kun)

i2k 140% yillik  $S_2 = \frac{S_{txi2}}{360 \times 100} = \frac{160000000 \times 90 \times 140}{360 \times 100} = 35000000$

% massasi S1-S2-550-350-200.

Bank brokerlik operatsiyasi

a) Banklarning o`zlarining mijozlari topshirig`iga ko`ra komission operatsiyalarni amalga oshiruvchi masalan (o`zlari nomidan mijoz uisobidan qimmatbauo qog`ozlar sotib olish operatsiyalari amalga oshirishlari mumkin.

b)banklar amaliyotning kelishuvi asosida qimmatbauo qog`ozlarni chiqarishni tashkil etishi mumkin.

v) III shaxs nomidan (foydasiga) qimmatbauo qog`ozlarni joylashtirishni kafolotini olishi mumkin. qimmatbauo kog`ozlar saqlash yoki ularni uisoblash olib borish uuquqi depozitlar operatsiyalari.

O`zbekiston tijorat banklarining ushbu bozorda xarakat qilish salohiyati qimmatbaho qogozlar bozori ning boshqa institutlarinikiga nisbatan katta. Hozirgi bosqichda bu qonuniydir. Jahon tajribasi ko`rsatishicha, iqtisodiy taraqqiyot jarayoni qimmatli qogozlar bozorida bankdan tashqari moliya institutlari qatnashuvi ulushining ortib borishiga olib kelmoqda, buning natijasida tijorat banklari ulushi kamayib bormokda (qimmatli qogozlar bozori sub'ektlari o`rtasida raqobatchilik mavjud bo`lgan vaqtda).

Bugungi kunda XIFlar, depozitariyar, brokerlik idoralari, trast kompaniyalari, reestr egalari, hisob-kitob kliring palatalari kabi moliya institutlari qimmatbaho qogozlar bozorida tijorat banklarning raqobatchilari va sheriklaridir. Ularning xar biri muayyan vazifani bajaradi. Tijorat banklari esa, o`zining niversalligi, kapital, axborot, malakali kadrlar tuplanganligi, shunindek, qonuniy jihatdan qo`llab-quvvatlanishi tufayli, qimmatbaho qogozlar bozorida barcha turdagi xizmatlarni ko`rsatishga qurbi etadi.

«O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki to`g`risida»gi qonunga muvofiq, tijorat banklarining qimmatbaho qogozlar bozoridagi faoliyati mavjud umumiy bank litsenziyasi asosida amalga oshiriladi. qo`shimcha litsenziya talab

qilinmaydi. qimmatli qogozlarning oldi-sotdisiga doir bitimlar amaldagi qonunchilikka muvofiq, rasmiylashtirilgan egasining nomi yozilgan ishonchnomalarga asosan tuziladi.

Respublika tijorat banklarining qimmatli qogozlari fond bozoriga investorlar e'tiborini tobora ko'proq o'ziga jalb etmokda. Bank tizimi bozor munosabatlariga eng ko'p yaqinlashtirilgan tuzilma hisoblanib, bu uning muayyan barqarorligini ta'minlaydi. Buni emitent-bank bilan omonatchining o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy bazaning mavjudligi asosida izohlash mumkin.

O'zbekistonda qimmatli qogozlar bozori shakllanishiga 1993 yili «Fond birjasida qimmatli qogozlar to'g'risida» qonun qabul qilinishi bilan asos solingan edi. Dastlabki paytda tashkiliy mexanizmlar etarlicha tanlab olinmagan, ma'muriy tusdagi to'siqlar mavjud edi.

Bu sohadagi ishlarning axvolini yaxshilash uchun 1995 yil sentyabr oyida qimmatli qogozlar bozorining shakllanish va rivojlanish jarayonini muvofiqlashtiruvchi davlat instituti-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida qimmatli qogozlar va fond birjasi bo'yicha komissiyaning tuzilishi muxim ahamiyatga ega bo'ldi. 1996 yil aprelida «Akiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlar huquqini ximoya qilish to'g'risida» hamda «qimmatli qogozlar bozori faoliyati mexanizmi to'g'risida»gi qonunlarning qabul qilinishi qimmatli qogozlar bozori huquqiy bazasini mustxamladi. Bu bazani rivojlantirish O'zbekiston moliya tizimini erkinlashtirish dasturining bo'sh ynralishlaridan biridir.

Hozirgi vaqtda qimmatli qogozlarning quyidagi besh turi O'zbekiston fond bozorining ob'ektlari bo'lib koldi: xususiylashtirilgan korxonalar aktsiyalari, davlat qisqa muddatli obligatsiyalari, davlat 12 foizli ichki zayomi, tijorat banklari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning diskont vekselari, tijorat banklarning depozit sertifikatlari va depozit obligatsiyalari.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, tijorat banklariga qimmatli qogozlar aktsiyalari, obligatsiyalar, depozit va jamgarma sertifikatlari, vekselar, shunindek xosila qimmatli qogozlar (fyucherslar va opsiyonlar) kabi turlarini chiqarishga ruxsat beriladi. Muayyan moliyaviy vosita uning emitent uchun ham, xaridor uchun ham qulay va foydaligi hisobga olingan holda, tanlab olinadi. Bank qimmatli qogozining nobank muassasi tomonidan chiqarilgan qogozdan farqi, tijorat banki faoliyatining davlat organlari tomonidan nisbatan to'liqroq tartibga solinishidan iborat. Tijorat banki o'z faoliyatida unga balans likvidligi va kapitalning etarlilik darajasini pasaytirtirishga yo'l qo'ymaydigan bir qancha majburiy normativlarga amal qiladi.

O'zbekistonda tijorat banklarining emission faoliyati va ayrim turdagi qimmatli qogozlari muomalasi «Banklar va bank to'g'risida qonun» «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida qonun», shuningdek

«Tijorat banklariga qimmatbaho qogozlar bozorida amalga oshiriladigan operatsiyalar bo'yicha tavsiyalar» bilan tartibga solinadi.

Qimmatli qogozlar emissiyasi bilan bogliq faoliyat tartibga solinishi tijorat banklari uchun emissiya prospektini chiqarish, uni ro'yhati belgilab quyilganligi ta'minlanadi. Ushbu tartib O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xuzuridagi qimmatli qogozlar va fond birjalari bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan belgilangan. Banklar uchun emissiya prospektlaridagi ma'lumotlar ro'yhatlarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Markaziy bank bilan kelishilgan holda belgilaydi.

### 7.3. Banklarni investitsion faoliyati va ularni moliyalashtirish manbalari<sup>59</sup>

Iqtisodiy adabiyotlarda «innovatsiya» so'zining ma'nosi bir qancha ma'noda ishlatiladi. Ishlab chiqarish takror ishlab chiqarish jarayonida termin kapital quyilma ma'nosini bildiradi. Bu pul mablag'larining takror ishlab chiqarish jarayonining kengaytirilishiga ishlatilishini anglatadi<sup>60</sup>.

Investitsiyani mulkiy tomondan qo'yilmalarga ishlatishi - bu kompaniyani korxonaning real aktivlariga yoki shaxsiy mulkka joylashtirilishi tushuniladi.

Moliyaviy faoliyat amaliyoti bo'yicha ya'ni investitsiyani moliyaviy tomondan tushuniladigan tushunchasi esa - bu kapitalni qiymatini saqlash yoki ko'paytirish (ijobiy miqdor keltirish maqsadida) joylashtirish uslubiga aytiladi.

Investitsiya yoki kapital qo'yilma deyilganda, umuman, iqtisodiy sub'ektni ixtiyorida bo'lgan mablag'larni (kelishi) iste'molidan voz kechib kelgusida yaxshi hayot kechirishi uchun mablag'larni ko'paytirishi uchun foydalanishdi.

Investitsion faoliyatning asoiy belgilari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

-kapitalning vaqtinchalik yo'qotilgan iste'mol qiymatini (likvidligini) kapitalning vaqtinchalik yo'qotilgan iste'mol qiymatini (likvidligini) kaytib kelmasligi; (bo'lmasligi).

- boshlang'ich farovonlik darajasini usishini kutish;

- uzoq muddatga qo'yilgan kapitalning natijasini noaniqliligi;

Shunday qilib investitsion jarayon - bu vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lari bor bo'lgan shaxslar bilan, pul mablag'larining talabi bo'lganlar o'rtasidagi ma'lumotlarni berishligining mexanizmidir. Tijorat banklari investitsion faoliyati - bu bankning pul mablag'larining ustav fondiga qimmatbaho toshlar va boshqa ob'ektlarga joylashtirishidir.

Investitsiya maqsadiga ko'ra ikkiga bo'linadi<sup>61</sup>;

1) Tug'ri investitsiyalar - bu investitsiya ob'ektini bevosita boshqarish maqsadida amalga oshiriladigan investitsiyalardir. Agar bunday investitsiyalar

---

<sup>59</sup> O'sha yerga qaralsin

<sup>60</sup> Jarkovskiy S. «Bankovskoe delo» kurs lektsiy. M.: «F i S». 2004 g

<sup>61</sup> Lavrushin O.I. Bankovskoe delo. M.:F i S. 2003 g.

qimmatli-qog'ozlarga quyilsa u holda korxoaning kontrol paketini sotib olishi kerak. Masalan investitsiyalar mulk, ishsizlik patent va boshqalar ham bo'lishi mumkin.

2) Portfel investitsiyalari - qimmatbaho qog'ozlar portfelini tashkil qilish uchun kontrol paketini tashkil qilmasdan va investitsiya ob'ektini to'g'ridan-to'g'ri bevosita faoliyatidir.

Agar to'g'ri investitsiyalar bank o'z faoliyatini boshqa sohada ta'sirini kengaytirish maqsadida amalga oshirilsa, bank portfel investitsiyalari (qimmatbaho kog'ozlar portfeli) quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

-bank daromadlari boshqarilishi; agar banka qarzlari bo'yicha kreditlari foizi (daromadi) pasaysa, qimmatbaho kog'ozlar bo'yicha daromadi ko'tarilishi mumkin:

-bank kredit portfelidan keladigan kredit risklarini kplash maqsadida, tb yaxshi qimmatbaho qog'ozlari sotib olishi yoki saqlab turishi mumkin. Bu o'z navbatida bankning kredit risklari pasaytirishi mumkin.

-geografik diversifikatsiyasi ta'minlashi mumkin.

-bankning soliq pasaytirishi mumkin. Ba'zi qimmatbaho kog'ozlar soliqqa tortilmaydi yoki past foizda soliqqa tortiladi.

-bozor foiz stavkalarining o'zgarishi jarayonida (sharoitida) bank yo'qotishlarini sug'urtalaydi.

-bank aktivlari portfelini o'zgartiruvchanligini ta'minlashi mumkin.

-Bank balansi moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilashga imkon yaratadi.

Banklarning investitsiyalariga ko'rsatkichlarini yaxshilashga imkon yaratadi.

Banklarning investitsiyalarga odatda 1 yilgacha qoplash muddatiga ega bo'lgan qimmatbaho qog'ozlarni kiritish mumkin.

Banklarning investitsion operatsiyalarini o'tkazishdan asosiy maqsad:

- bankning daromad bazasini kengaytirish va diaersifikatsiyalash;

- bank faoliyati turlarini kengaytirish asosida hamda bank risklarini umumiy darajasini pasaytirish hisobiga - bankning moliyaviy barqarorligini oshirish;

- bankning mijoz va mablag'lar bazasini xizmatlar to'rini, fiskal (docherniy) moliya institutlarini tashkil qilish hisobiga kengaytirish;

- mijozlarga bo'lgan ta'sirni kuchaytirish. (qimmatbaho qog'ozlar portfelini sotib olish hisobiga).

Asosan bankning investitsiyalari deyilganda bank tomonidan kapital xarakterga (delgiga) ega bo'lgan xarakterni va qimmatbaho qog'ozlarni sotib olishga yo'naltirilgan muddatli kreditlash yoki moliyalashtirish tushuniladi.

Banklar tomonidan faoliyat amalga oshirilishi mumkin:

Brokerlik faoliti.

Dillerlik faoliyati.

Depozit faoliyati.

Qimmatbaho qog'ozlar bilan mablag'larga (qimmatbaho qog'ozlar bilan bogliq bo'lgan) o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan hisob -kliring faoliyati.

Aksionerlar restrini olib borish va saqlash faoliyati.

qimmatbaho qog'ozlar savdosini tashkil etish faoliyati.

O'zbekistonda iqtisodiyotni qayta ko'rishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bank sohasini isloh qilish bilan birgalikda, qimmatli qogozlar bozorini, shunidek moliya bozorining boshqa segment (bugin)larini ham yaratishdan iboratdir. Ma'lumki, bank tizimi va qimmatbaho qogozlar bozori iqtisodiyotining tezkorlik bilan rivojlanib boruvchi sohalari bo'lib, texnologiyada ham, tashkil etishda ham eng tomonlarini, novatorlikni o'z ichiga qamrab oladi. qimmatbaho qogozlar bozori va moliya bozori ob'ektlari hamda sub'ektlari o'ta qat'iy tartibga solinganligi, tuzilmalashtirilganligi va sertarmoqlidigi tufayli eng kichik o'zgarishlar, shu jumladan, me'yoriy-huquqiy bazadagi o'zgarishlar ham qimmatbaho qogozlar bozori va bank tizimi faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi.

#### 7.4. Bankning qimmatbaho qog'ozlar bilan passiv operatsiyasi

Tijorat banklarining asosiy faoliyati bu vaqtincha bo'sh pul mablag'larini kreditorlar va qarzdorlar o'rtasida xamda sotuvchilar va xaridorlar o'rtasida aylanishini vositachilik asosida olib borish xisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiyotda pul mablag'larini joylashtirish yuzasidan faoliyatni tijorat banklaridan tashqari bir qator maxsus-ixtisoslashgan moliya-kredit institutlari, ya'ni investitsiya fondlari, kredit uyushmalari, sug'urta kompaniyalari, brokerlik va dilerlik firmalari xam olib boradi. Lekin, tijorat banklarining mamlakat moliya bozorida faqatgina o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

-birinchidan, tijorat banklari faoliyati uchun qarz majburiyatlari yuzasidan ikki tomonlama tasnif mavjud. Ular birinchi tomondan yuridik va jismoniy shaxslar uchun muomalaga o'zlarining qarz majburiyatlarini, ya'ni depozit sertifikatlari, depozit-jamg'arma sertifikatlari, obligatsiyalarini chiqaradilar. Ikkinchi tomondan esa, tijorat banklari qo'shimcha daromad olish maqsadida boshqa emitentlarning muomalaga chiqargan qarz majburiyatlarini (aktsiyalar, obligatsiyalar, depozit sertifikatlari) sotib oladilar:

-ikkinchidan, tijorat banklari o'z nomidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar (obligatsiyalar, depozit sertifikatlari) bo'yicha qat'iy belgilangan foiz bo'yicha daromad to'lanishi majburiyatini oladilar. Investitsiya fondlari esa daromad to'lanishi yuzasidan risklarni investorlar zimmasiga yuklaydilar.

Tijorat banklari o'z faoliyatini yuritish uchun chetdan qo'shimcha mablag' jalb etishlari lozim. Bu faoliyat-tijorat banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslardan vaqtincha bo'sh pul mablag'larini qaytarib berishlilik, to'lovlilik xamda muddatlilik shartlari asosida jalb etish bilan bog'liq faoliyat



passiv operatsiyalar xisoblanadi. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalarini amalga oshirish uchun pul sarmoyalariga boʻlgan extiyojning 90 foizi chetdan jalb qilingan mablagʻlar xisobiga qoplanadi. Chetdan jalb qilingan mablagʻlar jalb qilinish usullariga asosan quyidagilarga boʻlinadi:

- banklararo bozorda kreditlar olish;
- veksellar xisob-kitobi va Markaziy bankdan kredit olish;
- muomalaga qimmatli qogʻozlarni chiqarish (aktsiyalar, obligatsiyalar, depozit sertifikatlari, depozit-jamgʻarma sertifikatlari, vekselar);
- depozitlarni jalb etish;
- qimmatli qogʻozlarni qaytib sotib olish sharti bilan sotish shartnomalari («Repo» operatsiyasi) amalga oshirish;
- Evronota va Evrobondlar bozorida ishtirok etish;
- Bank aktseptlarini (aval sifatida) sotish.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari pul-kredit siyosatining vositasi xisoblanadi va ular muomalaga pul massasini tartibga solib turish maqsadida chiqariladi. Obligatsiyalarni chiqarish, muomalada boʻlish va ularni soʻndirish tartibi Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2002 yil 22 apreldagi 1140-sonli «Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy Bankining yuridik shaxslar uchun obligatsiyalar chiqarish va ular muomalasi toʻgʻrisida» Nizom ga asosan amalga oshiriladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining jismoniy shaxslar uchun obligatsiyalari davlat qimmatli qogʻozlari xisoblanadi va uning egalariga obligatsiyalarning nominal qiymatiga nisbatan foiz koʻrinishida daromad olish xuquqini beradi. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining jismoniy shaxslar uchun obligatsiyalar chiqarilishi, uning muomalasi tartibi va soʻndirilishi Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2002 yil 22 apreldagi 1141-sonli «Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining jismoniy shaxslar uchun obligatsiyalarini chiqarish va ular muomalasi toʻgʻrisidagi» Nizom ga asosan olib boriladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki depozit sertifikatlari mamlakatimizda pul bozorida likvidlikni tartibga solib turish maqsadida chiqariladi. Depozit sertifikatlarini chiqarish, muomalada boʻlish va u boʻyicha toʻlovni amalga oshirish tartibi Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 26 dekabrda «Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki depozit sertifikatlarini chiqarish toʻgʻrisida Nizom ga asosan amalga oshiriladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki depozit sertifikati – bu Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining pul mablagʻlarini omonatga qoʻyilganligi xaqidagi guvoxnomasi boʻlib, u omonatchi yoki uning xuquqiy vorisining omonat summasini va u boʻyicha foizlarni belgilangan muddat tugagandan soʻng olish xuquqini tasdiqlaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki oʻz nomidan va oʻz xisobidan depozit sertifikatlarini joylashtiradi va toʻlovini amalga oshiradi.

O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki depozit sertifikatini egasi muddatidan oldin to`lovga taqdim etish xuquqiga ega, bu xolda depozit sertifikatini bo`yicha to`lanadigan foizlar depozit sertifikatlarini chiqarish shartlari yoki oldi-sotdi shartnomasiga asosan to`lanadi. Agarda, depozit sertifikatini bo`yicha omonatni olish muddati o`tkazib yuborilsa, bunday depozit sertifikatini talab qilib olinadigan xujjat xisoblanadi, bunday xolatda O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki depozit sertifikat egasining birinchi talabi bo`yicha omonat summasi va foizlarni to`lash majburiyatini oladi. Bunday xolatda depozit sertifikatining o`tkazib yuborilgan muddat uchun foizlar xisoblanmaydi va to`lanmaydi.

O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining depozit sertifikatlarini to`lov muddati kelganda mazkur depozit sertifikatlariga egalik qilishni tasdiqlovchi xujjat xamda depozit sertifikatini summasi va u bo`yicha foizning o`tkazilishi lozim bo`lgan xisobvaraqa ko`rsatilgan talabnoma taqdim etilganidan so`ng O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki to`lovni amalga oshiradi.

Depozit sertifikatining to`lovi muddatidan oldin amalga oshirilayotganda pul mablag`lari depozit sertifikatini egasining xisobvarag`iga depozit sertifikatini muddatidan oldin to`lovga qabul qilish to`g`risidagi ariza tushgan kundan boshlab 5 bank ish kuni davomida ko`chiriladi.

O`zbekiston Respublikasida muomalaga depozit sertifikatlarini chiqarish muomalaga kiritish va ularni so`ndirish O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1994 yil 24 dekabrda tasdiqlangan «Banklarning depozit sertifikatlarini chiqarish, ro`yxatga olish va muomalada bo`lish qoidalarini» asosida amalga oshiriladi.

Investorlar tomonidan qimmatli qog`ozlarni qaytarish bilan bog`liq barcha xarajatlarni qoplash, shuningdek, qimmatli qog`ozlarni sotib olish bo`yicha ular kiritgan pul mablag`larini qaytarish emitent tijorat banki xisobidan amalga oshiriladi.

#### 7.5. Bankning qimmatbaho qog`ozlar bilan aktiv operatsiyasi

Tijorat banklari faoliyatining pirovard maqsadi daromad topishdir. Xalqaro amaliyotda banklarning daromad topish uchun faoliyati aktiv operatsiyalar deb nomlanadi. Tijorat banklarining o`zlik va yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo`sh turgan pul mablag`larini jalb etilgan mablag`laridan o`z nomidan ma`lum daromad topish uchun foydalanishdagi faoliyati aktiv operatsiyalardir. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari juda xilma-xildir, lekin xalqaro amaliyotda aktiv operatsiyalar quyidagi asosiy turlarga ajratiladi:

yuridik va jismoniy shaxslarga turli muddatlarga, turli maqsadlarga hamda turli shartlar asosida kreditlar berish;

bank mijozlariga turli vositachilik xizmatlarini ko`rsatish;

davlat va boshqa yuridik shaxslarning qimmatli qog'ozlariga o'z nomidan va o'z hisobidan investitsiya qilish;

lizing operatsiyalarini amalga oshirish;

investitsiya proektlarini amalga oshirish;

«repo» operatsiyalarini amalga oshirish;

valyuta dilingi operatsiyalarini amalga oshirish;

mijozlarga boshqa turdagi an'anaviy va noan'aviy bank xizmatlarini ko'rsatish.

Tijorat banklari aktiv operatsiyalarni olib borish yo'li bilan daromad olishga harakat qiladi, lekin bu faoliyatni olib borish jarayonida amaldagi qonunchilik me'yorlariga amal qilishlari lozim. Tijorat banklari o'zlari uchun o'rnatilgan likvidlik darajasini saqlab turishlari hamda olib borilayotgan aktiv operatsiyalari turlari bo'yicha yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan risklarni oqilona taqsimlashlari shart. Amaldagi qonunchilikka asosan tijorat banklari o'zlarining aktivlarini ma'lum qismini daromad keltirmaydigan hamda juda kam miqdorda daromad keltiruvchi aktivlarga yo'naltiriladi. Masalan, daromad keltirmaydigan aktivga O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisob raqamida saqlanadigan majburiy zaxiralarni, asosiy vositalarni, kam baxoli va tez eskiruvchi buyumlarni hamda kam miqdordagi daromad keltiruvchi aktivga kassadagi naqd pulni ko'rsatib o'tish mumkin.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, bank aktivlarining asosiy qismini mijozlarga berilgan kreditlar 65.5 %, naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari 7.9 %, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobraqamidagi majburiy zaxiralar summasi 3.6 % va boshqalar tashkil etmoqda. Bu holat esa bank o'z aktiv operatsiyalarining asosiy yo'nalishini mijozlarga kreditlar ajratishga qaratilganligidan dalolat beradi.

Balans ma'lumotidan ko'rinib turibdiki, bank investitsiya faoliyatini olib borishda aktivlarning kam qismini yo'naltirgan. Bu esa bankning investitsiya faoliyatini yoritishga undaydi.

Amalda tijorat banklarining investitsiyalariga – bank aktivining so'ndirilish muddati bir yildan ortiq bo'lgan qimmatli qog'ozlarga qo'shimcha daromad olish uchun yo'naltirilishi hisoblanadi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining investitsiya faoliyati jarayonini strategiyasida ikki xil strategiya ajratiladi:

-passiv strategiya

-aktiv strategiya

Tijorat banki investitsiya faoliyati olib borishning passiv strategiyasida asosan kutish, ya'ni qimmatli qog'ozlar bo'yicha bir maromda va doimiy ravishda daromad olishda ularning bozordagi o'rtacha darajadagi daromadga yaqin darajada foydalanadi. Passiv strategiyani olib borishda banklar ikki xil usuldan foydalanishlari mumkin;

-«zinapoya» usuli;

-«shtanga» usuli;

Tijorat banki birinchi usuldan foydalanganda o`zi tomonidan aniqlangan investitsiya muddati asosida qimmatli qog`ozlarni turli muddati bo`yicha sotib oladi va ularni investitsiya portfelini tarkibida bir tekis joylashtiradi. Passiv strategiyani «shtanga» usulida tijorat banki investitsiyaga yo`naltirilayotgan mablag`larning asosiy qismini investitsiya portfelining likvidligini ta'minlaydigan juda qisqa muddatli qimmatli qog`ozlarga va ma'lum qismini yuqori foyda beradigan uzoq muddatli qimmatli qog`ozlarga sarflaydi.

O`zbekiston Respublikasida tijorat banklari qimmatli qog`ozlar investitsiya portfelini shakllantirish va uni boshqarishda passiv strategiyaning ikki usulidan xam foydalanadilar. Taxlillar shuni ko`rsatmoqdaki, xozirgi vaqtda Respublikamizdagi tijorat banklari tomonidan asosan qisqa muddatli qimmatli qog`ozlarga investitsiya qilish faoliyati olib borilmoqda.

Tijorat banklarning qimmatli qog`ozlar bilan agressiv siyosati asosida qimmatli qog`ozlarning fond bozorida kursi va foiz stavkasini tebranishidan imkoni boricha ko`p daromad olish yotadi. Lekin shuni ta'kidlash lozimki bunday agressiv siyosatni faqatgina katta miqdordagi investitsiya portfeliga ega bo`lgan moliyaviy barqaror yirik banklar olib borishi mumkin. Qimmatli qog`ozlar bilan agressiv siyosat oqilona va muvaffaqiyatli olib borish uchun esa bank tegishli analitik imkoniyatga ega bo`lishi lozim.

## 7.6. Banklarning investitsion siyosatini takomillashtirish yo`ralishlari<sup>62</sup>

«Qimmatli qogozlar va fond birjasi to`g`risida»gi qonunda belgilanishicha, emitent - qimmatli qogozlarni chiqaruvchi va qimmatli qogozlar egalari oldida ular bo`yicha o`z nomidan majburiyatga ega bo`lgan huquqiy shaxs yoki davlat organidir.

O`zbekistonda aksiyalarni turi bo`yicha chiqarish tuzilmasida oddiy aksiyalar ko`pchilik qismni tashkil etadi. Imtiyozli aksiyalarni chiqarish soni ham, xajmi ham kam. Biroq ular barqaror daromad olinishini ta'minlagani tufayli, jismoniy shaxslar e'tiborini ko`proq jalb etadi. Imtiyozli aksiyalarni chiqaridagi kiyinchiliklar ham obligatsiyalarni chiqarishga bogliq sabablarga o`hshashdilar.

Aksiyalar bozori yildan-yilga kuch tuplab boryapti va barcha tijorat banklari uning ishtirokchilari tarkibiga kirishga intilishmokka. Aynan aksiyalar chiqarish zarur pul mablag`larini muddatsiz olishga imkon beradi, bundan tashqari, banklarda qo`shimcha daromad manbai – o`z aksiyalari ko`rsida uynash imkoni tugiladi.

Qarz kapitalini jal etuvchi ayrim vositalar (obligatsiyalar, jamgarmalar va depozit sertifikatleri) banklar tomonidan ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko`ra sust qo`llanilmokka. Bunday sabablarga inflyatsiya, bo`sh pul mablag`larining

---

<sup>62</sup> O`sha yerga qaralsin

etishmasligi, obligatsiyalarni chiqarishni tashkil etishdagi qiyinchiliklar kiradi. Bank bir vaqtda ham aktsiyalar, ham obligatsiyalarni chiqarish bilan shugullana olmaydi. Bundan tashqari, banklar obligatsiyalarni ustav fondining 20 foizidan oshmaydigan summada va o'zining barcha aktsiyalariga to'liq xaq to'langanidan keyingina chiqarishi mumkin.

Depozit va jamgarma sertifikatlarni chiqarish nisbatan kiyin emas, ularni emissiya qilish jarayoni esa, faqat Markaziy bank tomonidan tartibga solinadi.

Muntazam noto'lovlar sharoitida xo'jalik sub'ektlari ularga o'tish davrining ko'pgina qiyinchiliklardan kutulish vositasi sifatida qaradilar. Lekin veksel muomalasi shov-shuv bosqichidan o'tib, asta syokin «suna boshladi». Bu – birmuncha darajada veksel kreditlarining qaytarilmaganligi, ularning aniq belgilangan maqsadsiz ishlatilishi va boshqa suiiste'molliklar bilan bogliq bo'ldi.

Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari yuzaga kelishi bilan tijorat banklari uchun mablag'larni qo'yish va daromad olishning qo'shimcha usuli, xukumat organlari uchun esa, davlat byudjeti kamomadini moliyalashning noinflyatsiyaviy usuli paydo bo'ldi.

1997 yil martida 6 oylik davlat qimmatli qogozlari chiqarilib, ular bo'yicha dastlabki kim oshdi savdolari o'tkazildi. Hozirda ularning muddati 12 oylik DKMO ni tashkil qilib, shuningdek, mazkur bozorga norezidentlar kiritilgan. qimmatli qogozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni soliqlardan ozod etish, qisqa vaqt ichida amalga yo'q joydan boshlab, O'zbekistonda moliyaviy bozorning bu muxim buginini yaratishga imkon berdi.

DKMO bozorida ishlash tijorat banklariga mablag'larning tez qaytishini ta'minlaydi va shu tufayli undan foydalanish istagi kuchli bo'ladi.

Banklar, qimmatli qogozlar bozorida-investitsiya institutlari sifatida. O'zbekiston qimmatbaho qogozlar bozorida banklarning investitsiya institutlari sifatida faol ishlashi tijorat banklari uchun faoliyatning bu turi foydali ekanligi hamda, umuman, fond bozorida raqobatchilik muxitni faollashtirishga yordam berishi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi.

O'zbekiston tijorat banklari, qonunchilikka muvofiq ravishda, qimmatbaho qogozlar bozorida brokerlik va dilerlar sifatida ishtirok emokda. Brokerlik vazifasi tobora kengayib borayotgan banklarning brokerlik odorasi tarmogi orqali amalga oshirilmokda.

Agar tijorat banki vositachilik faoliyati amalga oshirsa, uning operatsiyalari O'zbekiston qonunchiligida ko'zda tutilganidek, fond birjasi orqali o'tishi kerak.

Xususiylashtirish investitsiya fondlari (XIF) dasturi qimmatli qogozlar bozorida, shunindek, umuman moliya bozorlaridagi vaziyatni juda o'zgartirib yuboradi. Bir tomondan, yangi investitsiya institutlarining ta'siri kuchaydi, qimmatli qogozlar bozori infrato'zilmasi kengaydi, ikkinchi tomondan esa, tijorat banklari XIFning aktsiyalarni tarkatish buicha xizmat ko'rsatib, qimmatbaho qogozlar bozorida o'z ishtirokini kengaytirdi.

O`zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, tijorat banklari trust operatsiyalari bilan shugullanishga xaqlidir. Qimmatli qogozlar bozorining shaklanishi va xususiylashtirish jarayonlarning kengayish darajasiga qarab, bunday operatsiyalar ularning amaliyotida katta o`rin to`lish mumkin. Avvalambor bu-banklar tomonidan jismoniy va huquqiy shaxslar uchun vakillik xizmatlari ko`rsatilishiga taaluqlidir, lekin ta`minotni yaxshilab ishlab chikish talab kilinadi.

Tijorat banklari tomonidan trust operatsiyalarini amalga oshirish bir qancha jihatdan foydalidir. Birinchidan, ularning yordamida tijorat banklari uzoq muddatli molliya resurslar qimmatli qogozlarga va birjadagi operatsiyalarni amalga oshirish uchun ishlatilishi mumkin. Ikkinchidan, bank qimmatli qogozlarni boshqarishdan vositachilik haqi undirib, bu qogozlardan keladigan daromaddan ulush oladi. Uchinchidan, bank o`zining emas, kapitali bilan operatsiyalarni bajaradi, faqat trust shartnomasi doirasidagina ular uchun javobgar bo`ladi, asosiy tavakkalchilik esa. qimmatli qogozlaregasiga tegishli bo`ladi.

Bugungi O`zbekiston tijorat banklari o`z pul mablag`lari va qimmatli qogozlarini ularga ishonishga tayyor mijozlarni faol izlamoqdalar. Bunda banklar qimmatbaho qogozlar bozorining foydali deb hisoblangan buginida ishlab, mijozlarga daromad olish, ishonib topshirilgan mablag`larni qaytarish va ulardan foydalanish muddatlari to`g`risida butun hisobotni taqdim etish majburiyatini o`z zimmlariga olmokdalar. Trust operatsiyalari, bank mutaxassislari fikri bo`yicha, kelgusida qimmatbaho qogozlar bozorining butun jabxasini egalaydi.

Hozircha trust operatsiyalari O`zbekiston tijorat banklari o`rtasida keng rivojlangan deb bo`lmaydi. O`zbekistonda bu operatsiyalarning vaqtincha cheklanganligi bu turdagi operatsiyalarning, shunindek, moliya bozorining o`zi etaricha ishlab chikilmaganligi bilan bogliqdir.

Qimmatli qogozlar bozoridagi tadbirkorlik faoliyati turlaridan biri, qimmatli qogozlarning hisobini yuritish va ularni saqlash bilan bogliq bo`lgan va depozitar deb atalgan faoliyatidir. O`zbekiston tijorat banklari uni umumiy bank litsenziyasi asosida yuritish huquqiga egadirlar. Depozitariylar qimmatli qogozlarni naqd va naqdsiz shakllarda saqlashi mumkin. Banklar ob'ektiv ravishda depozitar vazifalarni amalga oshirishga ko`proq moslashgan bo`lib, qimmatli qogozlar bozorining rivojlanishi, uning qatnashchilari soni oshib borishi bilan depozitariylarga bo`lgan talab ham usib boradi. Bugun esa, tijorat banklarning depozitar funksiyasi amalda ishga tushirilmagan. Bu vazifani asosan «Vaqt» Milliy depozitariysi amalga oshirmokda, bu sohada u yakka xukumron bo`lib koldi.

Banklararo elektron to`lovlar tizimini joriy etish bu vazifalarni ta`minlashda dastlabki qadam bo`ldi. Fond bozori qatnashchilari o`zaro hisob-kitoblarini faqat kompyuter telekommunikatsiya aloqa tizimi asosidagina

tezlashtirishlari mumkin. Shu tufayli kommunikatsiya tizimini yaratish banklar uchun nihoyatda dolzrab vazifadir.

Kafolatli operatsiyalar. Banklar investitsiya kompaniyalar rovida chikib, uchinchi shaxslar foydasiga qimmatli qogozlarni joylashtirish bo'yicha kafolatlar berishi mumkin. Bu qimmatli qogozlarni joylashtirish bilan shugulanuvchi investitsiya kompaniyalar yoki emisija konsortsiumlari (sindikatlari)ning tavakkalchiligini o'ziga xos sugurtalashdir. Banklar qimmatli qogozlarni joylashtirayotgan emissiya kompaniyalari (shu jumladan, boshqa banklarga) agar zayom yoki aksiyalar joylashtirmasa, ularni kelishilgan ko'rs bo'yicha o'zlari qabul qilishga kafolat beradilar. Bordi-yu, zayom yoki aksiyalar joylashtirilmasa, banklar o'z tavakkalchiligi uchun haqi va mukofot oladilar.

Bevosita emissiya faoliyati bilan bo'lmagan kafolat operatsiyalari, bir bank yoki banklar tomonidan tuziladigan muvakkat birlashmalar (konsortsium yoki sindikatlar) tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Bugun O'zbekistonda bank kapitali bir qismini muayyan kompaniyasida joylashtirish amaliyoti mavjud. Bu banklarning tavakkalchiligini, shu jumladan, qimmatli qogozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalardagi tavakkalchiligini kamaytiradi.

Tijorat banklarning qimmatli qogozlar bozoridagi maslaxat xizmatlari. Rivojlangan mamlakatlarda bu xizmat turi qimmatli qogozlar bilan amalga oshiriladigan boshqa operatsiyalar ichida katta o'rinni egallaydi. Bu – bugungi kunda axborotning tutgan o'rni va uning tijorat banklarida to'planganligi bilan bogliqdir.

Bank maslaxati xizmatini ko'rsatish sarmoyani u yoki bu moliya aktivlariga (aksiyalar, obligatsiyalar) joylashtirish foydaliligi, korxonalar likvid resurslarini okilona boshqarish kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Bugun banklar mijozlarning ishonchini qozonish va bu bilan kelajak uchun ishlashga intilib, begaraz maslaxat xizmatlarini ko'rsatmoqda.

Yuqorida bayon etilganlarga yakun yasab, shuni qayd etish mumkinki, hozirgi kunda O'zbekiston tijorat banklari, garchi bir tekis bo'lmasa ham, qimmatli qogozlar bozorida deyarli barcha turdagi xizmatlarni ko'rsatmoqda: katta ulushlar emissiya va vositachilik xizmatlariga, kichik ulushlar-trast, depozitar, maslaxat berish xizmatlariga to'g'ri keladi. Maslaxat berish xizmatlariga tijorat banklarining e'tibori, extimol, tajriba ortishi, shunindek, ular o'rtasida raqobat kuchayishi bilan ortib borsa kerak.

Albatta, investitsiyaviy faollikni oshirish - oson ish emas, buni birdanigina xal qilib bo'lmaydi. Amma bu borada mavjud bo'lgan kamchiliklarni tuzatish va foydalanilmagan imkoniyatlarni jalb etish, shubxasiz halq ho'jaligining ushbu muxim sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga yordam berar edi.

Ochiq bozor iqtisodiyotida milliy ichki ishlab chiqarishdagi jahon iqtisodiyotining rivojlanishi tarkibiy ustivorliklariga mos kelmasligi nomonetar

tarzdagi bilvosita inflyatsiyani vujudga keltiradi, bu xol milliy iqtisodiyoning usishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va amalda uni uzoq muddatli turgunlik (depressiya) xolatiga duchor qiladi. Bunday xodisa fanda "aks ta'sir samarasi" nomini olgan.

Investitsiya dasturlarini ta'minlash maqsadida kredit resurslarini jamlash muammosini hal qilish uchun davlat va bank tizimining hamkorligi zarur. Hozir davlat byudjet siyosati hisobiga investitsiyani ko'paytirmokda, bank sektori esa, aytib utkanimizdek, investitsion kreditlashdagi o'z ishtirokini qisqartirmokda. Bunga sabab shuki, banklarning uzoq muddatli kreditlashdan manfaatdorligi yo`q.

Qisqacha hulosalar

**Moliya bozorlari** - bu, pul oqimlarini mulk egalaridan qarz oluvchilarga qarata yo'naltira oladigan bozor institutlarining yuindisidir. Asosan bankning investitsiyalari deyilganda bank tomonidan kapital xarakterga (delgiga) ega bo'lgan xarakterni va qimmatbaho qog'ozlarni sotib olishga yo'naltirilgan muddatli kreditlash yoki moliyalashtirish tushuniladi.

Tayanch iboralar:

Investitsiya, qimmatbaho qog'oz, aktsiya, obligatsiya, sertifikat, moliya bozori, moliya tizimi, lombard, garov, vosita, trast, portfel, mulk huquqi, ishonch operatsiyalari.

Nazorat savollari:

1. Qimmatbaho kog'ozlar bozorida tijorat banklari o'rni
2. Asosiy kapitalni investitsiyalash shakllari taxlili
3. Tijorat banklarining qimmatbaho kog'ozlar bilan aktiv operatsiyalari
4. Tijorat banklarining investitsion faoliyati
5. Moliyaviy bozor tushunchasi, uning tashkiliy tuzilishi va vazifalari.
6. Moliyaviy bozor instrumentlari, qimmatbaho kogos bozori va uni tashkiliy tuzilishi.
7. Banklarning qimmatbaho bilan operatsiyalarning boshqa turlari
8. Bank tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalarining daromadligi darajasi
9. Banklarning qimmatbaho bilan operatsiyalarini rivojlantirish muammolari
10. Banklarning trast operatsiyalari va ularni boshqarish

Asosiy adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» qonuni. 1996 y. 25 aprel.
2. O'zbekiston Respublikasi Markziy bankining me'yoriy xujjatlari



- to`plami.T.: 2003.
3. Kolesnikov V.I. i dr. «Bankovskoe delo» M. F i S 1996y.
  4. Sviridov O.Yu. Dengi, kredit. Banki.- M.: IKTs Mart Rostov R.D., Izd. sentr Mart, 2004.- 288s.
  5. Fridmen M. Osnovi monetarizma. M.: TEIS. 2002.-175 s.
  6. Shapkin A.S. Ekonomicheskie i finansovie riski.-Izd. 3-e-M.: Dashkov i K, 2004.-120s.
  7. [www.thebanker.com](http://www.thebanker.com)
  8. [www.bankinfo.uz](http://www.bankinfo.uz)
  9. <http://www.bankofengland.co.uk/market/money/index.htm>

## VIII-BOB. TIJORAT BANKLARINING HALQARO-VALYUTA VA HISOB-KREDIT OPERATSIYALARI

### 8.1. Valyuta munosabatlari tizimida banklarning o`rni

Valyuta - jahon bozorida, davlatlar orasida pul vazifalarini bajaruvchi, davlatlarni milliy pul birliklari<sup>63</sup>. Masalan, Amerika ko`shma Shtatlarini «dollari», Buyuk Britaniya «funt sterlingi», Kanada «dollari», Frantsiya «franki», Germaniya «markasi» va shu kabilar. Mazko`r davlatlar milliy pul birliklari o`zlarida, xar biri uchun, milliy valyuta hisoblanadi. Muayyan bir davlat ichki bozoriga nisbatan olingan boshqa davlatlarni milliy valyutalari xorijiy valyutalar deb ataladi. Masalan, AkSh dollari, Buyuk Britaniya funt sterlingi, Germaniya markasi, Shveysariya franki va boshqa shu kabi erkin muomalada yuradigan valyutalar O`zbekiston Respublikasida xorijiy valyutalar bo`ladi. O`z navbatida, O`zbekiston «so`m»i bu davlatlar uchun xorijiy valyuta bo`ladi.

Ba'zi bir davlatlarni milliy pul birliklarini, mazkur davlatlarda valyuta munosabatlari borasida mavjud va xarakterda bo`lgan qonun qoidalarga asosan, xorijga chiqishi va u erda muomalada bo`lishi chegaralanadi. Shunga ko`ra, muomaladagi valyutalar turli maqomlarga, ya'ni erkin muomalada yuradigan, muomalasi qisman va butunlay cheklangan, yopik yoki ekzotik valyutalarga bo`linadi.

Ekzotik valyutalar toifasiga quvayt «dinori», Grek «draxmasi» va shu kabilar kiradi.

Jahon amaliyotida qabul qilingan tartibga asosan, barcha davlatlarni milliy valyutalari 3 xarf bilan belgilanadi. Bu xarflarni boshidagi 2-tasi mamlakatni, so`ngi 3-chisi esa valyuta nomini bildiradi. Masalan, USD - AkSh dollari, ya'ni US - ko`shma Shtatlar, D - dollar yoki GBP - Buyuk Britaniya funt sterlingi, GB - Buyuk Britaniya, P - (point) funt sterling va shu kabi.

Valyuta bilan birgalikda, halqaro valyuta munosabatlari tushunchasi mavjud. Valyuta munosabatlari - bu, valyutani jahon xo`jaligida funksional amal qilish jarayonida va halqaro aloqalar sohasiga xizmat ko`rsatuvchi o`ziga xos pul munosabatlarini yig`indisidir. Valyuta munosabatlari jahon valyuta tizimini asosi bo`lib xizmat qiladi. Valyuta munosabatlarining axvoli quyidagilarga bog`liq bo`ladi:

- milliy va jahon iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasiga;
- siyosiy axvolga;
- jahon bozorida davlatlar aro munosabatlar borasidagi muammolarga va bunday muammolarning rivojlanish tendentsiyalariga.

---

<sup>63</sup>Piskulov F.N. Valyutnie rascheti vo vneshney torgovle Rossiyskoy Federatsii:Ucheb. Pos. M.: MGIMO.2004 g.

Jahon valyuta bozorida uning ishtirokchilari ko'p turdagi moliyaviy vositachilardan, tijorat banklaridan, firmalar va kompaniyalardan iborat. Jahon valyuta bozoridagi moliyaviy vositachilar nafaqat o'z mijozlarini topshiriqlariga muvofiq, balki o'z tashabbuslari bilan va o'z manfaatlarida ham operatsiyalarni amalga oshiradilar.

## 8.2. O'zbekiston Respublikasida valyuta bozori faoliyati va<sup>64</sup> tartibga solish

Xar qanday davlatda valyuta munosabatlari davlat tomonidan tartibga solinadi. Bunday tartibga solish albatta turli qonunlar yordamida amalga oshadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi xududida valyuta munosabatlarini tartibga solish maqsadida 2003 yilda «O'zbekiston Respublikasi xududida valyuta munosabatlarini tartibga solish qonuni» va 1994 yil oktyabrg' oyida «So'mni ichki konvertatsiyasi haqida qonun» qabul qilingan. Bundan tashqari, mazkur qonunlar xarakatidan kelib chiqqan holda, tijorat banklari, jismoniy shaxslar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tashki iqtisodiy faoliyatini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bir qator me'yoriy xujjatlari va yo'riqnomalari mavjud.

Valyuta jarayonlarini tartibga solish, valyuta chegaralanishlarini va soliqlarni hisobga olmagan holda, zamonaviy sharoitda valyuta kurslarini tartibga solish bilan bog'liq bo'lib qolgan.

Xar qanday davlatda pul tizimi bo'lganligi sababli, valyuta tizimi ham mavjud. Valyuta tizimi - bu, davlatlar aro kelishuvlar va shartnomalar bilan belgilanadigan halqaro valyuta munosabatlarni tashkil etishni davlat-xuquqiy shaklidir (Berjanov S.A.). Yoki, valyuta tizimi – bu, xo'jalik aloqalari baynalminallashuvi asosida tarixan shakllangan valyuta muomalasi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir<sup>65</sup>Valyuta tizimini mohiyati, tashkiliy shakllari va roli jamiyatning iqtisodiy tizimi bilan belgilanadi.

Maxsus adabiyotlarda valyuta tizimlarini 3 xil ko'rinishi farqlanadi, ya'ni milliy, jahon va xududiy.

Milliy valyuta tizimi va uni elementlari.

Milliy valyuta tizimini qonuniy asosda belgilangan elementlari quyidagilardan iborat:

- 1.milliy valyuta va uni nomi;
- 2.milliy valyuta paritetini aniqlash;
- 3.milliy valyuta konvertatsiya shart-sharoitlari;
- 4.milliy valyuta kursi rejimi;
- 5.halqaro muomala kredit qurollari turlari va ulardan foydalanish tartibi;

---

<sup>64</sup> TDIU va MDH mamlakatlari iqtisodiy mutaxassisliklari bo'yicha bakalavriat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining namunaviy mavzulari. T, 2005 y., 72

<sup>65</sup> Finansovo-kreditniy slovar. Pod.red. Garbuzova. M.: FiS. 1985

6. halqaro zaxira aktivlari komponentlari orasidagi nisbatni aniqlash;
7. mamlakat halqaro hisob-kitoblarini chegaralash (reglamentatsiya);
8. milliy valyuta va oltin bozori faoliyatini rejimi;
9. valyuta chegaralanishlarni o`rnatilish tartibi;
10. valyuta munosabatlariga xizmat ko`rsatuvchi va ularni tartibga soluvchi milliy organlar maqomi.

Jahon valyuta tizimi - bu, davlatlararo kelishuvlar bilan mustaxkamlangan jahon bozori rivojlanishi asosida, halqaro valyuta munosabatlarini tashkil etish shaklidir<sup>66</sup>. Uning asosi bo`lib, shu tizimga kirayotgan xar qanday davlatni milliy valyuta tizimini tashkil etilishini davlat-huquqiy shakli va valyuta mexanizmi hisoblanadi.

Jahon valyuta tizimi, milliy valyuta tizimi singari, o`z ichiga bir nechta elementlarni olgan. Ular milliy valyuta tizimi elementlari bilan yaqindan o`zaro bog`liq bo`lib, quyidagilardan iborat:

1. halqaro hisob-kitob birligining nomi (SDR, EVRO);
2. valyuta paritetlarini soddalashtirilgan (unifikatsiya qilingan) rejimi;
3. valyutalar konvertabelligining shartlari;
4. valyuta ko`rsaklari rejimining chegaralanishi (reglamentatsiyasi);
5. halqaro muomala kredit qurollaridan foydalanishni soddalashtirilgan tartibi;
6. halqaro valyuta likvidligi tarkibiy tuzilishini aniqlash;
7. halqaro muomala kanalini ishonch qozongan vositalar bilan etarli miqdorda to`ldirish mexanizmini cheklanishi (reglamentatsiyasi);
8. halqaro hisob-kitoblar asosiy shakllarini soddalashtirish (unifikatsiyasi);
9. valyuta chegaralanishlarni davlatlar aro tartibga solinishi;
10. jahon valyuta va oltin bozorlari faoliyat rejimlarini belgilash;
11. davlatlar aro valyuta munosabatlarini tartibga solib turuvchi organlar maqomi.

Xududiy valyuta tizimi - bu, xududiy birlashma a'zosi bo`lmish davlatlarning dalatlar aro kelishuvlar bilan mustaxkamlangan valyuta munosabatlarini tashkil etish shaklidir.

Zaxira (rezerv) valyuta - bu, jahon savdosida o`rin egallagan mamlakatlar milliy valyutasi bo`lib, u halqaro to`lov muomalasiga xizmat ko`rsatish uchun va baholar belgilashda, hamda boshqa davlatlar markaziy banklarida valyuta zaxiralari sifatida saqlash maqsadida ishlatiladigan valyutadir.

### 8.3. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari

Jahon amaliyotida, valyutalarni oldi-sottisi amalga oshadigan joy jahon valyuta bozori deb ataladi. Ammo, mazkur bozorning xususiyatlariga ko`ra, u anik bir manzilga ega emas yoki ma'lum bir joyda jismonan mavjud emas. Jahon

---

<sup>66</sup>Berjanov S.A. Valyutnaya sistema, valyutnie rinki i valyutnie operatsii. Nukus. 1996 g.

valyuta bozori —telefon xamda zamonaviy telekommunikatsion tizim orqali savdosi amalga oshadigan xususiyatli bozordir.

Valyuta pozitsiyasi – dilerni talab va majburiyatlarini nisbatidir. U ikki kismdan iborat, ya'ni «uzun» va «qisqa» pozitsiyadan.«Uzun» pozitsiyada – dilerni talablari aks etadi. Talablar esa, diler tomonidan valyuta sotib olinganda xosil bo`ladi.

«Qisqa» pozitsiyada – dilerni majburiyatlari aks etadi. Majburiyatlar esa, diler tomonidan valyuta sotilganda hosil bo`ladi.«Spot» operatsiyasi – bu, bir zumda amalga oshadigan valyuta operatsiyasi bo`lib, valyuta shartnoma amalga oshgandan so`ng 2 bank ish kuni davomida shartnoma tuzilgan kun kursi asosida sotib oluvchiga etkaziladi.«Spot» kurs – oldindan kelishuv yoki kontrakt sifatida rasmiylashtirilmagan valyuta operatsiyalarida (ishlatiladigan) oldi-sotti valyuta almashuv kursidir.Valyuta bozori - bu chet el valyutasini oldi-sotdisini va chet el valyutasidagi qimmatbaho kog`ozlarni hamda valyutaviy kapitalni investitsiya qilish munosabatlarini amalga oshiruvchi iqtisodiy munosabatlarni namoyon qiluvchi markaz hisoblanadi.

Muddatli bitimlar deb, belgilangan muddatda, ammo ikki ish kunidan oshik bklgan muddatda amalga oshiriladigan operatsiyalarga aytiladi. Amaliyotda muddatli bitimlarning quyidagi keng tarkagan turlari mavjuddir. Ularga:

Forvard valyuta bitimlari;

Fyuchers bitimlari;

Valyuta opsiioni;

Svop operatsiyalarini ko`rsatish mumkin.

Forvard valyuta bitimi - bu voz kechib va bank bilan uning mijozi krtasidagi ma'lum miqdordagi kelishilgan valyutani bitim tuzilayotgan vaqtda qayd qilingan ayirboshlash ko`rsida kelajak muddatlarda shartnomaning majburiyatlarini bajarilishidir. Agar mijoz forvard valyuta bitimi shartlarini bajara olmay qolsa, bank uni mazkur shartlarni bajarishga undaydi.

a) agar mijoz bank bilan valyutani sotish haqida bitim tuzgan, lekin, u mazko`r valyutani bankka etkaza olmasa, u holda bank: - valyutani mijozga spot kurs bo`yicha sotishi (bitimni bajarilish muddati kelganda);

forvard valyuta bitimi shartlari bo`yicha qaytadan valyutani sotib olishi mumkin.

b) agar mijoz bank bilan unga valyutani sotib olish haqida bitim tuzgan bklsa, u holda bank:

ko`rsatilgan miqdordagi valyutani "forvard" kursi bo`yicha mijozga sotishi;

tezlikda kerakmas valyutani qaytadan "spot" kurs bo`yicha sotib olishi mumkin.

Shunday qilib, bank mijozga etishmayotgan valyutani "spot" kurs bo'yicha sotib olib yoki sotib forward valyuta bitimini bajarilishiga imkoniyat yaratadi.

Moliyaviy fyuchers bitimlari 70-yillarda halqaro valyuta bozorida birinchi bor ikkllanilganligining keng tarqaldi. Moliyaviy fyucherslar kontseptsiyasi xom ashyo va oziq-ovkat maxsulotlaridan keladigan foydaga asoslaniladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, valyuta ko'rsllari bo'yicha fyucherslar - bu kelajakdagi ma'lum bir sanaga ma'lum xajmdagi valyutani oldi-sotdi qilish bitimidir. Bu jihatlari bilan ular forward valyuta bitimlariga, biroq, forward bitimlaridan farqli o'llaroq, ular:

a) juda oddiy bekor qilinadi;

b) valyutani qat'iy belgilangan summasiga tuziladi (masalan, AQSh dollariga fyuchers bo'yicha 25000 f.st., AQSh dollariga fg'yuchers bo'yicha 125000 evro va o`.k.);

v) rasmiy birjalarda sotiladi;

g) fyuchersni sotuvchilari fyuchers majburiyatlarini bajarilishini kafolatlash uchun birja dilerlariga "pullik marja"ni to'lashni to'tishlari kerak.

Valyuta opsiioni birinchi marta 1982 yili Filadelfiya birjasida amalga oshirilgan edi. Valyuta opsiioni uning xaridoriga ma'lum bir beradi, ayni paytda uning zimmasiga kelajakdagi ma'lum muddatda belgilangan narx bo'yicha AQSh dollarining muayyan miqdorini xarid qilish yoki sotish majburiyatini yuklamaydi. sotuvchi xaridor oldida kelajakdagi muayyan muddatda qat'iy belgilangan narx bo'yicha muayyan miqdordagi AQSh Opsiion turli xil turdagi tovarlar uchun (er, mulk, chet el valyutasi, qimmatli qog'ozlar va fyuchers kontraktlari), tuzilishi mumkin. Shuningdek, u tovarni amalda etkazib berilishini ko`zda tutmasligi mumkin (bunday opsiionga «hisob-kitob» opsiioni deyiladi).

Opsiionlarning quyidagi ikkita asosiy turi mavjud:

1.«koll-opsiion» yoki xarid qilish uchun opsiion.

2.«put-opsiion» yoki sotish uchun opsiion.

Koll-opsiionning xaridori oldindan belgilangan narx bo'yicha muayyan tovarni sotish ega bkladi. Ushbu xaridorga aniq tovarni sotib olish yoki sotish uning uchun foyda keltirmaydigan bo'lgan holda undan voz kechish imkoniyatini beradi.

Amerika opsiioni deb, odatda opsiionni xarakat muddatini xoxlagan vaqtida bajarilishiga, va shuning uchun opsiionni xarakat muddati uning birinchi va oxirgi kitob sanasi orasida urnatiladi.

Evropa opsiioni deb, odatda opsiionni faqat hisob-kitobning aniq bir ma'lum oxirgi davrida bajarilishiga aytiladi. Opsiion bitimi bkyicha o`isob-kitobni amalga oshirish uchun ikki ish kuni olinadi va shuning uchun valyuta opsiioni uning egasi tomonidan tutilgan kundan ikki kun oldin bajarilishi shart, masalan, agar opsiion egasi uni bajarilishini istasa, evropa opsiioni sanasigacha ikki kun oldin bajarilishi shart.

Birjadan tashqari optsionlar odatda bank tomonidan ishbilarmon mijozga mos keluvchi tijorat shartnomasiga yoziladi. Ular mijozning talabidagi summasi, bahosi (ya'ni, ayirboshlash ko'rsi) bilan birga, uning bajarilish sanasiga aniq moslashtirilgandir.

Birja optsionlari - bu valyuta optsion bitimlarini jamlangan summasi va vaqtning davriy yig'indisidir.

Valyuta optsionlarining quyidagi kamchiliklari mavjuddir:

a) qiymat. Valyuta optsionlari kompaniyalarni nafaqat ularni yomon xolatdan, valyuta risklaridan ximoya qiladi, balki ularga valyuta kurslarining "ijobiy" foydalanish imkoniyatini beradi. Bu xizmat qimmat hisoblanadi. Mukofotning qiymati valyuta bilan qoplangan umumiy summaning 5% atrofini tashkil qiladi.

b) "Oldindan" to'lovning zarurligi. Valyuta optsionlari uning tuzilish vaqtida tiklaniladi.

v) Savdo optsionlarini barcha valyutalarga nisbatan olib bo'lmaydi, shunday bo'lsada, birjadan tashqaridagi optsionlar xar qanday erkin konvertirlanadigan valyutaga erkin tarzda sotiladi.

g) Birjadan tashqari optsionlarning muomalasini mavjud emasligi.

Valyuta bozoridagi halqaro bitimlar, xususan, kapitalni qisqa muddatli eksporti bitimlardan tez-tez foydalanishga olib kelmokda.

Svop operatsiyasi - bu bir vaqtning ichida chet el valyutasini xar-xil sanaga turli hisob-kitoblar shartida teng summada sotib olish va sotishdir. Svop - bitimlar, shuningdek, banklar tomonidan kzlarning chet el valyutasidagi majburiyatlarini qoplash maqsadida foydalaniladi. Shunday qilib, banklar svop bitimlardan kzlarning valyuta pozitsiyalarini muvofiqlashtirish usulini va valyuta ko'rsklarini tebranishini oldini olish maqsadida foydalanadilar.

#### 8.4. Halqaro kreditlash

Halqaro kredit ssuda kapitalining jahon oborotidagi xarakati bo'lib, bu xarakat tovar va valyuta ko'rinishidagi mablag'larni uch shart asosida, ya'ni:

- qaytarib berishlilik;

- muddatlilik;

- % (foiz) to'lashlilik - asosida berish natijasida yuzaga keladi.

Halqaro kredit munosabatlarining sub'ektlari sifatida tijorat banklari, markaziy banklar, davlat organlari, yirik korxonalar, regional va halqaro moliya-kredit tashkilotlari katnashadi.

Halqaro kredit printsiplari. Halqaro kredit munosabatlarini tashkil qilish quyidagi printsiplarga asoslanadi:

qaytarib berishlilik: agar olingan mablag'lar qaytarilmasa, pul kapitalini qaytarib bermaslik shakli namoyon bo'ladi, ya'ni moliyalashtirish yuzaga keladi;

Muddatlilik, ya'ni kredit shartnomasida ko`rsatilgan muddatda kreditni qaytarilishini ta'minlash;

Ta'minlanganlik, ya'ni olingan kreditni to`lashni kafolatlanganligi;

Maqsadlilik, ya'ni ssudani aniq ob'ektlarga yunaltirishni ko`zlash va uni birinchi navbatda kreditor davlatning eksportini ragbatlantirish uchun qo`llash.

Foiz to`lashlilik.

Halqaro kredit funksiyalari. Halqaro kredit halqaro iqtisodiy aloqalarda ssuda kapitallari xarakatini o`ziga xos xususiyatini namoyon etib, quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Takror ishlab chiqarishni kengaytirish iste'molini ta'minlash uchun ssuda kapitallarini mamlakatlar o`rtasida qayta taqsimlash. Ssuda kapitallari halqaro kredit mexanizmi orqali foydasi ko`proq, daromadlirok bo`lgan tarmoqlarga intiladilar. di.

Haqiqiy pullarni kredit pullarga almashtirish, naqdsiz to`lovlarni rivojlantirish va tezlashtirish hamda naqd valyuta oborotini halqaro kredit operatsiyalari bilan almashtirishlar orqali halqaro hisob-kitoblar muomalasidagi sarf-xarajatlar iqtisod kilinadi. Halqaro kredit bazasida halqaro hisob-kitoblarning kredit mablag`lari yuzaga keldi - veksellar, cheklar, shu jumladan banklararo perevodlar, depozit sertifikatlari va shu kabilar.

Kapitalni bir joyga tuplanishi va markazlashishini tezlashtirish: chet el kreditlarini jalb qilish tufayli qo`shimcha qiymatni kapitalga aylanish jarayoni tezlashadi, shaxsiy jamgarmalar chegarasi kengayadi, bir davlat tadbirkorlarining kapitallariga boshqa davlatning mablag`lari ko`shilishi okibatida ko`payadi.

Halqaro kredit shakllarini bir necha turga bo`lib guruhlash mumkn.

Manbalari bo`yicha tashki savdoni ichki, tashki (chet) va aralash kreditlash va moliyalashtirish bo`yicha farqlanadi.

Vazifalari bo`yicha zayom mablag`lari hisobidan qanday tashki iqtisodiy bitimni ta'minlanishi bo`yicha farqlanadi:

tijorat krediti (asosan tashki savdo va xizmatlar bilan bogliq kreditlar);

moliyaviy kredit (yuqoridagilardan boshqa maqsadlarga ishlatiladigan, shu jumladan, kapital quyilmalar, investitsion ob'ektlar ko`rish, qimmatbaho qogozlar sotib olish, tashki qarzni o`zish, valyutaviy interventsiyaga bogliq kreditlar);

«oralik» krediti (kapitalni olib kelishni aralash shakliga xizmat qilishga belgilangan tovar va xizmatlar, masalan, pudrat ishlarini bajarish ko`rinishida).

Halqaro kreditni ko`rinishi bo`yicha 2 ta asosiy shaklga bo`lib ko`rsatish mumkin:

Halqaro bank krediti;

Halqaro tijorat krediti.

Halqaro bank krediti asosan valyuta (pul) ko`rinishida bo`ladi.

Halqaro tijorat krediti esa, odatda tovar ko`rinishiga ega.



Ana shu 2 ta asosiy kredit shaklidan kelib chiqadigan bir qancha kreditlar mavjud:

Firmaning (tijorat) krediti - odatda eksportyor mamlakatning bir firmasi boshqa mamlakatning importyoriga to'lovni kechiktirish shaklidagi ssuda berishiga tushuniladi. Tashqi savdoda tijorat krediti tovarli operatsiyalarga bogliq hisob-kitoblarda keng qo'llaniladi. Tijorat kreditining muddati (odatda 2-7 yil) turlicha bo'ladi va jahon bozori kon'yunkturasi shartlariga, tovarlar turlariga va boshqa bir qator faktorlarga bogliqdir. Mashina va asbob-uskunalar (texnologiya, mijozlar)ning eksportini kengayishi halqaro kredit muddatini o'zayishiga olib keldi. Tijorat krediti odatda vekselg` yoki ochik schyotlar bo'yicha beriladigan kreditlar orqali rasmiylashtiriladi.

Vekselli kreditda eksportyor tovarni sotish haqida bitim to'zib, o'tkazma veksel (tratta)ni importyorga junatadi, importyor tijorat xujjatlarini olib aktseptlaydi, ya'ni unda ko'rsatilgan muddatda to'lovni amalga oshirishga rozilik beradi.

Ochik schyotlar bo'yicha beriladigan kredit. Bu kredit eksportyor va importyor o'rtasidagi kelishuvga asoslanadi. Ochik schyotlar bo'yicha beriladigan kreditlar faqatgina doimiy aloqada bo'lgan firmalar o'rtasidagina amalga oshirilishi mumkin.

Tijorat kreditining yana bir turiga importyorning avans to'lovi (sotib oluvchining avansi)ni kiritish mumkin. Bunda shartnoma to'zilayotgan paytda importyor tomonidan chet ellik mol etkazib beruvchiga odatda mashina, asbob-uskunalar (texnologiya)ning qiymatidan 10-15 foizi oldindan to'lanadi.

Xarid avansi (poko'patelg'skiy avans) eksportni kreditlashning bir formasi bo'lib hisoblanadi va shu vaqtning o'zida importyorning majburiyatini ta'minlovchi vositadir. Rivojlangan mamlakatlarning import bilan shugullanuvchi firmalari rivojlanayotgan mamlakatlardan farqli ularok, xarid avansidan shu davlatlarning qishloq xo'jalik maxsulotlarini olib chikib ketishda foydalanmokdalar.

Avans to'lagan tomonning aybi bilan shartnoma bajarilmay kolsa, sarf-xarajatlar undirilgan holda mablag` qaytariladi.

Avans - shartnomani bajarilishini voz kechish mumkin bo'lgan bitimga nisbatan ragbatlantiradi. Voz kechish mumkin bo'lgan bitimda esa, zarar ko'rgan tomonning xarajatlarini to'lash majburiyatlaridan ikkinchi tomon ozod bo'ladi. Ba'zan xarid - sotib oluvchining avansi (PA) to'lovni kechiktirishga o'zaro moslashadi, buning ustiga teng ulushlar bilan ma'lum intervallarga bo'linadi (oy, kvartal, 1 yil).

Tijorat krediti xajm va moliyalashtirish shartlari bo'yicha mashina va asbob-uskunalarni eksportni kreditlash muammosini to'liq echa olmaganligi sababli, bank kreditlarining roli oshadi.

Bank krediti - eksport va importni kreditlashda ssuda formasida namoyon bo'ladi va u tovarlar, tovar xujjalari, veksellarni, hamda trattani garovga olgan

holda beriladi. Ba'zan banklar o'zlariga chambarchas aloqada bo'lgan yirik eksportyor-firmalarga blankli kredit, ya'ni rasmiy ta'minlanmagan kreditlar berishadi.

Halqaro savdoda bank kreditlari tijorat kreditlariga nisbatan ustunlikka ega. Ular kredit oluvchini olgan mablag'laridan tovarlar sotib olishga mustaqil foydalanish imkoniyatini tugdiradilar, mol etkazuvchi firmadan kredit surashdan ozod etadilar hamda oxirgi tovarlarga hisob-kitoblarni bank kreditidan foydalanib to'laydilar. Xususiy banklar ko'pincha davlat mablag'larini va uning kafolatini olgan holda eksport kreditlarini 10-15 yilga bozor stavkasidan pastrok stavkada beradilar.

Eksport krediti - eksportyor bankining importyor bankiga etkazib berilgan mashina, asbob-uskuna va boshqa investitsiya qilingan tovarlarni kreditlashga aytiladi. Bank kreditlari pul ko'rinishida beriladi va «bogliq»lik xarakteriga ega, chunki kredit oluvchi ssudadan faqatgina kreditor mamlakat tovarlarini sotib olishigagina beriladi.

Xarid kreditining o'ziga xos xususiyati bo'lib, eksportyor bankning to'g'ridan to'g'ri milliy eksportyorni kreditlamasdan, balki chet ellik xaridorni, ya'ni, importyor mamlakat firmasi va uning bankini kreditlash hisoblanadi. Bunday kreditlash shartnomasida eksportyor ishtirok etmaydi, bu esa o'z navbatida kreditning bahosini oshirish imkoniyatini yo'qotadi. Bank kreditining xaridorga bo'lgan narxi, qoida bo'yicha ssuda kapitallari bozoridagi zayom mablag'lari narxidan ancha past bo'ladi, bu esa o'z navbatida ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

Evropada yangilanadigan overdraftlar, ya'ni 'isobidagi mablag'larning koldig'idan yuqori bo'lgan summaga kredit olish juda keng tarkalgan (odatda bu kattalik 'isobini ochishda aytiladi va bundan kredit katoiy belgilangan summadan ortik bo'la olmaydi). Ba'zan majburiyatlarning bu turlari kapital ko'yilmalarning loyixalarini uzoq muddatli moliyalashtirishni doimiy olinishigacha ishlatiladigan mablag'larning muddatli manbalari sifatida 'am ko'llaniladi. Loyi'ani tugatishdan keyin shu loyi'a bilan ta'minlanadigan uzoq muddatli majburiyatlarni sotishdan tushumlar oralik zayomlarni to'lash uchun ishlatiladi

Evroveksellar tijorat majburiyatlariga o'xshagan qisqa muddatli pul mablag'lari manbasidir. Lekin xuddi shu evroveksellarning tugatish muddati pul mablag'larining manbasi sifatida ham ishlatilishi mumkin.

Evroveksellarning xarakatini o'zaytirishning mukobil yo'li bo'lib Evropa o'rta muddatli qarzli qimmatba'o kog'ozlarni chiqarish 'isoblanadi. Ularni tugatish muddati 1 yildan 10 yilgacha oralikda bo'lib, ular bo'yicha foiz to'lanadi, qarzga oluvchi uchun cheklangan xolatni obligatsion shartnomalar va qarzga oluvchining majburiyatlari tashkil etadi. Ular bevosita moliya institutlariga sotiladi. Majburiyatlarning bu turlariga kafolat berishda xarajatlar bo'lmasa u holda dastlab doimiy aloqada bo'lgan moliya institutlariga sotiladi.

Lizing. Asosan halqaro lizing bo`yicha bitimlar milliy bozorda tuziladigan bitimlardan farq qilmasligi kerak. Ammo al`yida mamlakatlarning soliq siyosatidagi farq, halqaro lizingdagi siyosiy tavakkalchilikning borligidan o`zgacha taoriflar paydo bo`ldi.

Soliq xususiyatlari tufayli lizingning 2 turi mavjud. Moliyaviy arenda kompaniyalarga qandaydir mulkdan bu mulkning butun iqtisodiy xayoti davomida foydalanish huquqini beradigan o`zgartirib bo`lmaydigan moliyaviy bitimlarni o`zida aks ettiradi. Eksploatatsion lizing kompaniyalarga u yoki bu mulkdan tayinlanishi bo`yicha ko`llash muddatigacha foydalanish imkoniyatini beradigan vaqtinchalik bitimlardir.

### 8.5. Halqaro hisob-kitoblar va ularni asosiy shakllari

Halqaro hisob-kitoblar deganda turli mamlakatlarning yuridik va jismoniy shaxslari o`rtasida iqtisodiy moliyaviy operatsiyalar natijasida yuzaga keladigan pul majburiyatlari va talablari bo`yicha to`lovlarni amalga oshirilishi tushuniladi.

Hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun banklar o`zlarining xorijdagi bo`limlari va xorijiy banklardagi korrespondentlik aloqalaridan foydalanishadi. Buning uchun «loro» schyoti (bankdagi xorijiy bankning scheti) va «nostra» (bankning xorijiy banklardagi scheti) schetlari ochiladi. Halqaro hisob-kitoblarning xolati qo`ymdagi bir qator omillarga bog`lik:

- Mamlakatlar o`rtasidagi iqtisodiy va siyosiy munosabatlar
- Mamlakatdagi valyuta qonunchiligi
- Halqaro savdo qoidalari
- Banklar amaliyoti
- Tashki savdo kontraktlari va kredit kelishuvidagi shartlar

Xukumatlararo kelishuvlarda hisob-kitoblarning umumiy tartib – qoidalari belgilansa, tashki savdo bitimlarida shartlar aniq ko`rsatiladi. Ularga asosan quyidagilar kiradi:

- narx qaysi valyutada belgilanishi;
- narx qaysi valyutada amalga oshirilishi;
- to`lov shartlari;
- to`lov vositalari;
- hisob-kitob shakli;
- qaysi banklar hisob-kitobni amalga oshirishi

Narx valyutasi va to`lov valyutasi bitimning valyuta tushumi jixatdan samaradorligini belgilaydi.

Eksport – import bitimlarining narxi tovarni etkazib beruvchidan xaridorgacha xarajatlarni o`zgarishi tufayli dinamik o`zgarib boradi.

Tovar narxini belgilashning valyuta usuli mavjud:

Bitimni amal qilishi va ijro etilishi davomida o'zgaraydigan katoiy ijro. Bu usul dunyo bozorlarida narx pasayishi yuz berayotgan sharoitlarda ko'llaniladi.

Bitimni imzolash paytida narxni belgilash tamoyili ko'rsatiladi, narx esa bitim ijrosi mobaynida ko'yiladi. Bu usuldan narxlar oshib borayotgan davrda ko'p foydalaniladi.

Bitim to'zish paytida narx katoiy belgilanib, uning bozor narxi o'zgarishi bilan farqlanish chegarasi ko'rsatilib ko'yiladi. Masalan, bitim imzosi davomida biror narxlarning 10% ga ortishi bilan bitim narxi 'am o'zgartirilishi nazarda tutiladi.

Xarajatlarni o'zgarishiga bog'lik ravishda belgilanadigan sirpanuvchi narx. ko'rilish, buyurtma bo'yicha dastgox mijozlar tayyorlashda narxning yuqoridan chegaralanishi yoki ayrim xarajat moddalari bo'yicha narx o'zgarishini hisobga olish asosida amal qiladi.

Aralash shaklda narx belgilash. Narxning bir qismi katoiy belgilansa, boshqa qismi sirpanuvchi usulda aniqlanadi.

Narx vositasi deganda bitim oboekti bo'lgan tovar narxining qaysi valyutada belgilanishi tushuniladi.

To'lov valyutasi import qiluvchi yoki qarzdor o'z majburiyatlarini qaysi valyutada qoplashni ifoda etadi.

To'lov shartlari. Tashqi iqtisodiy aloqalarda tuziladigan bitimlarning muxim elementlaridan bo'lgan to'lov shartlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- naqd pul asosida to'lov
- kredit berish asosida to'lov
- naqd pul bilan to'lashni 'am mumkin bo'lgan opsiyonli kredit asosida to'lov.

Halqaro xisodlashuvlarda to'lovni naqd pulda o'tkazish deganda to'lovni tovarlarni sotib oluvchi etkazib berilgandan (jo'natgandan) so'ng yoki bitimga muvofiq tovarlar junatilganini (olinganini) tasdiklovchi xujjatlar ko'lga tegishi bilan amalga oshirish tushuniladi.

Hisob-kitoblar turli vositalar yordamida amalga oshirilishi mumkin: veksellar, to'lov topshirig'i, bank o'tkazmasi (pochta va telegraf orqali), cheklar, plastik akrtokkalar.

Halqaro hisob-kitobning asosiy shakllari qo'yimdagilardan iborat:

- xujjti akkreditiv
- inkassa
- bank o'tkazmasi
- ochik schet
- bo'nak
- veksell
- chek

Halqaro hisoblashuvlarning alohida xususiyatlari.

Import qiluvchi va eksport qiluvchilar, ularning banklari tashqi savdo bitimi bilan bog`lik munosabatlarni urnatadilar. Bu munosabatlar asosida tovarning va to`lov xujjatlarini rasmiylashtirish, o`zatishtirish, qayta ishlash, 'amda to`lovni amalga oshirish yotadi.

Halqaro hisob-kitob milliy meoyoriy huquqiy xujjatlar, bundan tashqari halqaro bank tartib qoidalari bilan tartibga solinadi.

Halqaro hisob-kitoblar – unifikatsiyalash oboekti bo`lib, bunga xo`jalik aloqalarining baynalminallashuvi, bank operatsiyalarining universallashuvi jiddiy taosir ko`rsatadi.

Halqaro hisob-kitoblar qoidaga ko`ra xujjatli xususiyatga ega, yaoni ular moliya va tijorat xujjalari asosida amalga oshiriladi. Moliyaviy xujjalarga oddiy va o`tkazma veksel, cheklar, to`lov tilxatlari kiradi. Tijorat xujjalari o`z ichiga quyidagilarni oladi:

a) schet faktura; b) tovarni yuklanganligi yoki jo`natilganligini tasdiklovchi xujjatlar (konosementlar, temir yo`l, avtomobil va xavo transporti, yuk xati, pochta kvitantsiyasi, aralash tashishning transport xujjalari); v) sug`o`rta xujjalari; g) boshqa xujjatlar – tovarni ishlab chikishini tasdiklovchi sertifikatlar, sifat sertifikatlari, chegaradan o`tganlik xujjalari, bojxona xujjalari va boshqallar.

Halqaro hisob-kitoblar turli valyutalarda o`tkaziladi. Shuning uchun ular valyuta operatsiyalariga chambarchas bog`lik.

Mazko`r hisoblashuvlarda kafolatlashning umumiy qoidalari rioya etiladi. Unga muvofiq kafolat matnida quyidagilar bo`lishi lozim:

• kafolat beruvchiga xak to`lanmagan bo`lsa kafolat summasi undirilmaydi;

• bitimning tavsifi;

• pretenziya qilish uchun zarur bo`lgan xujjatlar;

• kafolat muddati tugaydigan sana va kafolat bergan bankka benifetsiar tomonidan xujjalarni taqdim etish sanasi;

• kafodat muddati tugagandan so`ng qaytarilishi lozim.

• Halqaro hisob-kitob shakllariga taosir etuvchi omillar:

• tashqi savdo oboekti hisoblangan tovar turi

• kredit kelishuvining mavjudligi

• tashqi iqtisodiy aloqalar bo`yicha kontragentlarning to`lov qobiliyati va obro`-e'tibori

• dunyo bozorida mazko`r tovarga bo`lgan talab va taklif.

Bitimda halqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish shartlari va shakllari asosida ko`rsatilishi lozim.

Halqaro savdo palatasi (Parij)1993 yil yangi taxrirdagi «xujjatli akkreditivlar uchun unifikatsiyalashgan qoidalari» asosida amalga oshiriladi. Shu qoidalarga muvofiq akkreditiv bu bank mijozning topshirig`iga muvofiq uchinchi shaxsga (akkreditiv ochilgan shaxs – benefitsiarga) taqdim etilgan


xujjatlarni to`lash yoki benefitsiar tomonidan berilgan trattani aktseptlash (to`lash) yoki xujjatlarni negatsiatsiyalash (sotib olish) to`g`risidagi kelishuvdir. Bank bu hisoblashuvda mustaqil tomon bo`lib, u tijorat bitimi yuzasidan tomonlarning huquqiy munosabatlariga aralashmaydi.

Xujjatli akkreditiv bo`yicha hisob-kitoblarda:

- bankka akkreditiv ochish to`g`risida murojaat qilgan import qiluvchi (buyruk beruvchi)
- akkreditiv ochuvchi bank – emitent
- eksport qiluvchiga uni nomiga akkreditiv ochilganini ogoxlantiruvchi unga akkreditiv matnini etkazib beruvchi bank
- nomiga akkreditiv ochilgan eksport qiluvchi benefitsiar

1-chizma

Xujjatli akkreditiv bo`yicha hisob-kitob chizmasi.



1. Akkreditiv ochish bo`yicha ariza berish
2. Akkreditiv ochish va ariza beruvchi bank orqali benefitsiarga akkreditiv matnini jo`natish.
3. Benefitsiarga akkreditiv ochish to`g`risida xabar berish
4. Tovarni eksportga jo`natish
5. Benefitsiar tomonidan to`lov uchun xujjatlar to`plashni rasmiylashtirish va bankka jo`natish
6. Avizo qiluvchi bank tomonidan xujjatlarni bank emitentga jo`natish.
7. Bank emitent tomonidan olingan xujjatlarni tekshirish va to`lash.
8. Bank emitent tomonidan to`langan xujjatlarni import qiluvchiga etkazib berish.
9. Avizo qiluvchi bank tomonidan eksport tushumini benefitsiarlar `isobiga o`tkazish.

Ochik schyot bo`yicha hisob-kitoblarda import qiluvchi olingan tovar uchun to`lovni vaqti-vaqti bilan to`lab boradi. Uning joriy qarzlari summasi savdoda ishtirok etayotgan tomonlarning kitoblarida kaed etib boradi. Halqaro hisob-kitoblarning bu shakli ochik schet bo`yicha kreditlash bilan bog`lik. Ushbu hisob-kitob shaklidan qo`ymdagilar ko`proq foydalanadilar:

Doimiy aloqada bo`lgan firmalar, TMK va ularning firmalari, eksport qiluvchilar va brokerlik firmalari, eksport qiluvchi ishtirok etgan aralash firmalar, Konsignatsiya vsosilv tovar etkazib beruvchilar firmalar.

Xujjatli inkassa shaklida xujjatlar aylanishi va to`lovi quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Eksport qiluvchi tavar sotish yuzasidan import qiluvchi bilan xujjatli inkassa hisob-kitob shaklida hisoblashish nazarda tutilgan bitim to`zadi va to`lovlarni unga jo`natadi.


2. Eksport qiluvchi o`z bankiga inkassa topshirig`i va tijorat xujjatlarini jo`natadi.

3. Eksport qiluvchi bank inkassa topshirig`i va tijorat xujjatlarini vakil bankka yoki import qiluvchi bankka etkazib beradi.

4. Vakil bank bu xujjatlarni import qiluvchiga beradi.

5. Import qiluvchi o`z bankiga xujjatalar bo`yicha to`lovni amalga oshirishni topshiradi.

2-chizma





6. Inkassa qiluvchi bank remitent bankka to'lov bo'yicha pul o'tkazadi.

7. Remitent bank o'tkazilgan pulni eksport qiluvchi 'isobiga yozadi.

Inkassa asosida hisoblashuvlarning oddiy va xujjatli shakllari mavjud. Oddiy inkassada to'lov moliyaviy xujjatlar asosida undirilsa. Xujjatli inkassada moliyaviy xujjatlar tijorat xujjatlari bilan birgalinda yoki faqat tijorat xujjatlari asosida o'tkaziladi. Bugda banklar o'z zimmasiga xujjatlar bo'yicha to'lovni o'tkazish majburiyatini oladi.

Foiz stavkasi darajasiga taosir etuvchi omillar:

qarz oluvchining mamlakatdagi valyuta, moliya – kredit, iqtisodiy va siyosiy a'vol.

Loyixa risklarining xarakteri.

Kredit manbalari.

Kredit qiymatini tartibga solish bo'yicha halqaro kelishuvlar.

Foiz stavkasi turlari (so'zib yuruvchi, katoiy va aralash).

Raqobatdagi takliflarning mavjudligi.

Kredit muddati.

Inflatsiya suroati.

Kreditning tijorat operatsiyalariga bog'likligi.

Jahon va milliy bozorda ssuda kapitalining xolati.

qarz oluvchi va kreditorning statusi, obro'si va moliyaviy xolati.

Kredit taominot sifati.

Kredit bo'yicha sug'o'rta qoplamasining mavjudligi.

qarz oluvchining olingan kireditdan kelishilgan muddatda foydalanish majburiyatining mavjudligi.

Tijorat bitimlariga nisbatan kredit kelishuvi tuzilgan vaqt.

Bitim summasi.

Kredit va to'lov valyutasi.

Valyuta ko'rsi dinamikasi.

XX asrning oxirlarida katoiy foiz stavkasi blin bir qatorda kredit bozoridagi stavkasi darajasiga muvofiq tarzda o'zgarib turuvchi so'zib yuruvchi foiz stavkasini ham ko'llanila boshladi. Suzib yuruvchi stavka asosida beriladigan kredit muddatning bir qismi (3—6 oy) uchun foiz davri deb ataluvchi kat'iy stavka ko'llaniladi.

## 8.6. Halqaro moliya bozorida banklar raqobatligini oshirish muammolari<sup>67</sup>

Yuqoridagi bayon qilingan barcha vazifalar hozirgi kunda respublikamizda mavjud bo'lgan barcha tijorat banklari uchun dolzarb, birlamchi, vazifalar bo'lib hisoblanadi.

Chunki turli turdagi (mulk shaklidagi va tarmoq banklarining) banklarni vujudga kelishi, ular orasida raqobatni kelitirib chiqarmokda.

---

<sup>67</sup> O'sha yerga qaralsin

Banklarimiz tomonidan mijoz uchun kurash nafaqat kunda, xattoki xar daqiqada olib borilmokda.

Bu o'z navbatida banklarning bozor talabi asosida mijozlarga yangi-yangi bank xizmatlarini qidirib topib, ularga taklif qilishni talab kilmokda.

Bank-xo'jalik faoliyatining iqtisodiy samaradorligi u amalga oshiradigan ishning turli jihatlarini ko'rsatuvchi bir turkum baholar bilan belgilanishi kerak.

Nazarimizda, quyidagi ko'rsatkichlar guruhidan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

Bank ishlab chiqarish tijorat faoliyati samaradorligini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar;

Resurslarning asosiy turlaridan foydalanish ko'rsatkichlari;

Tovar siyosatiga doir turli unsurlarning samaradorlik ko'rsatkichlari.

Ana shu o'zgarib boruvchi ko'rsatkichlar guruhlari bo'yicha ma'lumotlarni taxlil etish banklar faoliyatining turli tomonlari qanchalik samaradorligini ham, ularning bozor sharoitlariga moslashish darajasini ham baholash imkonini beradi.

Halqaro andozalarga mos keluvchi banklar (XAB) tuzish dasturi ikki asosiy qismdan tashkil topish mumkin.

XAB sifatida malaka berilgan banklar tomonidan rioya qilinishi kerak bo'lgan talablar majmui; shunday banklar uchun imtiyozlar majmui.

Halqaro darajadagi bankga bo'lgan asosiy talablar ro'yhatiga quyidagilar kiradi:

- bank hisob-kitoblarini oshkora olish imkoniyatini ta'minlash;
- bankning ishlamayotgan aktivlarini qisqartirish;
- bank zaxiralarini birinchi navbatda uzoq muddatli davlat qimmatbaho qogozlarini sotib olish yo'li bilan shakllantirish va bu zaxiralarni ishlaydigan aktivlarga aylantirish;
- bank turi, quyilmalar summasi, omonatchilar toifasiga karab zaxiralash me'yorini diferentsiatsiyalash; qo'yilma koldiklari o'zgarishlarini aniqroq ilgash imkonini beradigan zaxira hisob raqamlarini tez-tez tartibga solib turish;
- kredit xavf-xatarini to'g'ri baholash layoqati;
- mablag'larni korxonalar aktsiyalariga joylashtirishda banklar uchun tizimini ishlab chiqish va kreditlar berish;
- bank xizmat ko'rsatishida «zichlik me'yori» ni jahon andozalari darajasida ta'minlash;
- bank sarmoyasini yo'qotish xavf xatarsiz mijozlar mablag'lari hisobidan portfelli investitsiyalarni keng tarqatish;
- banklarning bozor axloqi taktikasida o'rinlarning ko'progini ishonchli moliya vositalaridan foydalanishga berilishi;
- chet elda shaxobcha tarmogining mavjudligi;
- bank axborotining va shaxobcha tarmogini boshqarishni tizimliliigi;
- bankda tashki xavf xatardan ximoya qilishning qo'shimcha mexanizmlari ishlab chiqilmogini lozim. Bunda bugungi kunda asosiy e'tibor

mijoz bilan ishlashga ya'ni bank daromadining etakchi manbai-bank komissiyasiga karatilishini nazarda to`lish zarur bo`ladi;

■ asosiy o`tkazish e'tibor xizmat sifatini oshirishga, bank maxsulotlarning turli-tumanligiga (kredit kartochnalari, sug`urta, faktoring, moliya zaxiralarini joylashtirishda maslahatlar berish va xokazo) hamda xalol reklamaga karatilishi kerak;

■ banklar o`zlarining katta-kichikligi, joylashgan o`rni xodimlarning malakasi, mijozlarning tarkibi va boshqalarga karab operatsiyalarni bajarishga ixtisoslashishlari, qisqa muddatli kreditlash va investitsiyalash bilan shugullanishlari, kliring markazi bo`lmogi kerak;

■ bankning axborot tizimlari asosiga hisob raqamlarini tez moslashuvchan rejasi, xujjatli interfeys quyilgan bo`lishi lozim. Bu tizimlar hisob raqamlar rejasining o`zgarishiga moslanish imkoniyatini; hisob va shaxsiy raqamlarning o`zgaruvchan tuzilmasini; mijozlarning istalgan soni bilan ishlashni; komission yigimlarni kushib yozib qo`yishning turli usullarini; rivojlangan tizimlarda tuzilmali cheklashlarning oldini ta'minlash kerak.

#### Qisqacha hulosalar

Valyuta - jahon bozorida, davlatlar orasida pul vazifalarini bajaruvchi, davlatlarni milliy pul birliklari<sup>68</sup> Halqaro kredit ssuda kapitalining jahon oborotidagi xarakati bo`lib, bu xarakat tovar va valyuta ko`rinishidagi mablag`larni uch shart asosida, ya'ni: qaytarib berishlilik; muddatlilik; % (foiz) to`lashlilik - asosida berish natijasida yuzaga keladi.

#### Tayanch iboralar:

Valyuta, tizim, ko`rs, kross, spot, forvard, option, arbitraj,svop operatsiyalari, xalqaro hisob-kitoblar, veksel, akkkreditiv, inkasso, halqaro kreditlar, aktsept krediti, firma krediti, import va eksport operatsiyalari.

#### Nazorat savollari:

Valyuta munosabatlari va ularning huquqiy asoslari

Valyuta operatsiyalari va ularni boshqarish tartibi

Halqaro moliya va kapital bozori vaularni taxlili

Valyuta munosabatlari tizimida banklarning urni.

Xalkaro valyuta konunchiligi.

O`zbekiston Respublikasida valyuta tizimini rivojlanishi

Chet el valyutasida kreditlash.

Xalkaro xisob-kitoblar va uning respublika tijorat banklari tomonidan ishlatiladigan asosiy shakllari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning valyuta

Banklarning valyuta operatsiyalaridagi valyuta risklari va ularni

<sup>68</sup>Piskulov F.N. Valyutnie rascheti vo vneshney torgovle Rossiyskoy Federatsii:Ucheb. Pos. M.: MGIMO.2004 g.

boshqarish.

Asosiy adabiyotlar.

1. Berjanov S.A. Valyutnaya sistema, valyutno`e ro`nki i valyutno`e operatsii. Nukus. 1996 g.
2. Kolesnikov V.I. i dr. «Bankovskoe delo» M. F i S 1996y.
3. Noskova I.Ya. «Mejdunarodno`e valyutno-kreditnie otnosheniya.Uchebnoe posobie banki i birji» YuNITI 1995y.
4. Piskulov D.Yu. Teoriya i praktika valyutnogo dilinga.-M.: ZAO Finansist, diagramma, 2002.-325s.
5. Pugachev F.N. Valyutno`e rascheti vo vneshney torgovle Rossiyskoy Federatsii: Ucheb pos.-M.: MGIMO, 2004.-179s.
6. [www.bankinfo.uz](http://www.bankinfo.uz)
7. <http://www.bankofengland.co.uk/market/money/index.htm>

## IX-BOB. BALANS DAN TASHQARI VA ISHONCHLI OPERATSIYALARI.

### 9.1. Trast operatsiyalari mohiyati va maqsadi.

Mamlakatimizda «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunga asosan banklar moliyaviy universal sifatida namoyon bo'ladilar. Ushbu qonun va boshqa normativ hujjatlariga asosan banklar o'z daromadlari va risklari differentsiyalash ishlarini olib boradilar. Yana shu bilan birga bosh o'z kapitalini ko'paytirish yo'llarini izlamokdalar. Bulardan asosiysi bankda turli xizmatlarni ko'rsatishdir. Bankning turli xizmatlarini ko'rsatishi uning xajmiga bevosita bogliqdir. Chunki bank qanchalik katta bo'lsa u shuncha ko'p operatsiyani amalga oshirish imkoniga ega bo'ladi. Ammo bank qanchalik ko'p xizmat to'rini amalga oshirsa, unda bu xizmatlarni boshqara olmaslik riski, xarajatlarni samarali nazorat qilish riski hamda bank xizmatlarini qiymatini oshishiga olib keladi.

Ammo banklar o'z likvidligini hamda daromadni diverfikatsiya qilishga majbur. Shuning uchun banklar asosiy xizmatdan boshqa xizmatlarni amalga oshiradi.

Trast operatsiyalari banklarga quyidagi imtiyozlarni beradi.

Operatsiya o'tkazish jarayonida Tijorat banlari uzoq muddatli moliyaviy mablag'larga yo'l ochiladi va ularni birjada qimmatbaho qogozlarga quyish mumkin.

Tijorat operatsiyalari tijorat banklari tomonidan mijozlarning ishonchi asosida olib boriladi va qonun bilan cheklanmaydi.

Tijorat banklari va boshqa banklarning operatsiyalari o'tkazish jarayonida mukofot oladi va o'z foydasi manbasini diversifikatsiya qiladi hamda o'zini tusatdan moliyaviy xrisklardan ximoya qiladi.

Bank trast operatsiyalarida o'zining mablag'lari bilan emas balki, umuman begona kapital bilan ishtirok etadi. Asosiy risk qimmatbaho qogozga quyilma qo'ygan shaxsga to'shadi Bank faqat javobgar hisoblanadi.

Ushbu operatsiyalarning barchasi banklarning balansdan tashqari operatsiyalaridir. Chunki bu operatsiyalar bank stavi balansidan tashqarida hisobi yuritiladi. Ammo ulardan to'shadigan daromad umumiy balans daromadiga kushib hisoblanadi.

### 9.2. Trast operatsiyalari turlari va olib borish yo'llari

Yuqorida ko'rsatkichlarni bankning boshqa operatsiyalari jumlasiga kiritadi va ularni majburiyat (shartnoma) turiga ko'ra quyidagicha bo'lishi mumkin(jadval 1):

Jadval 1  
Bankning boshqa operatsiyalari

Tijorat bankining boshqa operatsiyalari	Majburiyat turi (shartnoma)
1. Uchinchi shaxslar tomonidan (pul) majburiyatlarining bajarilishini nazarda tutuvchi kafolotlar berish ko`zda to`tish	Kafolat shartnomasi
2. Uchinchi shaxslardan pul majburiyatlarining talab qilish huquqini olish	Talab qilish huquqini olish shartnomasi
3. Jismoniy va yuridik shaxslar pul mablag`lari va boshqa mulklarni shartnomaga binosi shu binoni boshqarish	Mulk va mablag`ni ishonchli boshqarish shartnomasi
4. qimmatbaho metallar va boshqa qimmatbaho toshlar bilan operatsiyalar o`tkazish.	Sotish-sotib olish, saqlash, mukofot (komissiya) bo`yicha shartnoma
5. Turli boyliklarni soklash uchun qo`lay	Ijara, saqlash, mukofot (komissiya) shartnomasi
6. Lizing operatsiyalari	Moliyaviy ijara shartnomasi
7. Maslaxat, axborot xizmatlari	Pudrat shartnomasi
8. Kushma (birlikdagi) faoliyat	Birgalikdagi faoliyat to`g`risidagi shartnoma

Ushbu operatsiyalarning barchasi banklarning balansdan tashqari operatsiyalari jumlasiga kiradi. Ishonchli mulk (egasi) (trast)- ishonchli trast ta'sischisi, - ishonchli mulkdor (shaxs)- va benefislar (manfaatdor iste'molchi).

Uchinchi shaxs bo`lib - benefislar va mulk egasi (trast ta'sischisi) bo`lishi mumkin.

Trast operatsiyalarini boshqarish quyidagi alohida va birga (aktiv) operatsiyalarini o`z ichiga olishi mumkin:

Saqlash;

Ishonch bildiruvchi shaxs vakolatini bildirish (majlislarda qatnashish);

Daromad va investitsiyalarni boshqarish;

Aktivlarni sotish va sotib olish;

Zaymlarni jalb qilish va qoplash, qimmatbaho qogozlar birlamchi chiqarish va joylashtirish;

Yuridik shaxsni tashkil qilish, qayta tashkil qilish va likvidatsiya qilish;

Mulkni foydalanishga berish (sovga, vorisga).

Mijozning shaxsiy bank raqamini yuritish, kassa, moliya ho`jaligi, majburiyatlar bo`yicha hisob kitoblarni amalga oshirish;

Korxonadagi tasodifiy xolatlar, bashoratlar paytida korxonani vaqtinchalik boshqarish;

Umuman:

xususiy shaxslarga xizmat.

Tijorat korxonalariga xizmat.  
Notijorat tashkilotlariga xizmat.  
Majburiyatlar (uzoq muddatli)  
Aktsiya  
ko`zgalmas mulk  
Chet el aktsiyalari  
Sotib olish sharti bilan aktivlar sotish  
Venchur kapitali  
Opsion  
Fyucherslar.

Banklarning balansdan tashqari bajaradigan funktsiyalari ikkiga bo`linadi.  
To`g`ri funktsiyalari - mulk javobgarligini oladi, hisoblash, xujjatlashtirishni bajaradi.

Diskresiya - o`zining xoxishiga ko`ra investitsion qarorlarni amalga oshirish mumkin.

Daromadlari to`g`ri gonorar va mukofot xizmatlar uchun sum - trast aktivlari summasiga xajmidan kat'iy belgilangan yoki o`zgaruvchan foiz asosida mukofot olish.

Trast operatsiyalarini o`zaro karama-karshi zachet asosida olib borish, mijozning hisob varagidan majburiy ravishda pulni undirish mumkin emas.

qimmatbaho metallar bilan operatsiyalar:  
qimmatbaho metallar sotib olish va sotish bilan bogliq operatsiyalar;  
qimmatbaho metallarni jamgarmaga jalb qilish operatsiyalari;  
qimmatbaho metallar va toshlarni saqlash va transportirovka qilish;  
qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarga kredit berish yoki ularni garavga asosida kredit berish.

eksport operatsiyalari.

Overnayt-uik end paytida mablag`larni quyish.

Metall miqdori x baho x foiz stavkasi (%-yil)kun  
$$360 \times 100$$

Qimmatbaho qogozlar bilan bogliq risklar:

· Baho riski, qimmatbaho qogozlar toshlar va metallarning bahosini o`zgarishi.

· Likvidligining riski. Muddati va xajmini muvozanatini to`g`ri olib borilmasligini yoki to`g`ri kelmasligini natijasida risk paydo bo`ladi.

· Huquqiy risk. Bank faoliyatiga bogliq bo`lgan normativ xujjatlarni qabul qilishi natijasida oladigan zarar.

### 9.3. O`zbekiston Respublikasi moliya bozorida fyuchers shartnomalarini takomillashtirish<sup>69</sup>

---

<sup>69</sup> TDIU va MDH mamlakatlari iqtisodiy mutaxassisliklari bo`yicha bakalavriat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining namunaviy mavzulari. T, 2005 y., 72

Uzbekiston Respublikasining amaldagi konunchiligiga asosan fyuchers – kimmatli kogoz (shartnoma) bulib, muayyan kimmatli kogozlar va boshka moliyaviy vositalarni yoki tovarlarni shartnomalarda belgilab kuyilgan narxda belgilangan kelgusi sanada xarid kilish yoki sotishdan iborat majburiyatni suzsiz tasdiklaydi.

Fyuchers shartnomasi bo`yicha bazis aktivining emitentning avval muomalaga chikarilgan kimmatli kogozlari va avval muomalaga chikarilgan uchinchi shaxsning kimmatli kogozlari tashkil etishi mumkin. Amaldagi konunchilikka asosan fyuchersning bazis aktivi bulib emitentning uzlik birlamchi muomalaga chikarilgan kimmatli kogozlar tashkil etishiga yul kuyilmaydi.

Fyuchers shartnomasining asosiy xususiyati shundaki unda baxoning anikligi va shartnoma bajarilishining majburiyigidir. Fyuchersga asosan bazis aktividagi kimmatli kogozlar darxol kuldand-kulga berilmaydi, balki kat'iy belgilangan muddatda etkazilishi zarur. Fyuchers shartnomasi yordamida fond kimmatliklarini kelajakda olish yoki etkazib berish majburiyati konun asosida rasmiylashtiriladi.

Fyuchers shartnomasi kuyidagi majburiy rekvizitlarga ega bulishi lozim:

“Fyuchers” deb nomlanishi;

Davlat organidan ruyxatdan utganligini tasdiqlovchi xujjat va tartib rakami;

“Fyuchers” imzolangan sana;

“Fyuchers”ning turi (sotib olish yoki sotish uchun);

“Fyuchers emitentining” nomlanishi, yuridik manzili va banki rekvizitlari;

Emitentning shartnomadagi bazis aktivni sotib olish yoki sotish tugrisidagi rasmiy majburiyati;

Fyuchersning amalga oshirilish sanasi;

Bazis aktivning xususiyatlari;

Fyuchers emitentining imzosi va muxri.

Fyuchers shartnomasidagi shartlar birja auksionidagi kimmatli kogozlarga talab va taklifni chukur urgangan xolda tuziladi. Fyuchers bitimidagi xisob-kitoblar esa fond birjasidagi xisob-kliring palatasi orkali amalga oshiriladi. Buning uchun xisob-kliring palatasida fyuchers shartnomast ishtirokchilarining (sotuvchi va oluvchi) maxsus xisob rakamlar ochiladi.

Fyuchers shartnomasi shartlarini amalga oshirish mexanizmini kurib chikamiz. Shuni ta'kidlash lozimki, fyuchers shartnomasida bazis aktivdagi aktsiyalar kursini pasayishi xisobiga manfaat yuzaga keladi. Odatda fyuchers shartnomasida kimmatli kogozlar ta'minlanmagan xolda sotiladi, ya'ni bu kimmatli kogozlar sotuvchining mulki bulmasligi xam mumkin. Fyuchers shartnomasiga asosan sotuvchi brokerdan ma'lum mikdordagi aktsiyalarni sotib oladi. Lekin sotib olingan paket aktsiyasining fakat 60 foizinigina tulaydi, kolgan 40 fozini esa brokerdan joriy narxda karzga oladi. Investor sotib olingan paket aktsiyani tulik sotadi. Fyuchers shartnomasiga asosan investor brokerga



belgilangan muddatda kelishilgan kimmatli kogoszlarni etkazib berishi lozim. Ushbu xolatda investor bazis aktivdagi aktsiyaning narxini tushishidan manfaatdor, chunki muddat kelganda u karzga olingan aktsiyalarni arzon narxda oladi va brokerga sharnomada eski yukori narxda etkazib beradi. Natijada investor kushimcha daromad olishi mumkin. Lekin olingan aktsiyalarning narxi oshib ketsa, investor aktsiyalarni yukori narxda xarid etib, uni brokerga shartnomadagi eski narxda etkazib berishga majbur. Natijada investor katta zarar kurishi mumkin. Shuning uchun fyuchers shartnomasini tuzuvchi shaxslar fond bozorini, uning xozirgi va kelajakdagi xolatini xamda narx-navo kanday bulishini chukur o`rganishi va uning bilishi lozim buladi.

#### 9.4. O`zbekiston Respublikasining hozirgi sharoitida tijorat banklari ishonchliligini baholash va taxlili

O`zbekiston Respublikasida fond bozorini shakllana borishi bilan bu fond bozorining «Evropacha» aralash modeli mavjud bo`lib, bunda tijorat banklari xam boshqa nobank tashkilotlar xam-investitsiya muassasalari teng xuquqlarda faoliyat ko`rsatishi qonunlarda belgilab qo`yilgan. Tijorat banklari amalda investitsiya institutlarining ma'lum vazifalarini bajarishi mumkin, ammo ular xam, boshqa investitsiya institutlari kabi, qimmatli qog`ozlar bozorida faoliyatning xar bir turini amalga oshirish uchun maxsus litsenziyaga ega bo`lishi shart. O`zbekiston Respublikasida ushbu faoliyatni litsenziyalash qimmatli qog`ozlar bozorini tartibga solib turish uchun ma'sul bo`lgan vakolatli davlat organi O`zbekiston Respublikasi Davlat Mulki Qo`mitasi xuzuridagi qimmatli qog`ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi Markaz tomonidan amalga oshiriladi. O`zbekistonda tijorat banklari amaldagi qonunchilikka asosan fond bozorida qimmatli qog`ozlar bilan operatsiyalarning ma'lum turlarini amalda mustaqil ravishda faoliyat ko`rsatish xuquqiga ega bo`lishiga qaramasdan, ular buni o`zlarining shu'balari, ya'ni bu faoliyatni olib borishga ixtisoslashtirilgan maxsus ta'sis etilgan investitsiya institutlari orqali amalga oshirmoqdalar. Masalan, aktsiyadorlik-tijorat «Paxta Bank» fond bozorida qimmatli qog`ozlar bilan bog`liq barcha operatsiyalarni «Paxta Invest» shu'ba korxonasi orqali amalga oshiradi va xokazo.

Amaliyotda tijorat banki o`z aktsiyalarini muomalaga asosan aktsiyadorlik jamiyati sifatida chiqaradi. Qonunchilikka asosan tijorat banklari muomalaga qimmatli qog`ozlarning boshqa turlari obligatsiyalar, depozit sertifikatlari va veksellarni chiqarishi bilan ular mamlakatimizdagi pul aylanmasini jadallashtiradi xamda yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo`sh turgan pul mablag`larini jalb etib, keyinchalik ularni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga investitsiya qiladilar. Bundan tashqari, tijorat banklari veksel muomalasiga xizmat ko`rsatib, mamlakatda xo`jalik sub'ektlarining o`zaro xisob-kitoblarini tezlashtirish va shu asosda to`lov intizomini mustaxkamlash xamda o`zaro debitorlik-kreditorlik qarzdorligini kamaytirishi mumkin.

Tijorat banklari o'z faoliyatida turli toifadagi sarmoyadorlar uchun keng miqyosda maslahat berish xizmatlarini ko'rsatish: mijozlarning investitsion siyosatini shakllantirish. Loyixaviy moliyalashtirishni tashkil etishdan boshlab, qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarish va dividendlarni olishgacha bo'lgan yordamni ko'rstishi mumkin. Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida turli kreditorlar va sug'urtachilar, depozitar va kliring xisob-kitob markazlarining tashkilotchilari sifatida ishtirok etishlari mumkin. Xususan, tijorat banklari qarz oluvchilarga qisqa muddatli kreditlar berish, ularning ta'minlanganlik garovi sifatida qimmatli qog'ozlarni qabul qilishlari mumkin.

Mijozlarga ko'rsatiladigan bank xizmatlarining yanada kengroq turi tijorat banklarining veksellar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni o'z ichiga oladi. So'nggi yillarda mamlakatimizda yirik aktsiyadorlik jamiyatlarining muomalaga chiqargan aktsiyalarini boshqarish uchun kerakli xujjatlar olish, investitsiya va xususiylashtirish jamg'armalari bilan ishlash kabi investitsion faoliyatning ustuvor yo'nalishlari tijorat banklarning diqqat markazida turgan ob'ektlar bo'lib qoldi. Masalan, mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi xalq bankining joylardagi bo'linmalari orqali xususiylashtirish investitsiya fondlari aktsiyalarini sotish amalga oshirilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklarining milliy fond bozorida ishtirok etishining bosh maqsadlari quyidagilardan iborat:

- bank faoliyati asosiy turlarini amalga oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini jalb etish (o'z passivlarini shakllantirish);

- turli qimmatli qog'ozlarga o'z mablag'larini investitsiyalashdan tushadigan daromadni olish (aktiv operatsiyalar);

- fond bozorida qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha o'z mijozlariga ko'rsatiladigan xizmatlardan daromad olish (brokerlik va depozitariy xizmat);

- fond bozorida muvaffaqiyatli faoliyat olib borish asosida o'z nufuzini oshirish va yangi mijozlarni o'zlariga jalb qilish;

- emitent muomalaga chiqargan aktsiyalar nazorat paketini sotib olish yo'li bilan turli tijorat banklari va boshqa aktsiyadorlik jamiyatlar faoliyatini olib borishni boshqarish va nazorat etish xuquqini olish;

- fond bozorida mijozlar, raqobatchilar, bozor kon'yukturasi (qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talab va taklif xolati), narxlar kotirovkasi to'g'risida to'liq xaqqoniy va tezkor ma'lumotlar olish.

O'zining ulkan moliyaviy salohiyati, shu jumladan iqtisodiyotni rivojlantirishning hozirgi bosqichida qimmatli qog'ozlar bozorida bevosita bank vazifalarini u yoki bu tarzda ishtirok etmasdan bajarish imkoniyati bo'lmaganligidan foydalanib, tijorat banklari fond bozorida uning bevosita malakali ishtirokchisi sifatida xamda umuman qimmatli qog'ozlar bilan sado-sotiqni rivojlantirish uchun etarli qulay shart-sharoitlarni shakllantiradigan bozor

umumiy infratuzilmasining muxim yordamchi muassasasi sifatida tobora ko`proq muxim o`rinni egallab bormoqda.

Shuni ta'kidlash lozimki so`nggi yillarda tijorat banklari o`zlarining mamlakatimiz fond bozoridagi olib borayotgan faoliyatni ancha faollashtirdi. Tijorat banklari fond bozorida qimmatli qog`ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish maqsadida maxsus ixtisoslashtirilgan turli shu'ba kompaniyasi tuzdilar. O`z tarkibida milliy fond bozorini tadqiq etuvchi va unda amaliy ish boruvchi maxsus bo`linmalarni shakllantirdilar va unda maxsus shaxodatnomaga ega malakali xodimlar bilan to`ldirdilar va ular turli xil turdagi sindikatlar va xolding kompaniyalarida ishtirok etib kelmoqdalar. Tijorat banklarining qimmatli qog`ozlar bilan amalga oshiriladigan turli operatsiyalarini kengaytirishga bo`lgan intilish xar xil sabablarga bog`liq bo`lib, ularning tarkibida bevosita bank kreditlaridan foydalanish soxasining nisbatan qisqarib borayotganligi, qimmatli qog`ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalardan olinadigan daromadlarning ortib borayotganligi xamda davlat qisqa muddatli obligatsiyalardan keladigan daromadni soliqlardan ozod etilganligi shular jumlasidandir. O`zbekiston Respublikasida tijorat banklarining fond bozorida qimmatli qog`ozlar bilan amalga oshirilayotgan operatsiyalarining keng miqyosda diversifikatsiyasi axborotlarning tez uzatilishi, ularning qayta ishlanishi, fond bozoridagi iqtisodiy vaziyat va uning istiqbolini chuqur va ko`p omilli taxlil qilinishini ta'minlaydigan axborotlashtirish xamda telekommunikatsiyaning zamonaviy texnika vositalarini joriy etish asosida yuz bermoqda.

O`zbekiston Respublikasida tijorat banklari-faqatgina o`ziga xos noyob muassasalar xisoblanib, xozirda ular amaliyotda milliy fond bozorining barcha vositalarini: aktsiyalar, davlat qisqa muddatli obligatsiyalari, davlat o`rta muddatli obligatsiyalari, depozit sertifikatlari, depozit jamg`arma sertifikatlari, veksellar bilan faoliyat olib borishni o`zlashtirib olib, xozirgi vaqtda ular qimmatli qog`ozlar bozorida bir vaqtning o`zida xam emitent, xam sarmoyadorlar va investitsiya instituti sifatida chiqmoqda. Demak, bundan xulosa qilish mumkinki, bundan keyin xam mamlakatimiz milliy fond bozori yanada rivojlanishi bilan tijorat banklarining bu soxadagi obro`-e'tibor tobora kuchayib boraveradi.

Mamlakatimizda tijorat banklarining qimmatli qog`ozlar bozoridagi operatsiyalarini faollashuvining muxim omili-ularning ustav va aylanma fondlariga o`z qimmatli qog`ozlari emissiyasi asosida qo`shimcha mablag`larni jalb etishga extiyojning yanada kuchayib borayotganligi xisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi milliy fond bozorida tijorat banklarining faoliyatini faollashuviga sabab bo`lgan eng muxim shart-sharoitlarga, bizning fikrimizcha quyidagilarni kiritish mumkin:

O`zbekiston Respublikasida amaldagi qonunchilik tijorat banklariga fond bozorida qimmatli qog`ozlar bilan bog`liq xar qanday turdagi operatsiyalarini amalga oshirishda ishtirok etishiga qonunan yo`l qo`yiladi;

-tijorat banklarining nisbatan barqaror moliyaviy xolati va bank operatsiyalarini yuqori daromadlilikiga ularga ko`rsatiladigan bank xizmatlarining yangi turlarini, shu jumladan qimmatli qog`ozlar bilan bog`liq operatsiyalarini amalga oshiriladigan ko`pgina turlarini o`zlashtirishga katta moliyaviy resurslarni ajratish uchun etarlicha imkoniyat yaratib beradi;

-tijorat banklarida mavjud bo`lgan xozirgi zamon darajasidagi texnikaviy, axborot va xodimlar salohiyati, shu'ba banklarining juda keng tarmog`i va mijozlar ma'lumotlari bazasi ularni qimmatli qog`ozlar bozorining eng yuqori qobiliyatli qatnashchilarga aylantirgan;

-tijorat banklari bilan boshqa moliyaviy iqtisodiy muassasalar o`rtasidagi kuchayib borayotgan o`zaro raqobat, amaliyotdagi ko`pgina an'anaviy bank xizmatlari xisoblanadigan (kreditlash, valyuta, moliyaviy va agentlik operatsiyalari) xizmatlarini ko`rsatishdan keladigan foydaning kamayib ketishi, tijorat banklarining o`z faoliyatini asosiy diqqat markazini milliy qimmatli qog`ozlar bozori soxasiga ko`chirishga majbur qilmoqda.

#### 9.5. Tijorat banklarini lizing operatsiyalari

O`zbekiston Respublikasida xo`jalik korxonalarini sezilarli qismining moliyaviy holatining beqarorligini, investitsion xarajatlarni moliyalashtirish manbalaridan foydalanish imkoniyatlarining jiddiy tarzda cheklanganligini hisobga olib, ularning faoliyatini lizing asosida moliyalashtirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Moliyaviy lizing - o`z mohiyatiga ko`ra lizing ob'ektining barcha qiymatini to`lashni taqozo etadi. Bunda lizing asosida egalik qilish hamda foydalanish maqsadida ijaraga berilayotgan mulkning muddati to`liq amortizatsiya muddatiga yaqinlashadi. Lizing shartnomasi amal qilayotgan muddat mobaynida lizing beruvchi tashkilot lizing to`lovlari vositasida mulkning barcha qiymatini o`ziga qaytaribgina qolmay, balki bundan foyda ham oladi. Lizing operatsiyasi yordamida lizing oluvchi sub'ektlar uchun:

- eskirayotgan texnika, uskuna va jihozlarni eng zamonaviylari bilan almashtirish imkoniyatlari tug`iladi;

- bir vaqtning o`zida ham zamonaviy texnologiya sotib olinadi, ham ishlab chiqarish ko`lamini kengayadi;

- sotib olinayotgan uskunaning umumiy qiymatini bir paytning o`zida to`lash muammosidan ozod bo`ladi;

- zamonaviy texnologiyani ishlatishdan hosil bo`ladigan foydaning kelishi tezlashadi;

- foyda solig`iga tortiladigan soliq bazasini lizing to`lovlari summasi darajasida kamaytiradi.

Lizing beruvchi uchun esa:

- ko`rsatilayotgan xizmatlar ko`lamini kengaytirish hamda eski mijozlar bilan o`rnatilgan amaliy aloqalarni uzmaslik;

- yangi mijozlarni jalb etish;
- o'z mablag'laridan samarali foydalanish, shuningdek, qo'shimcha daromad olish;
- mijozning to'lovga noqobilligi oqibatida kelib chiqadigan zararlar xavfini kamaytiradi.

Agrar islohotlarda, bizning fikrimizcha, qisqa muddatli, ya'ni operativ lizing juda ham qulay bo'lib, ko'p jihatdan o'z afzalliklari bilan ajralib turadi. Uning afzalliklarini biz quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

Birinchidan, lizing shartnomasi qisqa muddatga tuzilishi va u muddat tugagach, mulkni (uskunalarni) ijaraga beruvchiga qaytarish imkoniyati qisqa vaqt ichida yo'nalishi tufayli moliyaviy qarorlar bo'yicha hisob-kitoblar aniq bo'ladi va istiqbol natijalariga mos tushadi. Bu natijada operativ lizing juda ham qulaydir.

Ikkinchidan, kichik va xususiy tadbirkorlar bozor talabidan kelib chiqib o'z faoliyatini tezkor o'zgarish imkoniyatiga ega.

Uchinchidan, kerak bo'lgan uskunani qisqa muddatga sotib olishdan ko'ra uni ijaraga olib ishlatish, ijaraga oluvchining fan va texnika yutuqlaridan o'z vaqtida foydalanish imkonini berishi mumkin.

To'rtinchidan, lizing shartnomasi bilan bog'liq bo'lgan risklar nisbatan boshqa risklardan kamroq bo'lishi mumkin.

Beshinchidan, rivojlanib borayotgan va o'zgaruvchan iqtisodiyotda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uni moliyalashtirish manbai sifatida xizmat qiladi.

Oltinchidan, ma'naviy jihatdan tez eskiruvchan va qadrsizlanuvchi uskunalar bo'yicha qisqa muddatli lizing shartnomalari muddatdan ilgari ma'naviy eskirish risklari, foydalanuvchi o'rniga, ijaraga beruvchi zimmasiga yuklatish imkoniyatini beradi.

Ettinchidan, lizing shartnomasida rad etish imkoniyatini beruvchi muddatli lizing shartnomasi uni rad etish auktsionini to'lashni talab qilgan taqdirda ham, ijaradan voz kechish imkoniyatini beruvchi mazkur shartnoma aslida adolatli bahoga ega bo'ladi.

Sakkizinchidan, to'la xizmat ko'rsatish lizing shartnomasi bo'yicha ijaraga oluvchi uskunalar bo'yicha zarur bo'lgan barcha xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini qo'lga kiritish mumkin.

To'qqizinchidan, lizing kichik kompaniya va xususiy korxonalar uchun nisbatan arzon pul mablag'lari manbalari bo'lib xizmat qildilar.

O'ninchidan, aktsiya yoki obligatsiyalarni muomalaga chiqarish evaziga mablag' jalb qilishga nisbatan, lizing past xarajatlar bilan bosqichma-bosqich uzoq muddatli moliyalashtirishni ta'minlaydi.

Bizning mamlakatimizda tijorat banklarining likvidligi va tulov qobiliyatini davlat tomonidan tartibga solishning turli usullari keng kullanilmokda. Bu usullar tijorat banklarining faoliyatini O`zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan turli me'yorlar va cheklovlar urnatish xamda banklar faoliyatini soliqqa tortish kabilardan iboratdir.

Shunga muvofiq holda tijorat bankining likvidligiga va to`lov qobiliyatiga bevosita ta'sir ko`rsatuvchi bir qator omillarni ajratish mumkin.

Birinchidan, tijorat banklari Respublika Markaziy banki tomonidan olib boriladigan restruksion siesatning oqibatlarini o`zlarida sezadilar. Masalan, O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy uchet stavkasining oshirilishi, majburiy rezerv me'rlari va ustav fondini eng kam miqdorining o`zgarishi, tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalarining tarkibi va samaradorligiga bevosita ta'sir qiluvchi iqtisodiy me'yorlarning o`rnatilishi kabilar.

Ikkinchidan banklarning likvidligi va tulov qobiliyatiga mamlakatning bank soxasidagi fiskal siyosati ta'sir ko`rsatadi. Bu bevosita va bevosita to`lovchisi bank xisoblangan soliqlarning soni va turini belgilash; soliq stavkalari miqdorini; ular bo`yicha imtiyozlarni va undirish usullarini belgilash orqali namoyon bo`ladi.

Uchinchidan so`nggi vaktlarda pul-kredit orqali tartibga solishga O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ochiq bozorda davlatning qimmatbaxo qog`ozlari bilan amalga oshiradigan operatsiyalari kuchli ta'sir ko`rsata boshladi.

Bundan tashqari tijorat banklarining likvidligi va tulov qobiliyatiga ta'sir etuvchi mikroiqtisodiy omillar kam mavjud bo'lib ular sirasiga quyidagi asosiylarini kiritish mumkin: tijorat banking resurs bazasi, qo'yilmalar sifati, menejment darajasi, shuningdek bank faoliyatining funktsional tizimi va ushbu faoliyatning rag'batlantirilishi.

Tijorat banklari likvidlik dinamikasiga quyidagi uchta asosiy omil ta'sir ko'rsatadi:

- jamgarmalar summasining oshishi yoki kamayishi bilan bog'liq holda mablag'larni kirim yoki chiqim qilish.
- ssudalar va investitsiyalar xajmining oshishi yoki kamayishi bilan bog'liq holda mablag'larning oqib kelishi va chiqib ketishi.
- Jamgarmalar xajmining usishi yoki kamayishi oqibatida majburiy rezervlar miqdorining o'sishi yoki kamayishi, chunki majburiy rezervlar me'yoring bajarilishiga yo'naltirilgan mablag'lar likvid aktivlarining asosiy shakllaridan biri xisoblanadi.

11.3. Chet el mamlakatlari tijorat banklari to'lov qobiliyati va likvidligini tartibga solish tajribasi

Rivojlangan mamlakatlar bank tizimlari bir-biriga o'xshash bo'lib tuyulsada ularning xar biri asrlar mobaynida tashkil topgan uziga xos bank ishi milliy munosabatlari va ularning tarkibiy kismilariga ega. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va ularni barqarorligini ta'minlash borasida xar qanday davlat xam o'ziga xos tajribalarga ega

Jaxon banklari amaliyotida ichki va tashki nazoratni tashkil etishga turlicha endashuvlar mavjud. Institutsional nuqtai nazardan bu tizimning tashkiliy tuzilish usullari, Markaziy bankning ushbu tizimdagi o'rni va roli bilan fark qiluvchi uch guruh mamlakatlarini ajratish mumkin:

nazorat faoliyati fakatgina Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan mamlakatlar: Avstraliya, Buyuk Britaniya, Islandiya, Ispaniya, Irlandiya, Italiya, ?ngi Zelandiya, Portugaliya.

nazorat faoliyati Markaziy bank tomonidan boshqa organlar bilan birga amalga oshiriladigan mamlakatlar:

AKSh - Federal Rezerv Tizimi (FRT), Moliya vazirligi va mustakil agentlik - Depozitlarni Sug'urtalash Federal Korporatsiyasi (DSFK) bilan birgalikda;

Shveysariya - Markaziy bank, Federal Bank Komissiyasi bilan birgalikda;

Frantsiya - Frantsiya Banki, Bank Komissiyasi bilan birgalikda;

Germaniya - Bundesbank, Kredit Nazorati Federal Xizmati bilan birgalikda.

nazorat faoliyati Markaziy bank tomonidan emas, balki boshqa organlar

tomonidan amalga oshiriladigan mamlakatlar: Kanada, Daniya, Lyuksemburg, Shvetsiya, Avstriya, Finlandiya, Norvegiya.

Shunday qilib, bank nazorati ob'ektiv zarurat ekan, ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi maxsus organlar xam zarurdir. Ushbu organlar maqomi bo'yicha turlicha bo'lishi mumkin, ammo ular ichida xamisha davlat organlari mavjud buladi. Shu bilan birgalikda ayrim mamlakatlarda bank faoliyatini tartibga soliq tizimining tashkil topishining amaliyoti tarixiy jixatdan karalganda shuni ko'rsatmokdaki, ushbu jarayonlar turli mamlakatlarda turlichaligidan ko'ra ko'proq umumiy xususiyatlarga ega AKShda pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun mas'ul organ bo'lib - Federal Rezerv Tizimi (Markaziy bank) hisoblanadi.

AKSh da banklar faoliyatini nazorat etish va boshqarish bizdan farq qiladi. Bugungi kunda AKSh banklarini boshqarish va ularni faoliyatini nazorat etish quyidagi idoralar tomonidan olib boriladi:

1. Federal rezerv sistemasi.
2. Pul muomalasi nazoratchisi barcha milliy banklarni nazorat qiladi.
3. Depozitlarni sug'urtalovchi Federal korporatsiyasi bank va mijozlar depozitlarini sug'urtalaydi, bankrotlikka uchragan banklarga o'z vakolati doirasida yordam beradi.
4. Adliya vazirligi.
5. qimmatli qogozlar va birjalar bo'yicha komissiya.
6. Shtatlardagi bank faoliyati bo'yicha komissiya yoki bank sovetlari yangi banklar ochilishi uchun charterlar beradi va o'z navbatida shtatda charter olgan barcha banklarni doimiy tekshiradi hamda ularni doimiy ravishda nazorat etadi.

AKShda banklarni barqarorligini taminlashda va ularni bankrotlikka uchrashini bartaraf etuvchi hamda omonatchilar mablag'larini sug'urtalovchi asosiy bank qonunlari quyidagilar:

1. 1987 yilda tasdiklangan bank ishidagi teng va sof raqobatchilik qonuni.
2. 1991 yilda tasdiklangan depozitlarni sug'urtalovchi Federal korporatsiya faoliyatini rivojlantirish to'g'risidagi qonun.
3. Banklarni qo'shilishi to'g'risidagi (1960 yilda qabul qilingan) qonun. Depozitlarni sug'urtalovchi Federal korporatsiyasini tashkil etishdan maqsad (1934yilda), mamlakatda keng tus olgan banklarning yoppasiga bankrotlikka uchrashini oldini olish, ularni moliyaviy sog'lomlashtirishda o'z tasirini ko'rsatish va eng avvalo mijozlar depozitlarini bankrotlikdan ximoya qilish hamda aholini banklarga bo'lgan ishonchini oshirish edi. 1980 - 1985 yillar mobaynida AKSh da jami 309 ta bank bankrotlikka uchragan bo'lib, ulardagi depozitlarning umumiy miqdori 30445,1 mln. dollarni tashkil etgan bo'lsa, shulardan 66 ta bankning 4538,4 mln. dollarlik depozitlarini DSFK tomonidan qoplangan.

Moliyaviy barqarorligini yo'qotgan banklarga DSFK quyidagicha yordam berishi mumkin:

1. Bankrotlikka uchragan yoki barqarorligini yo`qotgan banklarni boshqa bir iqtisodiy baquvvat bank bilan qo`shilishga yordam berish.

2. Sug`urtalash orqali banklarni bankrotlikni bosib o`tish imkonini vujudga keltirish.

3. Bankrotlikka yuz tutgan bankning hisobiga belgilangan miqdorda pul mablag`i o`tkazish orqali bankni saqlab qolishi mumkin. 1986 yildan boshlab korporatsiya xar xaftada tegishli chora ko`rilgan banklar, ularning xizmatchilariga nisbatan ko`rilgan chora-tadbirlar to`g`risida matbuot orqali aholini xabardor qilib turadi. Bunday kattik siyosat olib borilishidan maqsad, bank rahbarlari va xizmatchilarini doimo extiyotkorlik va o`tkazish bilan ssuda siyosatini, aktivlar va passivlarni teppa - teng boshqarish orqali bankdagi iqtisodiy barqarorlikni oshirib, to`lov qobiliyatini yo`qotishni hamda bankrotlikni oldini olishni yo`lga qo`yish.

AKShda banklar va jamg`arma muassasalarining faoliyati xam federal darajada, xam shtatlar doirasida tartibga solinadi.

Federal darajada kaznacheystva (moliya vazirligining amerikacha ekvivalenti) ning bo`limlaridan biri milliy banklarni tashkil etishga litsenziya beradi va ular faoliyatini tartibga soladi. Bosh bir bo`limi esa federal jamgarma muassasalariga nisbatan xuddi shunday faoliyat bilan shug`ullanadi. AKShning ellikta shtatining xar biri banklar va jamgarma muassasalarini ro`yxatga oladi va ular faoliyatini tartibga soladi. Depozitlarni sug`urtalash federal korporatsiyasi esa xar bir depozit muassasasidagi 100,000 AKSh dollarigacha bulgan depozit schetlarini sug`urta qiladi.

hozirgi kunda AKShda tijorat banklari faoliyatini tartibga soliq quyidagi makroiqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishga yo`naltirilgan:

Mamlakat moliya-kredit tizimining barkarorligini qo`llab-quvvatlash.

Bank mijozlarining manfaatlarini himoya qilish.

Muayyan iqtisodiy usish sur'atlarini saqlab turish.

Iqtisodiy me'yorlar tizimini aniklash va uning bajarilishi ustidan nazoratni Federal Rezerv Tizimi amalga oshiradi. AKShda hozirgi kunda iqtisodiy me'yorlar tizimini ishlab chiqishda Bazelu bitimining takliflari asos kilib olingan. 1988 yilgacha AKShda etarli kapital miqdori barcha aktivlarning 5%i darajasida belgilangan edi. 1988 yildan boshlab kapitalning etarlilik talablari xatarni xisoblab chamalangan aktivlarning 8% i darajasida belgilandi. 1993 yilning 1-yanvaridan boshlab barcha amerika banklari Bazelu bitimi talablariga bo`ysinishga majburligi konun yo`li bilan belgilab qo`yildi. Xuddi shu tizimga o`xshagan xolat Angliya bank tizimi faoliyatiga xam tegishli.

Angliya Bank tizimining o`ziga xos xarakatlantiruvchi asosiy kismi va London pul bozorining asosiy qatnashchilari yirik tijorat banklaridan iborat cheklangan guruh xisoblanadi. Ular jumlasiga avvalo mamlakatning yirik «katta to`rtlik» banklari: «Lloyds», «Midland», «Barklayz» va «Neshnl Vestminster» kiradi.

Tijorat banklari va kredit-moliya institutlarining faoliyatini tartibga solish

Angliya Banki tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu faoliyatni atroflicha taxlil qilish uchun bu soxada qabul kilingan muxim qonun va karorlarni kurib chiqish lozim.

Buyuk Britaniya bank tizimi tarixan kup xam nazoratga olinmagan, 1973-74 yillarda bir qator banklarning nisbatan qisqa muddatga mablag`larni jalb qilib uzoq muddatga kredit berishi oqibatida bank tizimi inkirozga uchradi va bu xol 1979 yil bank konunining qabul qilinishiga asos bo`ldi. Ushbu qonunga muvofiq depozit qabul qiluvchi institutlar ikki toifaga, banklar va litsenziyalangan depozit qabul qiluvchilarga ajratildi. Bank sifatida litsenziya olish uchun muassasalar etarlicha mablag`larga ega bo`lishi va o`z mijozlariga turli-tuman bank xizmatlari ko`rsatish qobiliyatiga ega bo`lishi lozim. Litsenziyalangan depozit qabul qiluvchilar esa bank maqomiga ega bo`lish uchun qo`yilgan shartlarga to`liq javob bera olmaydigan, ammo ayrim turdagi bank operatsiyalari bilan shug`ullanuvchi moliya muassasalari edilar. Ushbu qonunda shuningdek "bank" so`zini faqatgina etarlicha bank kapitaliga ega bo`lgan xamda banklarga xos ko`p turdagi operatsiyalarni amalga oshiruvchi moliya muassalarigina ishlatishi belgilab qo`yildi.

1979 yilgi bank qonuni mayda bank depozitorlari va jamgarmachilarini bank inkirozlaridan ximoya qilish maqsadida bank depozitorlarini himoyalash tizimini ishlab chiqdi. Ushbu AKShdagi Depozitlarni Sugurtalash Federal Korporatsiyasi (DSFK) singari faoliyat ko`rsatadi. Ushbu tizim a'zo banklarning vakillaridan tashkil topgan Depozitlarni ximoyalash Boshqarmasi tomonidan boshqariladi va uning boshlig`i Angliya Bankining raisi hisoblanadi. Bu boshqarma Depozitlarni himoyalash Fondini boshqaradi xamda barcha banklar va depozit qabul qiluvchi muassalar o`z depozit bazalariga nisbatan 0,3%, ammo 300,000 funt sterlingdan oshmagan miqdorda badal to`lashlari shart.

1981 yilda qabul qilingan «Monetar Nazorat to`g`risidagi nizom»ga binoan bank muassalari va depozit qabul qiluvchilarning likvidligini ta'minlash maqsadida bu muassasalar o`z majburiyatlarining 0,5% ini Angliya Bankidagi operatsiyalarda qatnashmaydigan xisob rakamida saqlashlari shart qilib qo`yildi. Shuningdek ushbu nizomga muvofiq Angliya Banki tomonidan uchet stavkalari e`lon qilinmaydigan bo`ldi, ammo bu instrumentni zarur paytda qo`llash kukuki saqlab kolindi. Lekin shunday bo`lsada kupgina tijorat banklari va depozit qabul qiluvchi muassasalar beraetgan kreditlari uchun foiz stavkasini belgilash jarayonida Angliya Banki tijorat banklariga berayotgan kreditlar uchun belgilaydigan foiz stavkalarini asos qilib olmoqdalar.

1987 yilgi bank qonuniga muvofiq vakolatli banklar bu maqomini Angliya Bankidan olish uchun quyidagi talablarga javob berishi shartligi belgilab qo`yildi:

- a) muassasaning direktorlari, nazoratchilari va boshqaruvchilari o`zlarining lavozimlariga mos bulgan tartibli va vijdonli shaxslar bo`lishi lozim;
- b) muassaning faoliyati kamida ikki kishi tomonidan samarali boshqarilmogi lozim;

s) kapitalning etariligi, shubxali qarzlarni boshqarish, likvidlik, boshqaruvning ichki nazorati kabilarni xisobga olgan holda biznes extiyotkorlik bilan yuritilmog`i lozim.

Kamida 1 mln funt sterling o`z kapitaliga ega boshqa moliya muassasalari moliyaviy xizmatlar ko`rsatishi va depozitlar qabul qilishi mumkin, ammo ular o`z nomlarida «bank» sezini ishlata olmaydilar.

Jamgarmachilarga to`lovlar yo`qotilgan summaning 75%i, ammo 20,000 funtdan oshmagan miqdor bilan chegaralanadi. Ushlab qolingani 25% summa jamg`armachilarga nisbatan tarbiyaviy chora xisoblanadi va ularni o`z jamgarmalari uchun joy tanlashda extiyotkor bo`lishga da'vat etadi.

Germaniya bank tizimida kredit tizimining turli zvenolari o`rtasidagi o`zaro aloqalarning asosi sifatida universallashtirish tamoyili qo`llaniladi. Unga binoan turli kredit muassasalari moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda bir xil xuquqga egadirlar.

Germaniyada tijorat banklari faoliyatini tartibga solish vazifasi Bundesbank va Kredit Nazorati Federal Xizmati zimmasiga yuklangan.

Bundesbank faqat birgina real ta'sir vositasiga ega, ya'ni u xam bulsa majburiy rezervlashning eng kam miqdorini urnatish va tijorat banklari ustidan nazorat qilishning fakatgina ikki instrumentiga ega - bular mablag`larni rezervlash va xisobotlar qabul qilish. Boshqa nazorat funktsiyalari Moliya vazirligiga bo`ysinuvchi Kredit Nazorati Federal Xizmati zimmasiga yuklangan.

Germaniyada faoliyat ko`rsatayotgan tijorat banklari Bundesbankka bank balansi likvidligining axvoli xakida xar oyning oxirida talab etilgan shakllar bo`yicha xisobot topshiradilar.

Frantsiya bank tizimi xam dunyodagi eng qadimgi va hozirgi kunda taraqqiy etgan tizimlardan biri sanaladi, shu sababli xam bizningcha uning tajribasini o`rganish foydadan xoli emas.

#### 11.4. O`zbekiston Respublikasi tijorat banklarida bank to`lov qobiliyatini tartibga solish muammolari

Tijorat banklarining barqarorlik darajasini ekzogen va endogen faktorlar orqali aniqlanadi. Banklarning keng ko`lamda bankrotlikka uchrashi ekzogen faktorlarga to`g`ri keladi. Bu - mamlakat yoki xududdagi siyosiy xolat, umumiy iqtisodiy xolat, moliya bozoridagi axvol, kamkor-banklarning ishonchliligi, bank mijozlarining ishonchliligi. Agarda ekzogen faktorlarning tasiri barqaror bo`lsa, u holda bankning xolati endogen faktorlarda aniqlanadi. Bular: bank strategiyasi, o`z kapital mablag`lari bilan taminlanganligi, kadrlar malakasining darajasi, menedjment darajasi va uning ichki siyosati.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligiga tasir ko`rsatuvchi alohida faktorlar tasir darajasining o`zgarishi.

Risk darajasi foizlarda shunday aniqlanadiki, bunda riskning umumiy summasi 100% ga teng bo`lsin. Misol uchun, siyosiy barqarorsizlikning



bankrotlikka tasiri 40%, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorsizlik -35%, moliya bozorining xolati -20%, endogen faktorlarning tasiri - 5%. Tadqiqotning shu yo`sinida qo`yilishidan, biz bankrotlikni keltirib chiqaruvchi xar bir faktorning aniq tasir darajasini bilib olamiz. Siyosiy barqarorlikning xukm surishi - bank xizmat ko`rsatish bozorining rivojlanishida muxim va samarali shart-sharoit hisoblanadi.

O`z kapitalini juda past malaka bilan boshqarilishi - tijorat banklarining bankrotligini keltirib chiqaruvchi eng keng tarkalgan sabablardan biri deb hisoblaymiz.

O`z kapitalini shakllantirish manbalari: aktsiya chiqarish, undirilmagan qarzlarni qoplash uchun zakiralarni oshirish, bank foydasidan oqilona foydalanish va bankning balansdan tashqari faoliyati.

Bankning moliyaviy axvolini tuzatish va uning iqtisodiy barqarorligini yaxshilash uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

1. Bank sarmoyadorlarini imkoniyatlarini ko`rib chikish va yil oxiriga kadar bankning ustav kapitalini elon qilingan miqdorga etkazishni taminlash.

2. Muddati o`tgan qarzlarni qaytarish uchun tegishli tadbir asosida choralar ko`rish va kaytishi mavhum bo`lgan kreditlar uchun zaxiralarni belgilangan me'yorga yetkazilishini taminlash.

3. Bankning aktivlarini daromad keltirmaydigan qismini kamaytirish va o`z navbatida daromadlik imkoniyatini oshirish uchun aktiv mablag`larni asosan tavakkalchilik darajasi kam bo`lgan DKK bozoriga yo`naltirish.

4. Bank bo`limlari va binolarini ko`rish bo`yicha amalga oshirilgan 290,5 mln sumlik kapital xarajatlarni bankning no-rentabel bo`limlarining bino va inshootlarini, bankning asosiy faoliyatida muhim bo`lmagan vositalarni sotish orqali qoplash.

5. Bank ssudalari bo`yicha muddati o`tgan foizlarni to`liq qaytarib olib, shu summani bankning muddatsiz depozitlardagi majburiyatlarga ishlatish uchun bankning vakillik varaqasida saqlab turish.

6. Bank mamuriyatiga, transportga, ish haqi va shu bilan birgalikda unga tenglashtirilgan xarajatlarni bank daromadligiga bog`liq ravishda his ovlash.

7. Bankning aktivlarini marketing tadqiqotlariga bog`liq ravishda taqsimlashni yo`lga qo`yish.

Xulosa qilib shuni ko`rsatishimiz mumkinki, banklarning bankrotlikka uchrash quyidagi eng asosiy xolatlarda ro`y berishi mumkin: ccudalarning qaytmasligi va boshqa aktivlar qiymatining yo`qotilishi, likvid mablag`larning minimum darajadagii va asosiy faoliyatdan ko`riladigan zararlar shuningdek, ushbu zararlarini omonatchilar va mijozlar mablag`lari hisobidan qoplash. Bundan tashqari, bank majburiyatlarining aktivlarga nisbatan ortib ketishi, qimmatli qogozlar qiymatining tushib ketishi. Bunga misol, 1930 - 1933 yillardagi dunyo mamlakatlarida tijorat banklarining yoppasiga bankrotlikka uchrashining asosiy sabablaridan biri, bank obligatsiyalarining bozor narxining

keskin tushib ketishi va buning natijasida aholining o'z omonatlarini qaytarib olishi bo'lgan. Bunday vaziyat bank krizisi yoki sarosimalik deb ataladi.

Bank likvidlikning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olgan holda likvidli aktivlarga zarur miqdorini beliglab olishlari shart. Mazkur omillarga quyidagilar kiradi:

1) omonatchilarning ko'payishi yoki kamayishiga ko'ra mablag'larga ega bo'lish yoki ularni yo'qotish bank jalb qilingan mablag'lar bo'yicha majburiyatlarni yaqin muddatlarda bajarishi lozim, bu omonatlar va boshqa passivlarning muddatlari bilan bog'lik, hamda bankda qoladigan depozitlar miqdorini (asosiy deponentlar) hisob varaqdan olinadigan yoki darxol to'lanadigan depozitlar va boshqa passivlar bilan qiyoslangan holda taxlil qilish kerak;

2) omonatlar summasining usishi yoki qisqarishiga muvofiq majburiy zaxiralar me'yoriy miqdorining ko'payishi yoki kamayishi ham likvidlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi.

3) ssudalar va investitsiyalar summasining oshishi yoki kamayishiga ko'ra mablag'lar oqib kelishining ko'payishi yoki pasayishi ushbu omilning ta'siri iboratki, ssudalar va investitsiyalar miqdoridir xar bir oshishi likvidli aktivlar ulushini kamaytiradi, chunki investitsiyalar uzoq muddatga asoslangan.

11.5. O'zbekiston Respublikasining hozirgi sharoitida tijorat banklari ishonchligini baholash va taxlili

Respublikamizda tijorat banklari likvidligi va tulov kobilyatini boshqarishning asosiy usuli ular tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'rnatgan iqtisodiy me'yorlarga rioya etishi hisoblanadi.

Likvidlikni sifatli baholash, bankning moliyaviy axvolini taxlil va nazorat qilish uchun koeffitsentlar uslubidan foydalaniladi. U deyarli barcha davlatlarda qo'llaniladi, me'yori qiymat turlicha bo'lishi mumkin. Bank nazorati bo'yicha bazel kumitasi likvidlikni taxlil qilishning quyidagi tamoyillarini taklif etadi. Ularga muvofiq likvidlikning 6 ta anozoviy koeffitsentlari mavjud. Dastlabki ikki koeffitsent Markaziy bank talablari bajarilishini nazorat qilish uchun kolgan 4 tasi likvidlik bilan bog'liq axvolning yaralishini taxlil etish uchun hisob-kitob qilinadi.

1. Naqd pul zaxiralariga doir talablarga rioya qilish koeffitsenti. Bazi bitimi maxrajda likvidlikning zarur darajasini, sur'atda esa bankning muayyan sanasidagi naqd pul zaxiralarini ko'rsatishni taklif etadi. Agar ushbu koeffitsent birga teng bo'lsa, Markaziy bank talablari kat'iy bajarilayotgan bo'ladi. Agar ko'rsatkich birdan kam bo'lsa, bankda likvidlikning etishmasligi yoki tekari vaziyat bo'ladi.

2. Likvid aktivlarga doir talablarga rioya qilish koeffitsenti. Uning maxrajida likvidlikning talab etiladigan darajasini qo'yish, sur'at esa likvidlik aktivlarning muayyan sanadagi amaliy miqdorini ko'rsatish zarur.

3. Kreditlar-depozitlar. Mazkur koeffitsent likvidlik bilan bog`liq ishlarning ahvolini ko`rsatadi va uning kichik qiymati likvidlik etarli darajada ekanligidan dalolat beradi:

Aylanma mablag`lar-aktivlar;

Aylanma mablag`lar-depozitlar;

Aylanma mablag`lar-depozitlardan qarz mablag`lari.

4. Koeffitsent banking barcha aktivlaridagi likvid aktivlar ulushini ko`rsatadi. Keyingi koeffitsent aylanma mablag`larining depozitlar va qarz mablag`lariga nisbatini ko`rsatadi.

Likvid koeffitsentlari taxlil maqsadiga ko`ra farqlanishi mumkin. Iqtisodiy adabiyotlarda likvidlikning quyidagi umumiy formulasi beriladi:

$$\text{Likvidlik} = \text{Likvid aktivlar} / \text{jalb etilgan aktivlar}$$

Ushbu koeffitsentni muddatlar bo`yicha bo`lib chikish mumkin, masalan, qisqa muddatli likvidlik koeffitsenti (KMK) va o`rta muddatli likvidlik koeffitsenti (UMK)

$$\text{KMK} = \text{kassa nostro hisob varaqlari bo`yicha qoldiqlar (DKMO)} / \text{joriy va jamg`rma hisob varaqlaridan qisqa muddatli depozitlar}$$

$$\text{KF} = (\text{qoplash muddati 1-5 yilgacha bo`lgan qimmatli qog`ozlar va ssudalar}) / (\text{qoplash muddati 1-5 yilgacha bo`lgan depozitlar va zayomlar})$$

O`zbekiston Respublikasi Markaziy Bankingning «Tijorat likvidligini boshqarishga bo`lgan talablari to`g`risidagi» Nizom N421 2 noyabr 1998 yilgi qoidasiga asosan likvidlikni tartibga solish taxlil qilishning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

- Likvidlik koeffitsentlari tizimini to`g`ri hisoblashni tartibga solish;
- Bank likvidligidagi ijobiy va salbiy yo`ralishlarni aniqlash;
- Salbiy yo`ralishlarni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash;
- Bank likvidligining axvoli to`g`risida xulosa chiqarish;
- Bank likvidligini taxlil qilish natijalari asosida bankga tavsiyalar tayyorlash;

Mazko`r qoidaga muvofiq laxzalik, joriy va qisqa muddatli likvidlik ko`rsatkichlari me'yoriy hisoblanadi. Likvidlik bankning majburiyatlarga doir to`lovlarni bajarish talablarini o`z vaqtida va to`liq bajarish layoqati hamda mijozlarning kreditga bo`lgan extiyojini qondirishga tayyorgarligi asosida baholanishi mumkin. Bank likvidligi quyidagilar qoplanishi lozim:

- depozitlarning olinishi;
- aktivlar va majburiyatlarni qoplash muddatlari o`rtasidagi farqlar;
- pul bozorining o`zgarishlari;

-rejalashtirilmagan xarajatlar;

Xar bir aktiv va majburiyat uchun eng kichik muddat belgilanib, shu muddat ichida qoplanishi lozim.

Qisqacha hulosalar

To`lig`icha bank likvidligi deganda likvid aktivlarini sotish, pul mablag`larini Markaziy bankdan sotib olish va aktsiyalar, obligatsiyalar, depozit va omonat sertifikatlari xamda boshqa qarz instrumentlarini emissiyasini amalga oshirish imkoniyatlari nazarda tutiladi.

To`lov kobilyati - bu birmuncha kengrok bo`lib u faqatgina aktivlarni tezda pulga aylantirish imkoniyatlarini emas, balki tijorat banking o`z kreditorlari - omonatchilar, banklar va davlat oldidagi kredit va boshqa pul xarakteridagi operatsiyalaridan kelib chikadigan uz tulov majburiyatlarini o`z vaktida va to`lig`icha bajarish kobilyatini xam o`z ichiga oladi.

Tayanch iboralar:

Likvidlilik, to`lov qobilyati, koeffitsient, kapital etarlilik darajasi, bank balansi likvidligi, risk darajasi, iqtisodiy normativlar.

Nazorat savollari:

1. Tijorat banki balansi likvidlilik va to`lov qobilyati tavsifi va baholash ko`rsatgichlari
2. Tijorat banklari likvidligi va to`lov qobilyatini tartibga solishda xorij tajribasi.
3. O`zbekiston Respublikasi tijorat banklari to`lov qobilyatini boshqarish muammolari
4. Bank faoliyatini tartibga solishning pul-kredit usullarining taxlili<sup>75</sup>
5. Markaziy bank tomonidan tijorat banklari likvidlilik va tulov qobilyatini tartiba solish.
6. Banklarning likvidlilik risklar va ularni boshqarish
7. Tijorat banklarining to`lov qobilyati va likvidlilikini ko`paytirish yo`llari
8. O`zbekiston Respublikasi Tijorat banklarining to`lov qobilyati va likvidlilikini ko`paytirishda xorij tajribasi

Asosiy adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Markziy banking me'yoriy hujjatlari to`plami.T.: 2003.
2. Efimova M.R. Finansovo-ekonomicheskie rascheti. Posobie dlya menedjеров: Ucheb. Pos.-M.: INFRA-M, 2004.-185s.
3. Lavrushin O.I. i dr. «Bankovskoe delo» M. F i S 2003g.
4. Panova L. Likvidnost i platejesposobnost kommercheskix bankov.

---

<sup>75</sup> TDIU va MDH mamlakatlari iqtisodiy mutaxassisliklari bo`yicha bakalavriat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining namunaviy mavzulari. T, 2005 y., 73

M.: F i S. 2002g

5. Sokolov Yu.A., Amasova N.A. Sistema straxovaniya bankovskix riskov. Nauch izd.-M.: OOO izd Elit, 2003. –288s.

6. Suxova L.F. Praktikum po analizu finansovogo sostoyaniya i otsenki kreditosposobnosti banka-zayomhika.-M.: Finansi i statistiqa, 2003-152s.

7. Shapkin A.S. Ekonomicheskie i finansovo`e riski.-Izd. 3-e-M.: Dashkov i K, 2004.-120s.

8. <http://www.bankofengland.co.uk/market/money/index.htm>

9. <http://www.boj.or.jp/en/siryu.htm>

10. [www.federalreserve.gov](http://www.federalreserve.gov)

## XII-BOB. BANK FOYDASI, BANK RENTABELLIGI

### 12.1. Bank foydasi va manbalari

Tijorat banki daromadi manbalari tuzilishi.

Daromad manbai - bizneslarning yigindisidan olinadi<sup>76</sup>: Ssuda biznesi, Diskont - biznesi, saqlash bilan bog'liq biznes. qimmatbaho qogozlar bilan bog'liq biznes. Bank kafolati faoliyati bilan bog'liq biznes jamg'armalar jalb qilish va jamg'armachilik topshirigiga ko'ra bajaradigan operatsiyalari

- mukofot
- raqam berish;
- raqamni yuritish.
- katiy mukofot (pulda);
- muomaladan mukofot (foyda);
- raqamdan kuchirma berish;
- raqamni ochish;
- raqamdan vaqt pul berish (hisob-kitob xarakteri asosida).

Korrespondent munosabatlardan keladigan daromad.

Bankning noan'anaviy xizmatlaridan keladigan daromadlar - lizing, axborot, maslaxat, klientlar, o'qitish va boshqalar. Lizing to'lovlari, foiz to'lovlari, mukofot xizmat uchun.

Balans qiymatining bozor bahosini ochishi natijasida olinadigan daromad.

Shunday qilib bank daromadi bo'linadi.

Foizli daromad

Mukofot shaklidagi daromad.

boshqa daromad (olib sotarlik xizmati) qimmatbaho qogozlar qayta baholash, jarima olish diskont daromadi.

Foiz daromadi mukofot bilan qo'shib ketishi mumkin. Kredit to'lovi va mukofot obligatsiyani tarqatish va maslaxat xizmatlari uchun mukofot. Maslahatga olinadigan daromad kelishuv bajarilgandan so'ng olinadi.

Ssuda foizi - qiymatni vaqtinchalik berish asosida olinadigan baho. Barcha turdagi ssudalar, veksellarni hisobga olish, oddiy va murakkab foizlar.

Komissiya - bankovskie operatsiya bo'yicha mukofot komissiya - topshiriq - lotincha. Kerakli foyda va xizmatlar tannarxidan foyda olish.

Daromadlar

Kreditni berishdan olinadigan foiz.

qimmatbaho qogozlar bilan operatsiyalardan olinadigan

Chet el valyutasi va boshqa valyuta qiymatliklari daromadi.

Olingan dividendlar.

Banklarga tashkilotlaridan olinadigan daromad.

Jarima, neustoykalar

---

<sup>76</sup> Jarkovskiy S. «Bankovskoe delo» kurs lektsiy. M.: «F i S». 2004 g

Boshqa daromad.

## 12.2. Tijorat banklari xarajatlari taxlili<sup>77</sup>

Tijorat banki xarajatlari va ularni tuzilishi.  
xarajat turiga qarab olti guruhga bo`linadi:  
operatsion.

bank faoliyatini ta'minlash

bank personaliga to`lash.

solliq to`lash

maxsus rezervlar

boshqalar.

Operatsion xarajat

Depozit va kredit operatsiyalariga, qimmatli qog`ozlarga foiz to`lash.

qimmatli qogozlarga bog`liq operatsiyalarga, chet el valyutasiga kassa hisob operatsiyalariga, inkossatsiyaga qilingan xarajat.

boshqa operatsion xarajat veksellar bo`yicha diskont xarajat, qimmatli qogozlar baholashdagi salbiy qoldiq, chet el valyutasidagi raqamlarning salbiy qoldig`i, qimmatli qog`ozlarga qimmatbaho qog`ozlarga xarajatlar.

Operatsion xarajat - bank operatsiyalari bilan to`g`ridan to`g`ri bog`liq bo`lgan xarajat.

Bank faoliyatini ta'minlash bilan bog`liq xarajat - ammortizatsiya (asosiy vositalar va moddiy aktivlar), ijara, uskunalar remonti, kontselyariya, avtotransport, maxsus kiyim, bino eksperti.

Bank personalini boshqarish - oylik, mukofot va boshqalar.

Solliq - mulk soligi, er, avtotransport, yo`l va boshqa solliqlar - bank operatsiyalari tannarxiga quyiladigan solliqlar.

Zararlarni qoplash, qimmatbaho qogozlarni qoplash, aktiv operatsiyalar va debitor qarzlarni qoplash.

Boshqa xarajatlar - kadrlar tayyorlash, kompensatsiya, auditor, sud, publikatsiya hisobot bilan bog`liq xarajatlar.

## 12.3. Bank foydasini boshqarish xususiyatlari<sup>78</sup>

Foyda va zararlar hisobi

Olingan foiz va shunga o`qshash daromadlar.

Kredit depozitlarini joylashtirish (raqamlar va boshqa banklar).

Boshqa mijozlarga berilgan kreditlar.

Mijozlardan asosiy vasitalarni ijaraga berish, kelgusida sotib olish huquqi bilan.

---

<sup>77</sup> TDIU va MDH mamlakatlari iqtisodiy mutaxassisliklari bo`yicha bakalavriat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining namunaviy mavzulari. T, 2005 y., 76

<sup>78</sup> O`sha yerga qaralsin

qat'iy belgilangan daromadli qog'ozlar.  
Boshqa manbalar  
Jami foyda  
To'langan foizlar.  
Jalb qilingan mablag'lar, zaym va depozitlar.  
Mijozlardan jalb qilingan mablag'lar, zaym va depozitlar  
Chiqarilgan qimmatbaho qogozlar.  
Boshqa operatsiyalar.  
Jami to'langan foizlar.  
Sof foyda (bank.daromadi).  
Mukofot daromadi.  
Mukofot xarajat.  
Sof mukofot daromad.  
Boshqa operatsion daromad.  
Chet el valyutasi, boshqa valyuta qimmatliklari ko'rs farqidan olingan daromadlar.  
qimmatbaho toshlar, metallar, qayta baholash, qimmatbaho qogozlarni qayta baholashdagi ijobiy koldik.  
Divident ko'rinishidagi daromad.  
Jami baho joriy daromad.  
Jami operatsion daromad (str 17-str18-str19-str 20)  
Joriy daromad (str 12-str 15-str 21)  
Mehnat haqi to'lovlari  
Ekspuluatatsiya xarajatlari  
Xorijiy valyuta va boshqa valyuta qiymatliklari bilan kilinadigan operatsiyalarning kurs farqlari  
qimmatbaho metallar va kog'ozlarni sotish natijasida paydo bo'ladigan salbiy qoldiq

#### Qisqacha hulosalar

Daromad manbai - bizneslarning yigindisidan olinadi<sup>79</sup>:Ssuda biznesi, Diskont - biznesi, saqlash bilan bog'liq biznes. qimmatbaho qogozlar bilan bog'liq biznes. Bank kafolati faoliyati bilan bog'liq biznes jamg'armalar jalb qilish va jamg'armachilik topshirigiga ko'ra bajaradigan operatsiyalari. Operatsion xarajat - bank operatsiyalari bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'lgan xarajat.

#### Tayanch iboralar:

Daromad, xarajat, operatsion daromad va operatsion xarajat, foiz daromadi, foiz xarajatlari, mukofot, rentabellik, foyda ko'rsatgichlari, bank biznesi, vositachilik-debet oboroti va kredit qoldig'i.

#### Nazorat savollari:

## 2. Tijorat banklari foydasi manbalari

<sup>79</sup> Jarkovskiy S. «Bankovskoe delo» kurs lektsiy. M.: «F i S». 2004 g



3. Bank xarajatlari tuzilishi
4. Bank rentabelligini boshqarish yo`llari.
5. Banklarning foydalilik va rentabellik tushunchalari.
6. Bank foydasining asosiy manbalari.
7. Tijorat banki foydasi boshqarish<sup>80</sup>.
8. Banklarning xisob kitob operatsiyalari hisobiga foyda olish.
9. Tijorat banklari foydaliligi va rentabelligini boshqarish
10. sharoitida bank balansi rentabelligi ko`rsatgichlari
11. O`zbekiston Respublikasi Tijorat banklarining foydasi va rentabelligini oshirishda xorij tajribasi

#### Asosiy adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari to`plami. T.: 2003.
2. Efimova M.R. Finansovo-ekonomicheskie rascheti. Posobie dlya menedjerov: Ucheb. Pos.-M.: INFRA-M, 2004.-185s.
3. Lavrushin O.I. i dr. «Bankovskoe delo» M. F i S 2003g.
4. Panova L. Likvidnost i platejesposobnost kommercheskix bankov. M.: F i S. 2002g
5. Sokolov Yu.A., Amasova N.A. Sistema straxovaniya bankovskix riskov. Nauch izd.-M.: OOO izd Elit, 2003. –288s.
6. Suxova L.F. Praktikum po analizu finansovogo sostoyaniya i otsenki kreditosposobnosti banka-zayomhika.-M.: Finansi i statistika, 2003-152s.
7. Shapkin A.S. Ekonomicheskie i finansovo`e riski.-Izd. 3-e-M.: Dashkov i K, 2004.-120s.
8. <http://www.bankofengland.co.uk/market/money/index.htm>
9. <http://www.boj.or.jp./en/siryu.htm>
10. [www.federalreserve.gov](http://www.federalreserve.gov)

---

<sup>80</sup> TDIU va MDH mamlakatlari iqtisodiy mutaxassisliklari bo`yicha bakalavriat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining namunaviy mavzulari. T, 2005 y., 76

## ADABIYOTLAR RO`YXATI.

1. Karimov I.A. O`zbekiston XXI-asr busagasida xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari g.Toshkent «O`zbekiston» 1997 y.
2. O`zbekiston Respublikasining «Markaziy banki to`g`risida» qonun. «Halq so`zi» gazetasi 1996 y.13 yanvar.
3. O`zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to`g`risida» qonuni. 1996 y.25 aprel.
4. O`zbekiston Respublikasi Markziy bankining me'yoriy hujjatlari to`plami.T.: 2003.
5. O`zbekiston Respublikasi banklari o`g`risida elektron to`lovlar tizimi bo`yicha hisob-kitoblar yuritish to`g`risida Nizom (yangi tahrir) 2004 y. 2 may.
6. O`zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to`g`risida Nizomga o`zgartirish va qo`shimchalar. 2004 y. 23 iyun.
7. Kredit axboroti milliy institutining ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda banklararo kredit byurosiga va tijorat banklariga kredit axbortlarni taqdim etish tartibi to`g`risida Nizom. 2004 y. 21 may.
8. Fermer xo`jaliklarining davlat extiyojlari uchun xarid kilinadigan paxta va g`alla etishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to`g`risida Nizom. 2004 y. 16 yanvar.
9. O`zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining «Pul mablag`larini bankdan tashqari muomalasini yanada qisqartirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi qonuni. № 280. 2002 y. 5 avgust.
10. O`zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to`g`risida»gi qonuni. 2002 y. 4 aprel.
11. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mhkamasining «Pul-kredit ko`rsatkichlarni tartibga solish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi qarori. 2003 y. 4 fevral.
12. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «Bozor islohatlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo`nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to`g`risida» Toshkent. 14.06.2005 yil.
13. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «Tadbirkorlik sub'ektlarini xuquqiy ximoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida» Toshkent. 14.06.2005 yil.
14. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. «Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to`g`risida» Toshkent. 15.06.2005 yil.
15. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag`batlantirish borasidagi chora-tadbirlari to`g`risida» Toshkent. 20.06.2005

16. O`zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish yillarida. 4-qism. Moliya va bank tizimidagi isloxohtlar samarasi. A. Bekmuradov, R. Tojiev, X.Qurbonov, M. Alimardonov. T.: TDIU - 2005y., 62 b.
17. Abdullaev Yo, Abdullaeva Sh. «Bank ishi», Toshkent 2003y.
18. Abdullaev Yo, Boboqo`lov T. «Kredit» g. Toshkent 1996y.
19. Abduganiev B.A. "Moliyaviy manbalar va bank kreditlarining samaradorligi muammolari", Avtoreferat, Tosh.;-2003 yil
20. Babicheva Yu.A. «Denejno-kreditnoe regulirovanie kapitalisticheskoy ekonomiki» Moskva «F i S», 1991y.
21. Babicheva Yu.A. i dr. «Bankovskoe delo» Moskva «Ekonomika» 1994y.
22. Bank axborotnomasi, gazetasi 2003 yil №1-52, 2004 yil №1-45
23. Berjanov S.A. «Valyutnaya sitema, valyutniy rinok i valyutnie operatsii» g. Nukus «Karakalpakstan» 1996y.
24. «Bozor, pul va kredit jurnali №1-12 2003. №1-10, 2004 yil.
25. Don Patinkin. Dengi, protsent i seni.-M.: Ekonomika, 2004.-375s.
26. Dolon E.D. i dr. «Dengi, bankovskoe delo i denejno-kreditnaya politika» 1992y.
27. Jarkovskiy S. «Bankovskoe delo» kirs lektsiy. M.: «F i S». 2004 g.
28. Efimova M.R. Finansovo-ekonomicheskie rascheti. Posobie dlya menedjerov: Ucheb. Pos.-M.: INFRA-M, 2004.-185s.
29. Kovalev V.V. "Finansovuy analiz", M.; 1996, 341 str
30. Kolesnikov V.I. i dr. «Bankovskoe delo» M. F i S 1996y.
31. Lavrushin O.I. i dr. «Bankovskoe delo» M. F i S 1998g.
32. Lavrushin O.I. i dr. «Bankovskoe delo» M. F i S 2003g.
33. Lishanskiy M.L., Maslova I.B., "Kratkosrochnaya kreditovanie seluskoxozyaystvennux predpriyatiy", "Yuniti", M.: 2000g.
34. Mullajonov F.M. «O`zbekiston Respublikasi bank tizimi», T.: O`zbekiston. 2001.
35. Noskova I.Ya. «Mejdunarodnie valyutno-kreditnie otnosheniya. Uchebnoe posobie banki i birji» YuNITI 1995y.
36. Panova L. Likvidnost i platejesposobnost kommercheskix bankov. M.: F i S. 2002g
37. Pisqulov D.Yu. Teoriya i praktika valyutnogo dilinga.-M.: ZAO Finansist, diagramma, 2002.-325s.
38. Pugachev F.N. Valyutnie rascheti vo vneshney trgovle Rossiyskoy Federatsii: Ucheb pos.-M.: MGIMO, 2004.-179s.
39. Rid E. I dr. Komercheskie banki. M.: Progress 1994g.
40. Sbornik zadach po bankovskomu delu: Ucheb posobie. Pod red. A.I. Valentsovoy. –M.: Finansi i statistiqa, 2002.-624s.
41. Sviridov O.Yu. Dengi, kredit. Banki.- M.: IKTs Mart Rostov R.D., Izd. tsentr Mart, 2004.- 288s.

42. Sokolov Yu.A., Amasova N.A. Sistema straxovaniya bankovskix riskov. Nauch izd.-M.: OOO izd Elit, 2003. –288s.
43. Suxova L.F. Praktikum po analizu finansovogo sostoyaniya i otsenki kreditosposobnosti banka-zayomhika.-M.: Finansi i statistika, 2003-152s.
44. Tojiev R., Jumaev N. Markaziy banking monetar siyosati. T.: TDIU nashriyoti. 2002.-107 b.
45. Urazqo`lov I.A. Iqtisod magistri darajasini olish uchun dissertatsiya. BMA. T.:2004 y
46. Finansi.Pod red. G.B. Polyaka.-M.: YuNITI-DANA, 2004.-607s.
47. Fridmen M. Osnovi moetarizma.M.: TEIS. 2002.-175 s.
48. Shapkin A.S. Ekonomicheskie i finansovie riski.-Izd. 3-e-M.: Dashkov i K, 2004.-120s.
49. Internetdan olingan saytlar
50. [www.thebanker.com](http://www.thebanker.com)
51. [www.forex.com](http://www.forex.com)
52. [www.Rambler.ru](http://www.Rambler.ru)
53. [www.bankinfo.uz](http://www.bankinfo.uz)
54. [www.uzland.uz](http://www.uzland.uz)
55. [www.Google.ru](http://www.Google.ru)
56. [www.cer.uz](http://www.cer.uz)
57. [www.interunion.ru](http://www.interunion.ru)
58. [www.Yandex.ru](http://www.Yandex.ru)
59. <http://www.bankofendland.co.uk/market/money/index.htm>
60. <http://www.bankofendland.co.uk/coreuproses.htm>
61. [www.Referat.ru](http://www.Referat.ru)
62. <http://www.boj.or.jp./en/siryo.htm>
63. [www.federalreserve.gov](http://www.federalreserve.gov)

## IZOHLI LUG`AT

1. Kredit-o`z egalari qo`lida vaqtincha bo`sh turgan pul mablag`larini boshqalar tomonidan ma'lum muddatga xaq to`lash sharti bilan olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan munosabatdir.

2. Kredit tamoyillari- tovar va pul ko`rinishidagi mablag`larni:

qaytarib berishlik,

muddatlilik

foiz to`lash shartlari asosida berish natijasidir.

3. Kredit- o`zga mulki bo`lgan pulni qarzga olib ishlatish borasidagi munosabatdir.

4. Moliya-barcha xo`jalik sub'ektlarining o`ziga tegishli pul mablag`lari xususidagi aloqadir.

5. Kredit sub'ektlari-korxonalar, firma, tashkilot, davlat va turli toifadagi aholidir.

6. Kredit ob'ekti- vaqtincha bo`sh turgan, berilishi mumkin bo`lgan pullar va tovarlardir.

7. Kredit vazifalari

pulga tenglashtirilgan to`lov vositalarini (veksel, chek, sertifikat) yuzaga chiqarib, ularni xo`jalik oborotiga jalb qilishdir

bo`sh turgan pul mablag`larini xarakatdagi, ishdagi kapitalga aylantirib, pulni pul topadi, degan qoidani amalga oshirishdir.

qarz berish orqali pul mablag`larini turli tarmoqlar o`rtasida qayta taqsimlash bilan ishlab chiqarish resurslarining ko`chib turishini ta'minlashdir

qarz berish, qarzni undirish vositalari orqali iqtisodiy o`sishni rag`batlantirishdir.

8. Tijorat krediti-sotuvchilarning xaridorlarga tovar shaklida beradigan kreditidir.

9. Bank krediti-banklar pulni uning sohiblariga foiz to`lash sharti bilan o`z qo`lida jamlaydilar va o`z nomidan qarzga berib, foiz olishdir.

10. Iste'mol krediti-tijorat banklari iste'molchilarga tovar sotib olish uchun bergan qarzidir.

11. Davlat krediti- banklar davlatdan qarz olishidir.

12. halqaro kredit-bu ssuda kapitalining xalqaro miqyosdagi harakati bo`lib, bu xarakat tovar va valyuta ko`rinishidagi mablag`larni qaytarib berishlik, muddatlilik va xaq to`lashlik asosida berish bilan bog`liqdir.

13. Ssuda-qarzga beriladigan pul ssuda deyiladi.

14. Ssuda kapitali-qarzga berilgan pul ishga solinib, yangidan pul topish, daromad olish uchun ishlatilishidir.

15. Kreditni qayta taqsimlash-jamiyatdagi vaqtinchalik bo`sh pul mablag`larini bu pullarga extiyojmand bo`lgan sub'ektlar o`rtasida qayta taqsimlashdir.

16. Kredit turlari

qisqa muddatli kreditlar (muddati bir yilgacha bo`lgan kreditlar)

uzoq muddatli kreditlar (muddati bir yildan ortiq bo`lgan kreditlar) dir.

17. Kreditlash chegarasi-kredit munosabatlarining sub'ektlariga yoki ssudalarning turlariga nisbatan aniq ko`rsatkichlar shaklida belgilab qo`yiladigan kreditdan foydalanishning qat'iy chegarasi kreditlash chegarasidir.

18. Kreditning chegaralari-kreditning boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqli tomonlarini, ayni vaqtda, o`sha kategoriyalar bilan o`zaro aloqalarini mujassamlashtiruvchi tushunchadir.

19. Kreditlashtirish-kredit resurslari hisobidan tadbirlarni amalga oshirish darajasidir.

20. Lizing-bu zavodlarni, sanoat tovarlarini, uskunalarni, qo`zg`almas mulklarni mulk egasi tomonidan ularni ishlab chiqarish maqsadlarida ishlatish uchun ijaraga berish to`g`risidagi shartnomadir.

21. Lizing turlari

operativ lizing

moliyaviy lizing

22. Forfeyting-ma'lum xuquqlarga yon berishdir.

23. Kontokorrent krediti-bankning mijozi bo`lgan korxonalar ko`p sonli korxonalar bilan ikki tomonlama aloqada bo`lgan hollarda qo`llashdir.

24. Hisobli kredit-vekselni tijorat bankiga sotish yo`li bilan olinadigan kreditdir.

25. Lombard krediti- qisqa muddatli, miqdori qat'iy belgilangan ssuda bo`lib, oson sotiladigan qo`zg`aluvchi mulkdir.

26. Aktseptli kredit –bunda bank, unga mijoz tomonidan qo`yilgan o`tkaziluvchan vekselni ma'lum shart bilan aktseptlashdir.

27. Rambursli kredit-akkreditivni aktseptli kredit bilan uyg`unlashuvidir.

28. Bank aktsepti- imporyor banki tomonidan uning vekselini aktseptlanishidir.

29. Evrokreditlar-evrovalyutalarda beriladigan kreditlardir.

30. Evrovalyuta- o`sha valyutani mamlakat tashqarisidagi barcha yig`indisidir.

31. Kredit mexanizmi- xo`jalik mexanizmining tarkibiy qismi bo`lib, kreditlash shartlarini usullari va kreditni boshqarishdir.

32. Kreditga layoqatlilik-korxonaning bankdan so`ragan ssudani u o`z vaqtida va tuliq qaytara olish imkoniyatidir.

33. Kredit siyosati-bankning kredit resurslarini joylashtirish sohasidagi qarorlarni qabo`l qilishga imkon beruvchi qoidalar va cheklanishlar majmuidir.

34. Foiz stavkasi-qarzdor kishining olgan qarzi uchun pul egasiga to`laydigan to`lovidir.

35. Marja- savdo, birja, sug`o`rta va bank amaliyotida tovarlar narxi, valyuta va qimmatbaho qog`ozlar ko`rsi, foiz stavkalari va boshqa ko`rsatkichlar farqini ifodalash uchun ishlatiladigan atamadir.

36. Kredit ekspansiyasi-mamlakatning ssuda kapitallari bozorida foiz stavkalarining pasayishi natijasida kredit oluvchilarning ko`payishi va buning oqibatida, kredit qo`yilmalari hajmining keskin ko`payishidir.

37. Remoliyalashtirish siyosati- markaziy bank tomonidan tijorat banklari ixtiyoridagi tijorat veksellarni hamda qimmatbaho qog`ozlarni garovga olish va shu yo`l bilan kredit berishdir.

38. Kredit resurslarining auktsioni-kredit resurslarini erkin, ochiq tarzda auktsion orqali sotishdir.

39. Majburiy zaxiralar siyosati-tijorat banklari jalb qilgan mablag`laridan ma'lum bir qismini Markaziy bankning zaxira fondiga o`tkazilishidir.

40. Libor- Londondagi jahon ssuda kapitallari bozorida etakchi erkin almashinadigan valyutalar-AQSh dollari, Germaniya markasi, Yaponiya ienasi, Buyuk britaniya funt sterlingi kabi valyutalardagi depozitlarga to`lanadigan foiz stavkasidir.

41. Foiz xavf xatari- foiz stavkalarining darajasi va xarakatining o`zgarishi natijasida zarar ko`rish xavfidir.

42. Foiz xavf xatarini boshqarish usullari

aktivlarni boshqarish

passivlarni boshqarish

foiz marjasini boshqarish

«pep» ni boshqarishdir.

Substandart kreditlar-2 to`lov davrida foiz yig`indisi to`lanmagan kreditlardir.

Shubhali kreditlar- 3 to`lov davrida foiz yig`indisi to`lanmagan va 1 marta asosiy qarz yig`indisi to`lanmagan kreditlardir.

Muammoli ssudalar- qaytarilish muddati kelgan, lekin bank mijozining to`lovga noqobilligi tufayli to`lanmayotgan ssudalardir.